

LAZIZ TO'RAYEV

**MADANIYAT FALSAFASI
VA AKSIOLOGIYA**

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

TO'RAYEV LAZIZ

MADANIYAT FALSAFASI VA AKSIOLOGIYA

*60220500 - Sharq falsafasi va madaniyati bakalavriat ta'lif
yo'nalishida
ta'lif olayotgan 2-bosqich talabalari uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent – 2024

Madaniyat falsafasi va aksilogiya: O'quv qo'llanma. TDSHU, 2024. – 255 b.

O‘quv qo‘llanma oliy ta’lim davlat standartlari asosida fanning o‘quv dasturiga muvofiq Falsafa (Sharq falsafasi va madaniyati) bakalavriat ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan 2-bosqich talabalari uchun tayyorlangan. Shuningdek, o‘quv qo‘llanmadan barcha ta’lim yo‘nalishlari talabalari hamda Madaniyat falsafasi va aksiologiya fanini mustaqil o‘rganish istagida bo‘lgan kitobxonlar ham foydalanishlari mumkin.

Mazkur qo‘llanmada “Madaniyat falsafasi va aksiologiya” fanidan mavzularga oid asosiy savollar, tayanch tushunchalar, tushunchalarni aks ettiruvchi nazariy matn, konsultativ materiallar, mavzularni mustaqil o‘zlashtirish uchun savollar, mashqlar, glossariy, shuningdek, asosiy hamda qo‘srimcha adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

O‘quv qo‘llanma “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq holda Madaniyat falsafasi va aksiologiya fanini bosqichma-bosqich o‘qitishning yagona tizimini yaratish jarayonida yoshlarning qadriyatlar va madaniyat falsafasiga oid bilimlarini rivojlantirish maqsadida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Sharq falsafasi va germenevtikasi kafedrasida yaratilgan.

Taqrizchilar:

falsafa fanlari nomzodi, professor.	D. Po‘latova
falsafa fanlari nomzodi, professor.	M. Qodirov

O‘quv qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘quv-uslubiy Kengashining 2024-yil 7-dekabrdagi 4-son majlisida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan.

KIRISH

Madaniyat va qadriyat tushunchalari murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida ijtimoiy-gumanitar fanlar tomonidan atroflicha o‘rganiladi. Masalan, “Falsafa” fani madaniyatni falsafiy tushuntirish, uni alohida ijtimoiy fenomen sifatida o‘rganish, talqin etish va tahlil qilish orqali o‘rganadigan bo‘lsa, boshqa fanlar ham o‘z ob’ekti va predmetidan kelib chiqqan holda o‘rganadi. Madaniyatni ijtimoiy hodisa sifatida tushunish, uning har qanday tarixiy davrda aniq bir mazmunga ega bo‘lishi va o‘zgaruvchan xarakterini to‘g‘ri tushunish va uni baholash imkonini beradi. Qolaversa, madaniyatga falsafiy yondashuv insonning tabiatni, jamiyatni va o‘zini anglash va o‘zgartirish yo‘lidagi faoliyati hamda jamiyat va shaxsning umumiy, yaxlit va har tomonlama rivojlanishining me’yori sifatida tavsiflashga ham yo‘l ochib beradi.

Madaniyat jamiyatdagi qadriyat va an’analarni qaror topdirishda, xususan, o‘sib kelayotgan kelajak avlodning ma’naviy, intellektual salohiyati, ularning tafakkuri va dunyoqarashini yanada yuksaltirishga, ularning qalbida yurtga muhabbat, Vatanga sadoqat, kattalarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Madaniyat shaxsning tarbiyasi va kamoloti bilan bog‘liq masalalarni tizimli tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu madaniyatning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni haqidagi nazariy bilimlarni shakllantirish, mavjud muammolarni aniqlash, ularni falsafiy tahlil qilishga yordam beradi.

Madaniyatda milliylik, umuminsoniylik, vorislik va yangilanish dialektikasi, madaniy qadriyatlarni tarqatish tizimi, madaniy taraqqiyot istiqboli tahlili kabilar ham madaniyat rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘la tasavvur hosil qilishga ko‘maklashadi.

Har qanday fanni ilmiy bilimlarning maxsus sohasi sifatida qarash, ana shu fanga tegishli mavzular, vazifalar, tushunchalar, qonun-qoidalar, kategoriylar borligini ham e’tirof etishni zaruriy shartga aylantiradi.

Aksiologiya atamasi dastlab 1902-yilda fransuz sotsiologiya maktabining vakili Pol Lapi tomonidan kiritilgan. Aksiologiya 1904-yilda nemis faylasufi Eduard fon Gartman tomonidan birinchi marta falsafaning bir sohasini-tarmog‘ini belgilash uchun ishlataliganchi.

Aksiologiya — qadriyatlar nazariyasi, falsafaning bir tarmog‘i hisoblanadi. Aksiologiya qadriyatlarning tabiat, ularning haqiqatdagi o‘rni, qadriyatlar dunyosining tuzilishi, turli qadriyatlarning o‘zaro, ijtimoiy, madaniy omillar va shaxs tuzilishi bilan bog‘liqligini o‘rganadigan fandir.

Aksiologiyada eng asosiy tushuncha bu qadriyatlar bo‘lib, qadriyatlar katta mafkuraviy ahamiyatga ega, u odamlarni birlashtirish va jamiyatga aralashuvidan eng muhim omili hisoblanadi.

Qadriyatshunoslik aksiologik ong, qadrlash tuyg‘usi, aksiologik bilish, qadriyatl yondashuv va boshqalar asosida to‘plangan qadriyatlar to‘g‘risidagi bilimlar tizimidir. To‘g‘ri, mazkur bilimlar hozirgacha bizning mamlakatimizda, muayyan fan darajasiga yetgan ilmiy tizim sifatida, yaxlit-yagona holatda bayon qilinmagan, ular asosida maxsus qo‘llanma yoki darsliklar deyarli chop etilmagan. Faqatgina, professor Q.Nazarovning “Aksiologiya” (1998) va “Qadriyatlar falsafasi” (2011) kitoblari nashr qilinganligini e’tirof etish kerak. Ammo, qo‘llanmalarning mavjud emasligi masalaning mohiyatini o‘zgartirmaydi. Qolaversa, “Madaniyatshunoslik”, “Siyosatshunoslik” kabi bilim sohalarining maxsus fanlar sifatida e’tirof etilganiga va ularning mamlakatimizdagagi ijtimoiy fanlar tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lganiga ham ko‘p bo‘lmadi. Aksiologiya iborasi hozir ko‘pchilikka tanish bo‘lib qoldi, bu sohadagi bilimlar besh-olti yil ilgarigiga qaraganda ancha ko‘paydi.

Aksiologiyani falsafaning bir bo‘lagi ekanligini inobatga olgan holda shuni ta’kidlash kerakki, u inson ongi bilan bog‘liq tushuncha. Inson uchun qadriyat turli davrlarda va zamonlarda turlicha bo‘lgan. Zero, har bir asrning, davrning, zamonning o‘ziga xos, asosiy qadriyatlari bo‘lgan. Barchaga ham mos keladigan yagona qadriyat yo‘q. Urush kechayotgan davrda eng qadrli tushuncha tinchlik, inson betobligi paytda sog‘lik va salomatlik qadrli, asirlikda erkinlik qadrli hisoblanadi va unga bo‘lgan intilish o‘sha paytning o‘zida kuchayadi. Shuning uchun ham zaruratga ko‘ra ba’zida u, ba’zida bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng avvalgi va yuqori pog‘onasiga chiqadi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmaning maqsadi – talabalarni qadriyatlar falsafasi nazariyasining asosiy tushunchalari va uning asosiy muammolari

bilan tanishtirish, shuningdek, aksiologyyaning eng muhim belgilari, qadriyatlarning tabiatи va mohiyati, qadriyatlar ierarxiyasi, qadriyatlar tasnifi, qadriyatlarni boshqarish va turli sohalardagi qadriyatlarning ahamiyati haqida so‘z yuritishdan iborat.

1 – mavzu. “MADANIYAT FALSAFASI VA AKSIOLOGIYA”

FANINING PREDMETI, MAZMUNI, MAQSADI VA VAZIFALARINI

Reja:

1. “Madaniyat falsafasi va aksiologiya” fanining predmeti va o‘rganish ob’ekti.
2. “Madaniyat falsafasi va aksiologiya” fanining funksiyalari.
3. Qadriyat kategoriyasi, mazmun — mohiyati.

Tayanch so‘z va iboralar:

Aksiologiya, madaniyat, “Madaniyat falsafasi va aksiologiya” predmeti va ob’ekti, qadriyat, milliy qadriyatlar, ma’naviy kamolot, milliy tuyg‘u, milliy madaniyat, til, urf-odat, udum va an’analar.

1. “*Madaniyat falsafasi va aksiologiya*“ fanining predmeti va o‘rganish ob’ekti.

Uzoq o‘tmishdan Turon, Turkiston zamini o‘zining ko‘hna tarixi, boy ma’naviy merosi, turfa xil va yuksak madaniyati, urf-odat va qadriyatlari bilan ajralib turgan. Bu xalqning buyuk allomalari jahon ilm-fani va madaniyatining barcha sohalari taraqqiyotiga munosib ulush qo‘shib kelganlar.

Ulug‘ ajdodlarimiz buyuk mutafakkir, algebra fanining asoschisi al-Xorazmiy, ikkinchi muallim, Sharq Aristoteli deb tan olingan Abu Nasr al-Farobi, ulug‘ hakim Shayx ur-rais Abu Ali Ibn Sino, qomusiy olim Abu Rayhon al-Beruniy, Xorazm faxri Mahmud az-Zamaxshariy, astronomiya fanining yetuk yulduzi Mirzo Ulug‘bek, o‘zbek adabiy tilining asoschisi, daxo shoir Alisher Navoiy, shuningdek, benazir muhaddis Ismoil Buxoriy, tasavvuf ilmining buyuk allomalari Ahmad Yassaviy, Abduholiq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Muhammad G‘azzoliy, Bahovuddin Naqshband kabi allomalarining nomlari jahon xalqlari olimlari tomonidan hanuz hurmat bilan esga olinadi va e’tirof etiladi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari va donishmandlari tomonidan yaratilgan ilm-fan va madaniyatning barcha sohalariga oid nodir asarlari, ularning qo‘yozmalari, asarlarda berilgan jamiyatdagi muhim

masalalarga bag‘ishlangan qimmatbaho fikr-mulohazalar, pand-nasihatlar, o‘gitlar, ibratli so‘zlar hozirgi kunda ham jahon xalqlari ma’naviy-ma’rifiy dunyosini boyitib, insonlar ma’naviy kamolotini oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti davrida moddiy va ma’naviy madaniyat bir tekisda rivojlangan emas. Unda biz uyg‘onish, yuksalish bilan bir qatorda depsinish, to‘xtab qolish holatlarini ham kuzatishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlari o‘tgan ming yillar mobaynida ahamoniy, yunon-makedon, kidar, xion, eftal, arab, mug‘ul va rus istilochilar tomonidan zabt etilgan. Istilochilar xilma-xil bo‘lsa ham ularning maqsadi o‘xhash, ya’ni ko‘hna madaniyat va ma’naviyatga ega bo‘lgan tub aholini milliy qadriyatlardan begonalashtirish, o‘zligini anglashga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat bo‘lgan edi. Shu bois, bizning hududimizdagi biron bir ko‘hna shaharlar, katta – kichik daryolar, baland – past tog‘lar borki, u bir necha nom bilan atalib kelinadi. Bu istilochilarning manfur siyosati, o‘z xalqining tili va madaniyatini ustun qilib ko‘rsatish, mahalliy xalqning tarixi va ma’naviyatini kamsitib, soxtalashtirib yoki inkor etishning natijasi va oqibati edi. Shu bilan birga, bosib olgan imperiyalarning ayrimlari mafkurasida bag‘rikenglik g‘oyalari ham bo‘lganligini ta’kidlash lozim.

Xalqni o‘z ma’naviyati va madaniyatidan ayro qilib, xotirasiz kishilarga aylantirish so‘ngi qariyb bir yarim asr mobaynida chorizm va bolshevizm mustamlakachilarining bosh siyosati bo‘lib kelganligi hammaga ma’lum. Ayni mana shu siyosat natijasida biz tilimiz, madaniyatimiz, tariximizga beparvolik bilan qaradik, o‘tmishimizni qoralash va kamsitish yo‘lini tutdik, bir necha ming yillik madaniy merosimizni, milliy tariximiz, milliy an’analar, urf-odatlarimizni unuta boshladik. Jahon xalqlari madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan islom ta’limotini ko‘r-ko‘rona inkor etdik. Dindorlar ma’naviy tahqirlandi, ularning huquqlari cheklab qo‘yildi, bayramlar oyoq osti qilindi, tariximiz bir tomonlama va yuzaki o‘rganildi.

Mustaqillik tufayli bu holatlarning barchasiga barham berildi, ma’naviy hayotimizda uyg‘onish ro‘y berdi. Xalqimizning milliy

ongi, milliy g‘ururi, milliy iftixori, ma’naviy dunyosi kundan kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning ma’naviy asosini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda, lekin shuni alohida qayd etish lozimki, milliy o‘z-o‘zini anglash, o‘zbekchilik — millatchilik degan ma’noni bildirmaydi. Milliy uyg‘onish, milliy g‘urur, milliy tuyg‘uning tiklanishi — bu milliy rivojlanish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tabiiy va qonuniy jarayondir.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analalarimiz qayta tiklanib yanada rivojlangandagina jamiyatimizda o‘tkazilayotgan islohatlar samarali amalga osha oladi, chunki ilmli, ziyoli, ma’naviy barkamol, ma’rifatli, ruhan bardam, yangicha tafakkurlash qobiliyatiga ega insongina istiqlol va taraqqiyot yo‘lini sharaf bilan o‘ta oladi. Shunday ekan, xalqimizning madaniy merosi, yuksak ma’naviy qadriyatlarini chuqur va atroflicha tahlil etib, ularni o‘rganib, Respublikamizda yashovchi har bir insonning ongiga singdirib, xususan, yosh avlodni ma’naviy yetuk fidoyi kishilar etib tarbiyalash, bugungi kunning eng dolzarb muammolari va masalalaridan hisoblanadi.

Ajdodlarimizdan bizga qoldirilgan boy ilmiy va ma’naviy merosni asrab, avaylab, uni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan ijodiy boyitib, kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirib, ularning bunyodkorlik faolligini oshirish, kabi vazifalar — mustaqillik poydevorini mustahkamlashning asosiy garovi hisoblanadi.

Hech bir xalq o‘z-o‘zini anglamasdan, tushunmasdan milliy madaniyatini, milliy qadriyatlarini asrab-avaylab saqlamasdan turib, boshqa bir xalqlarning qadriyatlariga hurmat va izzat bilan qaray olmaydi. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarning tiklanishi bu – umuminsoniy qadriyatlar sari rivojlanishning yagona yo‘lidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” nomli asarida mamlakat kelajagi bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni haqida shunday deydi: **“Yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasbhunarlargan, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va**

umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir".¹

Milliy qadriyatlar odatda umuminsoniy qadriyatlar bilan qancha ko‘p uyg‘unlashgan bo‘lsa, ularning taraqqiy etishiga shu qadar keng imkoniyat ochiladi. Mazkur asarda istiqlol tufayli jamiyatimizda milliy qadriyatlarimizning tiklanishi, milliy qadriyatlar tushunchasining ko‘p qirraliligi, milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy psixologiya, milliy tuyg‘u, milliy madaniyat, til, urf-odat, udum va an'analar, ularning inson ma’naviy barkamolligini ta’minlashda, dunyoqarashini shakllantirishda, bunyodkorlik faolligini oshirishdagi o‘rni, shuningdek milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligi, ijtimoiy siyosiy, tabiiy, moddiy qadriyatlar hamda yuksak milliy ma’naviyatimizning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishdagi vositachilik roli kabi dolzarb muammolar falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi.

XIX asrni oxirida, ayniqsa, birinchi jahon urushidan keyin klassik fan va falsafada ishlab chiqilgan inson to‘g‘risidagi tasavvurlar, ta’limotlar jihatidan asossiz ekanligi namoyon bo‘ladi, inson ratsionalistik talqinini inqirozga tushdi. Inson, uning hayotini qadriyati, ob‘ekiv bilim va qadriyat nisbati nihoyasida dolzarb muammoga aylandi. O‘tgan asrning 20-yillaridan boshlab ekzistensializm, falsafiy antropologiya, germenevtika kabi gumanitar bilim yo‘nalishlari rivojlandi. Yangi kantchilar esa qadriyat va uni mohiyati masalasini gumanitar va madaniyatshunos ilmlarni bosh masalasi sifatida o‘rtaga qo‘yishdi.

Gumanitar fanlar muammozi sifatida qadriyatlar nazariyasi va falsafasi XIX asrni oxiri XX asrni boshida shakllandi. Qadriyatlar nazariyasi va falsafasi hayot hamda tarixning ma’nosи, bilishning yo‘nalishi asosi, inson faoliyatining tub maqsadi, uning haqqoniyligi, shaxs va jamiyatning o‘zaro munosabati kabi masalalarni hal qilishga urinish yo‘lida vujudga kelgan holda rivojlandi.

Qadriyatlar haqidagi ta’limot aksiologiya deb nomlanadi. Dastlab, aksiologiyada qadriyat xususida falsafiy g‘oyalar ustuvor bo‘lgan.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. 592-b.

Keyinchalik aksilogik g‘oyalar va tasavvurlar tabiiy va gumanitar fanlar doirasiga kirib borgan.

Aksiologiyani falsafiy qatlamida quyidagi muammolar ko‘rib chiqildi:

Borliqning umumiy strukturasida qadriyatni mavjud bo‘lishi nima-dan kelib chiqadi, qanday imkoniyatga ega?

Qadriyat ma’lum hodisa yoki mohiyat sifatida jamiyatga, madaniyatga nisbatan qanday munosabatda bo‘ladi?

Oxirgi savolga javob berish uchun ijtimoiy gumanitar fanlarni falsafiy va metodologik muammolarini qadriyatli yondashuv nuqtai nazarda turib hal qilishga to‘g‘ri keladi.

Aksiologiya qadriyatlarga, avvalo, umumiy kategoriya sifatida qaraydi. Bunda qadriyatlar reallikni namoyon bo‘lish shakllari, voqelikdagi narsa, hodisa va jarayonlar, olamdagи ro‘y berayotgan o‘zgarishlar insoniyat, jamiyat, odamlar, ularning hayoti, faoliyatining ijtimoiy sub’ektlar uchun ahamiyati va qadrini anglatadigan umumaksilogik kategoriya sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga qadriyatlarning mohiyati, mazmuni, ob’ektiv asoslari, sub’ektiv anglab olinishi, tuzilishi, namoyon bo‘lish shakllari tavsiflanadi. Garchand qadriyatlar kategoriysi ko‘proq umumiyligi anglatsada, unda xususiylik va alohidalik ham namoyon bo‘ladi. Aksiologiya ana shu umumiylig, xususiylik va alohidalikning qadriyatlarda namoyon bo‘lishini bilishning analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraktlilik va konkretlilik usullari asosida o‘rganadi. Shu tariqa umumiy, xususiy hamda alohida qadriyat shakllari tavsiflanadi, ular orasidagi bog‘liqlik, o‘xshashlik va farqlar aniqlanadi. Qadriyat shakllarining namoyon bo‘lishidagi o‘zaro aloqadorlik va dialektik bog‘liqlik, buning ifodasi bo‘lgan qadriyat tizimlarining vujudga kelishi, amal qilinishi, barqaror va betakror holatlari, o‘zgarishlari kabi masalalar ham aksiologiya doirasida o‘rganiladi.

Qadriyatlar sohasidagi o‘zgarishlarning ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning rivojlanish bosqichlari, sivilizatsiyalar hayotining muayyan davrlardagi o‘ziga xos holda namoyon bo‘lishini o‘rganish ham aksiologiyaning asosiy mavzulari qatoriga kiradi. Bunda asosiy e’tibor tarixni aksiologik tushunishga qaratiladi.

Aksiologiya qadriyatlar va qadriyat tizimlarining jamiyat hamda inson hayoti uchun ahamiyatini, ularning ijtimoiy funksiyalarini ham o‘rganadi.

Muayyan qadriyatlarni barqaror qilish butun xalq, millat, davlat yoki qavmlarni bir muddat yoki uzoq vaqtga qadar aniq maqsadlar yo‘lida birlashtiradi, ular faoliyatining yo‘nalishini belgilaydi. Masalan, hozirgi davrda mustaqillik va uni mustahkamlash respublikamiz hukumati, aholisi, undagi millat va ijtimoiy sub’ektlarning faoliyatini belgilab turuvchi asosiy mezondir. Aksiologiya ana shunday jarayonlarni umumiyligi jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini ham o‘rganadi. Bunda qadriyatlarni qayta baholash, qadrlash me’yorlari, qadriyat mo‘ljallari, qadrsizlanish darajalari bilan bog‘liq muammolarni ilmiy o‘rganish nihoyatda katta nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon xaritasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, sobiq SSSRning tarqalib ketishi, unga xos qadriyatlar tizimining o‘tmishga aylanishi, O‘zbekistonning istiqlol yo‘lidan borayotganligi, respublikamizda mustaqillikka asoslanadigan qadriyatlar tizimini shakllantirish imkoniyatlari va ehtiyojlari qadriyatshunoslik borasidagi yangi –yangi izlanishlar uchun asos bo‘lmoqda. Bu jarayonning umumaksiologik qonuniyatlar, mintaqaviy jihatlari va respublikaga xos xususiyatlarini ilmiytahlil qilish muhim aksiologik vazifaga aylanmoqda. O‘zbekistonda azaliy sharqona qadriyatlarni qadrlash, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhini tarbiyalash, milliy qadriyatlarni tiklash, avaylab–asrash, inson qadri, haq–huquqlari va manfaatlarining ustuvorligini ta’minlash borasidagi vazifalar ham muhim masalalar qatoriga kiradi.

Qadriyatlar falsafasi, inson yashashining mazmuni va ma’nosи haqidagi ta’limot bo‘lib, qadr, qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan falsafiy yo‘nalishni anglatadi.

Qadriyatlar nazariyasi XIX asrdan boshlab ishlab chiqildi. Qadriyatlar to‘g‘risidagi nazariya, ta’limotni ifodalaydigan **a k s i o l o g i y a** termini XIX asrning ikkinchi yarimida fransuz faylasufi P.Lappe tomonidan 1902-yili va nemis olimi E.Gartmannlar tomonidan 1904-yili iste’molga kiritilgan. Qadriyatlar to‘g‘risidagi ta’limot **qadriyatshunoslik**, qadriyatlar falsafasi esa **aksiologiya** deb ataladi.

Qadriyatlar falsafasining predmeti—qadriyatlar, ular orasidagi uzviy aloqadorlik, qadriyatlarning jamiyatdagi o‘rni masalalari tashkil etadi. Uning o‘rganish ob’ektlari esa, tabiat, insoniyat va jamiyat.

2. “Madaniyat falsafasi va aksiologiya” fanining funksiyalari.

Aksiologiya qadriyatlarning tabiati, ularning voqelikdagi o‘rni va qadriyatlar dunyosining tuzilishi, ya’ni turli qadriyatlarning o‘zaro, ijtimoiy, madaniy omillar hamda shaxs tuzilishi bilan bog‘liqlikni o‘rganadi.

Falsafaning asosiy aksiologik funksiyasi dunyo atrofdagi narsa, hodisalarini turli qadriyatlar — axloqiy, ijtimoiy, mafkuraviy va boshqalar nuqtai nazaridan baholashdan iborat.

“Madaniyat falsafasi va aksiologiya” fanining bir nechta funksiyalari mavjud. Ular **Madaniy – tarbiyaviy, Kommunikativ, Evristik, Integratsiya va Gumanistik** funksiyalardir. Quyida mazkur funksiyalarning tariflari keltiriladi:

Madaniy – tarbiyaviy funksiyasi – har bir insonning hayotidagi maqsadi va ijtimoiy o‘rnini topishga gumanistik maqsadi va ideallarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatishi doim muhim bo‘lib kelgan bu funksiya ma’lum bir mamlakat va butun davr tarixining o‘tmish, keskin burilish vaqtlarida yanada katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ana shu davrlar tarixiy va hayotiy qadriyatlarga o‘zgacha ma’no kiritishini, ro‘y berayotgan o‘zgarishlarda inson o‘rnini belgilanishini, madaniy va hayotiy qadriyatlarning qayta baholanishini talab qiladi.

Kommunikativ (muloqat, aloqalar o‘rnatuvchi) **funksiyasiga** ko‘ra-qadriyat shakllari (din, axloqiy) milliy, mintiqaviy, umuminsoniy qadriyatlar aloqasini kuchaytiradi.

Evristik (ochaman, kashf etaman) **funksiyasida** insonniyatning hozirgi kuni va kelajagi uchun suv va havodek zarur, dolzarb qadriyatlarni o‘rtaga qo‘yish va targ‘ib etishga intiladi.

Integratsiya funksiyasida ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, umumiyl qadriyatlar asosida dunyo xalqlarini birlashtirishga, o‘zaro yaqinlashishga xizmat qiladi. Adolat, tenglik, gumanizm, inson huquqlari, erkinligi va shu asosida xalqaro hamkorlik qilish-inson manfatlari uchun, jamiyat, madaniyat taraqqiyoti, sivilizatsiya uchun birlamchi, ustuvor

qadriyatlardir. Qadriyatlar falsafasi mana shu qadriyatlarni qaror toptirish uchun xalqaro ahillik, hamjihatlik, turli millatlar, xalqlar, ellatlar, madaniyatlar o‘rtasida muloqatlarni mustahkamlash, jamiyatimizda va butun bashariyatda barqarorlikni, tinchlikni saqlash uchun hayotbaxsh ta’sir ko‘rsatadi. **Gumanistik** (insonparvarlik) **funksiyasi** – inson umri, hayotini oliy qadriyat darajasiga ko‘taradi, dunyoga (tabiatga, borliqqa) qadriyatli yondashuvni shakllantiradi .

3. Qadriyat kategoriyasi, mazmun — mohiyati.

Jamiyat taraqqiyotining ma’lum bosqichlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat turli xil shaklda namoyon bo‘lgan. Xususan, mustaqilligimizning birinchi kunidan boshlab hayotimizning barcha jabhalarida “qadriyatlar”, “milliy tiklanish”, “milliy uyg‘onish”, “milliy ong”, “milliy g‘oya”, “milliy g‘urur”, “milliy iftixor” kabi tushunchalar, so‘z birikmalar tez-tez ifodalanadigan bo‘lib qoldi. Bu bejiz emas, zotan, mustaqillik ayni paytda milliy tiklanish hamdir. Uni esa mazkur tushunchalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Lekin shuni ta’kidlash joizki, qatag‘on siyosati va tuzumi davrida so‘z birikmalarni ishlatish u yoqda tursin, ularni hatto o‘zbek lug‘at boyligidan surib chiqarishga harakat qilingandi. Bunga isbot sifatida 1959-yili Moskvada “Xorijiy va milliy lug‘atlar davlat nashriyoti” tomonidan nashr etilgan, 40 mingdan ortiq so‘zdan iborat “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”ga ham, 1988-yili O‘zSE Bosh nashriyoti tomonidan nashr etilgan “50 ming so‘zlik O‘zbekcha — ruscha lug‘at”ga ham “qadr”, “qadriyat”, “milliy tiklanish”, “milliy ong”, “milliy iftixor” kabi so‘zlar va tushunchalarning kiritilmaganligini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Shuningdek, bu tushuncha va iboralar 1981-yilda Moskvada “Rus tili” nashriyoti tomonidan nashr etilgan, 60 ming so‘zni qamrab olgan ikki jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham uchramaydi. Hatto ba’zi ruscha — o‘zbekcha lug‘atlarda ham “qadriyat” so‘zi qo‘llanilmagan. Jumladan, 1976-yilda “Fan” nashriyotida nashr etilgan “Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug‘ati”da “sennost” so‘zining 4 ta ma’nosini alohida lug‘at maqolasi tarzida berilgani holda ularning birortasida ham “qadriyat” ma’nosida ifodalanmagan.

Lekin lug‘atlarda “millatchi”, “millatchilik” so‘zlari bor. Bu so‘zlarni qanday izohlash mumkin? Fikrimizcha, bunday vaziyat o‘z-o‘zidan yoki tasodifiy paydo bo‘lgani yo‘q. Bu oq va qizil mustamlakachilarining mintaqamiz xalqlarini o‘zlarining ko‘p asrlik tarixi, boy va noyob milliy merosi, qadriyatları, ma’naviyatidan judo qilib, manqurtlarga aylantirib qo‘yishga qaratilgan siyosati natijasidir.

Hukmron siyosat tarafдорлари va ularning maddohлари “milliy istiqlol”, “milliy iftixor”, “milliy g‘urur” kabi atamalarni kishida millatchilik kayfiyatini uyg‘otadigan tushunchalar deb qarar edilar va ularni ifoda etuvchi mahalliy millat vakillari millatchilikda ayblangan hamda tazyiq ostiga olingan. Shu sababdan ham, mazkur tushunchalar ko‘p yillar davomida ijtimoiy-siyosiy hayotimizda ishlatilmay kelindi. Hatto ularni so‘z boyligimizdan chiqarib tashlash xavfi ham paydo bo‘lgan.

Mustaqillik xalqimizga so‘z va fikr erkinligi bilan bir birga ilgari iste’molda bo‘lgan ko‘p milliy tushunchalarni va iboralarni hayotimizga qaytardi. Endilikda “qadriyatlar”, “mustaqillik”, “istiqlol”, “milliy g‘urur va iftixor” kabi tushunchalar o‘zining asl mazmun-mohiyatiga ega bo‘lmoqda.

Ta’kidlash lozimki, mazkur terminlarning hayotimizga kirib kelishi va qisqa vaqt ichida keng ildiz otib ketishida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning xizmatlari katta bo‘lgan. Uning asarlarida, nutqlarida mustaqillik tufayli hayotimizning barcha sohalarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, xususan, milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz, urf-odatlarimiz, an’analarimizning tiklanishi, milliy g‘ururimiz, milliy o‘zligimizni anglashimizning tobora yuksalayotganligi faxr, iftixor bilan e’tirof etib kelinmoqda. I.Karimov asarida shunday yozadi: “Xalqimiz sarchashmalarining ko‘zлari qaytadan ochilganligi, jahon madaniyati yutuqlariga zo‘r hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning madaniy va ma’naviy merosi teranligi va chuqurligi anglab olinganligi, har bir avlodning o‘z o‘tmishiga, oliyjanob milliy va diniy an’analariga hurmat bilan qarash, ularni asrab avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi, ayni chog‘da hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi va ularga oshno bo‘lish zarurligi ravshan anglab yetilganligi mana shularning hammasi

hayotbaxsh bir zamindirki, bizning yangilanish va xalqimizning milliy o‘zligini anglashini oshirish, aholining siyosiy yetukligi va faolligini kuchaytirish borasidagi siyosatimiz mana shu zaminga tayanadi”².

Shunday qilib, mustaqillik milliy ma’naviyatimizning asosini tashkil qiluvchi “qadriyatlar”, “milliy istiqlol”, “milliy iftixor”, “milliy faxr”, “milliy g‘urur”, “milliy ong” kabi atamalarning ijtimoiy-siyosiy va kundalik hayotimizdagi asosiy ahamiyati va o‘rnini qayta tiklab berdi. Bu bizning ma’naviy hayotimizda erishgan natijalarimizdandir.

Xush, qadriyatlar o‘zi nima? Ularning mohiyati, asosiy jihatlari nimadan iborat? Eng avvalo, shuni qayd qilish kerakki, qadriyatlar juda sermazmun va ko‘p qirrali tushunchadir. Shuning uchun ham adabiyotlarda mazkur tushunchaning mohiyatini ifodalashda turlicha yondashuvlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, “Falsafiy ensiklopediya”ning beshinchi jildida qadriyatlarga quyidagi ta’rif berilgan: “Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha. U, birinchidan, biror ob’ektning ijobiy yoki salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ, belgilovchi—bag‘ishlovchi jihatni (sub’ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi. Shunga ko‘ra ob’ektiv (ashyoviy) va sub’ektiv (ong) qadriyatlari o‘zaro bir biridan farqlanadi”³.

Filosofskaya ensiklopediya kitobining 5-jildida yozilishicha, tabiiy boyliklar va tabiat hodisalari (yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan baholanadi) mehnat mahsullarining iste’mol qiymati (umuman foydalilik); ijtimoiy hodisalarda mujassamlashgan ijtimoiy ezgulik va yovuzliklar; hozirgi zamon kishilarining boyligi sifatida namoyon bo‘luvchi moziynning madaniy merosi, ilmiy haqiqatning foydali natijasi yoki nazariy ahamiyati, kishilarining hatti-harakatlarida ifodalanuvchi axloqiy, yaxshilik yohud yomonlik, tabiiy va ijtimoiy ob’ektlarning hamda san’at asarlarining estetik jihatdan tavsiflanishi, sajdagohlar, ziyyaratgohlar, diniy, ibodat buyumlari va boshqalar ashyoviy qadriyatlarga kiradi⁴.

² Karimov I. A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995, 140-b.

³ Философская энциклопедия. Том-5. -М.: Наука, 1970, с-462.

⁴ Manba o‘sha yerda.

Ong qadriyatlariga normativ tasavvurlar (yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm, go‘zallik va xunuklik haqidagi, tarixning ma’nosи va insonning vazifasi haqidagi tasavvurlar, ideallar, harakat me’yorlari va tamoyillari tarzida ifodalangan ijtimoiy ko‘rsatmalar va baholar, talab va ta’qiqlar, maqsad va loyihalar) kiradi.

Ko‘rinib turibdiki, “Falsafiy ensiklopediya”da «ценность» tushunchasiga kishilar tomonidan ijobiy yoki salbiy baholanadigan, ularning moddiy va ma’naviy hayotiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadigan barcha narsalar, omillar va hodisalar kiritiladi.

Qadriyat, birinchidan, sifatiy tavsiflardan farqli ravishda narsaning ijobiy yoki salbiy ahamiyatini, ikkinchidan, ijtimoiy ong hodisalarining normativ, baholi tomonini anglatuvchi tushunchadir, degan qarash mavjud. Tabiiy qadriyatlarga moddiy boyliklar, mehnat mahsulotlarining iste’mol qiymati (umuman foydaliligi); ijtimoiy va tarixiy hodisalarning taraqqiy yoki reaksiyon ahamiyati; zamondoshlarning ma’naviy boyliklari ko‘rinishida namoyon bo‘luvchi o‘tmishning madaniy merosi; ilmiy haqiqatning ahamiyati; kishilar hatti – harakatlari; tabiiy va ijtimoiy ob’ektlar va san’at asarlarining estetik tavsiflari kiradi, deb hisoblovchilar bor. Ular sub’ektli qadriyatlarni tanlab va tasavvurlar shaklida ifodalangan ijtimoiy fikrlar, maqsad va loyhalar, ijobiylik va salbiylik, yaxshilik va yomonlik, adolat va nohaqlik, go‘zallik va xunuklik, hayotning mohiyati va insonning o‘rni, ideallar, harakat tamoyillari va mezonlaridan iborat, deb hisoblaydilar.

Rossiyalik olim, faylasuf Vasiliy Tugarinov qadriyatlarni muayyan jamiyat, sinf yoki alohida shaxsning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirish uchun kerak bo‘ladigan predmetlar, hodisalar va ularning xossasi hamda qoidalar, maqsadlar yoki ideallar tarzida tushunadi⁵.

Demak, qadriyat deganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlari



Vasiliy Tugarinov Petrovich
(1898-1978) faylasuf, ontologiya
va aksilogiya mutaxassisi

⁵ Q. Nazarov. Qadriyatlar tizimi: barqarorlik va o‘zgaruvchanlik dialektikasi”. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya. 69-bet. 1997-yil.

uchun xizmat qiladigan tabiat hamda jamiyat hodisalari majmuini tushunmoq lozim.

Qadriyatlar qayerdan kelib chiqadi, ularni manbai nimada? Bu savolga aksiologiyani diniy – falsafiy yo‘nalishi javob berishga harakat qilib, mutlaq va umumiylar qadriyat xudo, boshqa har qanday qadriyatlarni manbai ham xudodir degan fikrni bildirmoqda.

Aksiologiyani sub’ektiv – idealistik yo‘nalish namoyondalarining fikricha, qadriyat insonni ruhiy faoliyatining funksiyasi, ya’ni predmet o‘zini xos sifatida, xossasi bois emas, balki insonni diqqat – e’tibori unga qaratilgani uchun qadriyatli xislatga ega bo‘ladi. Shundan kelib chiqadiki, qadriyat ruhiy jarayonni muhsulotidir. Inson ruhiyatida paydo bo‘ladigan ehtiyojlar xilma – xildir, shu bois qadriyatlar ham ko‘p xil bo‘ladi.

Empirik sotsiologiya yo‘nalishi qadriyat uchun ijobjiy ahamiyati bo‘lgan tajriba mazmunidir. Ko‘pchilik G‘arb sotsiologlari qadriyat tushunchasini umumiylar namuna yoki hatti – xarakat andozasini mujassamlashtirgan qoida (norma) bilan bog‘laydilar. Qoida, qonun nafaqat mavjud bo‘lgan vaziyat uchun, balki kerak, darkor holat uchun ham ahamiyati bor. Qadriyat – qonun hozirgi holat uchun emas, kelajakka ham tatbiq qilinadi. Amerikalik sotsiolog T. Parsonsni fikricha qadriyatlar faoliyat yo‘nalishini tanlash uchun mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Qadriyatlar biologik va fiziologik ehtiyojlardan keltirib chiqaradigan naturalistik talqinlar ham mavjud. Amerikalik biolog va faylasuf Djordj Pag qadriyatlarni ikki turga bo‘ladi. Birinchisi fiziologik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan qadriyatlar huzur – xalovat, zavqlanish, qanoatlanish va boshqalar. Ikkinci turdagisi qadriyatlar ijtimoiy ezgulik va yovuzlik, nafosat kabilalar kiradi. Mazkur yondashuvga ko‘ra qadriyatlar evolyusion taraqqiyotni mahsulidir.

Aksiologik ta’limotlarni asosiy yo‘nalishlarini ko‘zdan kechirish shuni ko‘rsatadiki, ularni har biri qadriyatni inson yoki borliqni biron – bir xislati bilan bog‘lab tushuntirishga harakat qiladi. Bu esa aksiologik talqinlarni xilma – xil bo‘lishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘tining “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” asarida “Ilm-ma’rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik,

kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak”⁶, — degan fikrlari mamlakatimizda qadriyatlarga, xususan milliy qadriyatlarga bo‘lgan e’tiborni ko‘rsatadi.

Qadriyatlarning yuqoridagi ta’rif – tarkibi muhokama qilish va aniqlashga muhtoj. Chunki, bu ta’rif va tarkib “qadriyat” tushunchasini “moddiylashtirib” qo‘yadi, ya’ni uni narsa va hodisalar bilan tenglashtiradi. Bunda masalaning gnoseologik jihat yo‘qoladi, negaki har qanday tushuncha, avvalo, gnoseologik atamadir, ya’ni muayyan narsa, hodisa, ob’ekt yoki boshqalarning sub’ektiv in’ikosi, ana shu in’ikos ifodalagan tushunchaning nomi, atamasidir. Qadriyat ham shunday, unda ob’ektiv narsa bo‘lishdan ko‘ra, sub’ektiv tushuncha bo‘lish jihat ustuvordir. Shuni tushunmaslik “qadriyat” tushunchasining asl mohiyatini anglamaslikka, uni narsa va hodisa bilan ayniyolashtirishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan va insonning ijtimoiy – tarixiy faoliyati tizimidagi ma’lum hodisalarning qadri – bu Qadriyatdir.

Nazorat uchun savollar:

1. “Madaniyat falsafasi va aksiologiya” qanday gumanitar fanlar bilan aloqa qiladi?
2. “Madaniyat falsafasi va aksiologiya”fanining predmeti va o‘rganish ob’ekti nimalardan iborat?
3. “Madaniyat falsafasi va aksiologiya” fanining qanday funksiyalari mavjud.
4. Aksiologiya tushunchasining bugungi kundagi ahamiyati nimalardan iborat deb bilasiz?

⁶ Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik! O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar). Toshkent: TASVIR nashriyot uyi, 2021. 52-b.

5. Qadriyat kategoriyasining mazmun — mohiyati haqida so‘zlab bering.

2-mavzu. MADANIYATNING IJTIMOIY HODISA SIFATIDA MOHIYATI

Reja:

1. Madaniyatga falsafiy yondashuvning mohiyati
2. Madaniyatning ijtimoiy-tarixiy tabiat
3. Moddiy madaniyatning tuzilishi

Tayanch so‘z va iboralar:

Madaniyat, moddiy madaniyat, madaniyat falsafasi, madaniyatning mohiyati, madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida.

1. *Madaniyatga falsafiy yondashuvning mohiyati*

Madaniyatning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyatini anglash haqida gap ketar ekan, ko‘pchilik olim va tadqiqotchilar tomonidan uning keng qamrovli, umumiy, global ta’rifi o‘rniga ishchi (funksional) ta’riflarini berishga harakat qilganligini kuzatamiz. Madaniyatni “marosimlar, an’analar va ijtimoiy institutlar majmui” yoki “inson faoliyati natijalari majmui” yoki “inson faoliyatining o‘ziga xos usuli”, degan shakldagi ta’riflarning mavjudligi ham bunga isbot bo‘la oladi.

Madaniyat tushunchasida inson faoliyati va uning natijalari, tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichidagi, muayyan davrdagi, ijtimoiy va etnik guruhlar rivojlanishidagi sifatiy xususiyatlar ham o‘z ifodasini topadi. “Qadimgi davr madaniyati”, “o‘zbek madaniyati”, “nutq madaniyati”, “siyosiy madaniyat”, “shaxs madaniyati”, “yoshlar madaniyati” tushunchalari ana shunday mazmun kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yuqoridaq kabi ta’riflar o‘zining hayotiy ildizlariga ega, deyish mumkin.

Aslida, madaniyatga ta’rif berayotganda u insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi kamolotining, insonda insoniylik rivojlanishining me’yorini tavsiflovchi hodisa ekanidan kelib chiqsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zero, madaniyat inson faoliyatini, uning natijasida yaratilgan moddiy va ma’naviy qadriyatlarni qamrab olgan holda shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir.

Biz “madaniyat falsafasi” bilan bir qatorda “madaniyatshunoslik” atamasining yonma-yon, sinonimlar sifatida ishlatalishiga ko‘plab marta duch kelganimiz. Aslida bu tushunchalar mazmunan bir-biridan farqi qiladi va ularni aslo sinonimlar sifatida ishlatib bo‘lmaydi.

Madaniyat murakkab va serqirra hodisa. Har biri o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlariga, ichki rivojlanish mantig‘iga ega adabiyot, san’at, axloq, xalq og‘zaki ijodi kabi ko‘plab hodisalar uning turli sohalaridir. Ularning har biri inson bilimlari rivojlanib borishi bilan alohida ilmiy izlanishlar ob’ektiga aylandi hamda adabiyotshunoslik, estetika, etika, folklorshunoslik kabi mustaqil fanlarning shakllanishiga olib keldi. Shunday ekan, “madaniyatshunoslik” atamasini madaniyatning turli sohalarini o‘rganuvchi fanlarga nisbatan bir umumlashma, deb olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ayni paytda, qanchalik murakkab va serqirra bo‘lmasin madaniyat yaxlit bir hodisa. U ham barcha ijtimoiy hodisalar kabi o‘zining rivojlanish qonuniyatlariga hamda yuksalishlar va turg‘unliklarga boybetakror tarixiga ega. Bu tarix muayyan metodologiya va nazariy omillarga tayangan holda o‘rganilsagina madaniyat rivojlanishidagi qonuniyatatlilik, izchillik va tadrijiylik yaxlit tarzda namoyon bo‘ladi. Madaniyat tarixi esa rivojlanish jarayonidagi o‘xhash tomonlar bilan bir qatorda farqli, o‘ziga xos jihatlarni, xilma-xillikni, o‘zaro ta’sir va boyishdek jarayonni yorqin namoyish etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, madaniyat falsafasi madaniyatning mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari va istiqbolini yaxlit, bir butun hodisa sifatida o‘rganadi, deyish mumkin.

Madaniyat falsafasining falsafa fanidan ajralib chiqqani ular o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Ayni paytda, farqli jihatlar ham mavjud.

Jumladan, madaniyat falsafasi o‘rganadigan qonunlarning qamrov-liligi keng bo‘lsa-da falsafiy qonunlarga nisbatan umumiylit darajasi torroq ekanini bir qarashdayoq sezish mumkin. Zero, madaniyat falsafasi faqat madaniyatni o‘rganish bilan cheklansa, falsafa borliqning xilma-xil ko‘rinishlari rivojlanishining eng umumiy qonunlarini o‘rganadi.

Shu bilan birga, falsafa ustun darajada konkret fanlar natijalarini o‘rganish va umumlashtirish asosida rivojlansa, madaniyat falsafasi uchun boshqa fanlar ma’lumotlaridan foydalanish bilan bir qatorda o‘zining empirik materiallarini yig‘ish, tahlil qilish ham muhim ahamiyatga egaligini ta’kidlash zarur.

Umumiylit darajasi yuqori bo‘lgan qonunlar va kategoriyalarni bilish xususiy-aniq vazifalarni hal etishning muhim shartlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, falsafiy qonunlar va kategoriyalarni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llay bilish madaniyat rivojlanishi muammolarini nazariy-metodologik jihatdan to‘g‘ri yechish uchun zamin yaratadi.

Madaniyat falsafasi ham o‘z navbatida madaniyatning xilma-xil ko‘rinishlarini tahlil qilish asosida falsafiy qonunlar va tushunchalar apparatining mazmunan boyishiga, falsafaning ijtimoiy amaliyot bilan aloqasining kengayishi va chuqurlashishiga, u ilgari surayotgan xulosalar va qoidalarning konkretlashuviga xizmat qiladi.

Qayd etilgan mulohazalar falsafa madaniyat falsafasi uchun umumnazariy va metodologik baza sifatida chiqishini, madaniyat falsafasi falsafaning hayot bilan aloqasining kuchayishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Madaniyat falsafasining boshqa fanlar bilan aloqasi, o‘zaro ta’siri haqida gap ketar ekan, uning ijtimoiy-gumanitar fanlarning ma’lumotlari, kategoriyalardan faol foydalanishini alohida qayd etish lozim. Masalan, falsafa fanidan “faoliyat”, ”taraqqiyot”, ”vorislik”, ”boshqaruv” kabi kategoriyalarni qabul qilib olib, madaniyat falsafasi ularni o‘z predmetidan kelib chiqqan holda talqin qilishini hamda ”madaniy faoliyat”, ”madaniy taraqqiyot”, ”madaniy vorislik”, ”madaniyatni boshqaruv” kabi kategoriyalarni ishlab chiqqanini ta’kidlash zarur.

Har bir fan o‘z tadqiqot metodlariga ega. Shunday ekan, barcha fanlar foydalanadigan umumilmiy va barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar qo‘llaydigan umumsotsiologik metodlar bilan bir qatorda madaniyat falsafasi ham o‘z metodlarini ishlab chiqishi tabiiy.

Madaniyat falsafasi metodlarining o‘ziga xosligi falsafiy metodlarning madaniyatni bir butun ijtimoiy fenomen sifatida o‘rganishda o‘ziga xos namoyon bo‘lishi, konkretlashuvida ko‘rinadi. Xususan,

madaniyatni tizim sifatida o'rganish va unga faoliyatli yondashuv madaniyat falsafasida madaniyatning har bir sohasi (moddiy, ma'naviy) va har bir sub'ekti (shaxs, etnos va sh.k.) tizimosti hodisalari sifatida qaraladigan hamda madaniyatning umumiyligi tizimidagi o'rni va rolini aniqlashga xizmat qiladigan strukturaviy-funksional tahlil metodining keng qo'llanishini belgilab bergenini ta'kidlash zarur.

Madaniyatni o'rganishda yalang'och empirizm hamda o'ta ratsionalizm va haddan tashqari nazariyotchilikka yo'l qo'ymaslik nihoyatda muhim. Birinchi holatda tadqiqotchi ko'plab empirik materiallarni to'plagandan so'ng uni tizimlashtirishdek ulkan muammoga duch keladi yoki faktlarni bayon qilish bilan chegaralanadi. Ikkinci holatda sxolastik nazariyotchilik empirik ma'lumotlarni inkor etishga olib keladi. Demak, hayotiy materiallar, empirik ma'lumotlarsiz madaniyat falsafasiga oid tadqiqotlarning ahamiyati va maqsadga muvofiqligi kamaysa, faktlar bilangina cheklanib qolish ular ortida yotgan qonuniyatni anglashga xalaqit beradi.

Madaniyatning mohiyatini o'rganish metodologiyasidan kelib chiqib ilmiy adabiyotlarda bir necha yondashuvni ajratish keng tarqalgan. Xususan, naturalistik yondashuv doirasida madaniyat inson tabiatini rivojlanishining oddiy davomi, evolyusiyasining yakuniy bosqichi sifatida qaraladi. Klassik yondashuv nomini olgan yo'nalishda esa, madaniyat inson va jamiyat ma'naviy hayoti bilan aynanlashtiriladi, madaniyat tabiatdan tashqaridagi, g'ayritabiyy hodisa sifatida tushuniladi.

Ekzistensializm vakillari ishlab chiqqan noklassik (modernistik) yondashuv doirasida inson kundalik hayotini tahlil qilish markaziy o'rinni egallaydi. Unga ko'ra, shaxs madaniyati ham, guruh, etnos madaniyati ham individ tomonidan shaxsiy kechinmalar jarayonida idrok etiladigan voqelik elementlarining majmui hisoblanadi.

Bir qator olimlar tomonidan asoslangan aksiologik yondashuvga ko'ra, inson borlig'ining qadriyatlar sohasiga nisbatangina madaniyat tushunchasini qo'llash mumkin. Faoliyatli yondashuv doirasida madaniyat inson hayotiy faoliyatining o'ziga xos usuli, faoliyat, uning manbalari va natijalarining dialektik birligi sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi, nisbatan keng tarqalgan yondashuvlardan tashqari semiotik yondashuvni ham ajratish mumkin. Bunday yondashuvda har bir madaniyat so‘z (verbal), imo-ishoralar, obrazli, formallashtirilgan belgilar tizimi sifatida qaraladi. Aynan shu madaniyat doirasidagina u yoki bu belgi o‘z mazmuniga ega bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, qayd etilgan yondashuvlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ular o‘zaro ta’sirda bo‘ladi, bir-birini to‘ldiradi, ba’zan bir-biri bilan bog‘lanib ham ketadi. Masalan, bugungi kunda madaniyat falsafasi doirasida olib borilayotgan tadqiqotlarda faoliyatli-qadriyatli yondashuv keng qo‘llanilayotganini ta’kidlash zarur. Ayni paytda, madaniyatning mohiyatini tushunishga ko‘maklashuvchi yagona, ko‘pchilik tomonidan qabul qilinadigan, universal yondashuvni ishlab chiqishga nazariy va amaliy ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Har qanday fan o‘z tadqiqot predmetiga va vazifalar doirasiga ega. Ijtimoiy taraqqiyot doimiy ravishda ularning predmeti, o‘rganadigan masalalari ko‘lamiga o‘zgartishlar kiritishi, muntazam o‘rganib kelgan muammolarining yangi qirralarini namoyon qilishi mumkin. Bu, ayniqsa, doimiy o‘zgarish va rivojlanishda bo‘lgan inson va jamiyat hayotining turli tomonlarini o‘rganadigan ijtimoiy-gumanitar fanlarda yorqin kuzatiladi.

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yangilanish kechayotgan hozirgi davrda bunday o‘zgarishlar ko‘lamli xarakter kasb etishi, tabiiy. Bu ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-mafkuraviy yangilanish, o‘sish va yuksalish jarayonini boshdan kechirayotgan, buyuk kelajak poydevorini qurayotgan respublikamiz ilm-faniga ham tegishlidir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, madaniyat falsafasi oldida bir qator dolzarb vazifalar turganini alohida qayd etish lozim. Xususan, madaniyat, uning taraqqiyot qonuniyatlariga eski andozalardan xoli holda yondashish, madaniyatni yaxlit va doimiy rivojlanib boruvchi tizim sifatida o‘rganishni ta’minalash hayotiy-amaliy ahamiyatga egaligini ta’kidlash zarur.

O‘zbek xalqi madaniyati bosib o‘tgan yo‘lni, uning yuksalishlar va ziddiyatlarga boy tarixini, jahon madaniyatida tutgan o‘rnini xolis yoritish

esa o‘tmishimizni yanada teranroq anglashga, madaniyat taraqqiyotini ta’minlashning oqilona yo‘llarini topishga xizmat qiladi.

Mustaqillik sharoitida o‘zbek madaniyati erishgan yutuqlar, madaniy hayotimizda sodir bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilish, ularning mamlakatimiz buyuk kelajagini ta’minlash va komil insonni tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib berish esa kishilarda ertangi kunga ishonch tuyg‘usini tarbiyalashga mustahkam zamin yaratadi.

Jahon xalqlari madaniyati tarixi, o‘ziga xos xususiyatlari, milliy madaniyatlarning o‘zaro ta’sir va boyish jarayonini har tomonlama ob’ektiv va ilmiy yoritish ularga xos qonuniyatlarni chuqurroq tushunishga, sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni optimallashtirishga yordam beradi.

Madaniy taraqqiyotga xos zamонавиј ziddiyatlar va ularni hal etish yo‘llarini tadqiq etish esa umuminsoniy madaniyat istiqbolini tasavvur qilish, yuzaga keladigan muammolarni prognoz qilish va zarur choralarni ko‘rish orqali madaniy rivojlanishning progressiv yo‘sinda kechishini ta’minlashga yo‘l ochadi.

Qayd etilgan vazifalarning ijobiy hal qilinishi madaniyat falsafasining yangilanishiga, mustaqil fan sifatida izchil yuksalish yo‘lidan borishiga xizmat qiladi.

2. Madaniyatning ijtimoiy-tarixiy tabiatı

Madaniyat sohasi murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida ijtimoiy hayotning barcha sohalari bilan uzviy aloqadordir. O‘z navbatida jamiyat hayotining har qanday sohasini ham madaniyatning rivojlanishi nuqtai nazaridan talqin qilishi mumkin. Bunday holat madaniyatning ijtimoiy hodisa sifatidagi xususiyatini, uning rivojlanishining ijtimoiy belgilanganini ko‘rsatib beradi. Shuning uchun ham, madaniyatga konkret-tarixiy yondashuv uning mohiyatini to‘g‘ri tushunish imkoniyatini beradi.

Ayni paytda, bunday yondashuv mavhum hodisa sifatida talqin etilib, u yoki bu davr madaniyati rivojlanishining xususiyatlarini tan olmaslik hamda milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni mutlaqlashtirish orqali kishilik

jamiyati taraqqiyotining birligi va uzviyligini inkor etishdek ikki yanglish yo‘ldan saqlanish uchun imkoniyat yaratadi.

Mutaxassislarning fikricha, jamiyatdagi siyosiy hodisalar, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, texnologik yangiliklarga boyligi fan va madaniyat aloqalarining intensiv o‘sish darajasi nuqtai nazaridan XX asrning so‘nggi yillari XIX asrning 10 yiliga, antik va o‘rtalarning 100 yiliga, qadimgi davrning esa 1000 yiliga teng bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, madaniyatning mohiyatiga konkret-tarixiy yondashuv u har bir davrda o‘ziga xos strukturaga, rivojlanish harakatiga, o‘zaro ta’sir va boyishning o‘ziga xos ko‘rinishlariga egaligi haqidagi xulosani chiqarish imkonini beradi.

Avvalo, ijtimoiy va tarixiy soha doirasida madaniyatning strukturasi tarixan murakkablashib borgani, yangidan-yangi belgilar paydo bo‘lganini ta’kidlash lozim. Masalan, qo‘lda yasalgan, samaradorligi past bo‘lgan ishlab chiqarish qurollaridan mashinalarga, undan avtomatlashtirilgan tizimlarga o‘tishni moddiy madaniyat rivojlanishining tarixiy bosqichlari sifatida qarash mumkin. Paydo bo‘lganiga 100 yildan sal ko‘proq vaqt bo‘lgan kino esa ma’naviy madaniyatning strukturasi ham doimiy takomillashib borganiga dalil bo‘la oladi.

Shu bilan birga, mavjud madaniyat strukturaviy elementlarining o‘zining ichida tarmoqlashuv, shakliy takomillashuv uzlusiz davom etayotganini ham qayd etish lozim. Ibtidoiy davr rassomchiligi bilan bugungi kun rassomchiligi o‘rtasidagi qiyoslab bo‘lmaydigan farq ham bunday xulosalarning o‘rinli ekanini tasdiqlashi shubhasiz.

Globallashuv sharoitdagি taraqqiyot madaniyatning sifatiy xususiyatlari va miqdoriy xarakteristikalarini ham keskin darajada o‘zgartirmoqda. Moddiy madaniyat sohasida – ishlab chiqarish qurollarini yaratishda xilma-xil materiallar qo‘llanilayotgani, dastavval faqat qo‘lyozma shaklda ko‘paytirilgan kitoblar, bugungi kunda yangi sifatiy xususiyat kasb etib katta adadlarda nashr etilayotgani ham fikrimizga isbot bo‘la oladi.

Madaniyatning yaratuvchisi xalq, omma bo‘lsa-da, har bir madaniy qadriyat o‘zining aniq ijodkori, yaratuvchisiga ega. Shunday ekan, madaniyatning strukturaviy jihatdan murakkablashib borishi tabiiy

ravishda uning ijodkorlarining yangidan-yangi qatlamlarini yuzaga keltirgani va keltirishi mumkinligini ham hech qachon unutmaslik lozim.

Dastlab bilimlar, qadriyatlar og‘zaki shaklda uzatilgan bo‘lsa, yozuvning kashf qilinishi kitobat ishiga yo‘l ochdi. So‘ngra gazeta va jurnallar, bir fursat keyinroq radio va televideniya paydo bo‘ldi. Bugungi kunda internet tizimi ham jadal rivojlanib bormoqda. Buday misollar juda ko‘p. Mazkur misollar madaniy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish usullari, shakllari ham uzlusiz takomillashib, qamrov doirasi kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Har bir davr o‘zidan oldingi davr yutuqlariga tayanadi. Shunday ekan, rivojlanish manbai yillar o‘tgan sari kengayib, ko‘lamlilik kasb etishiga shubha qilmasa ham bo‘ladi. Bu o‘z navbatida madaniyatning yangidan-yangi strukturaviy elementlari shakllanishiga sharoit yaratishi tabiiy, albatta.

Madaniyatda inson tasavvurlari, bilimi, qobiliyati, tajribasi, “inson-inson”, “inson-tabiat”, “inson-jamiyat” munosabatlari gavdalanadi. Qayd etilgan mulohazalar ijtimoiy rivojlanish davomida ular o‘zgarib, chuqurlashib, kengayib borganini va jamiyat taraqqiy etgani sari yanada keng qamrov kasb etib boradi.

3. Moddiy madaniyatning tuzilishi

Ilmiy adabiyotlarda madaniyatni ikkiga moddiy va ma’naviy madaniyatga bo‘linganini kuzatganmiz. Bunday ikkiga ajratish inson faoliyatining ikki asosiy sohasi – moddiy ishlab chiqarish va ma’naviy ishlab chiqarish bilan bog‘liq. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalari va yutuqlarini, xususan, ishlab chiqarish, transport, aloqa vositalari, uy-joy, kiyim-bosh, uy-ro‘zg‘or buyumlari, iste’mol vositalarini o‘z ichiga oladi. Ularsiz muayyan xalq madaniyati yoki uning tarixiy taraqqiyotining turli bosqichlaridagi o‘ziga xosliklari haqida to‘g‘ri fikr yuritish mumkin emas. Xususan, iste’mol vositalarini o‘rganish ijtimoiy rivojlanishning muayyan bir bosqichida turgan inson nimalarni iste’mol qilayotgani to‘g‘risidagina emas, balki qanday iste’mol qilayapti, uning ehtiyojlari qanchalik boy va taraqqiy qilgani haqida ham ma’lumot beradi.

Moddiy madaniyatni faqat ishlab chiqarish va iste'mol vositalari bilan cheklash ham to'g'ri bo'lman bo'lar edi. Bunga sabab moddiy madaniyat yuqoridagi vositalarni yaratish va foydalanish sohasidagi faoliyat usulini ham ifodalaydi. Aynan shunday faoliyat jarayonida insonning bilimi, tajribasi, professional malakasi moddiy madaniyatning tarkibiy qismiga aylanadigan jismiy ko'rinishga kiradi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatga mansub predmetlar, hodisalar turli maqsadlarga xizmat qiladi, ularning vazifalari, funksiyalarida ham jiddiy farqlar bor. Lekin bu farqlar nisbiydir va ularni aslo mutlaqlashtirib bo'lmaydi. Zero, unisi ham, bunisi ham madaniyat. Ko'pgina narsalar ham aqliy, ham jismoniy mehnatning natijasi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, moddiy madaniyat insonning ma'lum bir g'oyalari, bilimlari, maqsadlarining namoyon bo'lishidir. Ayni paytda, har qanday ma'naviy madaniyat mahsuli ham ob'ektivlashuvi, yozuv, nutq, rasm, haykal va shu kabi shakllardagi o'zining moddiy ifodasini topmog'i lozim. Bunday ob'ektivlashuv jismoniy harakat, kuch-quvvatni talab qiladi. Ba'zi hollarda, masalan, haykaltaroshlikdagi kabi bunday jismoniy harakat anchayin katta o'rinni egallaydi.

Moddiy madaniyat, uning strukturaviy elementlari haqida gap ketar ekan, eng avvalo birinchi tabiatning o'zlashtirilgan, ijtimoiylashtirilgan qismi uning tarkibiy qismini tashkil qilishini qayd etish lozim. Xususan, madaniylashtirilgan hayvonlar, o'simliklar dunyosi, o'zlashtirilgan yer hududlari, sun'iy yaratilgan ko'llar, suv havzalari kabi hodisalar uning yorqin ko'rinishi hisoblanadi. Tarixiy taraqqiyot ularning doirasi tobora kengayib borayotganini ko'rsatmoqda.

Madaniylashtirish turli mintaqalarda fauna (o'rmon va dalalar xudosi) va flora (gullar va bahor xudosi) xudolarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, Hindistonda fildan, shimolda bug'udan transport vositasi sifatida foydalanilgani, qisman hozir ham shundayligi fikrimizning isboti bo'la oladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda inson tomonidan oziq-ovqat mahsuloti, sanoat uchun xom-ashyo, jonivorlarga ozuqa sifatida foydalanish uchun va manzarali ko'rsatish maqsadlarda o'simliklarning 2500 dan ortiq turi madaniylashtirilgan. Bunday madaniylashtirish

bugungi kunda nafaqat mavjud turlar va navlarni o‘zlashtirish shaklida, balki seleksiya (tanlash, saralash) qilish, chatishtirish yo‘li bilan ularning yangidan-yangi turlari va navlarini yaratish ko‘rinishida ham amalga oshirilmoqda.

U yoki bu hayvon, o‘simlik inson uchun qanchalik foydali bo‘lsa, kishilik jamiyatining bu yo‘ldagi urinishlari shunchalik kuchli va qamrovli bo‘lmoqda. Bu jarayonni otlar, qora mollar, qo‘ylar, parrandalarning yangi zotlari hamda meva, sabzavot, poliz mahsulotlari, dukkakli o‘simliklarining oldin mavjud bo‘lmagan navlari ko‘plab yaratilayotganidan kuzatish mumkin. Ba’zi yo‘nalishlarda inson tabiatdan ko‘ra ijodkorroq bo‘lib, tabiiy holda uchraydiganidan ko‘proq nav va zotlarni yaratmoqda. O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga qarshli ilmiy tadqiqot institutlari, maxsus seleksiyachilik xo‘jaliklari olib borayotgan ishlar bu yo‘nalishda hali ko‘plab yangiliklar yaratilishini ko‘rsatib turibdi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishi, hayotimiz farovonligi seleksiya jarayonida yaratilgan navlar va zotlarga bog‘liq bo‘lib qolayotgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu seleksiya jarayonining insoniyat va uning istiqboli uchun alohida ahamiyat kasb etayotganini bildiradi. Xususan, navlarning turli kasallik va zararkunandalarga chidamliligi masalasi alohida e’tibor talab qilayotganini ta’kidlash zarur. Zero, ma’lumotlarga ko‘ra, agroekotizimlarga zarar keltiradigan turlarning soni 100 mingdan ortiqni tashkil etadi. Faqt o‘simliklarning kasallanishi oqibatida dunyo bo‘yicha yiliga 50 trillion dollarlik hosilning yo‘qotilayotgani ham bu masala hayotiy-amaliy ahamiyatga egaligidan dalolat beradi⁷.

Yangidan-yangi yer hududlarining o‘zlashtirilayotgani, sun’iy suv havzalari, yashil hududlar va bog‘larning yaratilayotgani ham moddiy madaniyat strukturasidagi o‘zgarishlarga misol bo‘la oladi. Xususan, olimlar fikricha, yurtimizda dastlabki bog‘lar miloddan avvalgi 3-1 ming yillikda dehqonchilik qilishga o‘tilishi bilan bog‘liq holda shakllana boshlagan. Asta-sekin bog‘lar o‘z ichiga hovuz, favvoralar, cho‘milish

⁷ Qarang: <http://seleкционер.ru>.

havzalari, zilol suvlar oqadigan ariqlar, butazor va gulzorlar, manzarali va mevali daraxtlar, sayroqi va go‘zal qushlar hamda dekorativ ko‘priklarni o‘zida mujassam eta boshlagan. Shunday qilib, yurtimiz bog‘lari tabiat, arxitektura, yashillik va suv bir-birini uyg‘un to‘ldirgan holda yaxlit tabiiy-madaniy majmuaga aylangan. Masalan, Temuriylar davrida XIV-XV asrlarda birgina Samarqand va uning atrofida shaharni yashil xalqa kabi o‘rab olgan 100 ga yaqin ana shunday bog‘lar bo‘lgan⁸.

Bugungi kunda Yer yuzida inson ta’siriga uchramagan joyning o‘zi deyarli qolmadi, deyish uchun barcha asoslar bor. Natijada Yer shari tobora “insoniy” qiyofa kasb etib bormoqda.

Moddiy madaniyat mohiyatan insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan. Ammo o‘zlashtirilgan, madaniylashtirilgan ayrim birinchi tabiat hodisalari hozirda ko‘proq ma’naviy qiyofa kasb etmoqda. Bu, ayniqsa, dekorativ kabutarlar, uy o‘simpliklari misolida ko‘rish mumkin. Zero, ular asosan insonning go‘zallikka, estetikaga intilishining natijasidir. Shu ma’noda ular insonning ma’naviy-ruhiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Binolar, uy-joylarda moddiy madaniyatga xos xususiyatlar va belgilar o‘zini yorqin namoyon qila oladi. Ular rivojlanish davomida jiddiy o‘zgarishga uchrab, shaklan xilma-xil bo‘lib, yashash va ishslash uchun qulay bo‘lib bormoqda. Ularning turli tabiiy ofatlardan (masalan, yer silkinishi, anomal sovuq yoki yuqori darajadagi issiqlikdan) himoya qilishdek sifati ham mustahkamlanib bormoqda. Seysmoglarning yiliga taxminan 500 ming zilzilani qayd qilishlari, ulardan faqat 100 mingtasini odamlar sezishlarini, 1000 tasi esa bevosita talofatlar keltirib chiqarishini inobatga oladigan bo‘lsak, bunday e’tibor bejiz emasligini anglash mumkin.

Ma’lumotlar ajdodlarimiz juda qadimdan yuqoridagi kabi omillarni inobatga olgan holda uy-joy bunyod qilishganini ko‘rsatadi. Olimlar fikricha, Farg‘ona vodiysida sinchli uylar qurilib, bino tomiga yotqizilgan somonli loy (lo‘mboz)ning qalinligi 40-50 santimetrni tashkil etganida, Xorazmda esa paxsali uylar qurish keng tarqalib, bino lo‘mbozining qalinligi 10-15 santimetrdan oshmaganida seysmik omilning ta’siri

⁸ Карабаев У. Этнокультура. –Ташкент, “Шарқ”, 2005. – 210-213 с.

hamda yomg‘ir yog‘ishining miqdori inobatga olinganini ko‘rish mumkin⁹.

Ma’lumotlarga ko‘ra, eramizdan avvalgi 2509-2483 yillarda bunyod etilgan 146,6 metrlik Misrdagi Xeops piramidası XIII asrga qadar eng baland inshoot hisoblangan. Cherkov minoralari o‘z uzunligi bilan mashhur bo‘la boshlagan o‘rta asrlarga kelib vaziyat o‘zgardi. Ammo to‘plangan tajriba faqat XX asr boshiga kelib osmono‘par, baland uyojlar qurish uchun imkoniyat yaratdi. Bugungi kunda dunyodagi eng baland bino bu — Burj Xalifa, uning balandligi 828 metr. “Burj Xalifa” so‘zi arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “Xalifa minorasi” degan ma’noni bildiradi. Undan keyingi baland binolar AQSh, Xitoy, BAA kabi mamlakatlarda joylashgan.

Ushbu baland va osmono‘par inshootlar qatorida ofis, mehmonxona, yashash uchun mo‘ljallangan binolar, radio va teletolqinlarni uzatadigan, turli attraksionlar joylashgan minoralar, elektrostansiyalar, eritish pechlarining trubalari bor. Mazkur inshootlar qatorida O‘rta Osiyodagi eng baland bino uzunligi 375 metr bo‘lgan Toshkent teleminorasi hamda 350 metrlik Sirdaryo GESi trubasi ham borligini ta’kidlash zarur.

Ayni paytda “Tasai Korporeyshn” (Japanese Taisei Corporation) qurilish kompaniyasi tomonidan Yaponiya poytaxti Tokio shahri uchun ishlab chiqilayotgan “X-Seed 4000” nomli loyihasi inson hayratini oshiradi. Dengiz sathidan 4000 metr baland qurilgan ushbu binoda 700 mingdan 1 milliongacha odam yashashi mumkin. Minglab xonardonlardan tashqari ushbu inshootda dam olish joylari, parklar va hatto o‘rmonlar mavjud bo‘ladi. Barcha zarur ehtiyojlari Quyosh energiyasi hisobidan qondiriladigan inshootning loyiha qiymati 900 milliard dollar, deb baholanmoqda. Yashovchilarni barcha tabiiy ofatlardan himoya qila oladigan ushbu bino, agar xohish bo‘ladigan bo‘lsa, 8 yilda qurib bitkazilishi mumkin¹⁰.

⁹ Джаббаров И. Узбеки.-Ташкент, “Шарқ”, 2007.- 119-120 с.

¹⁰ Остапенко-Меленевская Е. Где построены самые высокие здания мира?-
<http://shkolazhizni.ru/archive>.

Umuman olganda, bugungi kunda u yoki bu bino tuzilishiga qarab uning qaysi davrda yaratilgani bilan birga milliy va mintaqaviy an'analarning hamda qadriyatlarning o'ziga xosligini ham ko'rish mumkin. Binolarni qurish bilan bog'liq an'analarning shakllanishida geografik muhitning ta'siri ham katta bo'lgan. Buni, aynan, okean va dengiz oldi hamda iqlimi issiq va o'ta sovuq mintaqalardagi binolar, uyjoylar qurilish uslubi, materiallaridagi jiddiy farqda ham ko'rish mumkin.

Bunday farqlar moddiy madaniyatning boshqa bir asosiy belgisi – kiyim-bosh, uy-ro'zg'or buyumlarida ham yaqqol ko'rindi. Geografik joylashuvi ta'sirida shakllangan bunday o'ziga xosliklar bora-bora milliy o'ziga xoslik sifatida angvana boshlanganini ham qayd etish lozim.

Tarixiy tajriba muayyan hollarda binolar, kiyim-bosh, uy-ro'zg'or buyumlari o'zining birlamchi funksiyasini yo'qotishini ham ko'rsatadi. U yoki bu madaniyat hodisalari noyob tarixiy durdonalar sifatida angvana boshlagan paytda shunday bo'ladi. Jumladan, tarixiy yodgorliklar sifatida asralayotgan saroylar, kiyim-boshlar, uy-ro'zg'or buyumlariga nisbatan shunday deyish mumkin. Boshqacha aytganda, o'z vazifasini bajarmas, ya'ni bevosita insonning u yoki bu ehtiyojini qondirmas ekan, ularni o'tmish moddiy madaniyatining namunasi sifatida qarash mumkin, xolos. Bunday moddiy madaniyat belgilari zamonaviy inson uchun ajdodlar aqlu zakovatining nishonasi, estetik, ma'naviy-ruhiy zavqlanish manbai sifatida ko'rildi. Bir so'z bilan aytganda, ma'naviy madaniyat belgisiga aylanadi. Bunday holatlarni, jumladan xalqimiz moddiy madaniyatining ko'plab elementlarida kuzatish mumkin.

2017-yilning 15-iyun kuni bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi videoselektor yig'ilishida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma'naviy meros masalasiga alohida to'xtalib o'tgan edi. "Ma'lumki, bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhim, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida azim poytaxt Toshkent shahrida "Islom madaniyati markazi"ni barpo

etilganini ta'kidladi. Prezidentning bu ta'kidlari mamlakatimizda moddiy madaniyat va ma'naviyatning yuksak ekanligiga hamda uni asrabavaylash lozimligiga da'vat etadi.

Ishlab chiqarish qurollari, vositalari va inshootlari ham moddiy madaniyatning muhim elementlari hisoblanadi. Ularning xususiyatlarini o'rghanmay turib moddiy madaniyat haqida to'liq va to'g'ri tasavvur hosil qilish mumkin emas.

Moddiy madaniyatning yuqorida qayd etilgan predmetli ko'rinishlaridan tashqari uning texnik kartalar, pasportlar, chizmalar, hisobkitoblar, programmalar shaklidagi semiotik ko'rinishi ham mavjud. Ular bilan tanishish moddiy madaniyatning predmetli ko'rinishining strukturasi, konstruksiyasi haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Bundan tashqari semiotik ko'rinishning mavjudligi moddiy madaniyatning predmetli ko'rinishi u yoki bu sababga ko'ra yo'q bo'lib ketgan taqdirda ham uni aynan qayta tiklash imkonini beradi.

Moddiy madaniyat ularni ishlab chiqish va foydalanishdan tashqari ana shu jarayonda insonlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Ularning xarakteri insonning yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy shart-sharoitlar va vositalarning yaratilishida muhim o'rinni tutadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Madaniyat tushunchasining inson faoliyatidagi o'rni nimalarda ko'rindi?
2. Madaniyat falsafasi madaniyatning qaysi jihatlarini o'rGANADI?
3. Madaniyat sohasi ijtimoiy hayotning qaysi sohalari bilan uzviy aloqadorlikda faoliyat yuritadi?
4. Madaniyat qanday turlarga bo'linadi?
5. Inson hayotida moddiy madaniyat qanday muhim ahamiyatga ega?

3 –mavzu. MADANIYATNING IJTIMOIY FUNKSIYALARI

Reja:

1. Madaniyatning inson hamda jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati.
2. Madaniyat va jamiyatning o‘zaro aloqadorligi
3. Madaniyatning asosiy ijtimoiy funksiyalari.

Tayanch iboralar:

Ijtimoiy faoliyat, kamolot, shaxsning madaniyati, madaniyat va jamiyat, jamiyat madaniyati, milliy madaniyat, umumbashariy madaniyat, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat.

1. *Madaniyatning inson hamda jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati.*

Har bir jamiyat ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanib, u insonning qanday yashashi, yurish-turishi va harakat qilishini, jamiyatdagi o‘rnini belgilab berishga yordam beradi. Madaniy qadriyatlar inson uchun alohida mohiyat va mazmun kasb etib, u orqali inson boshqa kishilar bilan, butun jamiyat bilan munosabat o‘rnatadi. Shaxsni jamiyatdan, ijtimoiy munosabatlardan alohida qilib bo‘lmaganidek, jamiyat taraqqiyoti ham insonning amaliy faoliyati bilan uzviy bog‘liq va o‘zaro aloqada bo‘ladi. Jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar bir-biriga bog‘liq hamda bir-birini taqozo qiladigan munosabatlar hisoblanadi.

Inson tabiatning eng oliv mahsuli bo‘lib, uning mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi bilan belgilanadi. Inson ayni paytda tarixiy taraqqiyotning mahsuli hamda uning subyekti hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar insonning ijtimoiy vujudga aylanishiga sabab bo‘ladi, uning dunyoqarashini shakllantiradi. Inson ishlab chiqarish jarayonida faqatgina narsalar yaratibgina qolmay, balki o‘zini, o‘z shaxsiyatini ham qayta yaratadi va rivojlantiradi. Bu jarayonda inson o‘zini qayta ijod qiladi va shu jihatdan u ijtimoiy mavjudotdir.

Kishilik jamiyati har doim rivojda, harakatda bo‘lib, u muntazam o‘zgarib va takomillashib boradi. Turli davrlarda va turli-xil madaniyatlarda insonlar borliqni, o‘zgacha anglaganlar va qabul qilganlar,

o‘zlariga xos va mos tarzda tasavvurlari va bilimlarini hosil qilganlar. Biz bugungi davrdagi mavjud muammolarga o‘xhash bo‘lgan to‘siqlarni o‘tmishda odamlar qanday qilib yengib o‘tganlarini o‘rgangan holda, o‘tmishga savollar bilan murojaat qilamiz, o‘tmish bizga javob qaytaradi va shu bilan o‘tmish, hozirgi zamon va kelajak o‘rtasida doimiy aloqa bo‘lib turadi.

Madaniyat, bu jamiyatda hosil bo‘lgan, ijtimoiy hayotning asosiy sohalaridan biri. Madaniyatsiz jamiyat bo‘lmaydi, shuningdek, madaniyat ham jamiyatdan tashqarida mavjud bo‘la olmaydi.

Madaniyat ijtimoiy hayotning tarkibiy va funksional tarmoqlarida ifodalanadi. Shu jihatdan jamiyat madaniyatni vujudga keltiradi. Jamiyatda vujudga kelgan madaniyat qanchalik murakkablashib boyib borsa, uning insonga va jamiyatga ta’siri mukammallahib va nisbiy mustaqilligi kuchayib boradi. Masalan, Antik jamiyat allaqachon o‘tmish, tarixga aylangan bo‘lsa-da, uning madaniyati hozirgi kunda o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda yoki biz bu davr madaniyatini o‘sha vaqtdagiga nisbatan ko‘proq bilamiz. Shuning uchun madaniyatga jamiyatning mahsuli, faoliyat uslubi sifatida qaralsa-da, har bir jamiyatni u yoki bu konkret madaniyatning shakllanish manbai tarzida ham qarash mumkin.

Biz madaniyat va ijtimoiy faoliyat bir-biridan mustaqil mavjud bo‘imasligi, madaniyatning taraqqiyoti masalalarini qisqacha ko‘rib chiqdik, endi madaniyatning shaxs faoliyatidagi o‘rni va ahamiyati masalasiga to‘xtasak.

Madaniyat va shaxs nafaqat mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lgan, balki ichki va tashqi tomonlari jihatidan o‘zaro mos keluvchi tushunchalardir. Shaxs muayyan madaniy muhitda yashaydi va faoliyat ko‘rsatadi.

Madaniyatning inson hayotidagi o‘rni haqida sharqning buyuk mutafakkirlarining e’tirofga loyiq so‘zлари bor. Masalan, qomusiy olim Abu Nasr Farobi inson uchun bilim, aql, mantiq kabi fazilatlarning ahamiyati kattaligini aytib, inson bu fazilatlar bilan chegaralanmasdan, u ma’lum bir axloqiy tamoyillarga, axloqiy madaniyatga ega bo‘lishini ta’kidlaydi, shundagina inson haqiqiy kamolotga erishadi.

Abu Nasr Farobiy “Baxt-saodatga erishuv haqida”gi risolasida inson kamolotida jamoaning o‘rni katta ekanligini ta’kidlab shunday deydi: “Kamolotga bir kishining o‘zi yolg‘iz (birovning yoki ko‘pchilikning yordamisiz) erishuvi mumkin emas. Har bir insonning tug‘ma tabiatida va unga lozim bo‘lgan har qanday ish va harakat jarayonida boshqa bir inson yoki ko‘pchilik bilan munosabatda bo‘lish, o‘zaro aloqa qilish hissiyoti bor, odamzod jinsidan bo‘lgan har qanday insonning ahvoli shu: u har qanday kamolotga erishuvida boshqalarning ko‘maklashuvlariga va ular bilan birlashishga muhtoj yoki majburdir”. Uning fikricha, inson o‘z-o‘zidan baxtli ham bo‘la olmaydi, kamolotga ham erisha olmaydi. “Bu narsa uning harakatlariga, mehnatiga, kasb-hunar egallashiga, bilimiga va fozil jamiyatda yashashga bog‘liq”, deydi. “Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritiladi”¹¹.

Shaxsning madaniyat bilan o‘zaro aloqasi hech qachon to‘liq va uyg‘un bo‘la olmaydi. Ijtimoiy va individual hayot, shuningdek madaniyat stixiyasi bir-biri bilan mos kelmasligi mumkin. Madaniyat doimo inson bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi va usiz yashay olmaydi. Lekin voqelikning murakkab, yaxlit birligi sifatida u o‘z rivojlanishi qonunlarida va borliqqa nisbatan mustaqildir. U madaniy merosni o‘zida mujassamlashtirgan aniq ijtimoiy guruhlarning ma’naviy hayotiga nisbatan boyroq va chuqurroqdir. Madaniyat doimo qadriyatlarning eng yirik zahirasi, tajribalar xazinasi bo‘lib qoladi. Bashariyat avlodlari undan foydalanadilar va unga o‘z ehtiyojlaridan va vaziyatdan kelib chiqib o‘z hissalarini qo‘shadilar.

Shaxs madaniyat bilan quyidagi sohalarda o‘zaro aloqda bo‘ladi:
avvalo, madaniyat ta’sir etish ob’ekti sifatida uni o‘zlashtiradi;
ikkinchidan, madaniy qadriyatlarni tashuvchi va ifodalovchisi sifatida aniq bir madaniy sharoitda faoliyat yuritadi;
uchinchidan, madaniy ijodiyot sub’ekti sifatida madaniyatni rivojlantiradi va takomillashtiradi.

¹¹ Маънавият юлдузлари. Т., 1999 й., 68 бет.

Har qanday madaniyat jamiyat mafaatlaridan kelib chiqqan holda, shaxsning ma'lum bir tipini shakllantirish va kamol toptirishga, rivojlanishiga xizmat qiladi.


2. *Madaniyat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi.*

Madaniyatning insoniyat jamiyati shakllanishi va taraqqiyotidagi o'rnini to'g'ri belgilab olishi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Mustaqillik yillarida shakllangan yangi siyosiy tafakkur va falsafiy dunyoqarash madaniyatning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rnini yangicha tushunishga imkon berdi.

Madaniyat tushunchasining inson va jamiyat tushunchalari bilan uzviy bog'liqligi haqida yuqorida bayon etildi.

Buyuk fransuz mutafakkiri Emil Dyurkgeymning ta'kidlashicha, "madaniyat inson ongi va irodasiga bog'liq bo'lмаган holda undan ilgari vujudga kelgan va insonga majbur qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir individ madaniy olamda tug'iladi, uni o'zlashtiradi, insoniy sifatlarga ega bo'ladi (ijtimoiy lashadi) va uning rivojiga muayyan hissa qo'shadi"¹².

Madaniyat, avvalo, insoniyatning ko'p asrlik bilimlari va tajribalari yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Inson aqli mavjudot sifatida asrlar davomida jamiyat tomonidan yaratilgan bilim, tajriba, ko'nikma, xulq-atvor meyorlarini, ya'ni madaniyatni o'zlashtirib boradi. U barcha tirik mavjudotlardan farqli ravishda butun hayoti davomida sotsiogenetik nazariya asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi. Ya'ni sotsiogenetik nazariyaga biogenetik nazariyadan farqli ravishda avloddan avlodga irsiyat yo'li bilan o'tmaydigan, ijtimoiy hayot jarayonida tarbiya va ta'lim vositasida o'zlashtiriladigan xulq-atvor me'yorlari, madaniyat namunalari kiradi. Axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi yosh avlodning xatti-harakati, xulq-



Emil Dyurkgeym (1858-1917)
Fransuz olimi, faylasuf-sotsiolog

¹² Madaniyatshunoslik asoslari. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun qo'llanma. Toshkent-2006. 40-bet.

atvori va faoliyatini tartibga solishdan va uning madaniy ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Madaniyat insonni hayvondan, jamiyatni esa tabiatdan farqlaydigan sifatiy belgi, faqat inson va jamiyat uchun xos bo‘lgan, uning xatti-harakatlari, faoliyati va mehnat mahsulotlarida namoyon bo‘ladigan bilimlar, tajribalar, ko‘nikmalar majmuasidir.

Madaniyat ijtimoiy borliqning eng zaruriy sharti va asosi hisoblanadi. U endigina dunyoga kelgan insonga nisbatan tashqi, yot va begona kuch sifatida o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Yangi tug‘ilgan go‘dak ota-bobolari amal qilib kelgan axloqiy me’yorlar, madaniyat namunalarini avvalo ko‘r-ko‘rona taqlid qilish orqali, keyinroq esa, so‘z va tushunchalar orqali tarbiya jarayonida o‘zlashtirib boradi. Biogenetik dastur ota-onadan irsiyat yo‘li bilan o‘tar ekan, mavjudot sifatida hayot kechirishi va ehtiyojlarini qondirishi (ovqatlanishi, uxlashi, zararli narsa va hodisalardan himoyalanishi, o‘zidan nasl qoldirishi va h. k.) uchun muhim vosita, tabiiy qurol bo‘lib xizmat qiladi. Madaniyat namunalari aqli mavjudot bo‘lgan inson hayotining zaruriy sharti sifatida endigina dunyoga kelgan chaqaloqning xatti-harakati, xulq-atvoriga uzlusiz tarbiya jarayonida ishontirish yoki majbur qilish yo‘li bilan singdiriladi. Inson mohiyatan madaniyat tashuvchi va madaniyat yaratuvchi mavjudot hisoblanadi. Madaniyat namunalari shaxs, jamiyat va millatning o‘zligini anglashi va namoyon etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs madaniyati, jamiyat madaniyati va milliy madaniyat — umumbashariy madaniyatning turli darajadagi shakllari hisoblanadi.

Inson xatti-harakati va xulq-atvorini tartibga solish kishilik jamiyatining shakllanishida muhim omil hisoblangan. Buyuk nemis faylasuflari Immanuel Kant va Zigmund Freydlar o‘z tadqiqotlarida jinsiy hayotni tartibga solish, oilaning paydo bo‘lishi (ya’ni madaniyatning paydo bo‘lishi) insonning hayvonot olamidan ajralib chiqishi va kishilik jamiyatining vujudga kelishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lganligini ta’kidlagan edilar. Boshqacha qilib aytganda, inson faqat mehnat tufayli madaniyat yaratgan emas, balki, aksincha, madaniyat tufayli inson o‘z xatti-harakatini tartibga solish, oila va jamoa bo‘lib yashash, mehnat qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan. Insonga xos

fazilat va sifatlarning shakllanishi axloqiy madaniyatning rivojlanishi bilan, jamiyat inqirozi esa madaniyatning umumiylarini tanazzuli bilan uzviy bog‘liq ravishda ro‘y beradi.

Madaniyatning rivoji va ijtimoiy munosabatlarning takomillashib borishi bir-biri bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan jarayondir. Yuqorida ta’kidlanganidek, madaniyat namunalari keng xalq ommasi tomonidan mexanik tarzda emas, balki ijtimoiy hayotning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ilg‘or kishilar, ziyolilar, ilm-fan ahllari tomonidan yaratiladi, jamiyatning asosiy ko‘pchilik qismi esa madaniyatning ilg‘or namunalarini o‘zlashtirish va ijtimoiylashtirish jarayoniga tortiladilar. Ma-daniyatdagi umumiylarini inqiroz madaniyatning ilg‘or namunalarini yaratuvchi elita — sara toifa bilan keng ommaning ma’naviy salohiyati o‘rtasidagi tafovut va ziddiyat bilan bog‘liq ravishda ro‘y beradi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda, ilmiy va badiiy ijodda shaxs erkmligining tobora ortib borishi madaniy rivojlanishning mezoni hisoblanadi.

Shaxs erkinligi strukturasida, shubhasiz, siyosiy erkinlik juda muhim o‘rin egallaydi. Insoniyat o‘zining madaniy taraqqiyot jarayonida siyosiy boshqarishni takomillashtirish, davlat va nodavlat tashkilotlari tizimini yaratishda muayyan tajriba va bilimlar orttirdi. Davlat va uning tarixiy shakllari insoniyatning madaniy-ma’naviy taraqqiyoti, shaxs erkinligi darajasining ortib borish tendensiyasining qonuniy natijasi sifatida vujudga keldi. Jamiyatda siyosiy boshqarishning qanday shakli (monarxiya, aristokratiya, demokratiya)ning amal qilishi jamiyatdagi ilg‘or qatlamlarning madaniyatiga bevosita bog‘likdir.

Jahondagi ko‘plab xalqlarning madaniy rivojlanish tarixi gomogen madaniyatning geterogen madaniyatga o‘tib borishidan dalolat beradi. o‘zbekiston xalqlarining keyingi ikki asr davomida Yevropa xalqlari, xususan, Rossiya madaniyatining ilg‘or yutuqlarini o‘zlashtirishi, shubhasiz, ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim ijobiy o‘zgarishlarni vujudga keltirdi. Ilg‘or o‘zbek ma’rifatparvarlari, ziyolilar, jadidlar rus madaniyatining ilg‘or namunalarini har tomonlama chuqur o‘rganishga da’vat etish orqali o‘lkaning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o‘zgarishlar qilishga umid bog‘laganlar.

Madaniyatning jamiyat hayotidagi ahamiyatini haddan tashqari bo‘rttirish ham, uning ahamiyatini kamsitish ham birday xatodir. XVIII asrda fransiyalik olim Jan Jak Russo madaniyatning ahamiyatmi haddan tashqari bo‘rttirishga qarshi tabiiy insonning axloqiy ustunligi g‘oyasi va tabiatga qaytish shiorini ilgari surgan edi.

XX asr boshlarida taniqli nemis faylasufi Fridrix Nitsshe madaniyat strukturasida fan va texnika yetakchi mavqeni egallab, hayotning rivojiga imkon bermayotganhangini keskin tanqid qilgan edi. Zigmund Freydning fikricha, madaniyat o‘zining axloqiy me’yorlari, talab va qadriyatlari bilan dastavval kishilik jamiyatining paydo bo‘lishida muayyan ijobiy rol o‘ynagan bo‘lsa, keyinchalik o‘zining taqiqlovchi talablari, qafiy me’yorlari bilan kishilik jamiyati rivojiga xalaqit bera boshlagan.

O‘tgan asrning 60—70 yillarida qator g‘arb mamlakatlarida madaniyatga qarshi kurash harakati keng quloch yozdi. Bu harakat o‘z atro-figa Russo, Nitsshe, Freyd g‘oyalarining tarafdorlarini, talaba-yoshlarni birlashtirdi. Ular «ommaviy madaniyat» qadriyatlarning keng yoyili-shiga, fan va texnika fetishizmiga qarshi kurash boshladilar. Madaniyatni tanqid qilish uning jamiyat hayotidagi ahamiyatini butunlay inkor etish emas, balki uning ahamiyatini yana ham chuqurroq idrok etish, uning inson yaratuvchanlik funksiyasini kuchaytirish demakdir. Madaniyat uchun ayni bir vaqtida ham statika (barqarorlik), ham dinamika (rivojlanish, o‘sish) jarayonlari xosdir.

Muayyan me’yorlar, andozalar, bilim va qadriyatlар majmuasi sifatida madaniyat ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlashga yaqindan yordam beradi. Madaniyatning barqarorlikni saqlash funksiyasi konservativm xavfming kuchayishiga olib kelishi mumkin. Madaniyat jarayon sifatida bir joyda uzoq vaqt to‘xtab turolmaydi: jamiyatning ilg‘or ziyolilari, ijodkor qatlami uning yuksakroq namunalarini yaratadilar; natijada, madaniyatga xos an‘anaviylik novatorlik bilan uyg‘unlashadi. Yangilikdan eskilik, progressivlik va konservat borlik, milliylik va umuminsoniylik o‘rtasidagi tafovut va ziddiyat jarayonida madaniyat faol rivojlanadi va ta’sirchan kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyat taraqqiyoti yo‘lida paydo bo‘lgan muammolarning tez va oqilona hal etilishi keng xalq ommasi madaniy darajasining yuksalishiga, ilg‘or

shaxslar tomonidan yaratilgan madaniyat namunalarining qanchalar tez o'zlashtirilishiga bog'liqdir. Keng xalq ommasining ma'naviyatini yuksaltirish milliy madaniyatning rivojlanishida, ijtimoiy muammolarni oqilona hal etishda muhim ahamiyatga egadir.

Demokratik jamiyat turli millat va xalqlar, ijtimoiy guruhlar va sinflar o'rtasidagi hamkorlik, o'zaro ta'sir munosabatlari asosida rivojlanadi. Har bir xalq, millat va ijtimoiy guruhning turmushi, hayot sharoitlari, fikrlash tarziga mos ravishda o'ziga xos madaniyat vujudga keladi. Turli xalqlar o'rtasida turlicha madaniyatning vujudga kelishida tabiiy-geografik sharoit, iqlim, mehnatni tashkil etish usullari muhim rol ynaydi. Milliy madaniyatdagi individuallik, o'ziga xoslikka haddan tashqari ko'p urg'u berish oxir-oqibatda milliy mahdudlikka, jahon sivilizatsiyasidan uzilib qolishga, va nihoyat, turli milliy madaniyatlar o'rtasida ixtiloslar kelib chiqishiga olib kelishi mumkin. Mulkchilikka bo'lgan munosabatlarning xilma-xilligi turli ijtimoiy guruhlar, sinflar madaniyatida o'ziga xos tafovutlarni keltirib chiqaradi. Shahar va qishloq madaniyati, ziyorilar va omma madaniyatining bir-biridan farqlanishi aslo bejiz emasdir. Bunday tafovutlar mehnatni tashkil etish usullari, mulkchilikka turli munosabatning mavjudligi bilan bog liq bo'lib, bu tafovutlarni sun'iy ravishda kuchaytirish ham, ularni zudlik bilan yo'qotish ham jamiyat uchun noxush oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy mobillik (ijtimoiy sinf va guruhlarning harakatchanligi yoki moslashuvchan) bozor munosabatlari sharoitida obektiv ravishda amal qiladigan muhim qonuniyat bo'lib, Boshqacha qilib aytganda, kasb etikasi ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirishda qanchalar muhim ahamiyatga ega bo'lgani singari turli sinflar, ijtimoiy guruhlar madaniyatining o'ziga xosligini bilish, idrok etish ham jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarning integrallashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Emil Dyurkgeym ta'kidlaganidek, mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy birdamlikning yanada mustahkmalanishi uchun puxta zamin yaratadi, yangidan-yangi kasb va mutaxassislarning paydo bo'lishi ijtimoiy guruh va qatlamlar o'rtasidagi aloqadorlikni yanada kuchaytiradi.

Sobiq sovet jamiyatida milliy madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlarni zudlik bilan yo'qotishga urinish noxush oqibatlarni keltirib chiqargani sin-

gari turli ijtimoiy guruhlar va sinilar madaniyati o‘rtasidagi o‘ziga xoslikni nazar-pisand qilmaslik ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda istiqomat qilayotgan oz sonli xalq va millatlarning milliy madaniyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, milliy markazlar tashkil etishga alohida e’tibor berila boshlandi. Prezident I. Karimov ta’kidlaganidek, «har qanday millat, u naqadar kichik bo‘lmasin — insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo‘q bo‘lib ketishi yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi»

Har bir milliy madaniyat insoniyat madaniyatidan ajralgan holda rivojlna olmaydi. Milliy madaniyatlar bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi, bir-birini boyitadi va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarini yanada takomillash-tirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Har bir xalq o‘zining noyob, betakror va o‘ziga xos milliy madaniyati bilan insoniyat madaniyati tarkibida munosib o‘rin tutadi. Mamlakatimizda demokratik o‘zgarish-larning yanada chuqurlashishi va fliqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi, o‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo‘silib borishi jamiyatimizning madaniy taraqqiyoti yo‘lida paydo bo‘lgan muam-molarni oqilona hal etishni, Yer yuzidagi ilg‘or xalqlar madaniyati yutuqlarini chuqur o‘rganishni taqozo etadi. O‘zbekistonning qator Yevropa mamlakatlari bilan iqtisod, siyosat, madaniyat sohasidagi o‘zaro hamkorligi, iqtidorli yoshlarimizning xorijdagi oliy o‘quv yurtlarida tahsil ko‘rishi, ilg‘or xalqlar bilan madaniy muloqotda bo‘lishi, shubhasiz, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlaming muhim tayanchi bo‘lib xizmat qiladi.

Xullas, hozirgi zamon madaniyatshunosligida madaniyat va jamiyatning o‘zaro ta’siri va munosabatini ilmiy asosda tadqiq etish g‘oyatda dolzarb masaladir. Madaniyat tushunchasi taraqqiyot, yangilikka intilish, ma’naviy yangilanish, yaratish, yaxshilik va ezgulikni avaylab-asrash, qo‘llab-quvvatlash bilan uzviy bog‘liq ekan, jamiyat hayotini madaniyatsiz, madaniyat rivojini esa sog‘lom ijtimoiy munosabatlar tizimisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Madaniyat o‘zining tub mohiyatiga ko‘ra milliylik va umuminsoniylikning uzviy birligi sifatida namoyon

bo‘lar ekan, har bir yangi avlodga uzoq ajdodlarimizning bilimi, tajribasi, qadriyatlari, ko‘nikma va malakalaridan bahramand bo‘lish imkonini berish, xalqlami bir-biri bilan yaqinlashtirish, ijtimoiy totuvlik va bar-qarorlikni ta’minlash buyuk gumanistik vazifadir. Jamiyat va insonga madaniy hodisa sifatida qarash madaniyatning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyatini teranroq anglashga yordam beradi. Zero G‘arbiy Yevropa olimlarining tadqiqotlarida madaniyat va jamiyat tushunchalarining bir xil ma’noda qo‘llanilishi ham beziz emasdir.

Madaniyat va sivilizatsiyaning o‘zaro munosabatini tadqiq etish madaniyat va jamiyatning o‘zaro ta’sirini teranroq tushunishimizga yaqindan yordam beradi.

3. Madaniyatning asosiy ijtimoiy funksiyalari.

Madaniyatning o‘zi serqirra bo‘lganidek, u bajaradigan funksiyalar ham xilma-xildir. Shunday bo‘lsa-da, birinchi navbatda madaniyatning bilish funksiyasini alohida qayd etish lozim.

Madaniyat ijtimoiy taraqqiyotga turli-xil usullar, yo‘llar va shakllar bilan singib boradi. Ayni mazkur usul, yo‘l va shakllar ijtimoiy holatda bo‘lishi inson faoliyatining sub’ektiv-shaxsiy tomonlarini ifodalaydi, hayotiy faoliyat jarayonlarini tartibga solish va muvofiqlashtirish vositalarini o‘zida jamlaydi.

Madaniyatning ijtimoiy funksiyalariga inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlar, kuzatuvlar, tajribalar kabilarni saqlab qolish, uzoq va boy tarixdan, ajdodlardan qolgan madaniyatni, madaniy merosni keyingi avlodlarga yetkazish vazifalari ham kiradi.

Har bir ijtimoiy guruh, millat, jamiyat madaniyatida tevarak olamni bilish natijalari aks etadi. Odatda ma’lum bir davr madaniyatini shu davrda olamni anglash, bilish darajasidan kelib chiqqan holda baholaymiz. Olamni bilish natijalari aksariyat hollarda sof madaniyat chegarasini yorib chiqib, keng ma’nodagi tarixiy jarayonning tarkibiy qismiga, jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanib ketadi. Masalan, kosmik uchish apparatlarining yaratilish jarayonini olaylik. Kosmik uchish vositalarini yaratish, koinotga parvoz qilish insoniyatning azaliy orzusi edi. Nihoyat kosmik uchish apparatlari yaratildi, inson koinotga parvoz

qildi ham. Kosmonavtikaning keyingi rivojlanishi shunga olib keldiki, endi u jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, hatto harbiy jarayonlarning kechishiga faol ta'sir ko'rsatadigan bo'lib qoldi. Shu tariqa loyihalar va chizmalarda bo'lgan, sinalgan kosmik apparatlarning haqiqatan paydo bo'lishi uni fan, demakki, madaniyatga xos bo'lgan hodisadan ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatuvchi omilga aylantirib yubordi. Bu avvalo kosmik apparatlar yordamida gaz, neft va boshqa yer osti qazilma boyliklarini, dengiz va okeanlardagi baliq zahiralarini topish, hisobga olish, dunyoning turli chekkalarini kosmik aloqa yordamida bir zumda bog'lay olish imkoniyatlari tobora kengayib borayotganida ayniqsa yaqqol ko'rindi.

Kosmonavtika taraqqiyoti harbiy quroq-aslahalar takomillashuviga ham keskin ta'sir qildi. Ommaviy qirg'in qurollarini hatto kosmosga olib chiqish imkoniyati paydo bo'ldi. Kosmosdan faqat tinch maqsadlarda va umuminsoniy taraqqiyot yo'lida foydalanishning dolzarb masalaga aylanishiga olib keldi. Shu tariqa muhim iqtisodiy va harbiy omilga aylangan kosmonavtikaning rivoji xalqaro munosabatlar, muzokaralarning muhim va doimiy ob'ekti bo'lib qolmoqda. Tevarak olam sirlarini tushunishga intilish natijasida paydo bo'lgan bilimlar insoniyat rivojlanishining muhim omiliga aylanib ketganini ko'rsatuvchi bu kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Madaniyat nafaqat tevarak olamni, balki insonni o'rabi turgan ijtimoiy voqelikni bilishga intilish natijasi hamdir. Shu jihatdan olganda, madaniyat ijtimoiy guruh, millat, jamiyatning o'z-o'zini anglashining hosilasidir. Chunki madaniyatda kishilar birliklarining ehtiyojlari va manfaatlari, o'ziga xosliklari, jahon tarixida tutgan o'rni, turli ijtimoiy tizimlarga bo'lgan munosabati o'z ifodasini topadi.

Albatta, u yoki bu hodisa so'f madaniyat chegarasidan chiqib, tarixiy taraqqiyotning elementiga aylanishi uchun malum bir shart-sharoit mavjud bo'lishi kerak. Ya'ni, birinchidan, jamiyatning umumiyl tafakkur darajasi yuzaga kelgan yangi bilimni qabul qilishga tayyor bo'lishi va, ikkinchidan, uni tekshirib ko'rish, tasdiqlash yoki inkor etish imkoniyatiga – zarur vositalar, moddiy-moliyaviy resurslarga ega bo'lishi lozim. Aks holda u tarixiy rivojlanish elementiga aylanmay, ma'lum bir

ma'rifiy hodisa sifatida qolib ketishi mumkin. Buyuk bobokalonimiz Beruniyning "G'arbiy yarim sharda quruqlik bor" degan fikrlari bilan ana shunday bo'ldi. Jamiyatning uni qabul qilishga tayyor emasligi tufayli o'sha paytda bu g'oya o'zining haqli bahosini topmadi. Oradan bir necha asr o'tgandan so'ng G'arbiy yarim sharda quruqlik borligi haqiqatan tasdiqlandi. Bu insoniyatning o'zi yashab turgan ona-zamin to'g'risidagi tasavvurlarining butunlay o'zgarishiga olib keldi. Ayni paytda, G'arbiy yarim sharning "o'zlashtirilishi", garchand ziddiyatli kechgan bo'lsada, uni yagona insoniyat taraqqiyotining tarkibiy qismiga aylantirdi.

Madaniyatning bilish funksiyasi bilan axborot (informativ) funksiyasi uzviy bog'liq. Madaniyatning axborot funksiyasining maz-muni to'plangan ijtimoiy tajriba, bilim, malakani uzatishda ko'rindi. Bu tajriba, bilim ma'lum bir rivoyatlar, fan, adabiyot, san'at asarlari orqali yangi avlod tomonidan qabul qilib olinadi, o'zlashtiriladi. Bunday uzatish "vertikal" – o'tmish avlodlardan yangi avlodlarga va "gorizontal", ya'ni ayni bir tarixiy davrda yashovchi kishilardan kishilarga, bir xalqdan ikkinchi xalqqa uzatish ko'rinishida sodir bo'ladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloq hayotga qadam qo'yar ekan, avvalo o'zini bevosita o'rab turgan kishilar – ota-onas, aka-opalari yordamida to'plangan tajribani o'zlashtirib boradi. Keyinchalik bu doira kengayib borib, unga ta'lim tizimi, fan adabiyot, san'at asarlari kelib qo'shiladi. Inson endi ular yordamida o'tmishda to'plangan tajribani o'zlashtira boradi. Bu tajriba, bilim esa, unga har bir kuzatilayotgan hodisani o'z tanasida his qilish, sinab ko'rish, tekshirish zaruriyatini yo'qqa chiqarib, oldin erishilgan natijalarni faoliyat dasturi sifatida qabul qilishga olib keladi.

Qizig'i shundaki, ushbu fikrlarni o'qiyotgan o'quvchi ham uning yordamida madaniyat kabi murakkab ijtimoiy hodisa haqidagi o'tmishda bo'lgan qarashlar bilan tanishib, madaniyatning rivojlanish qonunlari to'g'risida ma'lum bir tasavvurga ega bo'ldi. Demak, ushbu o'quv qo'llanma ham ma'lum bir madaniy-ma'rifiy hodisa sifatida madaniyat falsafasi ilmi sohasida to'plangan tajribani uzatishga xizmat qildi, boshqacha aytganda, axborot funksiyasini bajardi, deb aytish mumkin.

Madaniyatning axborot funksiyasining mazmuni to‘plangan tajribani “gorizontal” shaklda uzatishda yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Agar tajribani uzatishning bunday shakli bo‘lmaganda edi har bir xalq aytaylik, velosipedni, muzlatgichni o‘zicha, yangidan yarataverган bo‘lar edi. Hayotda esa bunday emas. Bir xalq madaniyatida erishilgan ahamiyatli natijalar boshqa xalqlar tomonidan tayyor holda qabul qilinadi va milliy-madaniy hayotning tarkibiy qismiga aylantiriladi. Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti va demokratik huquqiy davlat asoslarini shakllantirayotgan mamlakatlar o‘zlarining milliy-tarixiy xususiyatlari, xalq turmush tarzi va mentaliteti hamda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bu sohada katta yutuqlarga erishgan davlatlar tajribasini o‘rganayotgani, tayyor holda qabul qilayotgani ham fikrimizning isboti bo‘la oladi.

Qayd etilgan mulohazalar madaniyatning axborot funksiyasi muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi. Zero, madaniyatning axborot funksiyasi bo‘lmaganda edi har bir avlod o‘z hayotini “nol”dan boshlayverishga majbur bo‘lar, insoniyat taraqqiyoti, madaniyatlarning boyishi haqida esa gapirish mumkin bo‘lmagan bo‘lar edi.

Madaniyatning axborot (informativ) funksiyasi kishilar o‘rtasida muomala, muloqot, o‘zaro ta’sir bo‘lgandagina yuzaga chiqadi. Bu madaniyatning ushbu funksiyasi uning aloqa (kommunikativ) funksiyasi bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Madaniyat muloqot orqali mavjuddir. Ayni paytda, madaniyat inson muloqot sohasining kengayishiga xizmat qiladi, kishilar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bevosita muloqot o‘tmish avlodlariga mansub kishilar, shuningdek, zamon-doshlarimiz bilan bilvosita muloqot orqali to‘ldiriladi. Biz Forobiy, Beruniy, Ibn Sino falsafiy risolalari, Lutfiy va Navoiy g‘azallarini, Qodiriy va Cho‘lpon romanlarini, Abdulla Oripov va Erkin Vohidovning go‘zal she’r va dostonlarini o‘qib, ularning dunyoqarashi, fikrlash tarzi bilan oshno bo‘lamiz, fikran so‘zlashamiz.

Shuni ta’kidlash lozimki, bevosita muloqot ham, bilvosita muloqot ham shaxs rivojlanishiga hamma vaqt ham birdek ta’sir ko‘rsatavermaydi. Aksariyat hollarda muloqot shaxsning ma’naviy kamoloti uchun xizmat qiladi. Ammo u shaxs hayotida hech qanday iz qoldirmasligi ham,

muayyan hollarda esa uning dunyoqarashi va xulqiga salbiy ta'sir qilishi ham mumkin.

Ilmiy-texnika inqilobi asrida ommaviy-axborot va kommunikatsiya vositalari – matbuot, radio, televidenie, internet ta'sirida bilvosita muloqotning doirasi kengayib bormoqda. Demakki, shaxs rivojlanishida bilvosita muloqotning roli ham o'sib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ommaviy-axborot va kommunikatsiya vositalari faoliyati jamiyat nazorati ostida bo'lmog'i lozim. Bu keng xalqaro munosabatlarga kirishib borayotgan, demokratik o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan respublikamiz uchun ayniqsa muhimdir. Chunki madaniyat bayrog'i ostida G'arb mamlakatlarida chuqur ildiz otgan fahsh, zo'ravonlik kabi xodisalarini targ'ib etuvchi san'at, adabiyot, kino asarlarining kirib kelishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Bu borada yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev o'z kitoblarida shunday deydi: “Avvalambor, «ommaviy madaniyat» ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlарimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz”¹³.

Zero, milliy ma'naviyatimizga zid bo'lgan bunday hodisalar asrlar davomida shakllangan qadriyatlarimiz uchun real tahdid hisoblanadi.

Madaniyat, bir tomonidan, kishilar o'rtasidagi bevosita va bilvosita muloqotni tartibga solsa, boshqa tomonidan, muloqotning o'zi madaniy hodisa sifatida baholanadi va biz bunday hollarda “muloqot madaniyati” degan tushunchani ishlatamiz.

Kishilar o'rtasidagi muloqot turli vositalar yordamida amalga oshiriladi. Har bir xalqning o'z milliy tili bor. Ayni paytda, har bir millat muloqotining rang-barangligini, mazmundorligini ta'minlaydigan o'ziga xos imo-ishoralar, raqs, musiqa, xulq-odob normalari tiliga ham ega. “Shashmaqom”, “Munojot”, “Tanoval”ni tinglab, xalqimiz tarixi, histuyg'ulari, kechinmalari, orzu umidlarini dildan his qilamiz, milliy axloq-

¹³ Shavkat Mirziyoyev. Asarlar. 1-jild. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. -2017. 89-b.

odob normalariga qulqoq tutar ekanmiz, undagi noziklik, insoniy mehr-muhabbat, hurmat va ulug‘vorlikni qalbdan anglaymiz.

Etnoslar tarixi va psixologiyasini aks ettiruvchi milliy tillar bilan bir qatorda hamma uchun barobar va tushunarli bo‘lgan, millatlararo muloqot va ilm-fan yutuqlarining tez tarqalishida muhim rol o‘ynaydigan internasional til – fan tili, uning tushunchalar va formulalar tili ham bor. XX asr qo‘llanish doirasi tobora kengayib borayotgan kompyuter “tillarini” ham yaratdi. Internet va kompyuter texnologiyalarining kishilar hayotidagi o‘rni va roli o‘sib borayotgan hozirgi davrda bu “tillar” axborotlarning uzatilishi hamda qabul qilinishida katta ahamiyat kasb etmoqda va vaqt bu jarayonlarning yanada tezlashayotganini ko‘rsatmoqda.

Madaniyat nafaqat kishilar o‘rtasidagi muloqotning amalga oshishiga, balki kishilar faoliyati va ular o‘rtasidagi munosabatlarni ham tartibga solishga xizmat qiladi. Bunda madaniyatning tartibga solish (regulyativ) funksiyasi namoyon bo‘ladi. Madaniyatning regulyativ funksiyasi kishilarning jamiyatdagi sharoitlarga muvaffaqiyatli ko‘nikishi uchun xizmat qiladigan turli normalarda ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ladi. Axloqiy, estetik, diniy, siyosiy, huquqiy normalar ana shular jumlasidandir.

Madaniyatning tartibga solish vazifasi marosimlar, urf-odatlarda ham yorqin ko‘rinadi. Albatta, har qanday madaniyat normasi kishining ichki e’tiqodiga aylangan taqdirdagina uning faoliyatini tartibga soluvchi omil sifatida chiqa oladi. Shuning uchun ham, biz kishilarning madaniyat normalarini qay darajada o‘zlashtirganini ularning turli sharoitlarda o‘zlarini qanday tutishlariga qarab bilib olamiz. Demak, kishilarning faoliyati, muloqotini tartibga solish, turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni ma’lum normalarga bo‘ysundirish madaniyatning muhim atributiv xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Kundalik hayotda har xil omillar ta’sirida o‘zimiz uchun yangi bo‘lgan qadriyatlarga duch kelib turamiz. Ularga biz o‘zimizda shakllangan madaniy qadriyatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib, ijobiy yoki salbiy, chiroyli yoki xunuk,adolatli yoki adolatsiz, deb baho beramiz. Bizga manzur yoki nomanzur bo‘lgan jarayon, voqe-

hodisalarini, adabiyot, san’at, kino asarlarini yaxshi yoki yomon hodisalar sifatida baholaymiz. Bunday paytda ayniqsa, baholanilayotgan hodisa o‘zga madaniyatga tegishli bo‘lsa, o‘zimiz mansub bo‘lgan madaniyat ruhimizga singdirgan qadriyatlar tizimi ustuvor bo‘ladi va butun bo‘ybasti bilan o‘zligini namoyon qiladi.

Shakllangan barqaror qadriyatlar tizimi, bir tomondan, ijobiy hodisalarini qabul qilib, madaniyatning boyishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, o‘ziga zid bo‘lgan hodisalarning ular xoh o‘tmishda, xoh hozirgi davrda yaratilgan bo‘lsin kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaydi, qarshilik ko‘rsatadi. Demak, madaniyatning aksilogik funksiyasi tufayli seleksiya, tanlanish sodir bo‘ladi, madaniyatdagi barqarorlik, har bir davrdagi ayniylik, o‘ziga xoslik, davomiylik, vorislik ta’milanadi.

Madaniyatning funksiyalari haqidagi mulohazalarga yakun yasab shuni aytish mumkinki, ularning barchasi madaniyatning bosh va asosiy – inson yaratuvchilik funksiyasining turli ko‘rinishlaridir. Negaki, har qanday madaniyat jamiyat manfaatlardan kelib chiqib, shaxsninng ma’lum tipini shakllantirish va kamol toptirishga xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Madaniyatning inson hayotidagi ahamiyatini qanday baholaysiz?
2. Ijtimoiy munosabatlar deganda nimalarni tushunasiz?
3. Abu Nar Farobiyning madaniyat va jamiyat haqidagi qarashlari haqida nimalar bilasiz?
4. Madaniyat va jamiyat tushunchalarining o‘zaro aloqadorligi nimalarda ko‘rinadi?
5. Madaniyatning eng asosiy ijtimoiy funksiyalarini sanab bering?

4-mavzu. MA’NAVIY MADANIYATNING STRUKTURAVIY ELEMENTLARI

Reja:

1. Axloqiy madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari
2. Din – ma’naviy madaniyatning muhim belgisi
3. Estetik madaniyatning mazmun-mohiyati

Tayanch iboralar:

Axloq, axloqiy madaniyat, din, estetik madaniyat, ma’naviy madaniyat, axloqiy norma, shaxs, struktura, madaniyatning strukturaviy elementi.

1. *Axloqiy madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari*

Bashariyat tarixi boshlaridanoq insonlar ma’naviy madaniyatni belgilashga, uning rivojlanish, shakllanish sabablarini aniqlanishga, ma’naviy boylik ijodkorlari va yaratguvchilari qanday belgilarga, sifatlarga ega bo‘lmoqlari lozimligi va ma’naviy ijodkorlik jarayonini izohlashga harakat qilganlar.

Har qaysi jamiyatning ma’naviy madaniyati tarkibiy qismi, katta bilim olami bo‘lib, u kishini qayerda yashashi va harakat qilishini, dunyodagi va jamiyatdagi o‘rnini ko‘rsatib berishga yordam beradi.

Fan, axloq, falsafa, din, huquq, siyosat, san’at, milliy o‘zlik va mafkura ma’naviy madaniyatning aynan shakllari hisoblanadi.

Ma’naviy madaniyatning yuqorida sanab o‘tilgan ba’zi shakllari (fan, san’at) “chegaralanganlikda” farq qiladi, ya’ni ular ma’naviy madaniyatning aniq sohasiga aylansa, boshqa shakllarida (axloqiy, estetik) faoliyatning hamma turlari qorishib ketadi.

Axloqiy madaniyat haqida gap ketganda, dastlabki o‘zbek matbuotchilaridan biri, tilshunos, tarixshunos va shoir Is’hoqxon Ibratning har qanday madaniyatni oziqlantirib turadigan omil yaxshi axloq ekanligiga dalolat qiluvchi quyidagi she’rini keltirish lozim:

*Madaniyat jahondan osoyish,
Xulq husni anga oroyish.
Madaniyat xaloyiqqa rohat,
Ko‘rmagay g‘amni hech soat.*

Turli xil tasavvurlar va g‘oyalar, ta’limotlar, ilmiy bilimlar, san’at asarlari va axloqiy mezonlar kabi ma’naviy madaniyatning turli shakllari ham mavjud. Bular o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, balki rivojlanishning ma’lum bir bosqichida turgan va o‘zaro ma’lum bir munosabatlarga kirishgan kishilar tomonidan yaratiladi. Demak, ma’naviy madaniyat ma’naviy faoliyat natijasi sifatida chiqayotgan hodisalarnigina emas, balki ularni yaratish jarayonida kishilar o‘rtasida yuzaga keladigan turli munosabatlarni ham ifodalaydi.

Inson ma’naviyatining eng qadimgi elementlaridan biri axloqdir. Axloq, axloqiy qoidalarning paydo bo‘lishi, sekin-asta shakllanishi, taraqqiy qilishi kishida insoniylik fazilatlarining shakllanishi uchun zamin yaratadi. Alovida olingan kishi faoliyatini, jamoa, jamiyat manfaatlarini tan olishga, unga bo‘ysundirishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj tufayli vujudga kelgan axloq ijtimoiy munosabatlarda nisbiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qildi. Hozirda ham mavjud axloqiy normalarning o‘zlashtirilishi inson ijtimoiylashuvining asosiy belgisi hisoblanadi.

Axloqiy madaniyat ham ma’naviy madaniyatning boshqa shakllari kabi murakkab strukturaga ega. U o‘z ichiga axloqiy qoidalar, tamoyillar, qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni, xususan, axloqiy ongni, ularni ro‘yobga chiqarish, singdirish, himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat va munosabatlarni qamrab oladi. Sodda qilib aytganda, axloqiy madaniyat deganda, mavjud axloqiy me’yorlarni, normalarni o‘zlashtirish va ularga rioya qilish darajasi tushuniladi.

Axloqiy faoliyat o‘zini ichiga axloqiy bilimlarni egallash, rioya etish, himoya qilish, singdirish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Axloqiy ong tushunchasi axloqiy faoliyatda namoyon bo‘ladi.

Axloqiy madaniyat so‘z va xatti-harakatlar birligida o‘zini yorqin namoyon qila oladi. Inson so‘zlarida biror narsani qayd etib, amalda o‘zi ularga rioya etmasligi, xushmuomalalik, tavoze, takalluf ortida g‘arazli manfaatlarni ko‘zlaydigan holatlar axloqiy madaniyatda mazmun va

shakl birligi, ular o'rtasidagi uyg'unlik muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Axloqiy faoliyat jarayonida insonlar o'rtasida tarkib topadigan o'zaro bog'liqlik va aloqadorlik – bu axloqiy munosabatlardir. Bunda, insonning jamiyatga, boshqa kishilarga va o'z-o'ziga munosabati uning axloqining indikatori sifatida yuzaga chiqadi.

Axloqiy madaniyatda me'yoriylik tushunchasining kuchli, shu jihatdan uning huquq sohasiga yaqin turishini alohida ta'kidlash lozim.

Axloqiy madaniyatni huquqqa yaqin tursada, ularning ikkisi orasida farqlar ham mavjud. Xususan, huquqiy tartibga solishning chegarasi, axloqiy tartibga solish chegarasidan tor ekanini ta'kidlash lozim. Chunki axloq huquqdan farqli o'laroq, ijtimoiy munosabatlarning alohida o'ziga xos sohalariga ham kirib bora oladi.

Huquq sohasi bo'ysunishga, ma'lum darajada zo'rlikka asoslangani sababli, maxsus apparat — davlat kuchiga, axloq esa odatda ichki e'tiqodga, ichki tuyg'uga, ijtimoiy fikrga suyanadi.

Huquqiy qoidalar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turish ehtiyojidan kelib chiqqan tarzda o'zgaradi va takomillashib boradi. Shu ma'noda huquq o'zgaruvchan, axloq esa nisbatan konservativ bo'lib, astasekin o'zgarishini ta'kidlash lozim.

Huquqiy normalar jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzilishi bilan belgilanadigan, davlat tomonidan o'rnatilgan, bajarilishi jamiyatning barcha a'zolari uchun umummajburiy bo'lgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalardir. Axloq normalari esa, ezgulik va yovuzlik, qadr-qimmat,adolat va nohaqlik haqidagi axloqiy tushunchalarga mos ravishda jamiyatda o'rnatilgan xulq-atvor qoidalari hisoblanadi. Axloqiy normalar urf-odat, namuna kuchi, jamoatchilik fikri ta'sirida vujudga kelaib, ularni bajarish ixtiyoriy va vijdonga bog'liq.

Axloq va huquq o'rtasidagi farqli jihatlar bilan birga, muayyan o'xshashliklar ham mavjud bo'lib, bu ayrim xatti-harakatlarning ham axloq, ham huquq tomonidan birday qoralanishida kuzatiladi.

Jamiyatning axloqiy madaniyati ustuvor axloqiy qadriyatlar, qarashlar, faoliyat va munosabatlar tizimining yaxlit ifodasi, shaxs axloqiy madaniyati ana shu tizimning individuallashgan shakli sifatida

namoyon bo‘ladi. Jamiyat axloqiy madaniyati shaxslar, individlar axloqiy madaniyati orqali mavjudligi ularning o‘zaro bir-birini taqozo etishida namoyon bo‘ladi.

Shaxs axloqiy madaniyatining shakllanishida uning kasb-kori, u yashayotgan milliy, madaniy muhit va diniy vaziyat, turmush tarzi ham muhim rol o‘ynaydi. Bular, shaxs axloqiy madaniyati namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos maydon sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxsning axloqiy madaniyatini shakllantirishda tizimli va maqsadli yo‘naltirilgan tarbiyaning o‘rni muhim ahamiyatga ega. Abu ali ibn Sinoning aytishicha, “Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi”, shuning uchun ham inson tarbiyali bo‘lishi va yaxshi narsalarga odatlanmog‘i lozim.

Shaxs axloqiy madaniyatida har bir insonga individual tarzda yondashish va axloqiy madaniyatni kamol toptirishning muhim yo‘nalishi bo‘lgan o‘z-o‘zini tarbiyalashga alohida e’tibor beriladi. Chunki, o‘ziga talabchan bo‘lish, o‘z qarashlari va faoliyatiga tanqidiy ko‘z bilan qarash kabi xislatlarni o‘z ichiga oladigan o‘z-o‘zini tarbiyalash mavjud axloqiy qoidalarni shaxsiy e’tiqodga aylantirishning muhim belgisi hisoblanadi.

Axloq shaxs hayoti hamda jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan insoniy fazilatdir. Inson axloqi orqali kamolotga erishadi, uning kamolotga erishishi o‘z navbatida jamiyat rivojiga hissa qo‘shadi. Shunday ekan, shaxs axloqi jamiyat axloiy madaniyatini oshirishda xizmat qiladi.

2. Din – ma’naviy madaniyatning muhim elementi

Inson ma’naviy madaniyatining eng qadimiylaridan bo‘lgan din — (arabcha – itoat, ishonch, ishonmoq, yo‘l tutish) insonning yuksak ideallari, haq, haqiqat, insof,adolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan asosiy tushunchalardan biri. Din olam va odamning mohiyati, kelib chiqishi, rivojlanishi va istiqbolini anglashga intilish natijasi, insonni muayyan bilimlar, qadriyatlar, hayotiy mo‘ljallar bilan qurollantirishning alohida, o‘ziga xos usulidir. Bu dinning inson hayotida beqiyos ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi.

Tarix diniy tasavvurlar turli narsalar, predmetlar, jonzotlarga sig‘inishdan, muayyan sohalarni boshqaruvchi, ular uchun “mas’ul”

bo‘lgan, hamma narsani ko‘ra biluvchi xilma-xil xudolardan (politeizm) yagona va hamma narsaga qodir, sherigi bo‘lmagan yagona xudo (monoteizm) gacha bo‘lgan bosqichlardan iborat uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tganini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda milliy hayotni dindan tashqarida tasavvur qilish nihoyatda qiyin. Bu dinning kishilar turmushining turli sohalariga kirib borganida, madaniyati, urf-odatlari, an'analariga singib ketganida ko‘rinadi. Bunday uyg‘unlashuv shunchalik kuchlik, ba’zan qaysi qadriyatlar diniy, qaysi milliy ekanini ajratib olish nihoyatda mushkul.

Millat hayotidagi dinning o‘rni haqida gap ketar ekan, milliy madaniyatning diniy manbalar, diniy adabiyotlar, san’at asarlari deb ataladigan madaniyat durdonalari, turli yo‘nalishdagi falsafiy-diniy ta’limotlardan tashkil topgan maxsus qatlami ham shakllanganini aytish lozim. Mazkur qatlamsiz milliy madaniyatning bir butunligini tasavvur qilib bo‘lmaydi, bu holat amaliy jihatdan mumkin ham emas.

Ma’lumki, uzoq vaqt davomida madaniyatimizning ana shu qatlamini o‘rganish man qilingan edi. Istiqlol tufayligina dinga, diniy merosimizga munosabat o‘zgardi. Davlatimiz bu sohada o‘zining ilmiy asoslangan siyosatini ishlab chiqdi va sobitqadamlik bilan hayotga tatbiq etib kelmoqda. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek: “Biz ota-bobolarimizning muqaddas dini bo‘lgan islom dinini qadrlaymiz, hurmat qilamiz, odamzot ruhiy dunyosida iymon – e’tiqodni, insoniy fazilatlarni mustahkamlashda uning o‘rni va ta’sirini yuksak baholaymiz”¹⁴. ushbu so‘zlarda xalqimizning o‘zligiga, tarixiga, diniga bo‘lgan munosabati o‘zining yorqin ifodasini topgan.

BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida katta minbaridan nutq so‘zlagan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev islom dinining asl mohiyati haqida quyidagi jumlalarni keltiridi: “Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz.

Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va

¹⁴ Karimov I. O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz. -T.: O‘zbekiston, 1999-y.

qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz.

Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi. Markaziy Osiyo Uyg‘onish davrining ko‘plab yorqin namoyandalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman.

Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o‘z ahamiyatiga ko‘ra islom dinida Qur’oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan “Sahihi Buxoriy”ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan.

Bu ulug‘ zotning g‘oyat boy merosini asrab-avaylash va o‘rganish, ma’rifatiy islom to‘g‘risidagi ta’limotini keng yoyish maqsadida biz Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qildik.

Toshkentda tashkil etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati ham shu maqsadga xizmat qiladi”¹⁵.

Mustaqillik yillarida dinga bo‘lgan ijobiy munosabat va e’tibor e’tiqod erkinligi, davlat va dinning o‘zaro munosabatlari mutlaqo yangi huquqiy asosga qo‘yilganida yaqqol ko‘rinadi. Buning natijasida Ramazon va Qurban hayitlari dam olish kunlari, deb e’lon qilindi, masjid va madrasalar diniy tashkilotlarga qaytarib berildi, ta’mirga muhtojlari esa restavratsiya qilindi va qilinmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, bunday inshootlar o‘z vazifasini bajarmoqda.

YuNESKOning “Dunyo xotirasi” ro‘yxatiga kirgan, hazrati Usmon davrida ko‘chirilgan nodir Mus’hafi sharif, Qur’oni Karim tafsiriga bag‘ishlangan Mahmud Zamaxshariyning “Al-Kashshof” asari, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasi va boshqa fondlarlarda saqlanayotgan ko‘plab nodir qo‘lyozmalar nafaqat xalqimiz, balki butun musulmon dunyosi va insoniyatning bebaho mulki hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Qur’oni Karimni to‘rt marta o‘zbek tilida nashr etilganini (1992, 2001, 2004, 2007-yillar), hadis to‘plamlarining tarjimasi, islom madaniyati, xususan, tafsir, hadis, fiqh, tasavvuf, kalom ilmlari rivojiga benazir hissa

¹⁵ <https://president.uz/oz/lists/view/1063>

qo'shgan allomalarimizning yuzlab kitoblari xalqqa yetkazilganini faxr bilan qayd etish lozim. Bugungi kunda Burhoniddin Marg'inoniyining "Hidoya", Imom Termiziyning "Sunan", Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddamat ul-adab" kabi asarlari xalqimiz ma'naviy dunyosining uzviy qismiga aylanganini ham alohida ta'kidlash zarur.

Buyuk mutafakkir ajdodlarimiz – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Najmuddin Kubro, Bahouddin Naqshbandiy, Hoja Ahror Valiyarning yubiley yilliklari keng miqyosda nishonlanganini ham madaniyatimizning betakror diniy - ma'rifiy qatlamini o'rganish orqali uning bir butunligini tiklash yo'lidagi ishlar sirasiga kiritish mumkin.

Mamlakatimizda islomiy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, allomalar va aziz avliyolarning muqaddas qadamjolarini tiklash, ularni ta'mirlash va obodonlashtirish borasida ham benazir ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Xususan, Samarqand viloyatidagi Imom Buxoriy, Imom Moturidiy ziyoratgohlari, Shohi Zinda majmuasi, Buxoro viloyatidagi Abduxoliq G'ijduvoniy va Bahouddin Naqshband, Farg'ona viloyatidagi Burhoniddin Marg'inoniy yodgorliklari, Surxondaryo viloyatidagi Hakim Termiziy va Imom Termiziy, Toshkent shahridagi Hazrati Imom majmuasi singari o'nlab qadamjolarni, muqaddas manzilgohlarni obod etish bo'yicha bajarilgan bunyodkorlik ishlari fikrimizning isboti bo'la oladi. Diniy-ma'rifiy merosimizni o'rganish, kelajak avlodlarga yetkazish, aholini islomning asl mohiyati haqidagi bilim darajasini oshirish va zamonaviy talablarga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor berilmoqda.

2024-yilga kelib mamlakatimizda 2200 ga yaqin masjid, 12 ta o'rta-maxsus islom bilim yurtlari va Toshkent islom instituti faoliyat ko'rsatmoqda. Hukumat qarori bilan bu ta'lim muassasalarini bitirgan talabalarning diplomlari davlat ta'lim hujjati sifatida tan olinadi. Mazkur dargohlarni bitirgan shaxslarga davlat oliy ta'lim tizimida o'qish imkoniyati ham berildi. Yaqin o'tmishta bitiruvchilarning bunday maqomi u yoqda tursin, diniy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi va

emin-erkin faoliyat ko'rsatishi haqida tasavvur qilishning o'zi mumkin emas edi.

Mustaqillik sharofati tufayli Vazirlar Mahkamasi huzurida Toshkent islom universiteti tashkil etildi. Ushbu universitet mamlakatimizda shunday yuksak maqomga ega yagona oliygoh ekani ham yurtimizda islom diniga bo'lgan e'tiborning namunasi hisoblanadi. Islom Konferensiyasi Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha ixtisoslashgan tuzilmasi (ISESCO) tomonidan 2007-yilda Toshkent shahriga "Islom madaniyati poytaxti" degan yuksak nom berildi. Bu butun O'zbekiston xalqi uchun katta tarixiy va madaniy-ma'rifiy voqeа bo'ldi. Bunday maqomning berilishida mamlakatimizning umumiy, jumladan, islom dini bilan bog'liq tarixi, islom sivilizatsiyasi va madaniyatiga qo'shgan hissasi, xalq hayotida islom diniga xos qoida va arkonlar, an'ana va qadriyatlarning o'rni, ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy-ma'naviy va boy meros inobatga olindi. Ayni paytda, bu qaror bugungi kunda ana shu noyob va mo'tabar merosni asrab-avaylash, chuqur o'rganish, keng omma, jumladan, jahon jamoatchiligiga yetkazish bo'yicha qilinayotgan ishlarning e'tirofi ham bo'ldi.

Shunday bo'lishiga qaramay e'tiqod erkinligini o'z bilganicha tushunadigan, dindan o'zining g'arazli siyosiy maqsadlarida foydalanishga urinayotgan kimsalar, kuchlar ham mavjudligini yoddan chiqarmaslik kerak.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 21-aprel kuni Toshkent shahrining Olmazor tumaniga tashrifi chog'ida Hazrati Imom (Xastimom) majmuasida Islom madaniyati markazini tashkil qilish taklifini bergen edi.

Shundan so'ng 2017-yil 23-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PQ-3080-son Qarorini imzoladi¹⁶, qarorga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etildi. 2021-yil 16-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5186-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom

¹⁶ <https://lex.uz/docs/-3600059>

sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror imzolandi. Mazkur markaz Xalqning bunyodkorlik qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda Uchinchi Renessansning ilmiy-ma'naviy poydevorini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy-diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, mamlakatning islom sivilizatsiyasini rivojlantirish borasidagi rolini yanada oshirish hamda buyuk allomalarning jahon tamadduniga qo'shgan hissasini milliy va xalqaro miqyosda ommalashtirish maqsadida o'z faoliyatini amalgalash oshirmoqda¹⁷.

Diniy bag'rikenglik, ya'ni turli dinga e'tiqod qiluvchilarining bir-birini tushunishi va o'zaro hurmat bilan munosabatda bo'lishi, hamkorlikda va hamjihat bo'lib yashashlari jamiyat hayotida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda, xalqimizga xos bo'lgan bag'rikenglikning ildizlari uzoq moziyga borib bog'lanishini ta'kidlash zarur. Tarixdan Markaziy Osiyo mintaqasi turli madaniyatlarning o'zaro to'qnashuvi, bir-biriga ta'siri va rivojlanishiga imkoniyat yaratgan. Bunga misol sifatida, Sharq va G'arbni birlashtirib turgan Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyodan o'tgani ko'rsatish mumkin.

Madaniy aloqalar, o'zaro ta'sirlashuv intensiv tarzda ayniqsa, Xitoy, Hindiston, Yaqin, O'rta Sharq, Kichik Osiyo, O'rta yer dengizi mintaqasi bilan amalga oshirilgan. Antik davrning olimlari asarlarida mintaqamiz, jumladan, bizning ajdodlarimizning tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlari haqida ko'p yozilgani ham qadim o'tmishda Markaziy Osiyo nafaqat Sharq, balki G'arb bilan ham chuqur aloqalar o'rnatganidan, xilma-xil dinlar o'zaro tinch-totuv va hamkorlikda yashagan markaz bo'lib kelganidan dalolat beradi. Bugungi ma'naviy uyg'onishimizning asosi bo'lib xizmat qilayotgan o'zbekona bag'rikenglik, xalqimizga xos etnik, madaniy va diniy sabr bardoshlilikning ildizlari ana shu davrlarga borib taqaladi.

Bag'rikenglik, sabr-toqatlilik boy madaniyatimizning benazir namunalarini saqlab qolish, asrlar sinovlaridan olib o'tish, kamol toptirish hamda o'zga madaniyatlarning ahamiyatli natijalari bilan boyitishga sharoit yaratdi. O'z navbatida bunday munosabat xalqimizga xos bo'lgan

¹⁷ <https://lex.uz/docs/-5514989>

xulq-odob tamoyilari, ma’naviy qadriyatlarning qo’shni xalqlar tomonidan qabul qilinishiga zamin yaratgani ham tarixiy haqiqat hisoblanadi. Xususan, azaldan o’lkamizda buddaviylik, zardushtiylik, nasroniylik, yahudiylik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan, masjid, cherkov, ibodatxonalar faoliyat ko’rsatgan. U joylarda turli dinga mansub bo’lgan xalqlar, qavmlar o’z diniy amallarini, ibodatlarini emin-erkin ado etgan. Vatanimiz tarixida diniy asosda mojarolar bo’lgan emas. Bu – yurtimiz xalqlarining diniy bag’rikenglik borasida katta tajribaga ega bo’lganini ko’rsatadi

Bugungi kunda mamlakatda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilot faoliyat ko’rsatayotgani, ularning o’z diniy ibodatlarini-marosimlarini o’tkazish, qadriyatlarini e’zozlash uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratilgani esa ana shu an'analar bardavomligini ko’rsatadi. Dunyoning turli burchaklarida ayricha dinga e’tiqod qiluvchilar o’rtasida nizolar, qonli to‘qnashuvlar kelib chiqayotgan bir paytda bu nihoyatda muhimdir.

Shunday bo’lsa-da, zamonaviy voqelik dinga, dindorlarning histuyg‘ulariga chuqur hurmat, ayni paytda, qo’shtirnoq ichidagi soxta dindorlar, turli diniy, mafkuraviy ta’limotlar, yo‘nalishlarning g‘arazli maqsadlariga qarshi muntazam va izchil kurash din va diniy munosabatlar sohasida olib borayotgan ishlarimizning o‘zagini tashkil etmog‘i lozimligini ko’rsatmoqda. Shundagina, el-yurt tinchligi, ijtimoiy taraqqiyot ta’milanadi, din ma’naviyatimiz yuksalishiga, kishilarimiz ongida o‘zaro yordam, hamkorlik va hamjihatlik ruhi ustuvorligini ta’minalash, mulk xilma-xilligi, moddiy farovonlikka intilish sharoitida poklik, diyonatlilik, o‘zgalar haqiga xiyonat qilmaslik kabi fazilatlarning turmush va tafakkur tarzining uzviy qismiga aylantirishga xizmat qiladi.

3. Estetik madaniyatning mohiyati

Estetik madaniyat axloqiy madaniyat kabi uzoq tarixiy ildizlarga ega bo’lgan ma’naviy madaniyat shakli hisoblanadi. Insonning tevarak-olamni va o’z-o’zini anglash, o’zgartirishga intilishining o‘ziga xos in’ikosi bo’lgan estetik madaniyatda madaniy meros, zamonaviy tajriba va istiqbol haqidagi tasavvurlar uyg‘un tarzda namoyon bo’ladi.

Shaxs, ijtimoiy guruhlar va jamiyat estetik madaniyati tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlarning ta'sirida har bir davrda konkret mazmun va muayyan o'ziga xosliklar kasb etib kelgan. Jumladan, alohida olingen shaxs, ijtimoiy guruhlar estetik madaniyatidan farqli ravishda jamiyatning estetik madaniyati san'at, uning turli shakllari, estetik tarbiya nazariyasi va amaliyotining rivojlanganlik darajasi, shu sohada faoliyat olib boradigan ijtimoiy institutlarning faolligi bilan ham xarakterlanishini ta'kidlash zarur. Shaxs va ijtimoiy guruhlar estetik madaniyati esa mos ravishda insonning ijtimoiy, ijtimoiy guruhlarning tarixiy tajribasi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Zero, estetik dunyoqarash, voqelikka aksiologik munosabat, mutanosiblik va mukammallik to'g'risidagi tasavvurlar hamda shundan kelib chiqib olib boriladigan amaliy faoliyat, bir tomonidan, mavjud tarbiyaning mohiyatiga, ikkinchi tomondan, to'plangan ijtimoiy va tarixiy tajribaning mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Estetik madaniyatning asosini tashkil etadigan, estetik his, qarashlar, did, maqsad, ideal va nazariyalarni o'zida mujassam etgan estetik ong o'ziga xos ma'naviy-ruhiy voqelik hisoblanadi. U oldingi avlodlar tomonidan shakllantirilgan, jamiyat hayotida muhim regulyativ funksiyani bajarayotgan estetik qadriyatlarga tayangan, ularni o'zlashtirgan holda shakllanadi va rivoj topadi. Ayni paytda, u ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga mos ravishda doimiy yangilanib, takomillashib boradi.

Uzviylik, ichki bog'liqlik va o'zaro taqozolanganlik mavjud bo'lsada, o'z mazmuniga ko'ra juda keng va boy bo'lgan jamiyat estetik ongi hayotning barcha tomonlarini, shaxs estetik ongi uning ma'naviy dunyosining bir qismini qamrab olishi bilan ajralib turishini alohida qayd etish lozim.

Shu bilan birga, jamiyat va shaxs estetik ongi o'rtasida kuchli o'zaro ta'sir mavjudligini ham ta'kidlash zarur. Jumladan, jamiyat estetik ongi alohida odam estetik ongiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi, uning rivojlanish yo'nalishini muayyan darajada belgilab beruvchi omil, ilgarilab ketish xususiyatiga ega shaxs estetik ongi esa jamiyat estetik ongi yangilanishi, yuksalishining manbai sifatida namoyon bo'ladi.

Estetik ong elementlarining axloqiy ma’no-mazmun bilan yo‘g‘rilgan bo‘lishi alohida ahamiyatga ega. Zero, shundagina u o‘zining yuksak ta’sir kuchiga, ulkan yo‘naltiruvchilik va uyushtiruvchilik qudratiga ega bo‘ladi.

Estetik madaniyat faoliyatda o‘zini namoyon etadi. Boshqacha aytganda, faoliyat estetik madaniyatning muhim elementi hisoblanadi. U inson va jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oladigan estetik ehtiyojlarning in’ikosi hisoblanadi. Bu ehtiyojlar estetik qadriyatlarni anglash, baholash, mukammallashtirish va mutanosiblikka intilishning in’ikosi hisoblanadi. Shu ma’noda, ma’naviy va moddiy jihatlarning birligi sifatida chiqadigan faoliyat jarayonida uning sub’ektlari tomonidan, birinchidan, estetik qadriyatlarni o‘zlashtirish, ikkinchidan, ularni o‘z tasavvurlari va ideallariga muvofiq qayta ishlash, takomillashtirish, uchinchidan, ijtimoiy ahamiyatga ega boyliklarni yaratish sodir bo‘ladi.

Qayd etilgan mulohazalar estetik faoliyatning, bir tomonidan, estetik qarashlar, kechinma, did va ideallar kabi estetik ong hodisalarini ifodalaydigan nazariy, ikkinchi tomondan, ularning turli predmetlar, san’at asarlarida gavdalantirilishini qamrab oladigan predmetli-amaliy darajasini farqlash imkonini beradi.

Turli ko‘rinishlarda chiqadigan, tabiiy va ijtimoiy voqelik hamda o‘z-o‘zini maqsadga muvofiq o‘zgartirish, qayta yaratish va mukammallashtirishga qaratilgan estetik faoliyat har bir davrda konkret tarixiy mazmunga ega bo‘ladi. Bugungi kunda xilma-xil shakllarda namoyon bo‘layotgan dizayn, xalq amaliy san’ati, ko‘cha va maydonlarni jihozlash kabi badiiy-amaliy faoliyat turlarining keng tarmoq otib, yangi mazmun kasb etayotgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi. Xulq, turmush tarzida go‘zallikni tarbiyalashga yo‘naltirilgan estetik faoliyat ham yangi shaklu shamoyil va mohiyatga ega bo‘lib, mukammallahib borayotganini qayd etish lozim.

Faoliyat jarayonida sub’ektning ob’ektga munosabati o‘zligini namoyon etadi. Bunda tarixan shakllangan, estetik munosabat sub’ektlari tomonidan e’tirof etilgan mezonlar o‘ziga xos belgilovchi omil sifatida chiqadi.

Estetik munosabat sub'ekt va ob'ekt aloqalarining o'ziga xosligiga asoslangani, hisssiy va rasional tomonlarning birligi sifatida chiqqani uchun ham insonning voqelikka biologik, gnoseologik va ijtimoiy-praktik munosabatlariga ham o'ziga xos rang bag'ishlaydi. Bunda o'z mohiyatiga ko'ra estetik idrok ob'ektlaridagi qismlar, shakl va mazmun, funksionallikdagi mutanosiblik va uyg'unlikka munosabat gavdalanadi.

Estetik madaniyat tizimida xilma-xil qirralarga ega estetik voqelikni yaratish orqali insonni tarbiyalashga xizmat qiladigan, kishilar faoliyatiga kuchli ta'sir o'tkazadigan san'atning alohida o'rni borligini ta'kidlash zarur. Bu o'rin uning go'zal xossa, xususiyat, xislat va fazilatlarni, xunuk hodisalar va ijtimoiy illatlarni badiiy timsollarda yoritish yo'li bilan insonning his-tuyg'ulari va tafakkurini uyg'ota olishdek xususiyati bilan belgilanadi.

Tarixan o'zgaruvchan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qilib kelgan san'at hamisha turli – ijtimoiy turmush, falsafiy, diniy, siyosiy qarashlar, axloqiy qoidalar kabi omillar ta'siri ostida rivojlanib kelgan. Ularning ichida mafkura o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu estetik merosdan foydalanish, dunyoning turli nuqtalarida yuzaga kelayotgan, yaratilayotgan xodisalarni o'zlashtirish jarayonida ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Chunki aynan ustuvor g'oyaviy-mafkuraviy qarashlar nimalar va qanday o'zlashtirilishini, nimalar qanday asoslarga ko'ra rad etilishini belgilab beradi.

San'atning mafkuraviy omillar, g'oyaviy maqsad muddaolar bilan qo'shib, uyg'unlashib ketishi unga o'ziga xos mafkuraviy qiymat bag'ishlaydi. Bunday qiymat san'atga ta'sir o'tkazayotgan mafkuraning mazmun-mohiyatiga bog'liq bo'ladi.

Mustaqillik sharofati tufayli bugungi kunda shaxs va jamiyat estetik madaniyatini yuksaltirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, insonning his-tuyg'ulari va tasavvurlari, did va ideallari, xattiharakatlari va xulq-atvoriga ta'sir o'tkazish orqali ijodiy faol, ezgu xislat-fazilatlari, bunyodkorlik va yaratuvchilik qobiliyati yuksak, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladigan estetik tarbiyani amalga oshirish, shaxsiy tashabbuskorlik, ijodiy g'oyalarni

ro‘yobga chiqarish uchun yetarli institusional, moddiy-moliyaviy va tashkiliy asoslar yaratilganini alohida ta’kidlash zarur.

Ayni paytda, hozirgi davrda jamiyat estetik madaniyatining o‘zagini tashkil etadigan san’atning yangi sohalari jadal rivojlanib borayotganini, mafkuraviy to‘sinq va tazyiqlardan xoli bo‘lgan holda ijod qilish imkoniyati paydo bo‘lganini, natijada jahon san’at maydonida o‘z o‘rniga ega milliy ijod namunalari yaratilayotganini faxr va iftixor bilan qayd etish lozim.


Nazorat uchun savollar:

1. Axloq va axloqiy qoidalar qachon paydo bo‘la boshlaydi?
2. Axloqiy madaniyat qanday munosabatlarni o‘z ichiga qamrab oladi?
3. O‘zbekistonda dinga bo‘lgan munosabatlarni qanday izohlaysiz?
4. Diniy bag‘rikenglik tushunchasiga ta’rif bering va uni jamiyatdagi o‘rnini qanday izohlaysiz?
5. Estetik madaniyatning asosini nimalar tashkil etadi?

5–mavzu. MADANIYAT, MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT

Reja:

1. Madaniyat tushunchasi talqini.
2. “Madaniyat” tushunchasining mazmuni
3. Ma’naviyat, madaniyat va ma’rifat, ularning o‘zaro munosabati.



*Lesli Alvin Uayt (1900-1975)
amerikalik antropolog, etnolog
va madaniyatshunos olim*

Tayanch iboralar:

*Madaniyat, ma’naviyat, ma’rifat, tarixiy
inersiya, shaxs va madaniyat, ma’naviy boyliklar.*

1. *Madaniyat tushunchasi talqini.*

Madaniyat insonning faoliyati jarayoni, uning natijasida yaratilgan ma’naviy qadriyatlar bo‘lib, o‘z navbatida shaxsning shakllanishi va kamol topishida muhim omil hisoblangan ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Madaniyat murakkab va serqirra hodisa. Har biri o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlariga, ichki rivojlanish mantig‘iga ega adabiyot, san’at, axloq, xalq og‘zaki ijodi kabi ko‘plab hodisalar uning turli sohalaridir. Ularning har biri inson bilimlari rivojlanib borishi bilan alohida ilmiy izlanishlar ob’ektiga aylandi hamda adabiyotshunoslik, estetika, etika, folklorshunoslik kabi mustaqil fanlarning shakllanishiga olib keldi.

Madaniyat tushunchasinig keng qamrovga egaligi haqida Jamoat arbobi, akademik, matematik olim, pedagog Qori Niyoziyning quyidagi so‘zlarini eslash joiz: “Madaniyat tarixi g‘oyat darajada murakkab bo‘lib, uning hamma tomonlarini o‘z ichiga olgan kitob hech qaysi bir tilda yo‘q va bo‘lishi mumkin ham emas”.

Ayni paytda, qanchalik murakkab va serqirra bo‘lmashin madaniyat yaxlit bir hodisa. U ham barcha ijtimoiy hodisalar kabi o‘zining rivojlanish qonuniyatlariga hamda yuksalishlar va turg‘unliklarga boy va betakror tarixiga ega. Bu tarix muayyan metodologiya va nazariy prinsiplarga tayangan holda o‘rganilsagina madaniyat rivojlanishidagi qonuniyatatlilik, izchillik va tadrijiylik yaxlit tarzda namoyon bo‘ladi. Madaniyat tarixi esa rivojlanish jarayonidagi o‘xshash tomonlar bilan bir

qatorda farqli, o‘ziga xos jihatlarni, xilma-xillikni, o‘zaro ta’sir va boyishdek jarayonni yorqin namoyish etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, madaniyat falsafasi madaniyatning mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari va istiqbolini yaxlit, bir butun hodisa sifatida o‘rganadi, deyish mumkin.

XX asrga keilb, madaniyat masalalariga va uni nazariy jihatdan o‘rganilishiga katta ahamiyat berilmoxda. Madaniyatshunoslik faniga XX asrning 50-60 yillarida asos solingan bo‘lib, uning asoschilaridan Amerika olimi Lesli Alvin Uayt (1900-1975) o‘zining “Madaniyat to‘g‘risidagi fan” (1949) “Madaniyat evolyutsiyasi” (1959), “Madaniyat tushunchasi” (1973) asarlarida madaniyatshunoslik faniga asos solganini, uning mustaqil fan sifatida bir tizimga keltirganligini ko‘rsatish mumkin. Lesli Uayt ilmiy dunyoqarashidagi o‘rta tushuncha — madaniyat aslida simvol (belgi)lardan tashkil topgan, degan tushunchadir. Madaniyat evolyusiyasi, Uayt fikricha, asosan, texnologik taraqqiyotdan iborat bo‘lib, u evolyutsiyaning “sosiologik”, “ideologik” va “sentimental” kabi o‘zaro bog‘liq muhim qismlariga kuchli ta’sir o‘tkazadi. Ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki shakli oila, kishilik jamiyati va madaniyat evolyutsiyasining negizi mulk hisoblanadi. Uayt o‘zining juda ko‘p asarlarida “antropolog” (etnolog)larni akademik tadqiqot qobig‘i bilan cheklanmay, katta nazariy va hayot o‘rtaga qo‘ygan amaliy masalalarni dadil hal qilishga chaqiradi.

Fanda to‘plangan keng va ko‘plab dalillar shuni ko‘rsatdiki, madaniyat jamiyat hayotining barcha sohalari uchun amal qiladi, ijtimoiy taraqqiyotning yo‘nalish dinamikasini, belgilaydi. Madaniyatni anglab yetish ijtimoiy hayotda iqtisod va siyosatni mutlaqlashtirish tamoyiliga qarshi chiqishga olib keldi. U yoki bu darajadagi iqtisod va siyosat shakllari, tizimlari turli madaniyat tiliga qarab har xil namoyon bo‘lishi mumkin. Shuningdek, madaniyat turlari u yoki bu iqtisod, siyosat shakllarini vujudga keltiradi. Bugungi kunda O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratish uchun avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishga oid ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy

meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san’atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta’minkash, madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. U yoki bu xalqning ilmiy madaniyati ijtimoiy hayotning konkret shakli, hayotning turli sohalarini tashkil etishning yangi mexanizmi bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat ko‘rsatmoqda. Demak, madaniyatni tahlil qilish hayotning barcha sohalari mazmunini ochib berish bilan uzviy bog‘liq.

Biz yangi jamiyat qurar ekanmiz, uning yo‘nalishi va kelajagi haqida fikr yuritar ekanmiz, madaniyatimizning real borligidan, uning konkret namoyon bo‘lishidan qocha olmaymiz. Balki uning ichki mantig‘iga kirib boramiz. Madaniyatni bir butun tahlil qilmay turib hayotni yaxlit tushunib, iqtisod, milliy xarakter, milliy qadriyatlar birligini hal qilib bo‘lmaydi. Madaniyat ijtimoiy hayotning bir butun tarzda tashkil topishini ko‘rsatadi.

Odamlarning turlicha qarashlari, fikr va xayollari, faoliyatları madaniyat tizimida birlashadi, tartibga tushadi. Bu esa jamiyatning tartibga tushgan tizimini tashkil etadi. Madaniyat tizimining bir butunligi va uning turlicha ifodalanishini, umuminsoniy madaniyat bilan milliy madaniyatning uyg‘unligini tahlil qilish madaniyat falsafasining fazifasidir. Madaniyat falsafasi madaniyatning bir butun birligi, uning tuzilishi, o‘ziga xos tomonlari tarixan shakllanishini o‘rganadigan amaliy falsafaning bir turidir. Madaniyat falsafasi inson faoliyatini o‘rganar ekan. undagi kutilmagan hodisalarning ayrim fanlar (jumladan, madaniyatshunoslik fani) hal qila olmaydigan tomonlarini, inson hayotidagi hal qilib bo‘lmaydigan paradokslar, abadiy muammolar haqida fikr yuritadi. Ana shunday hollarning mohiyatiga kirib boradi, uni tushunishga harakat qiladi.

Falsafada inson o‘zining madaniy mohiyati bilan namoyon bo‘ladi, falsafa uchun madaniyat inson faoliyati mahsuli va natijasidir. Falsafa voqelikning qaysi bir sohasiga murojaat etmasin, unda hamma vaqt insoniy ma’no va mazmunni ko‘radi, uni madaniyat sohasiga olib kiradi. Falsafa hatto tabiatga murojaat etganda ham uni kimyoviy, biologik yoki

fizikaviy emas, balki insoniylik mazmuni, muayyan madaniy qadriyat ekanligi jihatidan olib tekshiradi¹⁸.

Falsafa madaniyatni bir butun jarayon, borliq sifatida o‘rganadi. Madaniyat falsafasi ijtimoiy hodisalarning umumiy yo‘nalishi, dinamikasini falsafiy anglashga qaratilgan bo‘lib, madaniyatning ilmga, axloqiy fazilatlarga, dinga umid qilishini, ularning muvofiqligi va o‘zaro birligini o‘rganadi. Shuningdek, madaniyat falsafasi inson ma’naviy dunyosining o‘zaro aloqasini o‘rganadi. Madaniyat moddiylashadi, bu jarayon inson ma’naviy borlig‘iga kirib borgandagina inson mohiyatiga aylanadi. U hayot qalbi bilan birga yashaydi. Madaniyat inson ijodi bilan birga yashaydi, uning faoliyati insonlashgan ruh sifatida borliqqa kirib boradi. Shuning uchun inson yaratgan, arxitektura yodgorliklari, adabiyot, ashula va raqs, musiqa madaniyati, tasviriy san’at va madaniyatning boshqa turlari orqali inson ruhiy dunyosiga kirib borishga imkon beradi. Bu esa insonning betakrorligini ko‘rsatadi. Madaniyat inson mavjudligining asosi, yadrosi sifatida namoyon bo‘ladi, ko‘pincha, inson ma’naviy axloqiy pozitsiyasini belgilaydi; bu uni insoniylikka qarab yetaklaydi. Nemis faylasufi I. Kant ta’kidlaganidek, insonni falsafiy tushunish madaniyatni anglab yetishdir. Madaniyatni anglash insonning dunyoda tutgan o‘rni, dunyoga va boshqalarga bo‘lgan munosabatlarini falsafiy tushunishning shartidir. Mana shuning uchun XX asrda madaniyat, germenevtika, fanomenologiya, til falsafasi, antropologiya falsafasi, ruhiy tahlil kabi falsafiy oqimlarning tekshirish obyektiga aylandi.

Madaniyat falsafasi donolik ilmi sifatida madaniyatning ruhiy holatini namoyon qiladi, bu holatni ratsional (aqliy) — nazariy tafakkur doirasida tahlil qiladi, madaniyatning bir butunlilagini, umumiy yo‘nalishlarini o‘rganadi, madaniyatning ma’no va ahamiyati, turli ko‘rinishlari haqida fikr yuritadi.

Falsafa, sotsiologiya, adabiyotshunoslik va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar madaniyatni yaxlit, bir butun tizim sifatida emas, balki

¹⁸ Abdullaev M., Umarov E., Ochildev A. Madaniyatshunoslik asoslari. O‘quv qo‘llanma.- T.: Turon-iqbol, 2006. 8-bet.

faqat o‘z mavzui va vazifalari doirasida olib tekshirish bilan chegaralanadi.

Madaniyatshunoslik, ulardan farqli o‘laroq, madaniyatni yaxlit va har tomonlama o‘rganadi, uni asosiy tekshirish obyekti qilib oladi, tarixiy reallik sifatida qayd etadi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ta’sir etish qonuniyatlari negizida uni qarab chiqadi.

Keyinroq madaniyatni deyarli barcha xalqlarda, ma’naviy faoliyat sohasi sifatida tushunish ustuvor bo‘lganini alohida qayd etish kerak. Faqat XIX asr o‘rtalariga kelib “madaniyat” tushunchasi kengroq ma’noda –inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan narsalarga nisbatan ishlatila boshlangan. Bunday holatda madaniyat inson tomonidan yaratilgan, bokira tabiat ustiga qurilgan “ikkinchi tabiat” ma’nosini kasb etadi. Ayni paytda, mazkur qarash madaniyatni inson faoliyatining ma’lum bir sohasi bilan bog‘lab qo‘yish kerak emas, chunki inson, uning faoliyati, insonlararo munosabat bor joyda madaniyat ham bor, degan xulosani keltirib chiqaradi. Shunday bo‘lsa-da, madaniyatni “inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan barcha narsalar” deb tushunish ham yetarli va to‘liq hisoblanmaydi. Chunki bunday yondashuv madaniyatni insondan tashqarida mavjud bo‘lgan hodisa sifatida tushunishga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, madaniyat va jamiyat tushunchalarining nisbati ham oydinlashmaydi.

Madaniyat va jamiyat tushunchalarining farqi madaniyatni inson tomonidan yaratilgan qadriyatlar tizimi, deb tushunilganda ochiq namoyon bo‘ladi. Zero, haqiqatdan ham, madaniyat insoniy mazmun va ma’no bilan sug‘orilgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar dunyosi hisoblanadi. Bunday tushunish natijasida madaniyat jamiyatning ma’lum bir sohasi sifatida namoyon bo‘ladi. Albatta, madaniyatni faqat qadriyatlar tizimi sifatida tushunish ham to‘g‘ri va to‘liq emas. Chunki bunday yondashuvda ham madaniyat tayyor natijalar tizimi sifatida chiqadi, uning yaratilish jarayoni, dinamikasi e’tibordan chetda qolishi mumkin.

Boshqa mezonlarga asoslangan klassifikatsiyalar ham mavjud. Xususan, XX asrning 70 – yillarida rossiyalik olim Kertman Lev Efimovich madaniyatning g‘ayritabiyy, noorganik xarakterini ta’kidlovchi antropologik, uni ijtimoiy hayotning alohida, mustaqil sohasi sifatida talqin qiluvchi sotsiologik hamda sof abstrakt, analitik yo‘l bilan yondashilgan falsafiy ta’riflarini ajratgan edi.

“Madaniyat” tushunchasi ta’riflarining turkumlash ehtiyojini keltirib chiqaradi. Eng oddiy turkumlash doirasida madaniyatning jamiyatning butun hayotini qamrab oladigan keng va ma’naviy soha bilan bog‘lab talqin etiladigan tor ta’riflarini ajratish mumkin.

Ayni paytda, inson tomonidan yaratilgan hamma narsalar ham foydali emasligi, yoki o‘zga manfaat keltirmaydi demakki, uning taraqqiyotiga xizmat qilmasligini, u yoki bu hodisani ijobiy yoki salbiy deb qabul qilish tarixan belgilangan – davr, jamiyat, ijtimoiy guruahlarning qadriyatlar mo‘ljallariga bog‘liqligini ham inobatga olish lozim.

xilma-xilligi ularni



Kertman Lev Efimovich (1917-1987) Perm ilmiy maktabi asoschisi, tarixchi

2. “*Madaniyat*” tushunchasining mazmuni

“Madaniyat” atamasi dunyoning turli ilmiy adabiyotlarida turli xil ma’nolar bilan izohlanib kelgan.

Masalan, “Falsafa qomusiy lug‘ati”da **madaniyat** (arabcha — madinalik, shaharlik, ta’lim-tarbiya ko‘rgan) tabiat va o‘zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o‘ziga xos usuli, “Ma’naviyat” kitobida **madaniyat** (arabcha — shaharga oid, farovon maskan, taraqqiyot o‘chog‘i) — tabiat va o‘zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o‘ziga xos shaklini ifodalaydigan tushuncha, “Qisqacha falsafa lug‘ati” kitobida madaniyat (“cultura”) atamasidan olingan bo‘lib, parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini bildiradi, mumtoz lotin tilida madaniyat, yerga parvarish qilish, ishlov berish ma’nosida ishlatib kelingan. “Milliy istiqlol g‘oyasi” lug‘atida **madaniyat** —

(arabcha- shaharga oid) turlicha talqin etiladigan, murakkab va ko‘p ma’noli tushuncha, “Falsafa: izohli lug‘at”da **madaniyat** — lotincha “cultura” — yerga ishlov berish, parvarishlash ma’nosini anglatadi.

“Madaniyat” tushunchasi muayyan tarixiy zamon, davr, aniq bir jamiyat, elat va millat, shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o‘ziga xos sohalari (masalan mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati) kabilarni izohlash uchun qo‘llanilsa, tor ma’noda “Madaniyat” atamasi kishilarning faqat ma’naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi.

Madaniyat butun inson faoliyatini, kishilik dunyosini qamrab olgani uchun ham uni turli fanlar o‘rganadi va ularning har biri madaniyatning mohiyatiga o‘z vazifa va maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashadi. Masalan, arxeologiya fani uchun madaniyat tushunchasi bizgacha yetib kelgan, o‘tmishda yashagan kishilar faoliyatining modddiylashuvi natijasida chiqqan osori atiqalar bilan bog‘liq bo‘lsa, etnografiyaga ma’lum bir xalqning madaniyatini xilma-xillikning birligi sifatida o‘rganish xosdir.

Fransuz olimi Abram Mol XX asrning 60-yillarida madaniyatning 250 dan ziyod ta’rifi yaratilgani haqida ma’lumot bergen. Bugungi kunda madaniyat tushunchasining ta’rifi bundan ikki barobarga oshib 500 ga yaqin tariflari mavjud. Tariflarning ko‘pligidan kelib chiqib, asosiy e’tibor madaniyatning yagona, umumiyligi, oxirgi ta’rifini berishga emas, balki madaniyatning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyatini anglashga qaratilishi lozim.

Madaniyat tushunchasiga turlicha izoh berish tadqiqotchi yoki olimlarning qaysi dunyoqarash pozisiyasida turganiga ham bog‘liq. Lekin ma’lum bir dunyoqarash pozisiyasida turgan olimlar ham ko‘pincha madaniyat tushunchasiga turlicha mazmun beradilar. Bunday holatda masalaga yondashishdagi farq namoyon bo‘ladi. Ana shunday o‘ziga xosliklar tufayli madaniyatga umumiyligi, keng qamrovli, mohiyatli ta’rif berishga urinish hanuz to‘xtagani yo‘q.



Abraam Mol (1920-1992) Fransuz olimi, ijtimoiy-madaniy sohalar mutaxassisi

Madaniyat tushunchasiga falsafiy yondashuv xuddi shunday imkoniyatni beradi. Zero, falsafa uchun madaniyatning alohida, yakka-yakka ko‘rinishlarida emas, balki yaxlit, bir butun ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganishi qiziqroq. Masalaning bu tartibda qo‘yilishi unga “xususiy holatlardan xoli bo‘lgan holda madaniyatning o‘zi nima?” degan savolga javob berishga yo‘l ochadi.

Madaniyat so‘zi arabcha “madina” so‘zi va “iyat” so‘z yasovchi qo‘shimchasining birikishidan hosil bo‘lgan bo‘lib, aynan “shaharga oid”, degan ma’noni anglatadi. Lekin bu so‘z kirib borgan xalqlar tillarida, shaharlar ilm-fan, ma’rifat o‘chog‘i bo‘lib kelgani ta’sirida bo‘lsa kerak, u ma’rifatlilik, bilimlilik, tarbiya ko‘rganlik ma’nolarida ishlatila boshlangan¹⁹.

Ko‘pgina xalqlarda “madaniyat” tushunchasi o‘rnida lotin tilidan qabul qilingan “cultura” termini ishlatiladi. “Cultura” deganda dastlab tabiat ob’ektlarining inson mehnati natijasida o‘zgarishi, boshqacha aytganda, yerga ishlov berish, dehqonchilik bilan shug‘ullanish tushunilgan. Masalan, rus tilidagi “agrokultura” so‘zida ana shunday mazmun ifodalanadi. Shunday bo‘lsa-da, “cultura” terminining lotin tilidagi mazmuni rus tili orqali o‘zbek tiliga ham kirib kelganini ta’kidlash zarur. Xususan, qishloq xo‘jaligida “kultivatsiya” (kultivatsiya natijasida tuproqning havo va suv rejimi yaxshilanib, undagi mikrobiologik jarayonlar rivojlanadi) termini shu ma’noda ishlatiladi. Biz botanikada, ko‘pincha kundalik hayotda ham, “madaniy o‘simliklar” degan terminni ishlatamiz. Bunda “madaniy” sifati “cultura” so‘zidagi mazmunni ifodalashini va inson mehnati singgan, ishlov bergen o‘simliklarning tabiiy holda o‘sadiganlaridan farqini ko‘rsatishga xizmat qilishini anglash va tushunish qiyin emas.

Insonning eng katta boyliklaridan biri bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar real ijtimoiy jarayonlar ta’sirida boyib, o‘zgarib, takomillashib boradi. “Cultura” terminini qabul qilgan xalqlarda tushunchaning dastlabki ma’nosи saqlab qolingga holda keyingi davrlarda unga kengroq mazmun

¹⁹ Hozirgi o‘zbek tilida “madaniyat” tushunchasiga beriladigan mazmunni arablar “saqofa” termini bilan ifodalaydilar.

berilgani hamda ma'rifatlilik, bilimlilik, tarbiya ko'rganlik ma'nolarida ham ishlatila boshlandi.

3. Ma'naviyat, madaniyat va ma'rifat ularning o'zaro munosabati.

Ma'naviyat va madaniyat bir-biriga yaqin tushunchalar. Biroq ular bitta narsa emas, biri ikkinchisidan farq qiladi. Shuning bilan birga ular bir-birini to'ldirib turadilar.

Madaniy va ma'naviy meros haqida ham shunday deyish mumkin. Shu sababdan darsni avvalo madaniyat va uning turlarini tahlil etishdan boshlamoq maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki, madaniyatni, xususan ma'naviy madaniyatni bilmasdan, o'rganmasdan turib, ma'naviy meros to'g'risida gapirish ancha mushkul, shuning uchun ham ma'naviy meros ma'naviy madaniyat doirasiga kiradi.

Shunday ekan madaniyat nima? Madaniyat tushunchasini izohlashga bag'ishlangan ko'p ilmiy adabiyotlar mavjud. Madaniyat tushunchasiga berilgan ta'riflar soni 500 ga yaqinlashgani yuqorida ta'kidlandi. Mualliflar bu tushunchaga har biri o'z nuqtai-nazaridan yondashadilar. Bunga sabab, madaniyatning ko'p qirrali, murakkab, ma'naviy-ijtimoiy hodisa ekanligi, uning inson va jamiyat hayotining barcha qirralarni qamrab olganligidir. Madaniyatga berilgan ta'riflarda mualliflarning fikrlarini umumlashtiruvchi tomonlar mavjud. Shu jumladan, ularni umumlashtiradigan bo'lsak, madaniyat — bu kishilar faoliyatining jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayoti sohasida yaratgan, o'zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqargan moddiy va ma'naviy boyliklar tizimini bildiradi. Ko'rindiki, madaniyat insonning moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish va o'zlashtirishdagi faoliyatini ifodalaydi. U inson aql-idroki, iste'dodi va mehnati mahsulidir. Yuqorida aytilganidek, madaniyat juda murakkab ko'p qirrali ma'naviy-ijtimoiy xodisa bo'lib, ijtimoiy xayotning moddiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa soxalarni, inson mexnat faoliyatining barcha samaralarini o'zida qamrab oladi. Sirasini aytganda, xalq ommasi tomonidan yaratilgan hamma moddiy va madaniy-ma'naviy boyliklar madaniyatga kiradi. Madaniyat deyilganda, mehnat qurollarini yaratish va ularidan foydalanish, fan-texnika yutuqlari va ularni ishlab chiqarishga

joriy qilish, kishilarning ishlab chiqarish va ijtimoiy ko‘nikmalari, mehnatni ijtimoiy tashkil etish, salomatlikni saqlash ishini yo‘lga qo‘yish, aholi o‘rtasida bilimlarning yoyilish darajasi va ma’lumot, umumiylar, umumiylar majburiy va oliy ta’limni amalga oshirish, adabiyot va san’at asarlari, ijtimoiy, falsafiy, diniy g‘oyalari va shu kabilalar nazarda tutiladi. Ko‘rinadiki, madaniyat odamzod aql-idrokining eng yuksak cho‘qqilarigacha bo‘lgan narsalarning hammasini qamrab oladi. U inson faoliyatining faqat moddiy natijalarinigina emas, shu bilan birga kishilarning mehnat jarayonida voqe’ bo‘ladigan bilim boyliklari, tajribalari, qobiliyatlar, ishlab chiqarish va kasb malakalari, o‘zaro munosabatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Jamiyat moddiy ishlab chiqarishining ikki amaliy turi — moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishga qarab madaniyat ham yirik ikki turga moddiy va ma’naviy madaniyatga bo‘linadi. Moddiy madaniyat deganda mehnat qurollarini, mehnat ko‘nikmalarini, shuningdek ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va moddiy hayot uchun xizmat qiladigan inson tomonidan yaratilgan barcha moddiy boyliklarni anglaymiz. Moddiy madaniyatga moddiy boyliklarning butun majmui, ularni ishlab chiqarish vositalari: ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan texnika, texnologiya, texnik inshootlar, ijtimoiy mexnatni uyuştirish shakli, qurilish va dexqonchilikni yo‘lga qo‘yish va boshqalar kiradi. Shularga qarab, moddiy madaniyatni bir qator turlarga bo‘lamiz. Chunonchi, ishlab chiqarish va texnika madaniyati, dexqonchilik madaniyati, mexnatni tashkil etish madaniyati, injenerlik madaniyati, pazandachilik madaniyati va boshqalar.

Madaniyatning ikkinchi turi — bu ma’naviy madaniyatdir. Ma’naviy madaniyatga insonning aqli va ma’nani yaratuvchanlik faoliyatlarini va ularning natijalari kiradi. Ma’naviy madaniyat fan, falsafa, san’at, adabiyot, axloq, din, huquq, siyosat, maorif, ma’rifat va boshqalar yig‘indisidan tashkil topadigan insonning tashqi va ichki ma’naviyati, ruhiyati olamidir.

Ma’naviy boyliklar olimlar, musavvirlar, bastakorlar, shoir va yozuvchilar, nazariyotchilar, xullas, xalq tomonidan yaratiladi. Ma’naviy madaniyatni yaratish, o‘zlashtirish va rivojlantirish jarayonida jamiyat

taraqqiy etadi, mexnat unumdarligi ortadi, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanadi, kishilarning ma’naviy qiyofasi shakllanadi, axloq odobi, did va farosati, estetik zavqi, ijodiy kuchi va qobiliyatlari taraqqiy etadi.

Umuman kishilik jamiyatini madaniyatsiz, xususan ma’naviy madaniyatsiz tasavvur qilish qiyin. Jamiyat, inson bor ekan u ma’lum madaniyatga ega, busiz bo‘lishi mumkin emas.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida keltiragn iboralarin eslatib o‘tish lozim: “*Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat*”.

Madaniyatning barcha turlari dialektik birlikda, o‘zaro aloqadorlikdadir. Moddiy madaniyatni ma’naviy madaniyatdan batamom ajratib qarash mumkin emas. Moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonida moddiy va ma’naviy madaniyat organik ravishda birikadi. Birorta mexnat qurolini, moddiy boylikning biror turini inson aql-idrokisiz, tafakkurisiz, aqliy mexnatisiz yaratib va takomillashtirib bo‘lmaydi. Boshqacha qilib aytsak, moddiy madaniyatni barpo etish zamirida ham ma’naviyat yotadi. Har qanday moddiy va ma’naviy madaniyat durdonalari inson aqliy va jismoniy mexnati sintezi asosida yuzaga keladi. Ma’naviy madaniyat voqe’likni badiiy aks ettirish va o‘zlashtirish vositasidir.

Madaniyatni moddiy va ma’naviy madaniyatga bo‘lish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Madaniyatga kishilarning bir-biriga munosabatlari, oila, mакtab, oliygox, korxona, tashkilotlar, muassasalardagi o‘zaro munosabatlari xam kiradi.

O‘qituvchi moddiy va ma’naviy madaniyat haqida so‘zlar ekan, talabalar diqqatini umuman madaniyat, xususan, ma’naviy madaniyatni rivojlanish qonuniyatlariga tortishi joizdir.

Madaniy taraqqiyotning umumiyligi qoidalaridan biri uning to‘xtovsiz ravishda boyib borishi va rivojlanishidan iborat. Jamiat rivojlanib borishi bilan madaniyat ham sifat jihatidan o‘zgaradi. Bu degan so‘z, jamiatning taraqqiy etishi madaniyatning o‘zgarishini talab qiladi, madaniyatning yangilanishi esa o‘z navbatida jamiatning taraqqiy qilishiga sabab bo‘ladi.

Jamiat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi oldingi jamiatning madaniy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi, uni qayta ishlaydi, undan ijodiy foydalanadi, uni yangi yuqori bosqichga ko‘taradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan eng yaxshi va qimmatli narsalar, moddiy va ma’naviy boyliklar yangi tarixiy sharoitda o‘zlashtiriladi, qayta ishlanadi va rivojlantiriladi. Shu o‘rinda o‘qituvchi talabalarga, xar bir avlod o‘zi uchun maxsus yangi moddiy baza tashkil etmasligini, ilm-fan va madaniyatni yangidan yaratmasligini, balki o‘zidan oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyatdan meros sifatida foydalanishini aytib o‘tishi lozim.

Madaniyat — umuminsoniy hodisa. U barchaga baravardir. Masalan, maqomlar, adabiyot, me’morchilik durdonalari, fan-texnika yutuqlari, transport va aloqa vositalari barchaga tegishlidir. Xuddi shuningdek ma’naviy madaniyat ham milliy va umuminsoniy bo‘ladi.

Milliy ma’naviyat, madaniyat tarixiy xodisa sifatida bir kunda, bir yilda, balki bir asrda xam mukammal shakllanmaydi. O‘rta Osiyo xalqlari ma’naviy va madaniyat tarixinining ibtidosi asrlar qa’riga singib ketgan bo‘lib, ularning necha ming yillik ma’naviy kamolot pillapoyalarini bosib o‘tganligini aniqlash bugun uchun anchayin murakkab muammo.

Boshqacha qilib aytganda, bugungi ayrim saltanatlar ahli qabilaqabila bo‘lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilm-fan barq urib yashnagani, tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o‘qitilgani, ilmiy akademiyalar tashkil etilib, mag‘ribu mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha g‘ururlansak arziydi.

Bugungi murakkab globallashuv davrida ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma’naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli

g‘oyalarni hamda mafkuralar ta’siridan saqlash, himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. G‘oyat muhim va hal qiluvchi masalalar o‘rtaga qo‘yilgan mazkur asardan mamlakatimizdagi umumta’lim maktablarning yuqori sinflarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida tahsil olayotgan o‘quvchilar, oliy o‘quv yurtlarining talabalari, olim va tadqiqotchilar, o‘qituvchilar, ijodkor ziyolilar, keng jamoatchilik vakillari, umuman, ma’naviyat va ma’rifat dunyosi bilan qiziqadigan barcha insonlar foydalanishi mumkin.

“Ma’naviyat” tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta’riflarni keltirish mumkin. Shuning uchun ham bu masala bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda, kundalik matbuotda bir – biridan farq qiladigan fikr – mulohazalarni uchratgandan bundan taajjublanmaslik va ularning qaysi muallifning o‘ziga xos dunyoqarashi, mushohada tarzi ifodasi sifatida qabul qilish o‘rnidir.

Ma’naviyat – insonni ruhan poklash, qalbini ulug‘lashga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon–e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Nazorat uchun savollar:

1. Jamiyatda madaniyatning o‘rnini qanday baholaysiz.
2. Madaniyat tushunchasiga ta’rif bergan qaysi olimlarni bilasiz?
3. Madaniyat va jamiyat tushunchalarining farqlari nimada?
4. Ma’naviyat, madaniyat va ma’rifat aloqadorligi nimalarda ko‘ridandi?
5. Sharq allomalarining qarashlarida madaniyat haqida qanday fikrlarni uchratish mumkin?

6–mavzu. VORISLIK VA DOIMIY YANGILANISH – MADANIYAT RIVOJLANISHINING MUHIM QONUNIYATLARI

Reja:

1. Madaniyatning rivojlanish qonuniyatları
2. Vorislik, uning namoyon bo‘lish xususiyatlari
3. Yangilanish – madaniyat rivojlanishining zaruriy sharti

Tayanch iboralar:

Madaniyat, ma’naviyat, madaniyat qonuniyati, vorislik, yangilanish, progres, rivojlanish, milliy urf-odatlar, an’analar, marosimlar va axloqiy normalar.

1. Madaniyatning rivojlanish qonuniyatları

Madaniyatning mavjudligi qabila, elat, millat, davlat, mintaqa bilan bog‘lansada, aksariyat hollarda u etnik (milliy) asosga ko‘ra farqlanadi. Masalan, muayyan millat madaniyati haqida gapirilganda eng avvalo har bir etnik birlikning boshqalardan farq qiluvchi, uning ko‘pchilik a’zolari tomonidan tan olinuvchi, o‘zaro bog‘liq va muayyan yaxlitlikni tashkil etuvchi qadriyatlar, normalar, an’ana va urf-odatlar tizimi tushuniladi.

Etnik birlikning yagona ijtimoiy organizm sifatida mavjud bo‘lishi madaniyatning bir butun hodisa sifatida rivojlanishining zaruriy sharti hisoblanadi. Zero, faqat muayyan birlik, hamjamiyat doirasidagina madaniyatdagi umumiylilik va uning boshqa madaniyatlarning shunga o‘xshash namunalaridan farqi shakllanadi, mustahkamlanadi, saqlanib qoladi va rivoj topadi. Demak, har bir millat boshqalardan farq qiluvchi, o‘ziga xos, u yoki bu tarzda ajralib turuvchi o‘z madaniyatiga ega. Ayrim hollarda bu o‘ziga xoslik shunchalik kuchliki, u tezda ko‘zga tashlanadi. Masalan, o‘zbek va arab, yapon va fransuz madaniyatlarining o‘zaro farqli jihatlarini bir qaraganda ilg‘ash mumkin.

Bir-biriga geografik joylashuvi, xo‘jalik yuritish usuli, tili, diniga ko‘ra yaqin bo‘lgan xalqlar madaniyatida esa bunday farqlarni kuzatish nisbatan qiyin. Xususan, o‘zbeklar va tojiklar, qirg‘izlar va qozoqlar, ruslar va beloruslar madaniyatdagi bunday farqlarni topish jiddiy

kuzatishlarni, katta sinchkovlikni talab etadi. Har holda bunday farqlar birdaniga ko‘zga tashlanmasa-da, ular mavjud va bunday tafovutlarni ajratish mumkin.

Har qanday madaniyatning o‘ziga xosligi milliy urf-odatlar, an’analalar, marosimlar va axloqiy normalarda, shuningdek, moddiy madaniyatning kiyim-bosh, uy jihozlari kabi elementlarida ayniqsa, yaqqol ko‘rinadi. Buni milliy bayramlar misolida ham kuzatish mumkin. Chunonchi, o‘z ildizlari bilan zardushtiylikning Bahor va Quyosh bayramiga borib taqaladigan yangi yil bayrami – Navro‘zni ko‘pgina xalqlar bayram qiladilar va u har bir xalqda o‘ziga xoslik kasb etadi. Xususan, asrlar davomida chorvachilik bilan shug‘ullangan, ko‘chmanchilikka assoslangan turmush tarzi hukmron bo‘lgan qozoq, qirg‘iz, turkman xalqlarida va dehqonchilik bilan shug‘ullanib, o‘troq turmush tarziga ega bo‘lgan o‘zbek va tojik xalqlarida bu bayramni nishonlash bir-biridan ozmi-ko‘pmi farqlanadi. Shunday bo‘lsa-da, madaniyatdagi milliylikni bir madaniyatni boshqasidan farqlovchi milliy o‘ziga xoslik bilan bog‘lash metodologik jihatdan noto‘g‘ridir. Har bir madaniyatda qadrdon va yaqin bo‘lib qolgan, boshqacha aytganda, milliy hisoblanadigan elementlarning muayyan qismi aslida nisbatan keng doirada tarqalgan bo‘lishi hayotiy haqiqatdir. Masalan, o‘zbek madaniyatida boshqa xalqlar bilan umumiy bo‘lgan elementlar ham anchagina o‘rinni egallaydi. Ular doirasiga mintaqa, turk, umuman Sharq yoki islom diniga e’tiqod qiluvchi xalqlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni kiritish mumkin.

Har qanday madaniyat rivojlanishida etnik, milliy o‘ziga xoslikning ustuvorligi madaniyatlarning o‘z milliy doirasi bilan cheklanib qolishini, ularning mahdudlikka mahkumligini bildirmaydi. Ayrim orollar va tropik o‘rmonlardagi qabilalarni inobatga olmaganda hozirgi davrda bu amaliy jihatdan umuman mumkin emas.

Madaniyatlardagi o‘ziga xosliklar madaniyatlar shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari, millat bosib o‘tgan yo‘lning spesifikasi bilan ham uzviy bog‘liq. Zero, har bir xalq bosib o‘tgan yo‘l uning tili, adabiyoti, san’ati, me’morchiligi, umuman madaniyatning barcha sohalarida

o‘zining ifodasini topmay qolmaydi. Shu ma’noda millat madaniyati uning tarixining ko‘zgusi hisoblanadi.

Madaniyatlardagi o‘ziga xosliklarning kamol topishida ular shakllangan jug‘rofiy muhitning ta’siri ham katta. Bu ta’sirning rolini mutlaqlashtirmagan holda uning turli shakllarda ro‘y berishini ta’kidlash zarur. Tarixda ana shu o‘ziga xosliklarni mutlaqlashtirishga urinishlar ko‘plab bo‘lgan. Bunday yondashuvlar hozir ham mavjud. Ularning mohiyati mavjud o‘ziga xosliklarni o‘zgartirmay saqlab qolishga intilishda hamda xalqning o‘zligi, yagonaligi, betakrorligi va bir butunligini ta’minlashning kafolati sifatida qaralishida namoyon bo‘ladi. Bu milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni mutlaqlashtirishga urinishlarning bir ko‘rinishi, xolos. Chunki jamiyat rivoji davomida u yoki bu millat madaniyatining o‘ziga xosliklaridan kelib chiqib, uning boshqa xalqlar madaniyatiga nisbatan ustunligini asoslashga harakat qiluvchi oqimlar, qarashlar ham yuzaga kelganini ta’kidlash zarur. “Negrityud”, ”arabizm”, ”panslavizm” kabi oqimlar ana shu ikkinchi yo‘nalishdagi mutlaqlashtirishning o‘ziga xos ko‘rinishlaridir.

Bir madaniyatning ikkinchisiga nisbatan ustunligini ilgari suruvchi yuqoridagi kabi qarashlar milliy-madaniy yoki mintaqaviy mumtozlik shaklida chiqmasin o‘z mohiyatiga ko‘ra g‘ayriilmiy bo‘lib, biror bir hayotiy asosga ega emas. Zero, milliy o‘ziga xoslik bilan cheklanib qolish milliy-madaniy taraqqiyotga emas, aksincha milliy mahdudlikka, oxir-oqibatda esa shu madaniyatning halokatiga olib keladi.

2. Vorislik, uning namoyon bo‘lish xususiyatlari

Har bir avlod madaniy rivojlanishni bo‘sh joydan emas, balki o‘zidan oldingi avlodlar yaratgan qadriyatlarni o‘zlashtirishdan boshlaydi. Bu o‘zlashtirish o‘ziga xos bir xom-ashyo, yangi qadriyatlarni yaratish, madaniyat rivojini yuqoriq bosqichga ko‘tarish yo‘lidagi tayanch vazifasini o‘taydi. Mana shu ikki jarayon — eskilik bilan yangilik o‘rtasidagi ob’ektiv zaruriy bog‘lanish vorislikning mohiyatini tashkil etadi.

Ma'lumki, madaniyatda vorislik haqida gap ketganda taraqqiyotga xizmat qiladigan (progressiv) va rivojlanishga to'siq bo'ladigan (reaksion) hamda pozitiv va negativ vorislik farqlanadi.

Madaniyat o'z rivojlanishining har bir bosqichida oldingi davr natijalariga tayanadi. Rivojlanishning keyingi bosqichlarida oldingi davr natijalarining saqlanib qolishi vorislikning pozitiv mazmunga egaligini ko'rsatadi. Oldingi davr natijalariga tayanish faqat ijobjiy hodisalarnigina saqlashni anglatmaydi. Madaniyat tarixida ko'p asrlar davomida to'g'ri deb hisoblanib, keyin noto'g'rili tasdiqlangan hodisalar ham ma'lum. Masalan, Demokritning "atomlar olamning eng mayda, bo'linmas, oxirgi g'ishtchalaridir" degan qarashlari bilan shunday bo'ldi. XX asr bo'sag'asida fan rivojlanishi atomlar so'nggi "g'ishtcha"lar emasligini, u murakkab tuzilishga egaligini kashf qildi. Lekin, bu Demokrit qarashlari ilm-fan, kengroq aytganda madaniyat rivojida hech qanday rol o'ynamadi, deyishga asos bo'la olmaydi. Chunki atomlar "olamning oxirgi g'ishtchalari"dir degan fikr bu "g'ishtcha"larni topish va ayni paytda, ularning "oxirgi" emasligini isbotlashga olib keldi. Bu noto'g'ri tasavvurlarni tanqidiy o'zlashtirish, to'g'rilar holda qabul qilish, ya'ni negativ vorislik madaniy rivojlanishning muhim xususiyati ekanini ko'rsatadi. Madaniyat rivojlanishidagi vorislik hamisha oldin erishilgan natijalarni saqlab qolish va ijodiy rivojlantirishning dialektik birligi sifatida chiqadi. Ana shunday jarayon natijasida madaniyatning "an'analar" deb ataladigan barqaror, konservativ elementlari yuzaga keladi. An'analarsiz madaniyat bo'lishi mumkin emas. Tarixiy jarayonda madaniy an'analarining o'rni va roli beqiyosdir. Zero, ular tufayli asrlar davomida sayqallangan tarixiy tajriba to'planib, ajdodlardan avlodlarga o'tadi, kishilar birligining muayyanligi ta'minlanadi, o'zlikni saqlab qolish imkoniyati paydo bo'ladi.

Madaniy an'analar deganda faqat, ayrim hollarda bo'lganidek, marosimlar va urf-odatlarni tushunish unchalik to'g'ri emas. Chunki bir tomondan, kishilik jamiyati rivojlanishi davomida yuzaga kelgan har qanday marosim, urf-odatlar ham uzoq yashamasligi, demakki, an'anaga aylanmasligi mumkin. Ikkinci tomondan, madaniy an'analar tushunchasi marosimlar, urf-odatlar kabi hodisalarni ham o'z ichiga

qamrab olgan holda ularga nisbatan kengroq mazmun kasb etadi. Zero, madaniy an'analar ulardan tashqari avloddan — avlodga o'tib boradigan, tarixan qaror topgan va ijtimoiy ongning tarkibiy qismiga aylangan g'oyalari, qarashlar, tasavvurlar, bilimlar, qadriyatlar, xulq normalari va shu kabi jarayonlarni ham o'z ichiga oladi.

Madaniyatning har bir sohasida an'ana o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Masalan, ishlab chiqarish, fan, san'at sohasidagi an'analar bir-biridan o'zining takrorlanmas bo'yoqlari bilan ajralib turadi.

Agar madaniyatda faqat o'tmish natijalarini o'zlashtirish va takrorlashdan nariga o'tilmaganda edi, insoniyat o'z madaniy rivojlanishini ta'minlay olmagan bo'lar edi. Har bir avlod o'zidan oldingi natijalarga tayanib, ularni ijodiy rivojlantiradi, boyitadi, yangi, yuqoriq bosqichga ko'taradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, madaniy merosga nisbatan mensimasdan qarash salbiy hodisalarga, fojeaviy oqibatlarga, muhim madaniy yutuqlarning yo'qolishiga olib keladi. Ayni paytda, an'analar oldida ko'r-ko'rona sajda qilish madaniyatda turg'unlikni keltirib chiqarishini ham yoddan chiqarmaslik zarur.

Jahon tarixidan ma'lumki, madaniy merosga munosabat doimo ziddiyatl bo'lgan. Xususan, ijtimoiy guruhlar va sinflarning paydo bo'lishi bilan madaniy merosga ularning qiziqishlari, manfaatlaridan kelib chiqib munosabatda bo'lish shakli tarix sahniga chiqdi. Natijada ko'plab tarixiy obidalar, yodgorliklar, adabiyot va san'at asarlari aksariyat hollarda muayyan ijtimoiy guruhlar manfaatiga zid hodisalar sifatida vayron qilindi, yoqib yuborildi yoki e'tiborsiz qoldirilishi oqibatida astasekin yo'q bo'lib ketdi. Bunday fojeaviy hodisalar ayniqsa, milliy, guruhiy, sinfiy ziddiyatlar keskinlashib ketgan davrlarda ko'plab sodir bo'ldi.

Tarix madaniy merosga diniy, ya'ni muayyan diniy aqidalarga mosligi yoki mos emasligidan kelib chiqadigan munosabat shaklini ham yaratdi.

Dinlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi nuqtai nazaridan madaniyat tarixini shartli ravishda jahon dinlari – buddaviylik, xristianlik, islom yuzaga kelguncha hamda undan keyingi davrlarga bo'lish mumkin.

Birinchi davrda insoniyat erishgan yutuqlar deyarli yo‘qolib ketgan. Negaki, bir tomondan, jahon dinlari tarqalish jarayonida ko‘plab mahalliy qadriyatlarni assimilyatsiya qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ushbu diniy ta’limotlardagi ayrim aqidalarni mutlaqlashtirishgan mutaassib kuchlar xalqlarning turli tarixiy va madaniy yodgorliklarini majusiy hodisalar sifatida yo‘q qildilar. Jahon dinlarining tarqalgan hududiy barqarorligi yuzaga kelguncha bir necha yuz yil o‘tdi va ko‘plab madaniyat durdonalari izsiz yo‘qolib ketdi.

Xalqimiz tarixiga murojaat qiladigan bo‘lsak, bunday fojiaviy hodisalar ko‘plab bo‘lganini, diniy, ateistik yoki sinfiy nuqtai nazardan baholash natijasida, qirg‘inbarot urushlar oqibatida betakror madaniy merosimizdan mahrum bo‘lganimizni kuzatish mumkin.

Ma’lim bir davrda milliy-madaniy merosning ko‘pgina qatlamlarini o‘rganish qat’iyan man qilindi. Ularga “sinfiy zararli” va “g‘oyaviy xavfli” hodisalar tamg‘asi bosildi. Bunday man etishlarni buzgan, millatimiz tarixi, madaniy merosini o‘rganishga harakat qilgan kishilar qattiq siquv ostiga olindi. 1940-yillarda M.Shayxzodaning “Jaloliddin”, 1970 — yillarda I.Mo‘minovning “Amir Temurning O‘rtta Osiyo tarixidagi o‘rni va roli”, 1980-yillarda P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarlariga “feodal o‘tmishni ideallashtirish” aybi qo‘ylgani fikrimizga dalil bo‘la oladi. Vaholanki, bu asarlarda o‘zbek xalqining uch buyuk farzandi-Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Mirzo Boburlarning hayoti, ijodi va faoliyati bilan bog‘liq real tarixiy hodisa va jarayonlar aks etgan edi.

Milliy merosimizga sinfiylik pardasi ostidan qarashning zararli oqibatlari, afsuski, faqat yuqoridagilar bilan cheklanmaydi. Madaniy merosimizning ko‘pgina qatlamlari o‘tmish sarqitlari, keraksiz, umrini yashab bo‘lgan, patriarxal hodisalar sifatida baholandi. Oqibatda xalq amaliy san’atining ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, zargarlik va boshqa bir qator sohalarida erishilgan noyob yutuqlar yo‘q bo‘lib ketdi. Bu sohalarda to‘plangan tajriba va yutuqlarni bugungi kunda misqollab qayta tiklashga to‘g‘ri kelmoqda.

Voqelikka sinfiy yondashuv xalq og‘zaki ijodida ham fojeali iz qoldirdi. Bu davrning mudhish qiyofasi Qurbonnazar Abdullaev (Bola

baxshi)ning quyidagi so‘zlarida o‘zining yorqin ifodasini topgan: “1933-1940 — yillar orasi – qo‘rquinchli yillar. Eng yaxshi kishilar bedarak ketar, kitoblar, qo‘lyozmalar yo‘q qilinar... O‘sha paytda “o‘tmish sarqiti”, “feodal davri mahsuli” sifatida maqom va dostonlarni ijro etish man qilindi. Men yetti yil doston aytmadim. Aytgan bo‘lsam ham yashirin tarzda, kimga butunlay ishonsam o‘shalarga aytib yurdim”²⁰.

Madaniyat, madaniy jarayonlarga tor sinfiy manfaatlar nuqtai nazaridan turib baho berish, uni sinfiy kurash maydoniga aylantirish yana shunga olib keldiki, Oktabr to‘ntarishigacha shakllanib ulgurgan, o‘tmish yutuqlarining sohibi va milliy-madaniy rivojlanishda bog‘lovchi xalqa bo‘lgan ijodiy ziyolilarimizning katta qismi qatog‘on qilindi. Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi buyuk millatparvarlarning fojeali qismati ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Yuqoridagi kabi o‘ta zararli jarayonlar natijasida madaniyatdagi vorislik jarayonida uzilish sodir bo‘ldi. Bunga ko‘p asrlar foydalanib kelganimiz, madaniy merosimizning ajoyib namunalari yaratilgan arab yozuvidan mahrum etilganimiz, umuman yozuvimizning bir necha marta o‘zgartirilishi ham sabab bo‘ldi, albatta. Bularning barchasi shunga olib keldiki, tariximiz haqida g‘ira-shira tasavvurlar bilan unib-o‘srik, madaniy merosimizning ajoyib namunalaridan bebahra bo‘lib keldik.

Mustaqillik sharofati tufayli respublikamizda bu sohada yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarga barham berildi, asrlarga tengdosh qadriyatlrimiz tiklandi. Bugungi kunda madaniy merosimiz o‘zining butun salohiyati bilan xalqimiz ma’naviy dunyosining u兹viy qismiga aylanib bormoqda. Vorislik mexanizmlari tiklanishi natijasida milliy madaniyatimiz yaxlit, xilma-xil ranglar va jilolardan iborat bir butun hodisa sifatida kamol topmoqda.

Ayni paytda, milliy madaniyatimizning asossiz unutilayozgan an’analari keng miqyosda tiklanmoqda, buyuk ajdodlarimiz hayoti va ijodini o‘rganishga alohida e’tibor berilmoqda. Imom Buxoriy, Imom

²⁰См.: Правда Востока, 1989, 1 февраля.

Termiziy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy kabi muhaddis, ilohiyotshunos allomalarining diniy-falsafiy asarlari, hukmron sinf vakillari bo‘lgani uchun o‘rganilishi man qilingan Amir Temur, Husayn Boyqaro, Amiriyl, Feruz kabi ajdodlarimizning adabiy-badiiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarining endilikda har tomonlama tadqiq etilayotgani ham fikrimizning isboti bo‘la oladi. Bunday hol hozirda Yer yuzida kechayotgan jarayonlar bilan hamohanglik kasb etmoqda. Zero, hozirgi paytda butun dunyoda madaniyatga umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan turib baho berish, har bir madaniyat, madaniy hodisaga uning diniy, sinfiy, milliy yoki mintaqaviy mansubligidan qat’i nazar, inson ma’naviy-ruhiy izlanishining mevasi, insonning o‘z-o‘zini anglash, kamolotga intilishining bir bosqichi, ko‘rinishi, har bir madaniy hodisa, jarayon, ob’ektni tabiiy-tarixiy rivojlanish davomida yuzaga kelgan olyi bir ijtimoiy ne’mat, deb bilish ustuvor bo‘lib bormoqda.

Mustaqillik madaniy merosimizning tarix qa’rida yashirinib kelgan qatlamlarini tadqiq etish uchun ham imkoniyat yaratdi. Xususan, milliy qurolli kuchlarimizning shakllanishi, xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalarimizning rivojlanishi milliy va harbiy simvolika, geraldika bo‘yicha to‘plangan tajriba va bilimlarga bo‘lgan qiziqishning kuchayishiga olib keldi. Eng muhimi xalqimiz bu sohalarda ham boy merosga egaligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu sohalarda erishilgan yutuqlar bugungi kunda madaniy hayotimizning uzviy qismiga aylandi.

Madaniy hayotimizda bo‘layotgan buyuk ijobiy o‘zgarishlarning yana bir nishonasi bu betakror va noyob tarixiy, ilmiy, badiiy qo‘lyozmalarning o‘rganilishi boshlanganidir. Ammo bu sohada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ham hali talaygina. Zero, manbashunos-mutaxassislarning fikricha, turli kutubxonalar, muzeylar, ilmiy tadqiqot institutlarining qo‘lyozmalar fondlarida minglab noyob qo‘lyozmalar o‘z tadqiqtchilarini kutmoqda.

Ayni paytda, boshqa mamlakatlar kutubxonalari, fondlari va muzeylarida ham madaniyatimiz tarixiga oid minglab obidalar saqlanayotganini, bu sohada ham ilk qadamlar qo‘yilgani, dastlabki ilmiy ekspedisiyalar tashkil etilganiga qaramay asosiy va keng qamrovli ishlar o‘z tadqiqtchilarini kutayotganini qayd etish lozim.

Milliy tariximiz aks etgan, xalqimizning orzu umidlari, intilishlari, an’analari o‘z ifodasini topgan ana shu ulkan merosimizni o‘rganmay, ilmiy tadqiq etmay turib mamlakatimizning tarixi, madaniyati, uning rivojlanishining turli bosqichlaridagi o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘liq va to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lish qiyin, albatta.

3. Yangilanish – madaniyat rivojlanishining zaruriy sharti

O‘tmish madaniy merosini millat ma’naviy dunyosining tarkibiy qismiga aylantirish, boshqacha aytganda, uni ijodiy o‘zlashtirish, unga yangi mazmun va ma’no berish milliy-madaniy taraqqiyotning bir tomoni xolos. Ushbu jarayonning ikkinchi, yanada ahamiyatli tomoni, madaniyatning yangilanishi, yangi, betakror va noyob hodisalarining paydo bo‘lishi, umuminsoniy madaniyatning yangidan-yangi qatlamlarining o‘zlashtirilishidir. Busiz madaniyat rivojlanishini ta’minlab bo‘lmaydi.

Istiqlol tufayli madaniy hayotimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar ana shu jihatni ham qamrab olmoqda. Bugun biz ilg‘or ilmiy-texnik, texnologik, moliyaviy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy bilimlarni egallahsga, jahon madaniyati, san’ati, kinosi, adabiyoti yutuqlari bilan oshno bo‘lishga harakat qilmoqdamiz. Buni xilma-xil misollarda ko‘rish mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan tashkil etilgan “Jahon adabiyoti” jurnalining milliy adabiyotimiz yangilanishi va rivojidagi o‘rni va ahamiyatini alohida ta’kidlash zarur.

Bugungi kunda jurnal qarorda belgilangan xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni umumbashariy qadriyatlar, insoniyatning ma’naviy merosi durdonalaridan bahramand qilish, keng jamoatchilikni jahon adabiyoti va san’atining nodir namunalari bilan muntazam tanishtirib borish, jahondagi adabiy-badiiy jarayonni tahlil qilish orqali o‘zbek adabiyotining yangi ijodiy tajribalar orttirishi uchun sharoit yaratish²¹ bilan bog‘liq vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilib kelayotganini qayd etish lozim. Dunyo xalqlari adabiyoti, san’ati, falsafasi, estetikasi, madaniyati uchun o‘ziga xos ko‘prik bo‘lib qolgan jurnal sahifalarida ingliz, nemis,

²¹ Қаранг: “Жаҳон адабиёти” журналини ташкил этиш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. 1997 йил 27 февраль.

rus, xitoy, yapon, fransuz, arab, hind va boshqa tillardan bevosita tarjima qilingan badiiy, ilmiy, publisistik, biografik asarlar e'lon qilingani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

XXI yuz yillikka kelib, O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichida hamda hozirda yuzaga kelgan ijtimoiy iqtisodiy vaziyatda yurtimizdagi bu ikki yuksalish davrlaridagi muhim voqeа-hodisalarga, erishilgan natijalarga, ulug' allomalarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalariga o'z e'tiborini qaratgan holda Prezidentimiz O'zbekistonda yangi uyg'onish — Uchinchi Renessans davrining poydevorini qurish g'oyasini va uning ayni vaqt kelganligini ilgari surmoqda.

Chunonchi, parlament va xalqimizga yo'llangan 2020-yilgi Murojaatnomada ham: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lif va tarbiyani rivoj lantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim", deya alohida ta'kidlandi.

Madaniyatdagi yangilanish har bir sohada o'ziga xos xarakter, ko'lamlilik kasb etadi. Masalan, ta'lif-tarbiya tizimidagi yangilanish ilg'or yutuqlar, texnik vositalardan foydalanish, tarbiyani tashkil etishning zamonaviy metodlarini ijodiy o'zlashtirishda namoyon bo'ladi. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonida mustaqillik sharofati tufayli tashkil etilgan oliy ta'lif muassasalarining o'rni katta bo'lmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 9 yanvardagi Farmoni bilan tashkil etilgan Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabining o'zbek raqs san'ati rivoji yo'lidagi faoliyatini alohida ta'kidlash zarur. Oliy maktabning Farmonda belgilangan o'zbek raqs san'atining tarixiy an'analari va usullarini tiklash, asrab-avaylash, boyitish, milliy raqs va balet bo'yicha baletmeysterlar, baletmeystr-rejissyorlar, raqs ijrochilari, ilmiy-pedagogik va ijodiy kadrlar tayyorlash, yangi badiiy jamoalar tuzish,

mustaqillik ma’naviyati va istiqlol g‘oyalarini tarannum etuvchi, xalqimizga estetik zavq bag‘ishlovchi zamonaviy o‘zbek milliy raqs maktabini yaratish²² bilan bog‘liq vazifalarni hal etishda o‘ziga xos markaz rolini bajarayotgani ham fikrimizning isboti bo‘la oladi.

San’at sohasida yangilanish yangi ifoda usullari, janrlarning kirib kelishi, ayni paytda, u yoki bu konkret san’at asarlarining kishilar dunyoqarashi, ma’naviy dunyosining boyishiga ta’siri hamda ijodkorlarning ular ta’sirida yangicha mazmun bilan sug‘orilgan san’at namunalarini yaratishdek serqirra jarayonlarni qamrab oladi.

Musiqa milliy qiyofani belgilab beradigan, inson qalbiga ezgu g‘oyalar, beg‘ubor tuyg‘ularni singdiradigan omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalqimiz qadimdan yuksak musiqiy salohiyatga ega bo‘lganini alohida qayd etish lozim. Samarqand viloyatining Urgut tumanidan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan musiqa asbobi – nay topilgani, Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Bobur kabi buyuk ajdodlarimizning musiqashunoslikka oid qarashlari ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Mustaqillik ana shu betakror musiqiy merosimizni chuqur o‘rganish, musiqa san’atini yanada rivojlantirish, keng ommaga yetkazish imkonini yaratdi. Bu borada qilinayotgan ishlarning istiqbolli mazmun kasb etishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 8-iyulda qabul qilingan “Bolalar musiqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha 2009-2014 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Qarorining ahamiyati beqiyosdir. Zero, Qaror yoshlar iste’dodini har tomonlama kamol toptirish, musiqa san’ati rivoji uchun shart-sharoitlar yaratish, boshlang‘ich musiqa ta’limi, bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyatini tubdan takomillashtirish ishlarini yangi, yanada yuksak pog‘onaga olib chiqish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

²² Ўзбекистонда миллий рақс ва хореография санъатини ривожлантириш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. 1997 йил 9 январь. // Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонлари. 4. – Тошкент, “Адолат”, 2000.-121-124 б.

Madaniyatdagi yangilanish jarayonlarida turli yo‘nalishlarda o‘tkaziladigan ijodiy tanlovlар, festivallar, xalqaro ijodiy hamkorlikning o‘rni nihoyatda katta. Shu ma’noda Prezidentimiz tashabbusi bilan 1997-yildan beri o‘tkazib kelinayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali o‘ziga xos ma’no va va ahamiyat kasb etmoqda. Festival dunyo xalqlarining noyob musiqiy an’analari yangilanishi, o‘zaro boyishiga va, ayni paytda, turli ellarni san’at vositasida mushtarak maqsadlar yo‘lida yaqinlashtirishga xizmat qilib kelayotgani ham bunday xulosaning o‘rinli ekanini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizrahbari Sh.M.Mirziyoyev Prezident sifatida birinchi yoshlar siyosatiga o‘z e’tiborini qaratgan holda, O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunni imzoladi²³. Mazkur Qonun mamlakatimizda yoshlarga keng imkoniyatlar yaratish va ularning ilmiy va ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish uchun keng shart-sharoitlarni yaratib berishga qaratilgan. Shunisi ahamiyatlici, Qonunning asosiy prinsiplarining uchinchisi — ma’naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi hisoblanadi. Shuningdek, bu Qonunda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan bo‘lib, asosiy yo‘nalishlarning to‘rtinchisi yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish hisoblanadi. Bu boradagi ishlar natijasi o‘laroq O‘zMTRKda “Mahalla”, “Madaniyat va Ma’rifat”, “O‘zbekiston tarixi” telekanallari ish boshladi. Qonunda berilgilab berilgan mazkur yo‘nalishlar natijasida malakatimizda milliy madaniyatning rivojlanishi jadal su’atlarda davom etmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Madaniyatlarning o‘ziga xosligi qanday elementlarda namoyon bo‘ladi?
2. Madaniy rivojlanish qanday holatlarda kuzatiladi?
3. Vorislik deganda nima tushunasiz?
4. Madaniyat rivojlanishining eng zaruriy sharti deb nimani hisoblaysiz?

²³ [O‘RQ-406-coh 14.09.2016. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida \(lex.uz\)](http://lex.uz)

5. Mustaqillik madaniyatni rivojlanishiga qanday ta'sir o'tkazdi?

7-mavzu. “QADRIYAT” KATEGORIYASINING MOHIYATI VA NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI. QADRIYATLARNING TASNIFI

Reja:

1. Qadriyat kategoriyasining mazmuni.
2. Qadriyatning namoyon bo‘lish shakllari
3. Qadriyatlar va baholar.
4. Qadriyatlarning komil inson tarbiyasidagi o‘rni

Tayanch iboralar:

Aksiologya, qadr, qadriyat, qadriyat va baho, komil inson, individual qadriyat, haqiqat va baholashni, baholash predmeti, baholash sub'ekti, baholash asosi.

1. *Qadriyat kategoriyasining mazmuni.*

Kundalik muloqotlarda, ommaviy axborot vositalarining xabarlarida qadriyat, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar kabi so‘zlar nihoyatda ko‘p ishlatilmoxda. Madaniy boyliklar, tarixiy yodgorliklar, ma’naviy meros, ko‘p yillik an’ana, urf-odatlarga nisbatan ham qadriyatlar iborasini, umumiylatama sifatida ishlatish hollari uchramoqda. Bu tushuncha kitob, risola, maqola va xabarlarning nomlarida ham uchrab turibdi. Uning mazmuni, mohiyati, namoyon bo‘lish shakllari bilan bog‘liq xilma-xil fikrlar bayon qilinmoqda. Bularning barchasi quyidagi savollarning tug‘ilishiga sabab bo‘lmoqda; Xo‘sh, qadriyat nima? Biz nimaga asoslanib biror narsa, voqeа, hodisa, munosabat, faoliyat va boshqalarni qadrlaymiz? Bu savollarning birinchisi qadriyat tushunchasini ta’riflash, ikkinchisi esa uning mazmunini tahlil o‘ilish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Qadriyat tushunchasi nihoyatda xilma-xil ma’noda, turli sohalarda qo‘llaniladi.

Qadriyat-voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan

ijtimoiy-falsafiy va aksilogik tushuncha²⁴. Qadriyat tushunchasining asosi qadr so‘zi bo‘lib, u bir inson yoki jamoa tomonidan e’tirof etilgan, tan olingan va asrab avaylanadigan ma’naviy va moddiy boyliklar majmuasidir. Qadriyatlar aksiologiya fanining predmeti vazifasini bajaradi. Umuman qadriyat deganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushuniladi.

Qadriyatlar iborasining xilma-xil ma’noda ishlatilishi unga berilgan ta’riflarni turlicha bo‘lishiga olib kelgan bo‘lishi ham mumkin. Biz bu mavzuga bag‘ishlangan kitob, risola, maqolalarda uning o‘ttizdan ortiq ta’riflarini uchratdik, bu ta’riflarning yanada ko‘proq ekanligiga shubha yo‘q. Ijtimoiy fanlarning qanday sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo‘lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta’rif berishga intilish odat tusiga kirib qolgan. Holbuki, qadriyat kategoriyasi aksiologiya (qadriyatshunoslik)dan boshqa fanlarning birortasi uchun ham xususiy kategoriya emas. Qadriyat iborasining kundalik hayotdagi ma’nosи, kishilar o‘rtasida vujudga keladigan muloqtlarda, ommaviy axborot vositalari yangiliklarida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lmoqda. Kundalik hayotda, ko‘pchilik nazarida narsalar (masalan, qimmatbaho buyumlar, taqinchoqlar), tabiat hodisalari, ijtimoiy voqealar, jamiyatdagi talablar, orzu-umidlar, an’ana va marosimlar, madaniy boyliklar va boshqalar qadriyat sifatida tushuniladi. Kishilar hayot va faoliyat jarayonida muqarrar suratda o‘zlari uchun bunday qadriyat bo‘lgan narsalarga duch keladilar, ularning ahamiyati, foydasi va qadrini anglashga, baholashga intiladilar. Bundan tashqari odamlar o‘zlari ishonib, gohida intilib, qiziqib yoki orzu qilib yashaydigan maqsad, orzu yoki ideallarga ham qadriyat tushunchasini qo‘llaydilar. Xullas, kundalik hayotda ko‘pchilik tomonidan qo‘llaniladigan qadriyat iborasi, odamlar uchun biror zarur ahamiyat kasb etadigan ob’ekt, narsa, hodisa va boshqalarga nisbatan ham ishlatiladi. Qadriyatni aksiologiya nuqtai nazaridan talqin qilish uning kategoriya sifatidagi mohiyati, mazmuni, ob’ektiv asosi, sub’ektiv jihatlari, namoyon bo‘lish shakllari va xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradi. Qadriyat tushunchasini ba’zi faylasuflar talqin qilganlaridek,

²⁴ Falsafa qomusiy lug‘at. T.: “Sharq” NMAK-2004.

“tabiatning, moddiy va ma’naviy madaniyatning buyumlari inson ehtiyojlarini qondirish, uning maqsadlariga xizmat qilish qobiliyatiga egadir. Ana shu ma’noda ularga qimmatdorlar, deb qarash mumkin va zarurdir”, degan ma’noda tushunish noto‘g’ri. Bu ta’rifda avvalo tabiat va madaniyat buyumlari biror qobiliyatga egaligi ta’kidlanadi. Agar buyumlar biror qobiliyatga ega bo‘lganlarida va ana shu qibiliyatlar odamlar uchun qadriyatga aylanganida, tabiiy-tarixiy jarayon butunlay boshqacha kechgan bo‘lar edi... Afsuski, buyumlar biror qobiliyatga ega emaslar, qobiliyat ijtimoiy xususiyat bo‘lib, odamlar tabiat va madaniyat buyumlaridan o‘z qibiliyatlarini ishga solgan holda, nimanidir dunyoga keltiradilar. Tabiat va madaniyat buyumlarining inson ehtiyojini qondirishi va uning maqsadlariga xizmat qilishi ta’kidlaganida, asosan, ularning foydasi, qimmati nazarda tutiladi. haqiqatan ham, buyumlarning iqtisodiy qimmati kishilar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ammo buyumning qadri hisobga olinmasa, masalaning aksiologik jihat ochilmaydi. Qadriyat kategoriyasi biror buyum yoki narsalarning iqtisodiy qimmatini ifodalaydigan tushunchadan farq qiladi. Shu ma’noda qadriyat narsa va buyumlarning qimmatiga nisbatan qo‘llanilmasdan, balki inson uchun biror ahamiyatga ega bo‘lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblar va boshqalarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan aksiologik kategoriyaadir. Bu kategoriya vzida qadriyat ob’ektivning nafaqat qimmatini, balki ijtimoiy ahamiyati, falsafiy-aksiologik mazmuni, jamiyat va inson uchun qadrini ham ifodalaydi. Qadriyat kategoriyasidan aksiologlar har qanday narsa shu jumladan insonning ham biror tarzdagi ijtimoiy qadrini, ahamiyatini ifodalaydigan umumiyl va universal kategoriya sifatida foydalanadilar. Qadr va baho. Qadriyatlar muammosiga bag‘ishlangan (asosan rus tilidagi) ilmiy-falsafiy manbalarning ko‘pchiligida qadriyat (sennost) tushunchasini baho (otsenka) tushunchasi bilan qiyoslash, ularga bir xil daraja va ko‘lamdagti tushunchalar sifatida qarash hollari uchraydi. Bu ikki tushuncha qiyoslanayotganda qadr tushunchasi e’tiborga olinmaydi. Balki, bunday holga rus tilidagi «otsenka» va «sena» so‘zlarining o‘xhash ma’noli (ko‘proq iqtisodiy) tushunchalar ekanligi sabab bo‘lishi ham mumkin.

Rus tilida qadr iborasi ishlatilmaydi. Qadr tushunchasi o‘zbek tilida serqirra ma’no va mazmunga ega, u tilimizdag‘i ba’zi ibora va so‘zlarda o‘ziga xos sharqona falsafiy mazmun borligidan dalolat beradi. Ana shu sababdan ham o‘zbek tilida qadriyatning mazmunini bilib olish va uning ahamiyatini anglash, avvalo, qadr, so‘ngra baho tushunchalarining ma’nosini bilish orqali boradi. Bunda qadr tushunchasi qadriyat sifatida qaralayotgan ob’ekt, narsa, voqeа, hodisa yoki biror idealning sub’ekt uchun ijtimoiy ahamiyatini anglatadi. Qadriyat ob’ektining sub’ekt bilan munosabatida uning qobiliyati emas, balki ta’siri namoyon bo‘ladi, bu ta’sirni qadriyatning o‘zi baholay olmaydi, balki sub’ekt baholaydi. Demak, qadriyat ob’ektining sub’ektga ta’sirida uning qadri, ahamiyati namoyon bo‘ladi, sub’ekt esa ana shu bevosita ta’sir natijasida uning ahamiyatini baholaydi, qadriga baho beradi. Bahoda teskari munosabat – sub’ektning qadriyat sifatida qaralayotgan ob’ekt, narsa, hodisa, ideal va boshqalarga nisbatan munosabati, uni anglashning biror-bir darjasи o‘z ifodasini topadi. Bu jarayonda sub’ekt qadriyatga munosabatini baho bu tarzida ifodalaydi. Qadriyatning mazmuni va ahamiyati bahoda to‘la-to‘kis aks etmasligi, turlich‘a ifodalanishi ham mumkin. Qadriyatning haqiqiy qadrini, mazmuni va ahamiyatini bahosiga qarab aniqlash qiyin bo‘ladigan hollar ham uchraydi. Aslida qadriyatning qadrini bilish, uning ahamiyatini anglab olish va baholash bir-biri bilan uzviy bog‘liq jihatlarni tashkil qiladi. qAdriyatning ahamiyati anglab olinmasa, qadri to‘g‘ri tushunilmasa, unga to‘g‘ri baho berib bo‘lmaydi. Aynan shu ma’noda qadriyatni baholash unga bo‘lgan sub’ektiv munosabatni ham ifodalaydi, bu esa o‘z navbatida kishilarning talablari, ehtiyojlari va maqsadlari bilan bog‘liqdir. Inson nimanidir baholayotganida va qadrini anglayotganida o‘z ehtiyojlari, talablari va maqsadlaridan kelib chiqadi, o‘zining foydasini ham unutmaydi. Bu ehtiyoj, talab, maqsadlar va biror foyda olishni ko‘zlash ham sub’ektiv xususiyatga ega bo‘lganligidan, muayyan kishilarning u yoki bu qadriyat, uning qadri va ahamiyati haqidagi fikri (bahosi) ham sub’ektiv va nisbiydir. Qadriyatni baholash qancha xilmoxil maqsad va ehtiyojga ega bo‘lgan sub’ektlar ishtirok etsa, uning haqiqiy bahosini aniqlash ham shuncha qiyinlashib boraveradi. Qadriyatning ob’ektiv va sub’ekti. Qadriyatshunoslikda qadriyat tushunchasi bilan, bu

tushuncha bog‘langan ob’ekt o‘rtasida farq bor, deb qaraladi. Qadriyat kategoriyasini uning aniq shakllari bog‘liq bo‘lgan ob’ektlarni (narsalar, boyliklar, kashfiyotlar va boshq.) sanash orqali ta’riflash hollari ham uchramoqda. Qadriyatni muayyan sub’ekt uchun biror boshqa ob’ektning yoki ma’naviy hodisaning qadrini ifodalaydigan falsafiy-aksiologik tushuncha sifatida qaralmasa, bunday ta’riflarning son-sanoqsiz bo‘lishi aniq. Negaki, dunyoda qadrlanadigan narsalar, hodisalar, voqealar, jarayonlar, joylar va sifatlar, ideal va maqsadlar nihoyatda ko‘p. Qadriyat tushunchasi esa ularning birortasi uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri ism, atama yoki bevosita nom bo‘la olmaydi, balki ularning qadrini anglatadigan kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Qadriyatni falsafiy-aksiologik tushunish, uning kundalik hayotdagi ishlatilish ma’nosidan farq qiladi. Bu esa qadriyat tushunchasini uning o‘zi bog‘liq bo‘lgan ob’ektdan farqlash (aslo ajratish Emas) bilan birga, uni ob’ektlarning turli jihatlari (foydalilik, keraklik) bilan ayniylashtirmaslik imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, qadriyat biror bir tarzda va shaklda zohir bo‘ladigan, sub’ekt uchun muayyan ta’sirini namoyon qiladigan voqelikning turlituman shakllari, ko‘rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma’naviylik mezonlari hamda boshqalarning sub’ekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir. Odamlar garchand bitta jamiyatda, bir davrda va o‘xhash sharoitlarda yashayotganliklariga qaramasdan, u yoki bu narsaning qadri turlicha anglab olinadi, tushuniladi va talqin qilinadi. Ijtimoiy jarayonlar ta’sirida kishilarning qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvuri, qarashlari o‘zgaradi, bu esa taraqqiyot jarayonida odamlarning turmush sharoitlari, hayoti va ma’naviy qiyofasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Turli xil jihatlar har qanday qadriyatning qarama-qarshi tomonlarini tashkil qildai. Ijobiyligi va salbiyligi, baholanishi va ahamiyatiga ko‘ra bir- biriga mutlaqo ziddek bo‘lib ko‘rinadigan yaxshilik va yomonlik, haqiqat va haqsizlik, baxt-saodat va ham-kulfat, evolyusiya va revolyusiya taraqqiyot va tanazzul, borliq va Yo‘qli k kabi tushunchalar hayotning bir-biriga zid va chambarchas bog‘langan tomonlarini ifodalaydi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, qadriyatlar va jamiyatning rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida

turlicha ahamiyat kasb etadi, tarixiy zaruriyatga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog‘onasiga chiqib oladi, boshqalarini xiralatirganday bo‘lib tuyuladi. Natijada ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlariga mos ravishda, oldinga chiqib olgan qadriyatni barqaror qilishga nisbatan intilish kuchayadi. Masalan, yurtni yov bosganida – ozodlik, ipmeriya hukmronligi nihoyasida – istiqlol, urush davrida – tinchlik, tutqunlikda – erkinlik, kasal va bemorlik onlarida – sihat-salomatlikning qadri oshib ketadi, ularga intilish kuchayadi.

2. Qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllari

Qadriyatlarning asosiy shakllarini aniqlash borasida olimlar orasida bir xil va hamma e’tirof etgan yagona yondashuv yo‘q. Bu boradagi nuqtai nazarlarni diqqat bilan tahlil qilish hamda qadriyat shakllarini bir-biridan farqlanuvchi ikki katta guruhgaga bo‘lish yo‘lidan borish, *moddiy* va *ma’naviy* yoki *umumbashariy* va *umuminsoniy* qadriyatlar iboralarini qo‘llash imkonini beradi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, moddiy qadriyatlar iborasi qo‘llanganda muqarrar ravishda tabiatdagi narsa, buyum va boshqalarni qadriyat va uning shakllari bilan ayniylashtirish xavfi tug‘iladi. Bunday holdan xoli bo‘lish uchun tabiat, uning bo‘laklari, narsalar qadrlanadilar, tabiatda qadriyat nomi bilan ataladigan biror narsa, eism, buyum yo‘q, balki qadrlanadigan narsalar, jism va buyumlar bor, deb e’tirof etishga to‘g‘ri keladi. jamiyatda ham shunday, qadriyat nomli biror subyektni topa olmaymiz, balki qadrlanadigan kishilar, voqealar, holat, g‘oyalar, maqsadlar bor, degan fikr tug‘ildai. Qadriyatlarning kategoriyasi va uning tuzilishini tahlil qilganda u bog‘liq bo‘lgan ob’ekt va qadriyatning ahamiyati hamda qadrini sezayotgan, o‘rganayotgan, anglayotgan subyekt dialektikasiga alohida e’tibor qaratish zarur. lohida ishi uchun bir tomondan bashariyat bilan, ikkinchi tomondan esa, insoniyat bilan bog‘liq umumiyyat qadriyatdar o‘z ahamiyatini saqlab qoladi. Ushbu ma’noda umumbashariyatga va umuminsoniyatga aloqasiga qarab ajratiladigan qadriyat shakllarini ko‘rsatish mumkin. Ular bashariyat va insoniyatga tegishli tabiiy-ijtimoiy voqelikning eng muhim shakllari, ko‘rinishlari, xususiyatlari va jihatlari bilan bog‘liklikda namoyon bo‘ladi (ya’ni o‘zlari tayaanadigan ob’ektga ega bo‘ladilar). Bunday holda ana shu qadriyat ob’ektlarining

bir qator jihatlarini o‘rganish mumkin bo‘ladi. Bu xususiyatlar qadriyat shakllarini tavsiflash, ularning ahamiyatini izohlashda qo‘l keladi, shu bilan birga «umumbashariy qadriyat» va «umuminsoniy qadriyat» iboralari aksiologik jihatdan bog‘liq tushunchalar ekanligidan dalolat beradi. Oradagi farq qadriyat shakllarining aksiologik tahlilida, ularni bashariyatdagi narsa va hodisalar yoki insoniyatga xos ijtimoiy subyektlar va jarayonlar bilan bog‘lab o‘rganishda ko‘zga tashlanadi. Kundalik muloqatlarda esa, bu farqqa ko‘pchilik e’tibor bermaydi, yuqoridaq iboralarni bir xil ma’noda qo‘llash hollari ko‘p uchrab turadi. Albatta qadriyatlarga bunday qarash ham nisbiy xususiyatga ega, gap qadriyatlarni ilmiy o‘rganish uchun biror-bir nuqtai nazarning zarurligidadir. Hech bir nuqtai nazar klassifikatsiya qadriyatlarni to‘liq qamrab ololmaydi va mutlaq haqiqat darajasiga ko‘tarila olmaydi. Qadriyatlar namoyon bo‘lishi shakllarining har qanday klassifikatsiyasi ularni falsafiy-aksiologik anglash vositasi, shu bilan birga qadriyatlar turli-tumanligining in’ikosi hamda ushbu in’ikosning ifodasidir, xolos.

Bir qarashda qadriyatlarning shakllari ko‘p sonli va nihoyatda tartibsizga o‘xshab ko‘rinadi. Aslida esa insoniyat, olam, tabiat va jamiyatda ajabtovur qonuniy, zaruriy uyg‘unlik mavjud. Qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllari ham ularga mos tarzda ana shunday uyg‘unlikda, qonuniy bog‘lanishda, umumiyoq aloqadorlikdadir. Bunday holatda ularning klassifikatsiyasida tabiat va jamiyatdagi narsa, voqeа, hodisa, jarayonlar muayyan ko‘lamda, qadriyat shakllari esa ular bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Ushbu holatni tahlil qilishda ilmiy bilishning tizimlilik usuli, alohidilik, xususiylik va umumiylig, butun va bo‘lak kategoriyalaring dialektikasiga asoslanish qo‘l keladi. Bunda qadriyat shakllari bog‘langan ob’ekt, jarayon va boshqalarning makon va zamonda zohir bo‘lishi, ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar va aloqalarni o‘rganish, ob’ektiv asosi, subyektiv jihatdan anglanishi, umumiyoq, xususiy va alohida jihatlarini tahlil qilish imkonini tug‘ildai. Bu esa qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, bog‘lanish hamda ularning in’ikochi bo‘lgan eng umumiyoq qadriyat tizimlariga xos xususiyatlarni o‘rganish imkonini beradi. Umumbashariy qadriyatlar tizimidagi asosiy

qismlar tahlil qilinayotganida ular bog‘liq ob’ktlarning makonda va zamonda zohir bo‘lishiga e’tibor bermoq kerak. makon va zamonda ushbu qadriyat ob’ektlari borliqning biror shakli, jihat, voqelikning biror qismi, olamdagи narsalar va atrof-muhitning eng muhim tomonlari sifatida namoyon bo‘ladi. ushbu m’noda qadriyatlarning umumbashariy, umumsayyoraviy va mintaqaviy hamda biror kichik hudud yoi joyga bog‘liq bo‘lgan shakllarini ko‘rsatish mumkin. Bu qadriyatlarni, olamdagи moddiylik va ma’naviylikki nisbatan olganda, moddiy qadriyatlar, deyish mumkin. Unda jamiyatning iqtisodi va ishlab chiqarishi ham ko‘zda tutildai. Bunda umumiylirk, xususiylik va alohidalikning dialektikasi zamonaviy atamlar – “global”, “zonal” va “lokal” qadriyat ob’ektlarining o‘zaro munosabati tarzida zohir bo‘ladi. biz bu borada atroflicha fikr yuritish maqsadida emasmiz va ishimizning hajmi ham bunga imkon bermaydi. Qolaversa, mavjud atamalar bilan bog‘liq jarayonlar dialektikasi ilm-fanda keng muhokama qilinmoqda, bu borada tadqiqotlar olib borilmoqda.

1. Insoniyatni o‘rab turgan borliq. Atrof-muhit va tabitning eng muhim tomonlarini, olamdagи eng umumiyl bog‘lanishlar va aloqdorlikning subyekt uchun ijtimoiy qadri va ahamiyatini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga egadir. Ular inson ongiga bog‘liq bo‘lmagan tashqi olam va borliqning yashashi, harakati, makon va zamondagi o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir. Umumbashariy qadriyatlarning ob’ektiv asoslari insoniyat uchun mutlaq haqiqat sifatida mavjud, ularning borligi, zarurligi, inosn va jamiyat uchun abadiy, mavjudligi esa insoniyat qonunlari, talab va ehtiyojlaridan ustun turadi.

2. Umumsayyora ahamiyatiga molik qadriyat ob’ektlari ham shunday. Masalan: Yer sayyorasini atmosfera qatlami o‘rab turadi. Bu qatlamning inson uchun zarurligi, ijtimoiy qadri to‘g‘risida bo‘hs ham bo‘lishi mumkin emas. Uning sayyoramiz hayoti uchun qadri nihoyatda katta, ammo tiriklik va inson mavjud bo‘lishi uchun ahamiyati undan ham kattaroq. Holbuki, bu qatlam bo‘lmasa ham Yer sayyora sifatida yashashi mumkin, ammo bu qatlamsiz tiriklikni, hayvonot va o‘simplik olamini, inson hayotini tasavvur qilish mumkin emas.

3. Biror mintaqasi miqyosidagi qadriyatlarning ob'ektiv asoslari esa ana shu mintaqasi aholisiga tabiiy yashash sharti yoki etnik makon va boshqalar sifatida ta'sir qiladi. Bu ta'sir gohida mintaqasi miqyosidan chiqishi, u yoki bu mintaqaviy qadriyatning ahamiyati umusayyoraviy xususiyat kasb etishi mumkin (masalan, Orol dengizining ijtimoiy ahamiyati bilan bog'liq muammolar). Mintaqaviy qadriyatlarni bilan bog'liq hududni bir necha millat, elat, xalq va davlat aholisi uchun umumiy vatan sifatida tushunish hollari ham uchraydi. Hozirgi davrda ishlatilayotgan «Markaziy osiyo», «Yaqin Sharq» yoki «Karib dengizi havzasi» kabi hududiy atamlar ahamiyati jihatidan ana shunday ma'noni anglatadi. Demak qadriyatlarni bashariyat va uning bir qismi Yer sayyorasi tabiatini bilan bog'liq shakllari uchun asos bo'ladigan ob'ektlar: a) insonga yashash va faoliyat ko'rsatish imkonini beradi, kishilarning tabiiy ehtiyojlarini va talablarini qondiradi; b) hayotning zaruriy sharti sifatida ijtimoiy taraqqiyotning hamma davrlarida mavjud bo'ladi, o'z ahamiyatini saqlab qoladi, xususiyatlarini va sifatlarini turli-tuman tarzda namoyon qiladi; v) bu boradagi qadriyatlarni kishini o'rabi turgan borliq yoki tabiiy muhitning xususiyati, ko'rinishi, sifati bilan ham bog'liq holda namoyon bo'lishi mumkin. Bu holda har bir qadriyatning o'rni va ahamiyati inson uchun beqiyos bo'ladi. Jamiyatning yashashi, odamlarning hayot kechirishi uchun yuqorida qadriyatlarni bilan birga jamiyatdagi umumijtimoiy va umuminsoniy qadriyatlarni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning ma'naviy hayoti va ijtimoiy ong shakllari nuqtai nazaridan olganda ularga nisbatan ko'proq ma'naviy qadriyatlarni iborasi qo'llaniladi.

Ular:

- *kishilarga hayotning mazmunini chuqurroq tushunish, jamyait qonun-qoidalaridan foydalanish, o'zlarining hatti-harakatlarini ana shu ma'naviy mezonlar talabiga moslashtirish imkonini beradi;*
- *inson bilatni tabiat, inson bilan inson munosabatlarini o'zida aks ettiradi, jamiyat rivoji jarayonida takomillashib boradi;*
- *o'z tabiatiga ko'ra biror-bir kerakli axborot beradi, kishining ma'naviy olamini boyitadi, yashashning haqiqiy mezonlarini belgilaydi,*

odamlar intiladigan ideal, azaliy orzu, ezgu-maqсад sifatida namoyon bo‘lishi mumkin;

– muayyan kishilar, guruhlar tomonidan noto‘g‘ri tushunilishi, talqin qilinishi, qabul qilnmasligi, rad qilinishi, tanqid ostiga olinishi, ta’qiqlab qo‘yilishi ham mumkin. Ammo bu ularning qadri yoki ahamiyatini butunlay yo‘qotib yubora olmaydi. Ular zamin va zamon silsilalari orasidan o‘zlariga yo‘l ochadilar va asrlardan o‘tib insoniyat uchun muayyan qadrlarini namonyo qilib boraveradilar;

– kishilarning ma’naviyati, yashash usuli, turmush tarzi, xatti-harakatlari, ijtimoiy faoliyatining asosiy mezonlari darajasiga ko‘tarilganlarida o‘z ahamiyatlarini to‘la-to‘kis namoyon qilishlari uchun imkoniyat bo‘ladi;

– ularning qadri va jamiyat uchun ahamiyatini moddiylik qonuniyatlarini orqali izohlash, bahosini esa moddiy foydasi bilan ifodalash qiyin. Bu baho zamon o‘tishi bilan o‘zgarishi, yangicha izohlanishi va ifodalanishi mumkin.

Qadriyat shakllarini biror ob‘ektga bog‘liq holda namoyon bo‘lishini hisobga olganda, umumijtimoiy qadriyat shakllarining jamiyat, unng tuzilishi, ijtimoiy sb‘ektlar va ijtimoiy ong shakllariga aloqador turkumlarini ko‘rsatish mumkin. Masalan jamiyatning tuzilishiga xos umumijtimoiy. Milliy, sinfiy, irqiy va boshqalar. Yoki ijtimoiy ongning shakllariga bog‘liq qadriyat shakllari ham bor: siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, jamiyatning asosiy sohalariga bog‘liq iqtisodiy, ijtimoiy. Madaniy, ma’naviy va boshqa qadriyat shakllari.

Ijtimoiy qadriyat shakllari orasidagi farqlar aslo mutlaq emas, balki nisbiydir. Ular orasida o‘tib bo‘lmas chegaralar yo‘q. Qadriyat ob‘ektlarining makonda namoyon bo‘lishinimoddiy, umumbashariy. Umumsayyoraviy, mintaqaviy shakllari orasidagichegaralarini aniqlash nisbatan osonroq kechishi mumkin. Ammo bu holatda ham xulosalari-mizda nisbiylik saqlanib qoladi, bunday nisbiylik ijtimoiy qadriyatlar, ayniqsa, umuminsoniy, milliy, sinfiy va boshqa qadriyat shakllarni, ular o‘rtasidagi munosabtalarni tahlil qilayotganda yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Biz quyida qadryaitlarning ba’zi shakllarini atroflicha tahlil qilishga harakat qilamiz.

3. Qadriyatlar va baholar.

Aksiologyaning asosiy kategoriyalari qatoriga qadriyat bilan bir qatorda hajman juda keng tushuncha – «baholash» ham kiradi. Baholash – buyumning inson faoliyati, uning ehtiyojlarini qondirish uchun ahamiyatini anglab yetish vositasi. Baholash subyektning o‘z hayoti va faoliyati uchun hodisalarining ijtimoiy ahamiyatini aniqlashidir. U insonga hodisalar dunyosida mo‘ljal olish imkonini beradi, uning faoliyatini yo‘lga soladi. Baholash universaldir: u sezgilar va aql-idrok darajasida, emotsiyalar va tuyg‘ular, tasavvurlar, idroklar, mulohazalar, mayllar, istaklar, intilishlar, afzalliklar va, albatta, faoliyat ko‘rinishida ro‘yobga chiqib, inson hayat faoliyatining barcha turlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Baholashning mohiyatini teranroq anglab yetish uchun uni «qadriyat» bilan solishtirish o‘rinli bo‘ladi. Baholash va qadriyat – bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tushunchalar, lekin ularning o‘rtasida jiddiy farq ham mavjud. Xo‘sish, bu farq nimalarda ko‘rinadi?

Birinchidan, qadriyat biz baho berayotgan narsa, ya’ni baholash predmeti bo‘lsa, baholash – bu baho berish jarayoni, ya’ni aqliy faoliyat bo‘lib, uning natijasi o‘laroq borliqning muayyan predmeti biz uchun qanday qimmatga ega ekanligi aniqlanadi. Predmetni yoki uning xossasini foydali, yoqimli, yaxshi, chiroyl deb topib, biz baholashni amalga oshiramiz.

Ikkinchidan, faqat ijobiy ahamiyat kasb etuvchi qadriyatlardan farqli o‘laroq («salbiy qadriyatlar» bo‘lishi mumkin emas), berilgan baho ijobiy bo‘lishi ham, salbiy bo‘lishi ham mumkin. Biz muayyan predmetni yoki uning xossasini foydali emas, balki zararli deb topishimiz, muayyan xatti-harakatni yomon, axloqqa zid deb baholashimiz, ko‘rilgan filmni mantiqsiz deb qoralashimiz mumkin. Bunday fikrlarning barchasi baholash hisoblanadi.

Uchinchidan, qadriyat amaliy munosabat mahsuli sifatida obyektiv hisoblanadi. Baholash esa subyektivdir. U obyektiv qadriyatning sifatigagina emas, balki baholovchi subyektning ijtimoiy va individual

fazilatlariga ham bog‘liqdir. Ayni shu sababli ayni bir hodisa ayni bir davrda yashayotgan odamlar tomonidan turlicha baholanishi mumkin.

Bu yerda haqiqiy va soxta baholar to‘g‘risidagi masala yuzaga kelishi mumkin.

Baholash ilmiy bilimlarga tayanishi ham, odatdagi bilimlarga, an'analarda, odatlarda mujassamlashgan ijtimoiy tajribaga va hatto turli xurofiy aqida va bid'atlarga tayanishi ham mumkin. Kezi kelganda shuni qayd etib o‘tish lozimki, baholashning fanga oddiy mansubligi uning muqarrar tarzda haqqoniyligidan dalolat bermaydi, xuddi shuningdek oddiy ong darajasida baholash o‘z-o‘zidan uning soxtaligini anglatmaydi.

Berilgan bahoning haqqoniyligi subyekt qadriyatning obyektiv ahamiyatini qay darajada aniq anglab yetgani bilan belgilanishini tushunish muhimdir. Haqiqat to‘g‘risidagi masalada bo‘lganidek, bu yerda ham amaliyot bosh mezon hisoblandi.

Baholash strukturası. Baholash strukturasida ikki tomonni shartli ravishda farqlash mumkin.

Baholashning birinchi tomoni narsalar, xossalari, jarayonlar va hokazolarning ayrim obyektiv xususiyatlarini qayd etish bo‘lsa, ikkinchi tomoni subyektning ob'ektga bo‘lgan munosabati: ma’qullah yoki qoralash, xayrixohlik yoki yomon ko‘rish va hokazolardir. Birinchi tomonning baholashi bilimga yaqinroq bo‘lsa, ikkinchi tomonning baholashi Me’yorga yaqinroqdir.

Baholashning funksiyalari ham uning ichki ziddiyatlarga to‘la tabiat bilan belgilanadi. Hozirgi zamon qadriyatlar nazariyasida odatda baholashning quyidagi funksiyalari farqlanadi

Dunyoqarashga doir funksiya. Mazkur funksiyaga muvofiq baholash subyekt o‘zligining shakllanishi, amal qilishi va kamol topishining zaruriy sharti hisoblanadi, chunki har doim uning uchun atrof borliqning ahamiyatini aniqlash bilan bog‘liq.

Gnoseologik funksiya borliqning in'ikosi, ob'ektlarning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetish omili sanalgan baholash va bilishning o‘ziga xos jihatni hisoblanadi.

Baholashning faollashtiruvchi funksiyasi. Baholash bilishning bilimlardan foydalanishga qaratilganini aks ettiradi, amaliy faoliyatga faol intilish va munosabatni shakllantiradi.

Variativ funksiya. Baholash tanlashni, subyekt muayyan ob'ektlarni, ularning xossalari, munosabatlarini afzal ko'rishini nazarda tutadi. Baholash hodisalarini taqqoslash va ularning jamiyatda mavjud Me'yorlar, ideallar bilan o'zaro nisbatini aniqlash orqali amalgalashiriladi.

Shunday qilib, qadriyatning mohiyatini va uning baholash bilan o'zaro aloqasini o'rganish qadriyatlarning tasnifiga o'tish imkonini beradi. Qadriyatning borlig'i baholash bilan uzviydir. Baholash yo'li bilan individ ayrim qadriyatlarni aktuallashtiradi, ba'zi bir qadriyatlarni esa rad etadi, ularning ierarxiyasini o'rnatadi. Baholash strukturasiga, baholash predmeti, subyekt va asosi kiradi.

Baholash predmeti. Baholashning obyektiv mazmuni uning predmeti bilan belgilanadi. Shu sababli baholash bilish bilan bevosita bog'liq, zero predmetning ahamiyati haqida xulosa chiqarishdan oldin uning obyektiv xossalari haqida bilimga ega bo'lish lozim. Haqiqiy, ishonchli bilimning o'zi baholash uchun asos bo'lishi mumkin.

Haqiqatning amaliy jihatdan foydaliligi uni ijobjiy tavsiflash imkonini beradi. Ammo haqiqatga berilgan salbiy baholar ham yaxshi ma'lum: behuda, shafqatsiz, befoyda va sh.k. Bu tasodifiy bir hol emas: ilmiy bilish o'z oqibatlarini mavhumlashtiradi va aksariyat olimlar fan va axloqning aloqasini rad etadi. Ayrim universal aloqani xolisona tavsiflashga qarab mo'ljal oluvchi ilmiy bilimdan farqli o'laroq, baholash bu aloqaning mazmunini tushunish, uning ahamiyatini tafakkur va emotsiyalar darajasida anglab yetish va boshdan kechirishdir. Baholashga doir mulohazalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, bilim borliq hodisalarini erkin baholashga monelik qilmaydi. Bilishga doir mulohazalar intersubyektiv hamda nuqtai nazarlarga bog'liq bo'lmasa, baholashga doir mulohazalar subyektiv bo'lib, har xil asoslarga ega. Biz estetik, siyosiy, axloqiy, dunyoqarashga doir, mafkuraviy qadriyatlarda erkin baholashlarga ayniqsa ko'p duch kelamiz. Ma'lumki, natijalar, metodlar va vositalarni baholash – bilish jarayonining ajralmas tarkibiy

qismi. Bu xususiyat gipotezalar, konsepsiylar, kashfiyotlarning amaldagi qimmati va ularga ilmiy hamjamiyat, zamondoshlar bergen baholarning nomuvofiqligini tushuntiradi. Yanglish tasavvurlar, gipotezalarning ilmiy ahamiyatini baholash ham muhim muammodir. Bilimning haqiqiyligi uning obyektiv borliqqa bo‘lgan munosabati bilan belgilansa, uning bilim sifatidagi qimmati fanning rivojlanish jarayonida aniqlanadi va uning bilish jarayoniga ta’sirining ahamiyati bilan belgilanadi. Masalan, o‘tmishning ko‘pgina soxta konsepsiyalari (astrologiya, alximiya va sh.k.) hozirgi zamon fanining shakllanishiga ancha kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Bu soxta tasavvurlarning evristik imkoniyatlari ularning bilim sifatidagi mazmunidan boyroq bo‘lib chiqqan.

Shuni qayd etish lozimki, baholashga doir mulohazalar ham haqiqiylik yoki soxtalik, adolat yoki adolatszlik kategoriylarida baholash predmeti bo‘lishi mumkin. Baholashga doir mulohazalarning «haqiqiylik – soxtalik» tushunchalarida tavsiflanuvchi turkumlari mavjud. «Adolat – adolatsizlik» kategoriylarida tavsiflanuvchi baholashga doir mulohazalar katta bir turkumni tashkil etadi. Bular siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik munosabatlar, xatti-harakatlar, qilmishlar sohasiga taalluqli bo‘lgan baholashlardir.

Masalan, sud qarori, tergov xulosasi va shu kabilarda ifodalangan mulohazalarning xususiyati qanday? Ular «haqiqiylik – soxtalik» yoki «adolat – adolatsizlik» kategoriylarida baholanadimi? Bu mulohazalar baholashga doirmi yoki bilish sohasiga taalluqli va haqiqiylik mezonini qanoatlantirishi lozimmi? Sud u yoki bu qilmishni inqilobiy maqsadga muvofiqlik nuqtai nazaridan tavsiflasa, bu yerda, odatda, haqiqat emas, balki baholash mavjud bo‘ladi. Ba’zan haqiqat va baholash o‘rtasidagi ziddiyat o‘zining cho‘qqisiga yetadi. Garchi huquq o‘z tabiatiga ko‘ra Me’yoriy va, binobarin, qadriyat sifatida mazmunga ega bo‘lsa-da, har qanday qilmishni huquqiy tavsiflash haqiqiylik mezonini qanoatlantirishi lozim. Huquqiy tavsiflashdan baholash elementini butunlay ajratish mumkin bo‘lmasa-da, u mazkur tavsiflashda ikkinchi darajali o‘rin egallaydi, haqiqatning hosilasi hisoblanadi. Ayni holda haqiqat baholashning birdan-bir asosi bo‘lishi lozim.

Baholashga doir tavsifiy mulohazalar ham mavjud. Ular haqiqat sifatida ahamiyatga ega bo‘lgan tavsiflashni ham, qadriyat sifatida mazmun kasb etuvchi baholashni ham o‘z ichiga oladi. Sudning ko‘pgina qarorlarini baholashga doir tavsifiy mulohazalar sifatida tavsiflash mumkin. Shunday qilib, baholash bilish omilini, bilimning haqiqiyligi talabini o‘z ichiga oladi, lekin birgina unga bog‘liq emas. O‘z navbatida, bilim baholashning asosi ham, predmeti ham bo‘lishi mumkin.

Baholash subyekti. Bahoning shakllanishiga baholash subyekti: individ, ijtimoiy guruh, jamiyat, insoniyat ancha kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, ehtiyojlarning boyligi, inson ma’naviy hayotining murakkabligi bilan izohlanuvchi baholash asoslarini tanlash subyektivdir. Ma’lum hollarda subyekt shaxsiy (gruppaviy) manfaatni, o’tkinchi egoistik mayllarni baholashning birdan-bir asosi sifatida tanlaydi. Bu tasodifiy bir hol emas. Individ ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarining ko‘p sonliligi va ierarxiyaviyligi uning borliq voqyealarini baholashga nisbatan yondashuvlarining serqirraligini nafaqat tushuntirdi, balki buni nazarda tutadi. Ayni vaqtda psixologiya va sotsiologiyada mazmun va ahamiyat jihatidan har xil bo‘lgan hodisalarga ayni bir subyekt tomonidan berilgan baholarda barqarorlik, o‘zgarmaslik, takroriylik qayd etiladi. Shaxs ijtimoiy-madaniy va shaxsiy qadriyatlarning ancha batartib tizimiga amal qilgan holda o‘zini yaxlitlik sifatida namoyon etadi. Ehtiyojlardan kelib chiquvchi mazkur tizim inson o‘zini qurshagan borliq: tabiat dunyosi, ma’nviy madaniyat va o‘z-o‘zini baholashining teran asosi sifatida amal qiladi. Shunga qaramay shaxsning yo‘l tanlashini belgilovchi qadriyat va mo‘ljallari insonning yashash sharoitlari va ehtiyojlari kabi o‘zgaruvchandir. Natijada baholashlarda o‘zboshimchalik, subyektivizmga yo‘l qo‘yilishi xavfi yuzaga keladi.

Baholashga doir mulohazalarda inson madaniyati, uning to‘g‘ri tushunish va his qilish qobiliyati namoyon bo‘ladi. O‘zining moddiy ifodasini topgan qadriyatlar barqaror va nisbatan o‘zgarmas, shaxs ehtiyojlari va manfaatlari esa o‘zgaruvchan bo‘lib, bundan qadriyatlarni muntazam ravishda qayta baholash zaruriyati kelib chiqadi. Mazkur

zaruriyat madaniyat qadriyatlariga nisbiy yondashuv, ularning ayrimlarini aktuallashtirish va boshqalariga e'tiborsizlik bilan bog'liq.

Maqsadlarni qo'yish ba'zan kishibilmas tarzda an'analar, Me'yorlar va qoidalar bilan tartibga solinadi. Ular qadriyatlarni tizimga solish va ierarxiyalashtirishni, qadriyatlar "piramidasi"ni yaratishni belgilaydi. Bunda piramida cho'qqisidan aktual, lekin o'tkinchi va hatto soxta qadriyatlar o'rinni olishi ham mumkin. Masalan, sotsiologlar yoshlarning hayot mo'ljallarini o'rganish jarayonida ular ko'pincha o'zlari aniq tasavvur qilmaydigan kasbni tanlashlari, o'zlari hyech qachon bo'limgan joyga ketishga harakat qilishlari, yaxshi ma'lum bo'limgan narsalarni tanlashlarini aniqlaganlar. Iste'mol mollari va xizmatlarning taqchilligi shu paytda taqchil bo'lgan narsaga kuchli qiziqish uyg'otadi. Individ o'z ehtiyojlarini qondirishdan ham ko'ra ko'proq u mazkur ehtiyojlarni qondirishga qodir ekanligini atrofdagilar tan olishiga erishishga harakat qiladi. Ehtiyoj o'rnini jamiyatda obro'-e'tibor topishga intilish egallaydi. qadriyatlarga erkin subyektivistik baho berish moda, mishmishlar, xurofiy qarashlar va shu kabilarning natijasi bo'lishi mumkin. Mayllarimizning predmeti sanalgan bu aktual qadriyatlar, agar ularning asosi yo'qolsa, barbod bo'ladi. Baholashdagi subyektivizm zamirida shaxs, jamiyat, tabiat va hokazolar uchun og'ir oqibatlar yuz berish xavfi yashirinib yotadi. Inson o'tkinchi shubhali qadriyatlar hukmiga bo'ysunib, fundamental ijtimoiy qadriyatlar va shaxsiy hayot qadriyatlari barbod bo'lgan holatga tushib qolishi mumkin (ekologik halokat, diktatura o'rnatilishi, shaxs huquq va erkinliklarining yo'qotilishi, sog'liqni yo'qotish, oiladan ajralish, do'stlarni, o'zi yoqtirgan ishni yo'qotish va h.k.).

Baholash asosi. Obyektiv asosning mavjudligi baholashda subyektivizm yo'lida muayyan g'ov-to'siq hisoblanadi. Baholash asosi – subyektga hodisani uning mazkur davrdagi yoki kelajakdagagi ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridan tavsiflash, borliq narsalarini va hodisalarini saralash, tanlashni amalga oshirish va o'z faoliyatining strategiyasini belgilash imkonini beruvchi mezon. Baholashga doir mulohazalarda baholash asosi aniq aks ettirilishi ham, implitsit tarzda, ya'ni aniq

bo‘limgan ko‘rinishda ifodalanishi ham mumkin. Ammo asos – baholashning muqarrar elementi.

Baholash asosi sifatida shaxs yoki ijtimoiy guruhning bevosita ehtiyojlari, manfaatlari, mo‘ljallari amal qilishi mumkin. Ammo baholash zamirida andozalar, qoidalar, standartlar, ijtimoiy imperativlar yoki taqiqlar, Me’yorlar ko‘rinishida ifodalangan maqsadlar yoki loyihalar yotishi ham mumkin. Me’yoriy tartibga solish sohasi inson faoliyati sohasi bilan deyarli mos keladi. U huquqiy va axloqiy Me’yorlardan tashqari qoidalar, komandalar, buyruqlar, standartlar, texnik Me’yorlar, xizmat tartibi va shu kabilarni ham o‘z ichiga oladi. Me’yorlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular bir vaqtning o‘zida qadriyat sifatida ham, baholash asosi sifatida ham amal qiladi. Bu ikki yoqlamalik baholashga doir mulohazalar ikki yoqlamaligining sabablaridan biri hisoblanadi. Xulq-atvorni baholashda, maqsaddan qat’iy nazar, qoidalar va Me’yorlarga formal muvofiqlik birinchi o‘ringa chiqqan holda, Me’yor mustaqil qadriyat sifatida ko‘pincha odatga aylanadi. Shaklan Me’yorlar va qoidalarga muvofiq bo‘lgan yuzaki faoliyat ba’zan jamoatchilik fikrida ijobiy baho olishi, ish manfaatlarida sermazmun faoliyat esa salbiy baholanishi mumkin.

Har qanday baholash o‘z predmetini ham, baholash subyektining ehtiyojini ham tavsiflaydi. Subyekt u yoki bu hodisani baholar ekan, o‘zining unga bo‘lgan munosabatini ham, o‘z ehtiyojini ham ifoda etadi. Bundan sotsiologlar tomonidan kuzatiluvchi baholarning variativligi kelib chiqadi. Baholar haqiqiy bo‘lishi, ya’ni predmetning obyektiv qimmatini aniq aks ettirishi va haqqoniy bo‘lishi, ya’ni baholash subyektining shaxsiy fikrini aks ettirishi mumkin. Baholar haqqoniy bo‘lishi, lekin haqiqiy bo‘lmasligi; haqiqiy bo‘lishi, lekin haqqoniy bo‘lmasligi; haqqoniy ham, haqiqiy ham bo‘lmasligi mumkin. Masalan, manzaraning go‘zalligi haqidagi mulohaza haqiqiy bo‘lishi, lekin haqqoniy bo‘lmasligi mumkin, chunki individ o‘z mulohazalari bilan suhbатdoshiga o‘zini nozik didli shaxs qilib ko‘rsatmoqchi bo‘lishi, manzaraning go‘zalligi esa amalda uni qiziqtirmasligi mumkin.

Har bir baholashda faoliyatning turli tomonlari asos bo‘lishi mumkin:

- Me'yoriy (muayyan Me'yorga muvofiq) baholash;
- ijtimoiy-madaniy (muayyan jamiyatning madaniy o'ziga xosligi bilan mushtarak) baholash;
- professional (mazkur kasb andozalari va qoidalariga muvofi-) baholash;
- operatsional baholash (muayyan maqsadga erishish imkonini beruvchi operatsiyalarning maqsadga muvofiq majmui va ketma-ketligi).

Har bir muayyan holda yuqorida zikr etilgan asoslardan biri yoki ularning muayyan uyg'unligidan foydalanilishi mumkin bo'lib, bu ayni bir hodisaga berilgan bahoning mazmunini sezilarli darajada o'zgartiradi.

Masalan, huquq bilan tartibga solinuvchi qilmish huquqiy Me'yor nuqtai nazaridan baholanuvchi yuridik fakt hisoblanadi. Ayni shu qilmish operatsion (operatsiya qay darajada muvaffaqiyatli amalgamoshirilgani) yoki axloqiy (qilmish subyekti qaysi axloqiy prinsiplarga amal qilgani) nuqtai nazaridan baholanishi mumkin.

Baholash asosi sanalgan Me'yorlar uning predmeti bo'lishi ham mumkin. Ular faoliyatning hayot sinovidan o'tgan usullarini mustahkamlash vositasi sifatida vujudga keladi. Ayni vaqtida ijtimoiy Me'yorlar allaqachon eskirgan va shaxs o'z-o'zini qadriyat sifatida erkin anglab yetishiga monelik qiluvchi taqiqlar va qoidalarning manbalari bo'lishi mumkin. Ijtimoiy Me'yorlar ijtimoiy amaliyotdan oqsashi ular birdan-bir maqsadga aylanishiga zamin yaratadi. Bunda insonning maqsadga muvofiq faoliyati o'rnini Me'yorga ko'r-ko'rona amal qilish egallaydi, ayrim qadriyatlardan namoyishkorona ramziy foydalanish vujudga keladi. Individning ijtimoiy jihatdan nufuzli va Me'yoriy jihatdan maqbul guruhdagi o'rnini aks ettiruvchi timsol o'rinning o'zidan muhimroq tus oladi. Masalan, avtomobildan transport vositasi sifatida emas, balki uning egasi (uning jamiyatdagi haqiqiy o'rni qanday ekanligidan qat'iy nazar) jamiyatning «oliy» sinfiga mansubligidan dalolat beruvchi timsol sifatida foydalanilishi mumkin.

Shunga qaramay aynan Me'yorlar har bir baholashda umuminsoniy va muayyan tarixiy, obyektiv va subyektiv, umumiyligida xususiy

omillarning mushtarakligini ta'minlaydi. Individ yoki ijtimoiy guruhning obyektiv holatini aks ettirgan, kishilarning amaliy faoliyati asosida vujudga kelgan holda, Me'yorlar tabiat va jamiyat hodisalarini baholashda o'zboshimchalikning mavjud emasligini ta'minlashga qodir. Me'yor – inson faoliyatini yo'lga soluvchi va boshqaruvchi, uning jamiyat yoki odamlar ayrim guruhlarining manfaatlari va qadriyatlariga muvofiqligini nazorat qiluvchi umum e'tirof etilgan qoida. Me'yor jamiyatda joizlik haqida mavjud tasavvurlardan kelib chiqib muayyan harakatlarni buyuruvchi yoki taqiqlovchi talab sifatida amal qiladi. Binobarin, Me'yor joizlik haqidagi tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Jamiyatda vujudga kelgan Me'yorlar nisbatan barqarorlik kasb etadi va, o'z navbatida, baholash faoliyati jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Subyekt ob'ektning amaldagi ahamiyati haqidagi tasavvuridangina emas, balki o'z hayotida amal qiluvchi Me'yorlardan ham kelib chiqib baholashni amalga oshiradi. Jamiyatning rivojlanish jarayonida hodisalar ijtimoiy ahamiyatining o'zgarishi va tegishli ravishda baholarning o'zgarishi eski Me'yorlar tanqid tig'i ostiga olinishiga va yangi Me'yorlarning shakllanishiga olib keladi.

4. *Qadriyatlarning komil inson tarbiyasidagi o'rni*

Ma'lumki, qadriyatlar o'z mohiyatiga ko'ra, umuminsoniy ezgu tuyg'ular orqali milliy istiqlol mafkurasining g'oyalarini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdiradi. Mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "... Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur". Milliy qadriyatlarni o'zida sindirgan shaxsgina jamiyatni taraqqiy etishiga xizmat ko'rsata oladi.

Odamlar bitta jamiyatda, bir davrda va o'xshash sharoitlarda yashayotganliklariga qaramasdan, u yoki bu narsaning qadri turlicha anglab olinadi, tushuniladi va talqin qilinadi. Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi tasavvuri, qarashlari o'zgaradi, bu

esa taraqqiyot jarayonida odamlarning turmush sharoitlari, hayoti va ma’naviy qiyofasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir.

Ana shunga ko‘ra, hammada ham qadrlash tuyg‘usi doimo bir xil bo‘lavermaydi, ijobiyligi va salbiy qarashlar, turli xil jihatlar har qanday qadriyatning qarama-qarshi tomonlarini tashkil qiladi. Ijobiyligi va salbiyligi, baholanishi va ahamiyatiga ko‘ra bir-biriga mutlaqo ziddek bo‘lib ko‘rinadigan yaxshilik va yomonlik, haqiqiat va haqsizlik, baxtsaodat va g‘am-kulfat, taraqqiyot va tanazzul kabi tushunchalar hayotning bir-biriga zid va chambarchas bog‘langan tomonlarini ifodalaydi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, qadriyatlar jamiyatning rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, tarixiy zaruriyatga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog‘onasiga chiqib oladi, boshqalarini xiralashtirganday bo‘lib tuyuladi. Natijada ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlariga mos ravishda, oldinga chiqib olgan qadriyatni barqaror qilishga intilish nisbatan kuchayadi. Masalan, yurtni yov bosganida ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida istiqlol, urush davrida tinchlik, tutqunlikda erkinlik, kasal va bemorlik onlarida salomatlikning qadri oshib ketadi, ularga intilish kuchayadi.

Ta’lim-tarbiyaning muhim omillari bo‘lgan qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllari orasida o‘z ahamiyatini, ijobiylilik xususiyatlarini doimiy saqlab qoladiganlari ham bor. Bular inson vujudining tirikligi, umri va hayoti, sihat-salomatligi, mehnati, bilimi, muomalasi. Ular inson va jamiyat bor ekan, o‘zining ijtimoiy ahamiyatini saqlab qolaveradi. Afsuski, ularning qarama-qarshisi bo‘lgan kasallik, ma’nosiz hayot kechirish, bilimsizlik va boshqalar ham tarixiy jarayonlarning hamrohi. Tiriklik bor ekan-o‘lim, borliq eng buyuk ma’vo ekan-yo‘qlik, inson tirik jonzod ekan-kasallik, hayot kechirishdan maqsad mazmunli umr ekan-ma’nosiz qo‘yilgan ba’zi qadamlar, yashashning zaruriy shartlaridan biri bilish va anglash ekan-bilimsizlik, taraqqiyotga intilish bor ekan-tanazzul va boshqalar insoniyatni doimo ta’qib qiladi. Yuqoridagi ijobiyligi qadriyatlarning ahamiyati ham ularga teskari bo‘lgan jihatlarga nisbatan aniqlanadi. Yoshlarda, ayniqsa, talaba va o‘quvchilarda ma’naviy yetuk

tuyg‘ularni shakllantirishda ana shunday aksilogik bog‘liqliklarning botiniy va zohiriylarini o‘rgatish katta ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning qadri u yashayotgan zamon, undagi jarayonlar, ijtimoiy, tarixiy shart-sharoitlar bilan dialektik aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. Muhit va davr talablari shaxs qadrini shakllantirib, sayqallab boradi, uning o‘zi esa o‘z qadrining shaxsiy talablari, ehtiyojlari va maqsadlari bilan naqadar aloqadorligini chuqurroq anglab olish tomon boradi. Qadriyatlar yoshlarga hayot mazmunini chuqurroq tushunish, jamiyat qonun-qoidalaridan to‘g‘ri foydalanish, o‘zlarining hatti-harakatlarini ana shu ma’naviy mezonlar talabiga moslashtirish imkonini beradi. Hozirgi davrda talaba va o‘quvchilarga qadrlash va qadrsizlanish jarayonlarining mohiyatini anglatish, mustaqillik e’lon qilgan qadriyatlarning ahamiyatini to‘g‘ri tushuntirishga erishish nihoyatda dolzarb masaladir.

Mustaqillik istiqlol davrining eng asosiy qadriyatidir. Zero, mustaqil bo‘lmagan mamlakatning qadriyatlar tizimi hech qachon to‘kis bo‘lmaydi. Shu sababdan ham istiqlol yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishni taqozo qildi. Bu zaruriyat esa qadriyatlarni qayta baholash, yurtimizda Sharqona, azaliy va umuminsoniy qadrlash mezonlari ustuvor bo‘lgan hayot tarzini shakllantirish jarayoni bilan uyg‘unlashib ketdi. Qadriyatlar sohasidagi o‘zgarishlarga e’tibor va bu boradagi yangi tamoyillardan ta’lim-tarbiyada foydalanish ehtiyoji oshayotganligining sababi ham komil insonni tarbiyalashda.

Insonning butun umri shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirish, o‘z qadrini kamolga yetkazish, o‘zgalar, jamiyat, zamon va undagi sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar qadrini anglashga intilish jarayonidan iboratdir. O‘z shaxsi va boshqalar qadrini anglab yetish uchun insonning kamoloti davomida shakllangan ma’naviy qiyofasi va dunyosi ezgulikka xizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo‘lishi, uning o‘zi esa hayotning mohiyati va maqsadini to‘g‘ri anglaydigan darajada tarbiyalangan bo‘lmog‘i lozim. Ushbu ma’noda, Suqrotning “O‘z o‘zingni angla!” shiori g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar, xususan, talabalar va o‘quvchilarni ma’naviy barkamol avlod vakillari sifatida tarbiyalash va shakllantirishda qadr va qadrlash

tuyg‘usi, qadriyatlar kategoriyasi, ularning mohiyati, mazmuni, namoyon bo‘lish shakllari to‘g‘risidagi bilimlarning majmuasi bo‘lgan zamonaviy aksiologya, ya’ni qadriyatshunoslikning asoslarini o‘rgatish nihoyatda muhim. Ana shu sababdan ham umuminsoniyatning qadrlash Me’yorlari borasida to‘plagan yutuqlarini umumlashtirgan bilim sohalari imkoniyatidan foydalanish ta’lim-tarbiya samaradorligining asosiy mezonlaridan biridir.

Komil insonni tarbiyalashda boy ma’naviy qadriyatlarimiz yoshlar ongiga milliy g‘oya va istiqlol mafkurasini singdirishga xizmat qiladi, ularni mustaqil fikrlash, do‘sni dushmanidan farq qilishga undaydi, yurtim deb, elim deb yonib yashashga chorlaydi.

O‘zbek millatiga xos bo‘lgan muomala madaniyati, mehmondo‘slik, mehr-oqibat, muruvvat, saxovat, andisha va or-nomus kabi odob-axloqqa oid his-tuyg‘ular nafaqat inson tarbiya uchun xizmat qiladi, qolaversa, mazkur yaxshi xislatlar insoniy qadriyatlar va fazilatlarning namoyon bo‘lishida, shuningdek, komil insonni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Qadriyat kategoriyasining mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
2. Qadiyatlar qanday shakllarda namoyon bo‘ladi?
3. Ma’naviy qadriyatlarning kishilik hayotidagi o‘rni qanday hollarda o‘z ifodasini topadi?
4. Baholashning qanday funksiyalarini bilasiz va ularni sanab bering?
5. Qadriyatlarning komil inson tarbiyasidagi o‘rnini qanday baholaysiz, sharhlab bering?

8-mavzu. AXLOQIY MADANIYAT QADRIYAT SIFATIDA Reja:

1. Asosiy axloqiy qadriyatlar.
2. Axloqiy madaniyatning muhim elementlari.

3. Milliy qadriyatlar va ularning turlari

Tayanch iboralar:

Axloqiy qadriyat, axloqiy madaniyat, milliy qadriyat, shaxsiy axloqiy qadriyatlar, muomala odobi, kasbiy odob, etiket, shaxsiy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, jamoa qadriyati.

1. Asosiy axloqiy qadriyatlar.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanib boradi. Qadriyatlar kishilarning turli sohalardagi, avvalo, ishlab chiqarishi, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsa va hodisalar majmuyi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi.

Axloqiy qadriyatlar esa har bir kishi, millat, elat, xalqning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy-madaniy, kundalik maishiy turmush faoliyatida nisbatan turg‘un, barqarorlik kasb etib, o‘zligini bildirib, namoyon etib nihoyatda qadrlanadigan, ardoqlanadigan yuksak darajada shakllangan axloqiy sifat va fazilatlardan iborat.

Axloqiy qadriyatlarga insonparvarlik, jamoatchilik, adolat, qonuniylik, vatanparvarlik, xushmuomalalik va odoblilik, oddiylik va kamtarlik, halollik va rostgo‘ylik, ochiq ko‘ngillik va mardlik, saxiylik va muruvvatlilik, o‘zaro hurmat, do‘stona munosabat, samimiylilik, sabr-qanoat, hayolilik va pokizalik, homiylik va saxovat, fidoyilik, sadoqat, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, sihat-salomatlik, jasurlik va boshqalar kiradi.

Axloqiy qadriyatlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Axloqiy qadriyatlarning mazmuniga ko‘ra burch, or-nomus, vijdon, qadr-qimmat, sabr-qanoat, kamtarlik, sobitqadamlik, rostgo‘ylik va hokazolarga; shakliga ko‘ra esa ijobiy yoki salbiy, ya’ni yaxshilik va yomonlik, adolat vaadolatsizlik, baxt va baxtsizlik, hayo va behayolik kabilarga ajratish mumkin.

2. Axloqiy qadriyatlarni amal qilish doirasiga ko‘ra:

— shaxsiy axloqiy qadriyatlar – kasbiy burchni bajarish, sevgisiga sadoqatli bo‘lish, halol rizq topish, so‘zining ustidan chiqish, oila sha’nini saqlash, haromdan hazar qilish;

— milliy axloqiy qadriyatlar – mehmondo‘stlik, kattalarga nisbatan hurmat, saxovat, homiylik, ota-onani e’zozlash, bolajonlik va hokazolar;

— mintaqaviy axloqiy qadriyatlar – do‘stlik, yaxshi qo‘schnichilik, bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, o‘zaro hurmat va boshqalar;

— umuminsoniy axloqiy qadriyatlar – insonparvarlik, adolat-parvarlik, vatanparvarlik, o‘zaro hurmat, qonuniylik, jamoatchilik kabi turkumlarga bo‘lish mumkin.

3. Axloqiy qadriyatlarni axloqning tarkibiy tuzilishiga ko‘ra:

— axloqiy ongda barqaror shakllangan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar: jamiyat tomonidan ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilayotgan kodekslar, normalar, tamoyillar, mafkuraviy g‘oyalar. Masalan, “Harbiy qasamyod”, “Shifokor qasamyodi”, “Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb odobnomasi” va hokazolar;

— axloqiy amaliyotda bevosita qollaniladigan axloqiy qadriyatlar: yaxshilik yoki yomonlik, adolat yoki razolatdan iborat maqsadni ko‘zlab, uni amalga oshirishning ixtiyoriylik yoki majburlash vositalarini qollab pirovard natijaga olib keluvchi qadriyatlar;

— axloqiy munosabatlar tufayli zohir boladigan axloqiy qadriyatlar: burch, shartni bajarish, halollik, saxiylik, kamtarlik, uddaburonlik, tadbirkorlik, kelishuvchanlik, murosa va hokazolarga ajratish mumkin.

Yangi axloqiy qadriyatlarni yuzaga kelishi O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlatni qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda axloqiy qadriyatlarni barcha fuqarolarni, millati, dini, tili, irqidan qat’iy nazar o‘zbek xalqi o‘zining milliy axloqiy qadriyatlari — sabr-qanoat, jamoatchilik, o‘zaro yordam, saxovat, tinchlikni ardoqlash, shukronalik kabi axloqiy fazilatlarini namoyish qilish orqali tinch-totuv yashashga chorlaydi va uni ta’minlaydi.

2. *Axloqiy madaniyatning muhim elementlari.*

Axloqiy madaniyat. Davlat va fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini uning fuqarolari axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va

bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo‘lgan munosabatlarida foydalanishi, o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o‘z ichiga oladi. Qisqasi, u shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero, axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o‘z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o‘zgalar bilan o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Muomala odobi Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri — muomala odobi. U, mohiyatan, o‘zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o‘zaro tajriba almashmasdan, bir-biriga ta’sir ko‘rsatmasdan rasmana yashashi mumkin emas.

Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog‘lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o‘rinda buyuk ingliz yozuvchisi Daniel Defo qalamiga mansub mashhur “Robinzon Kruzonning sarguzashtlari” asarini eslashning o‘ziyoq kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinzonning naqadar quvonishiga ham sabab ana shunda. Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiy-Me’yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko‘zga ko‘rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo‘lishi so‘z, nutq vositasida ro‘y beradi. So‘zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarini tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o‘zini, eng avvalo, shirinsuxanlilik, kamsuquqlik, bosiqqlik, xushfe‘llilik singari axloqiy Me’yorlarda namoyon qiladi.

Darhaqiqat, muomala odobida muloqotning asosiy bo‘lmish til katta hamiyatga ega. zero odamlar bir-birlarini til orqali tushunadilar. til vositasida o‘z fikrini o‘zgaga yetkazish ma’lum ma’noda san’at. Zarur so‘zni topishi, muayyan holatga mos keladigan ifodaviy vositalarni qo‘llash, fikrni jumlaviy jihatdan to‘g‘ri ifodalash, aniq, bosiq, salobat bilan so‘zlash hamsuhbatingiz yoki tinglovchining diqqatini tortishda muhim rol o‘ynaydi, so‘zlovchining nutq madaniyati darajasini ko‘taradi. Muomala odobida tilning sofligi masalasi ham muhim. Til sofligi buzilishining asosan uch xil ko‘rinishi mavjud. Birinchisi — bir

tilda so‘zlashayotib ikkinchi tilga o‘tib ketish, to‘g‘rirog‘i birvarakay “ikki tilda” so‘zlashish. Bunga ikki talabaning so‘zlashayotganda o‘zbek tilidan rus tiliga, rus tilidan o‘zbekchaga muntazam o‘tib turishini misol qilib keltirish mumkin. Bu ba’zilari uchun odatiy xol bo‘lib qolgan. Ikkinchisi — bir tilda so‘zlashayotib ikkinchi tildagi so‘zlarni ayniqsa jargonlarni ishlatish. Masalan, “damingni ol”, “karache”, “sur”, “harip”, “voobshim” va boshqalar²⁵.

Til sofligining uchinchi buzilishi esa bir tilda so‘zlashgan holda o‘sha tildagi “parazit” so‘zlarni qo‘llashda ko‘rinadi. Masalan, “anaqa”, “holiginday” va boshqalar. Muomaladagi bunday til sofligining buzilishlari hamsuhbatlarga bilinmasa ham, chetdan kuzatgan odamga nihoyatda xunuk ko‘rinadi.

Muomaga odobiga “siz” va “sen”ning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi ham ahamiyatga ega. Xususan, uchinchi shaxs ota-onas, aka-opa yoki boshqa yoshi katta odamlar bo‘lganida ularga nisban birlikdagi u olmoshini emas, hurmatni anglatuvchi “ular” yoki “u kishi” shaklini qo‘llash odobdan hisoblanadi. Masalan, “Otam shunday dedi” emas, “Otam shunday dedilar”, “U kishi shuni hohlayaptilar” va hokazolar.

Suhbat paytida tinimsiz harakatda bo‘lib turish, qo‘lni paxsa qilib gapirish yoki suhbatdoshining yoshini nazarga olmay, uni oyoqni chalkashtirib o‘tirgan holda tinglash, birov jon kuydirib so‘zlayotganda esnash va boshqa shunga o‘xshash holatlar ham muomaladagi odobsizlikni bildiradi.

Etiket. Axloqiy madaniyatda yaqqol ko‘zga tashlanadigan munosabatlar ko‘rinishidan biri, bu — etiket. U ko‘proq insonning tashqi madaniyatini, o‘zaro munosabatlardagi o‘zini tutish qonun qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o‘z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya’ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo‘lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo‘yilgan xatti-harakatni taqozo etadi.

Etiketning qamrovi keng, u, ma’lum ma’noda, xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o‘z ichiga oladi. Masalan, siyosiy arbob etiketi, mehmondorchilik etiketi va hokazolar.

²⁵ Falsafa fanidan ma’ruzalar. Sirtqi ta’lim yo‘nalishlari uchun. Namangan. 2019

Etiketga rioya qilishning mumtoz namunasini biz tez-tez televizor ekrani orqali ko‘rib turamiz. Bu jarayon ayniqsa, davlat rahbarlariga xorijiy mamlakatlar elchilarining ishonch yorliqlarini topshirish marosimlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Unda faqat bir xil holat, xalqaro miqyosda o‘rnatilgan qoida hukmron. Uni Prezidentning ham, elchilarning ham buzishga haqqi yo‘q. Yoki juda oddiy, kichkina bir misol: dasturxonda tanovul payti, pichoqni o‘ng qo‘lda ushslash zamonaviy

mehmondorchilik etiketining qat’iy qoidalaridan biri sanaladi — uni buzish atrofdagilarda hayrat va istehzo uyg‘otadi. Shu bois etiketni odat tusiga aylantirilgan, qat’iy lashtirilgan muomala odobi deyish ham mumkin.

Etiketning bunday zamonaviy ko‘rinishlari bilan birga, shunday milliy-an’anaviy shakllari ham borki, ularsiz millat madaniy hayotining tasavvur qilish qiyin. Masalan, salomlashish odobini olib ko‘raylik. Etiketning bu turiga ko‘ra, ko‘chadan o‘tib ketayotgan odam, ko‘cha bo‘yida o‘tirganlar yoki turganlarga salom berishi kerak, salom berganda o‘ng qo‘l chap ko‘krakda, yurakning ustida turishi, bosh esa yengil ta’zimga egilishi lozim. Ko‘rishish etiketida esa qo‘lning uchini berib salomlashish ko‘rishayotgan odamga nisbatan ginaxonlik, xafagarchilikni bildiradi — odobdan emas. Ko‘rishganda yosh yoki martaba nuqtai nazaridan katta kishi birinchi bo‘lib qo‘l uzatishi lozim; ayollar bilan ko‘rishganda ham erkak kishi tomondan shunday etiket qoidasi bajarilmog‘i talab qilinadi.

Kasbiy odob. Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o‘z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro‘y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o‘rni yuksak. Shu bois kasbiy odobga batafsil to‘xtalish joiz.

Har bir jamiyatda muayyan guruhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi.

Ko‘pchilik jamiyat a’zolarining hayot mamotlari, sog‘ligi, ma’naviy sog‘lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo‘lishi kabi omillar o‘shanday imtiyozli kasb egalarining o‘z kasbiy burch mas’uliyatini qay darajada his etishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko‘rishlariga bog‘liqligi hammaga ma’lum.

Chunonchi, tabobat xodimini, jarrohni olaylik. Deylik, u har bir jarrohlik kunida bir necha kishini hayotga qaytaradi; yuzlab odamlar uning yordamiga muhtoj, unga umid va ishonch, ilinj bilan qaraydilar. Bordi-yu, shaxsiy manfaat yo‘lida jarroh o‘z bemoriga xiyonat qilsa-chi, ya’ni, uni qasddan halok etsa-chi? Kim uni shunday qilmasligini kafolatlaydi? Yoki jurnalistni olaylik. U shaxsiy manfaati yo‘lida, kasbining kamyobligidan foydalanib, begunoh kishilarni ma’naviy azobga qo‘yishi, atayin jamiyat oldida sharmanda qilishi va shuning hisobiga o‘zining ba’zi bir muammolarini hal qilib olishi mumkin emasmi? Mumkin. Zero, to haqiqat yuzaga chiqquncha nohaq tanqidga uchragan shaxsning adoi tamom bo‘lishi hech gap emas. Xo‘sh, jurnalistning shunday qilmasligini kim kafolatlaydi?

Shu bois boshqalarning qo‘lidan kelmaydigan ishlarni bajara oladiganlar faoliyatida o‘zboshimchalik, manfaatparastlik, xudbinlik va kasbni suiste‘mol qilish singari illatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun, shuningdek, ular axloqiy darajasini yuksak bosqichda turishini ta’minalash maqsadida ko‘p hollarda o‘zaro qoidalar majmui yaratilgan. Bu qoidalar majmui, odatda, qasamyod yoki Me’yorlar ko‘rinishini olgan. Uni buzish o‘ta odobsizlik va axloqsizlik, hatto jamiyatga xiyonat tarzida baholanadi. Bunday qasamyodlar juda uzoq tarixga ega. Misol tariqasida hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan Qadimgi Yunon hakimi Hippokrat (milodgacha V-IV asrlar) tomonidan qisqa va lo‘nda shaklda tuzilgan, tabobat xodimlari kasbiy odobi qonun-qoidalari jamlangan mashhur “Hippokrat qasami”ni keltirish mumkin.

Tarixda o‘z dushmanini davolagan tabiblar ham ko‘p uchraydi. Chunonchi, qadimgi hind eposi “Ramayana”da (II asr) behush yotgan Lakshman boshida turgan devlar shohining xos tabibi kechinmalari shu jihatdan muhim. Tabib oldida ikki yo‘l bor edi: biri — saltanat

dushmanini muhtoj bemor sifatida davolash, ikkinchi yo‘l davolashdan bosh tortish bilan uni o‘limga mahkum etish.

Tabib uzoq mulohazadan so‘ng tabiblik odobi qoidalariga bo‘ysunishni — Lakshmanni davolashni afzal ko‘radi. Zero, kasbiy odob qonun-qoidalari talabiga ko‘ra, bemor to‘shagi ustidagi tabib uchun do‘sit yoki dushman degan tushunchalar o‘z ma’nosini yo‘qotadi, uning qoshida faqat tibbiy yordamga intizor, shafqatga muhtoj, zaif inson yotadi. Davolanib hayotga qaytgan Lakshman devlar mamlakatining tengsiz buyuk jangchisi va saltanat valiahdi Indirjidni jangda halok etadi hamda tabib fuqaro bo‘lgan Lanka davlatining tanazzuliga yo‘l ochadi. Lekin, kitobxon tabibni xiyonatkor yoki sotqin demaydi, aksincha, uning ma’naviy jasoratiga, halolligiga, kasbiy burchiga sodiqligiga hayrat bilan tasannolar o‘qiydi.

3. Milliy qadriyatlar va ularning turlari

Insoniyat paydo bo‘lishi bilan uning tili, urf-odatlari, an’analari, dini, madaniyati, ezgulikni ifodalovchi axloqiy fazilatlari vujudga kela boshlagan. Ularning mazmunida xalqning hayot tarzi, ruhiyati, ma’naviyati, madaniyati, turmush tarzi, o‘y-xayollari aks etgan. Milliy qadriyat – millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Qadriyat atamasi arabcha “qadr” so‘zidan olingan bo‘lib, qimmatli, foydali degan ma’noni anglatadi. Qadriyat – bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo‘ladigan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan moddiy-madaniy, ma’naviy omillar yig‘indisidir. Bizning mentalitetimizga xos bo‘lgan milliy qadriyatlardan andisha, sabr-toqat, vazminlik, mulozamat, sertakalluflik, keksalarga hurmat-ehtirom, ijtimoiy hayotda bosiqlik qon-qonimizga singib ketgan. Biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘zbek xalqi milliy, ma’naviy qadriyatlar va axloqodobga bag‘ishlangan maxsus teran ta’limotlarning merosxo‘ridir. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-xaqoyiq” asarlari, Kaykovusning “Qobusnama”, Burhoniddin Marg‘inoniyning etti kitobdan iborat “Hidoya”, Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” nomli odob-axloq Me’yorlarini batafsil yoritib bergen asarlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini, dolzarbligini yo‘qotmagan.

B.Ziyomuhhammadov o‘zining “Komillikka eltuvchi kitob” asarida “Qadriyat” so‘ziga quyidagicha ta’rif beradi: “Kishini qurshab turgan cheksiz ko‘p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma’naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh yo konkret bir millat yoxud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo‘lganlarini qadriyat deyiladi. “Moddiy qadriyatlar – kishilar moddiy ehtiyojlarini qondirib, o‘ziga xos xususiyati va shakllariga ko‘ra odamlarda alohida his-tuyg‘u uyg‘otuvchi moddiy narsalarga aytildi. Ularga buyuk inshootlar, bog‘ va xiyobonlar, antiqa uy-ro‘zg‘or buyumlari, tarixiy qimmatga ega bo‘lgan uy anjomlari, qurol-yarog‘, oziq-ovqat, shaxsiy buyumlar va shunga o‘xhash narsalar kiradi.

Qadriyatlar – umumbashariy, milliy va shaxsiy bo‘lishi mumkin:

1) Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan, umumbashariy abadiy qadriyatlardir;

2) Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, urf-odat va an’analari, o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir;

3) Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e’tiqodi, umr ma’nosи, odobi, go‘zalligi bilan bog‘liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir.

X. Qodirova o‘zining “Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat hayotidagi o‘rni” nomli maqolasida: “O‘zbekiston xalqi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi. Milliy qadriyatlar quyidagilardan iborat, deb quyidagilarni sanaydi:

1. Xalqimiz hayotida jamoa bo‘lib yashash ruhining ustuvorligi;
2. Xalq ongida ustuvor bo‘lgan fikr – do‘st va yaxshi qo‘shni bo‘lib, tinchlik va totuvlikda, yaqindan hamkorlikda yashash;
3. Oila, mahalla, el-yurt, Vatan tushunchalarini muqaddas bilish;
4. Ota-onal, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat-e’tibor ko‘rsatish, butun jamiyatni hurmat qilish;
5. Millatning o‘lmas ruhi, millat ma’naviyatining hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat uyg‘otish, uni sevish;

6. Kattalarga hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat-e'tibor, degan qoidaga amal qilish;

7. Ayol zotiga ehtirom ko'rsatish, ya'ni, muhabbat, go'zallik va nafosat timsoli bo'lgan ayolni qadrlash;

8. Sabr-toqat va mehnatsevarlik;

9. Halollik, mehr-oqibatni nazarda tutadi.

Bir qator olimlar tomonidan yozilgan “Shaxs ma'naviyatini shakllantirish omillari va vositalari” nomli kitobda O'zbekistonni yangilash va rivojlantirish yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi:

1. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

2. Xalqimiz ma'naviy saviyasini mustahkamlash va rivojlantirish;

3. Insonni o'z imkoniyatlarini erkin namoyish qilishi

4. Vatanparvarlik, insonparvarlik, tolerantlik, – deb qayd etilgani ham aynan milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyaviy ishlarni yoshlar o'rtasida olib borishda ko'proq qanday yo'naliishlarga e'tibor qaratish va targ'ibot ishlarida mahalla, oila, jamoat, tarbiyaviy muassasalarning o'rnnini kuchaytirish zarurligini ko'rish mumkin.

Mualliflar qadriyatlar va ularning turlariga quyidagicha yondoshganlar:

- Oilaviy qadriyat – bir oila uchun ma'lum bir ma'naviyat turi (masalan, tug'ilgan kunni nishonlash);

- Milliy qadriyat – millatning asrlar mobaynida yaratgan ma'naviy boyliklari, noyob tarixiy obidalarini avaylab-asrash, kelgusi avlodlarga etkazish, rivojlantirish, hurmat bilan munosabatda bo'lish, hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish, ma'naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish;

- Jamoa qadriyati – ma'lum bir mahallada, qishloqda, mehnat jamoasida biron ijtimoiy hodisa (ommaviy tadbirlar, masalan, hashar) urf bo'lgan;

- Umuminsoniy qadriyat – jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiyl manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi maqsad va intilishlarini o'zida ifoda etadi. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma'naviyat, o'z navbatida, Islom xalqlari ma'naviyati, Hindiston xalqlari ma'naviyati,

Yevropa xalqlari ma’naviyati, Sharq xalqlari ma’naviyati yo‘nalishlari quyidagicha yoritilgan;

- Islom xalqlari ma’naviyati – arab xalqlari, forsiyzabon xalqlar, turkiy xalqlar;
- Yevropa xalqlari ma’naviyati – rus, ingliz, fransuz ma’naviyati va hokazolar;
- Hindiston xalqlari ma’naviyati – oriy xalqlar ma’naviyati, dravid xalqlari ma’naviyati;
- Sharq xalqlari ma’naviyati – yapon ma’naviyati, xitoy ma’naviyati. Qadriyatlarning xilma-xil shakllari, moddiy, ma’naviy, milliy, mintaqaviy, umumbashariy, jamiyat hayotining sohalari bo‘yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy, va boshqalar. Jumladan, milliy qadriyat – millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Umuminsoniy qadriyatlar – jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi insoniyatning umumiyl manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi maqsad va intilishlarini o‘zida ifoda etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Axloqiy qadriyatlarga qanday fazilatlar kiradi?
2. Axloqiy qadriyatlarni qanday tasniflash mumkin?
3. Inson uchun muhim bo‘lgan qanday odoblarni bilasiz va ularga sharh bering.
4. Milliy qadriyatlar qanday turlarga ajratish mumkin?
5. Shaxs ma’naviyatini shakllantirish omillari va vositalari” nomli kitobda O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirish yo‘li qaysi asosiy negizlarga asoslanadi?

9– mavzu. SHAXS, OILA, JAMIYAT MADANIYATI VA ULARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI

Reja:

1. Madaniyat va shaxs
2. Oila – muqaddas dargoh
3. Madaniyat va jamiyat

Tayanch iboralar:

*Inson, madaniyat, shaxs, madaniyatshunoslik, madaniyat,
Madaniyat tarkibi, Shaxs kamoloti, milliy madaniyat, oila, jamiyat,
madaniyat va jamiyat.*

1. *Madaniyat va shaxs*

Inson, madaniyat, shaxs tushunchalari madaniyat falsafasi va aksiologyada muhim ahammiyatga ega. Ular o‘zaro aloqadorlikda bo‘lib, inson madaniy mayjudot sifatida o‘zining yaratuvchanlik mohiyatini namoyon etsa, madaniyat shaxs ijodiy faoliyatining mahsuli sifatida ijtimoiy taraqqiyotga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Uzoq yillar davomida shaxsning mohiyati va uning madaniy taraqqiyotdagi roliga biryoqlama yondashib kelindi, uning intellektual-ma’naviy salohiyati, insoniy fazilatlariga yetarlicha e’tibor berilmadi. Natijada, shaxs dunyoqarashi, g‘oya va ideallarning yaratuvchan va o‘zgaruvchan funksiyasi to‘g‘ri baholanmadi.

Insoniyatning ko‘p asrlik taraqqiyoti davomida orttirgan bilimlari, g‘oyalari, tajribalari va ma’naviy yutuqlarining majmuasi sifatida madaniyat barcha tarixiy davrlarda ham zamon ruhi va davr talablariga javob bera oladigan har tomonlama yetuk inson shaxsini kamol toptirishni o‘z oldiga asosiy vazifa qilib qo‘yadi. Turli tarixiy davrlarda yaratilgan madaniyat yodgorliklari (ilmiy, badiiy asarlar, me’morchilik, naqqoshlik, musiqa, qo‘sish, rassomlik)da shaxsning bilimi, iste’dodi, insoniy fazilat va sifatlari o‘z ifodasini topadi. Har bir inson ulug‘ ajdodlarimiz madaniy merosini mukammal egallash orqali o‘zi sevgan sohaning etuk mutaxassisiga, oljanob fazilatlar sohibiga aylanadi, hozirgacha yaratilgan madaniyat obidalarmi yana ham ko‘rkamroq,

mukammalroq qilib yaratishga ehtiyoj sezaga boshlaydi – madaniyat ijodkoriga aylanadi.

Madaniyatshunoslikda shaxs ulug‘ ajdodlarimiz bilimi va tajribalarini qunt bilan egallovchi, o‘zida sabot-matonat, mustahkam iroda, sobitqadamlik, ma’rifatparvarlik sifatlarini tarbiyalovchi, bilim va tajribalarini obektivlashtiruvchi, muttasil izlanuvchan va ijodkor inson sifatida ta’riflanadi. Jahon madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo‘sghan, o‘z asarlarida davr ruhi, intellektual salohiyati va butun mahoratini mujassamlashtirgan ulug‘ ajdodlarimiz (madaniyat arboblari) mehnatsevar, bilimdon, kamtarin, taraqqiyat parvar inson sifatida ma’naviy kamolotga intilgan, o‘z asarlari bilan nomi, nasl-nasabini abadiylashtir-ganlar. Bizgacha yetib kelgan barcha madaniyat obidalarida o‘z zamondoshlaridan ancha ilgarilab ketgan fozil va komil ajdodlarimizning mashaqqatli, ammo sharaflı mehnatlari va izlanishlari yotadi, albatta.

Madaniyat hamisha shaxs faolligi va uning yaratuvchanlik faoliyati bilan bog‘liqdir. Buyuk nemis faylasufi Gegel o‘zining “Huquq falsafasi” asarida ta’kidlaganidek, madaniyatli inson, bu – avvalo, boshqalar qilgan ishni qila oluvchi, boshqalar kabi yaratuvchidir. Madaniyat o‘zining tub mohiyatiga ko‘ra insondagi insoniylikni, yaratuvchanlik qobiliyatni ro‘yobga chiqaruvchi, komil inson shaxsini shakllantiruvchi ekan, ana shu shaxsning faolligi tufayligina u o‘zo‘zidan rivojlanish imkoniga egabo‘ladi. Binobarin, shaxsning shakllanishini madaniyatsiz tasavvur etib bo‘lmagani kabi madaniy taraqqiyotni ham ijodkor shaxslarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Shaxsning shakllanishi nihoyatda murakkab va ziddiyatli jarayon bo‘lib, juda ko‘p omillarga bog‘liqdir. Inson shaxsining shakllanishida nafaqat madaniy, yana ijtimoiy-siyosiy muhit, ijtimoiy tuzum, iqtisodiy hayot va boshqalar ham muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy-siyosiy rivojlanish bilan madaniy taraqqiyot har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi: Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Huvaydo, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy singari buyuk madaniyat arboblarining insoniy fazilatlari, qimmatli g‘oyalari,

yuksak iste'dodlari bugungi kunda ham zamondoshlarimizga ibrat, buyuklik timsoli bo'lib qolayotganligining boisi ham ana shundadir.

Madaniyat tarkibiga kiruvchi barcha sohalar (ilm-fan, texnika, san'at, ta'lim-tarbiya, sport va shu kabilar) yuqori bosqichga ko'tarilgan hozirgi davrningbutun insoniyatni hayratga soluvchi hazrat Navoiylari, Qodiriy va Fitratlari qani?

O'zgargan har bir yangi tarixiy davrda "Inson nima?", "Shaxsning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni qanday?" kabi savollarga ilmiy asosda javob berish zarur bo'lgani singari vujudga kelgan yangi tarixiy davrda madaniyatning mohiyati va funksiyalarini yangicha idrok etish ijtimoiy-siyosiy fanlar va madaniyatshunoslikning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Agar milliy madaniyat yangi davr ruhi va uning tub yo'nalishlarini, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasini idrok etmasa va milliy mahdudlik qobig'iga o'ralib qolsa, davr talablariga javob bera oladigan inson shaxsini shakllantira olmaydi.

Jamiyatdagi mavjud siyosiy tuzum madaniyat taraqqiyoti uchun qulay shart-sharoit yaratishi yoki, aksincha, undagi barcha ijobiy, progressiv elementlarning rivojiga xalaqit berishi ham mumkin, Chunki yuqorida ta'kidlanganidek, madaniyat uchun statika va dinamika xos bo'iib, agar mavjud siyosiy tuzum tub demokratik o'zgarishlardan hadiksirasa, madaniyatning statik (konservativ) xususiyatlaridan unumli foydalanishga zo'r beradi. Agrar ishlab chiqarishga asoslanuvchi jamiyatning madaniyat strukturasida diniy bilim va qadriyatlar muhim rol o'ynaganligi, diniy talimat va falsafaning agrar ishlab chiqarishning cheklanganligiga mos ravishda shaxs ehtiyojlarini cheklashga zo'r bergenligini tasdiqlovchi tarixiy faktlarni ko'plab keltirish mumkin. Sanoat ishlab chiqarishini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan demokratik siyosiy tuzum ma-daniyatning taraqqiyparvarlik funksiyasini to'laroq ro'yobga chiqarishga, qoloqlik, tanballikni targ'ib etuvchi o'tmish madaniy merosdan sabot bilan voz kechishga, ilm-fan va shaxs erkinligini qo'llab-quvvatlashga zo'r beradi.

Insoniyat tarixinining tub burilish davrlarida, bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan yangisiga o'tish davrlarida madaniy merosga munosabat masalasi eng dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammo hisoblanadi. Zero,

o‘tmish madaniy merosida o‘tmish ruhi, konservatizm, turg‘unlikva, aynivaqtida, progressiv elementlar, yangilik va ijobiy xususiyatlar mavjud bo‘ladi. Ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlaridan kelib chiqadigan siyosiy tizimgina madamyatning yaratuvchan, ijobiy va progressiv xususiyatlaridan to‘laroq foydalanishga intiladi.

Shaxs – mayjud siyosiy tuzumni, ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirishga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi madaniyatli insonning ijtimoiy sifatidir. Inson madaniyatning barcha ilg‘or yutuqlarini chuqr o‘rganish orqali o‘zida qator ijtimoiy sifatlarni shakllantiradi. Mustahkam imon-e’tiqod – shaxsning eng muhim ijtimoiy sifati hisoblanadi. Iymon va e’tiqodning shakllanishida din, ta’lim-tarbiya va ijtimoiy-siyosiy muhil katta rol o‘ynaydi. Din ma’naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish, ijtimoiy barqarorlik, totuvlik, tinchlik va hamjihatlikni ta’minalashda muhim omil hisoblanadi. Din – umumbashariy qadriyat sifatida kishilarda axloqiy fazilatlar, insoniy sifatlarni shakllantiradi.

Shaxs abadiylik, ezgulik haqidagi tushuncha va tasavvurlarni diniy e’tiqod, diniy tarbiya va ta’imotlar vositasida egallaydi. Mustahkam iymon-e’tiqod shakllanishi bilan kasb-kor, faoliyat shaklining qandayligidan qat’iy nazar shaxs jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy-jarayonlarga kuchli ta’sir ko‘rsata boshlaydi.

Shaxsning kamol topishi, unda mustahkam iymon-e’tiqodning shakllanishi individ uchun g‘oyat mashaqqatli va ziddiyatli jarayon sifatida kechadi. Shaxs olamni bilish orqali o‘zligini anglashga, o‘z “men”ini bilish orqali olam mohiyatini chuqurroq bilishga erishadi. Shaxs o‘z-o‘zini tarbiyalovchi, o‘z faoliyatiga tanqidiy baho beruvchi, o‘z-o‘zini nazorat qiluvchi sifatida muttasil ravishda kamolotga intiladi.

Milliy madaniyatimiz tarixida chuqr iz qoldirgan ulug‘ mutafakkirlar inson shaxsi kamol topishining eng umumiyl qonuniyatlarini ochishga harakat qilganlar. Buyuk mutasavvuf Abduholiq G‘ijduvoniy o‘z “Vasiyatnoma”sida ma’naviy kamolotga erishmoq uchun “kam uqlash, kam so‘zlash, kam ovqatlanish” lozimligini, yuqori lavozimlarga intilmaslik zarurligini ta’kidlagan edi. Turkistonning shayxul mashoyixi sifatida ulug‘langan Ahmad Yassaviy inson shaxsi shakllanishining

zarur sharti sifatida nafsni tiyish, ayshu ishrat va molu dunyo vasvasasidan yuz o‘girish, yetimparvar, odil va halol bo‘lish lozimligini ko‘rsatadi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abduqodir Bedil, Mashrab va Huvaydo singari ulug‘ allomalar zohidlik, tarki-dunyochilikka qarshi odamlar mushkulini osonlashtirish, ilm-ma’rifatli bo‘lish, ilohiy kamolotga erishmoq uchun shariat ahkomlarini puxta egallah, piru murshid etagini mahkam tutish, diniy ma’rifatni puxta egallah muhimligini ko‘rsatganlar. Xalqimiz o‘rtasida ko‘p asrlar mobaynida navoiyxonlik, bedilxonlik, huvaydoxonlik an’analarining davom etishi jarayonida ma’naviy barkamol shaxslar yetishib chiqqan.

Sovet tuzumi sharoitida o‘tmish madaniy merosga biryoqlama sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondashish oqibatida ulug‘ ajdodlarirnizning qimmatli g‘oya, ta’limotlari unutildi, din qatag‘on qilindi, imonsizlik, xudosizlik g‘oyasi keng targ‘ib etildi.

G‘oyat sun’iy va biryoqlama ijtimoiyistik madaniyat shaxsning mohiyati va ijtimoiy-tarixiy vazifalari haqidagi tushuncha va tasavvur-larni tubdan o‘zgartirdi. Mustabid tuzum uchun mute, itoatkor, ijrochi, soxta kommunistik g‘oyaga ishonuvchi shaxs tipi yaratildi. U hech narsa abadiy emas, moddiyhk birlamchi, degan materialistik dunyoqa-rashga o‘ta ishonch bilan qarardi. Madaniy merosga o‘tmish sarqiti, qoloqlik belgisi sifatida qarash, baynalmilallikni milliylikdan ustun qo‘yish ijtimoiyizm yaratgan g‘ayritabiyy shaxsga xos muhim xususiyat edi.

Milliy mustaqillik yillarida shakllangan yangicha siyosiy tafakkur va yangicha falsafiy dunyoqarash milliy madaniyat, milliy qadriyat va shaxsning mohiyatini yangicha tushunish, tahlil qilish imkonini beradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson uchun munosib hayot sharoitlari yaratishni, shaxs erkinligining to‘laroq ro‘yobga chiqishi uchun qulay imkoniyatlar yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Yangi tarixiy davr xususiyatlari, barkamol inson shaxsini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari Prezident I. A. Karimovning qator asarlarida tavsiflab berildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq xalqimizning milliy qadriyatlarni tiklashga, boy madaniy merosimizni cnuqur o‘rganishga, ta’lim-tarbiya sohasida tub islohotlarni amalga oshirishga alohida e’tibor berila boshlandi.

Bozor munosabatlariga o‘tish iqtisodiy va siyosiy sohada to‘planib qolgan barcha muammolarni oqilona hal etish uchun zamonaviy fan va texnika, ilg‘or texnologiya va kasb madaniyatini puxta egallagan halol, mehnatsevar, vatanparvar, sabot-matonalli inson shaxsini kamol toptirishni talab eta boshladi. “Ta’lim to‘g‘risida qonun”ning sobitqadamlik bilan amalga oshirilishi natijasida mamlakatimiz xalq xo‘jaligini, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, erkin fikrlaydigan, bilimdon va tashabbuskor shaxs tipini shakllantirish uchun qulay imkoniyatlar vujudga keldi.

Bugun dunyoda mafkuraviy jarayonlar global tus olgan, turli diniy-ekstremistik g‘oyalar o‘zbekiston xavfsizligi va mustaqilligiga jiddiy tahdid solayotgan bir sharoitda xalqimizning milliy manfaatlari va mentalitetiga mos milliy istiqlol g‘oyasining yaratilishi barkamol inson shaxsini shakllantirishda muhim tayanch bo‘lib xizmat qila boshladi.

Ilg‘or g‘oya uchun kurash – shaxs faolligining muhim ko‘rsatkichidir. Jahondagi barcha rivojlangan mamlakatlar demokratik qadriyatlarni hayotga tadbiq etish, shaxs erkinligini qaror toptirish orqali taraqqiyotning yuqori bosqichiga erishdilar.

Milliy istiqlol g‘oyasi O‘zbekistonda demokratik jamiyat barpo etish, xalqimizga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish uchun xizmat qiladi. Xalqimizning ozodlik, tinchlik, farovonlik va ijtimoiy taraqqiyotga bo‘lgan intilishlari milliy istiqlol g‘oyasida o‘z ifodasini topdi.

Shaxs ijtimoiy-siyosiy va milliy g‘oyani amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ilg‘or g‘oyalarni ilgari surish va ularni hayotga tadbiq etish jarayonida insonning axloqiy, irodaviy sifatlari to‘laroq namoyon bo‘ladi. Insoniyat tarixida o‘chmas iz qotdirgan buyuk shaxslar o‘zining shaxsiy farovonligi uchun cmas, balki Vatan, xalq manfaatlari uchun kurashgan. Vatanimiz ozodligi, yurtimiz obodligi va xalqimiz farovonligi uchun o‘zining shaxsiy huzur-halovati, aziz jonini fido qilgan sohibqiron Amir Temur, hazrat Navoiy, shoh Bobur, Ulug‘bek, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla qodiriy singari shaxslarning tarixiy va madaniy taraqqiyotdagi ahamiyatmi milliy mustaqillik yillarida teranroq anglay boshladik.

Tarixiy shaxslar qanday ma’naviy soha (fan, san’at, din, siyosat, huquq)da faoliyat ko‘rsatishdan qafi nazar davrning mushkul muammolarini oqilona hal etish, jamiyatni inqirozdan qutqarish yo‘llarini ko‘rsatdilar. Milliy madaniyatning barcha yutuqlarini chuqur egallagan shaxslargina milliy muammolarni tez va oqilona hal etishga salmoqli hissa qo‘shadilar.

Xullas, madaniyat va shaxs bir-biri bilan uzviy bog‘liq tushunchalar hisoblanadi. Madaniy rivojlanishning bosh maqsadi barkamol inson shaxsini shakllantirishdan iboratdir, boshqa jihatdan shaxs rnadaniyat ijodkori sifatida ham namoyon bo‘ladi. Har bir avlod o‘tmishda yaratilgan madaniy merosm, madaniyat yutuqlarini o‘zlashtirish orqali o‘zida muayyan axloqiy sifatlarni shakllantiradi, ijtimoiy va tabiiy borliqni o‘zlashtiradi, o‘z “men”ini teranroq anglaydi.

Mustaqillik yillarida shakllangan yangicha dunyoqarash shaxs, milliy madaniyat, milliy qadriyatlar mohiyatini yangicha tushunishga imkon berdi. Ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar xalqimizni boy madaniy merosimizdan to‘la bahramand etish, jahonning rivojlangan mamlakatlari bilan ilmiy-texnikaviy va madaniy sohalarda hamkorlik qilish imkoniyatini yaratmoqda. Milliy istiqlol g‘oyasi mustaqillik yillarida qo‘lga kiritilgan madaniy-tarixiy yutug‘imiz bo‘lib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ma’naviy barkamol inson shaxsini shakllantirishda muhim ijtimoiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

2. *Oila – muqaddas dargoh*

Oila jamiyatning kichik bir bo‘lagi hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar odob-axloq va huquqiy normalar orqali tartibga solinadi. Bu munosabatlarning to‘g‘ri tartibga solinishi – jamiyat farovonligi va taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Butun insoniyat jamiyatining daxlsizligi ham oilalarning birdamligia, jipsligiga bog‘liq. Oilaning insoniyat jamiyati bilan uzviy bog‘liqligi – hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlashidagi vazifasi orqali namoyon

bo‘ladi. Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarni o‘zida sinovdan, tajribadan o‘tkazadi. Yaxshilarini o‘z bag‘rida asrab avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Qur’oni Karim va Hadisi Shariflarda farzand dunyoga kelmasadn avval uning kelajagi to‘g‘risida qayg‘urish kerakligi haqida ko‘rsatmalar mavjud. Oilaning zimmasidagi muqaddas burchlarning biri – ulkan tarbiya o‘chog‘i ekanligi shunda namoyon bo‘ladi. Oila o‘z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang‘ich ijtimoiy yo‘nalish beradi. O‘z farzandlarini katta oqimga – jamiyatga qo‘shish bilan esa oila jamiyat yo‘nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma‘rifatini ham belgilashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. “Millatlar sharafini yuqori martabaga ko‘taradigan narsa, – deb degan edi, sharq donishmandlaridan biri, – millionlar ila sanaladigan askarlar-u, dunyoda eng buyuk va zo‘r bo‘lgan kemalar emas, balki eng oz e’tibor beradiganimiz yoki bo‘lmasa hech bir zamon e’tibor bermasdan keladiganimiz oiladir. Oila nizomsiz bo‘lsa, uning yomon oqibati butun millatga ta’sir etadi va shu sababdan fazilat yeriga razolat, taraqqiyot o‘rniga tubanlik negiz quradi...”

Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblanib kelingan. Xususan o‘zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari avval qanday bo‘lsa, hozir ham boshqa millat kishilarida xuddi shunday ham hayrat, ham hurmat uyg‘otgan xususiyatlardir. O‘zbek oilalarining tuzilishiga nazar solsak, uning katta Vatan ichidagi mo‘jaz Vatan ekaniga ishonch hosil qilamiz.

Oila mustaqil ijtimoiy institut bo‘lib shakllanganidan boshlab, to istiqlol davrigacha ko‘p qirrali va murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Har bir tarixiy davrda oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari xilma-xil mazmun bilan boyib bordi hamda oila davming chigalli sinovlaridan omon o‘tib, jamiyatning negizi sifatidagi xususiyatini saqlab qoldi. Oilaning fuqarolik jamiyatidagi muhim ijtimoiy institut sifatidagi o‘mi xususida mutafakkirlar ibratli nuqtai-nazarlar bayon etishgan. Xususan, bu borada, ya’ni oila va oilaviy tarbiyaga oid fikrlar Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayhon Beruniyning “Mineralogiya”, “Geodeziya”, “Hindiston”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Abu Ali Ibn Sinoning “Axloq fani”, “Oila xo‘jaligi”, qanday inson bo‘lib

etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir. Oila millat sharafini yuqori martabaga ko'taradigan madaniyat o'chog'i ham hisoblanadi. Mohiyat e'tiborga ko'ra esa, oila ikki jinsga mansub insonlaming ya'ni, erkak va ayolning o'zaro hamjihatlikda 102 yashay boshiashi, muhabbat, bir-birlarini anglagan holda turmush kechirishi va ko'payishi istagining, jamiyatni to'ldirish, avlodlarni muntazam yangilab turish, eng muhim u ham iqtisodiy ham ma'naviyahlokiy jihatdan mukammallashtirish yo'lida birgalikda qiladigan harakatining hosilasidir. Oilada ijtimoiy tarbiya samaradorligini xalqimizning turmush tarzi, demografik holatiga bog'liqdir. Bu boradagi muhim muammo – o'zbek oilalarining ko'p farzandliligidir. Chunki aholining ko'payib borishida, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oiladagi serfarzandlik muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda nikohdan olish. oila kurish hollarining Yuqoriligi ham oila sonining ko'payishiga, bu esa o'z navbatida, tug'ilishning o'sishiga bog'liq. 1960-yilda Respublika bo'yicha oila a'zolarining o'rtacha soni 4,7 kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1992-yilda — 5,5 kishini tashkil etgan. 2000-yil ma'lumotlariga ko'ra esa oila a'zolarining o'rtacha soni 5,2 kishidan iborat bo'ladigan bo'lsa 2022 yilga kelib bu ko'rsatgich 9 424 787 songa yetdi.

Mamlakatimizda 1998-yilning "Oila yili" deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998-yilda amalga oshirilgan tadbirlar Davlat dasturining qabul qilinishi va amaliyatga tatbiq etilishi, Respublikamizda "oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, oila masalalarini ilmiy-amaliy o'rganishda milliy va diniy qadriyatlarimizning ahamiyatiga katta e'tibor berilishi tamoyillariga rioya qila olishdan iboratdir" degan konsepsiyasiga ayni muvofiqligi hamda insonning har ishga qodirligi va mas'ulligi g'oyasining mamlakatimiz tarixida ma'naviy poydevori mavjudligini ko'rsatadi. Shu boisdan ham tarbiyaviy faoliyatlarimizda xalqimiz ma'naviy merosi, xotirasida tarixan mavjud bo'lgan milliy fazilatlarimizni qaytadan tiklash va bugungi kunimizga xizmat qildirish yo'lidan borishimiz zarurdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda “Mahalla ziyosi” respublika o‘quv-uslubiy markazi negizida O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi²⁶. Mazkur institut mahalla va oila institutlarini mustahkamlashga ko‘maklashish, fuqarolar yig‘inlarini aholining chinakam maslakdoshiga aylantirish va “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat” g‘oyasini hayotga tatbiq etish ishlarini ilmiy-uslubiy va axborot-tahliliy jihatdan ta’minlash faoliyatini amalga oshirish maqsadida o‘z faoliyatini davom ettirmoqda. Oilalar mustahkamligini ta’minlash, oilaviy ajrashishlarning oldini olish, oilaning farzand tarbiyasi borasidagi mas’uliyatini oshirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlashda oilaning o‘rnini targ‘ib qilish, shuningdek, namunali oilalarning hayotiy tajribasini ommalashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash kabi ustuvor vaizfalarni amalga oshirayotga mazkur institut jamiyatning yanada taraqqiy etishida katta xizmat ko‘rsatadi.

3. Madaniyat va jamiyat

Madaniyatning insoniyat jamiyat shakllanishi va taraqqiyotidagi rolini to‘g‘ri belgilash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Afsuski, sovet madaniyatshunosligida bu muhim masala biryoqlama va ko‘p hollarda xato talqin etib kelindi. Tarixga materialistik nuqtai nazardan qarash ijtimoiy borliqni ijtimoiy ongga nisbatan birlamchi deb hisoblash, ijtimoiy borliq asosiga moddiy ne’matlar ishlab chiqarishni qo‘yish, mehnatni madaniyat assosi deb davo qilish va boshqalar madaniyatning ijtimoiy taraqqiyot va shaxs hayotidagi o‘rni va rolini to‘g‘ri belgilashga monelik ko‘rsatib keldi.

Mustaqillik yillarida shakllangan yangicha siyosiy tafakkur va falsaffiy dunyoqarash madaniyatning jamiyat va shaxs hayotidagi yo‘lini yangicha tushunishga imkon berdi.

Madaniyat tushunchasining inson va jamiyat tushunchalari bilan uzviy bog‘liqligi haqida yuqorida aytib o‘tildi. Buyuk fransuz mutafak-

²⁶ <https://lex.uz/docs/-4850317?ONDATE2=14.04.2021&action=compare>

kiri Emil Dyurkgeymning ta’lim berishicha, madaniyat inson ongi va irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda undan ilgari vujudga kelgan va insonga majbur qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir individ madaniy olamda tug‘iladi, uni o‘zlashtiradi, insoniy sifatlarga ega bo‘ladi (ijtimoiy lashadi) va uning rivojiga muayyan hissa qo‘shadi.

Madaniyat, avvalo, insoniyatning ko‘p asrlik bilimlari va tajribalari yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Inson aqli mayjudot sifatida ko‘p asrlar davomida jamiyat tomonidan yaratilgan bilim, tajriba, ko‘nikma, xulq-atvor meyorlarini, ya’ni madaniyatni o‘zlashtiradi. U barcha tirik mavjudotlardan farqli o‘laroq butun hayoti davomida sotsiogenetik dasturni amalga oshirishga harakat qiladi. Sotsiogenetik dastur biogenetik dasturdan farqli ravishda avloddan avlodga irsiyat yo‘li bilan o‘tmaydigan, ijtimoiy hayot jarayonida tarbiya va ta’lim vositasida o‘zlashtiriladigan xulq-atvor Me’yorlari, madaniyat namunalaridir. Axloqiy tarbiyaning butun mazmuni yosh avlodning xatti-harakati, xulq-atvori va faoliyatini tartibga solishdan va uning madaniy ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Madaniyat insonni hayvondan, jamiyatni esa tabiatdan farqlaydigان sifatiy belgi, faqat insonga va jamiyatgagina xos bo‘lgan, uning xatti-harakatlari, faoliyati va mehnat mahsulotlarida namoyon bo‘ladigan bilimlar, tajribalar, ko‘nikmalar, majmuasidir.

Madaniyat ijtimoiy borliqning zarur sharti va asosidir. U endigma dunyoga kelgan insonga nisbatan tashqi, yot va begona kuch sifatida ta’sir ko‘rsatadi. Bola ota-bobolar amal qilib kelgan axloqiy Me’yorlar, madaniyat namunalarini avvalo ko‘r-ko‘rona taqlid qilish, keyinroq esa, so‘z va tushunchalar orqali tarbiya jarayonida o‘zlashtiradi. Biogenetik dastur ota-onadan irsiyat yo‘li bilan o‘tar ekan, mavjudot sifatida hayot kechirishi va ehtiyojlarini qondirishi (ovqatlanishi, himoyalanishi, surriyot qoldirishi va boshqalar) uchun muhim vosita, tabiiy qurol bo‘lib xizmat qiladi. Madaniyat namunalari aqli mavjudot bo‘lgan inson hayotining zarur sharti sifatida endigma dunyoga kelgan chaqaloqning xatti-harakati, xulq-atvoriga uzlucksiz tarbiya jarayonida ishontirish yoki majbur qilish yo‘li bilan singdiriladi. Inson mohiyatan o‘zida madaniyat tashuvchi va madaniyat yaratuvchi mavjudotdir. Madaniyat namunalari

shaxs, jamiyat va millatning o‘zligini anglashi va namoyon etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs madaniyati, jamiyat madaniyati, milliy madaniyat – umumbashariy madaniyatning turli darajada namoyon bo‘lishidir.

Inson xatti-harakati va xulq-atvorini tartibga solish kishilik jamiyatining shakllanishida muhim omil bo‘lgan. Buyuk nemis faylasuflari Immanuyel Kant, Zigmund Freyd o‘z tadqiqotiarida jinsiy hayotni tartibga solish, oilaning paydo bo‘lishi (ya’ni madaniyatning paydo bo‘lishi) insonning hayvonot olamidan ajralib chiqishi va kishilik jamiyatining vujudga kelishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lganligini ko‘rsatgan edilar. Boshqacha qilib aytganda, sovet madaniyat-shunosligida ta’kidlanganidek, inson faqat mehnat tufayli madaniyat yaratgan emas, balki, aksincha, madaniyat tufayli inson o‘z xatti-harakatini tartibga solish, oila va jamoa bo‘lib yashash, mehnat qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan. Insonga xos fazilat va sifatlarning shakllanishi axloqiy mada-niyatning rivojlanishi bilan, jamiyat inqirozi esa madaniyatning umumiy tanazzuli bilan uzviy bog‘liq ravishda ro‘y beradi.

Madaniyat ravnaqi va ijtimoiy munosabatlarning takomillashib borishi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan jarayonlardir. Shu o‘rinda madaniy va ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos xususiyatlari haqida qisqacha fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

Ilgari ta’kidlab kelinganidek, madaniyat namunalari keng xalq ommasi tomonidan mexanik tarzda emas, balki ijtimoiy hayotning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ilg‘or kishilar, ziyorilar, ilm-fan ahllari tomonidan yaratiladi, jamiyatning asosiy ko‘pchilik qismi esa madaniyatning ilg‘or namunalarini o‘zlashtirish va ijtimoiylashtirish jarayoniga tortiladilar. Madaniyatdagi umumiy inqiroz madaniyatning ilg‘or namunalarini yaratuvchi elita – sara toifa bilan keng ommaning ma’naviy salohiyati o‘rtasidagi tafovut va ziddiyat bilan bog‘liq ravishda ro‘y beradi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda, ilmiy va badiiy ijodda shaxs erkmligining tobora ortib borishi madaniy rivojlanishning mezoni hisoblanadi.

Shaxs erkinligi tuzilmasida, shubhasiz, siyosiy erkinlik juda muhim o‘rin egallaydi. Insoniyat o‘zining madaniy taraqqiyot jarayonida siyosiy boshqarishni takomillashtirish, davlat va nodavlat tashkilotlari tizimini yaratishda muayyan tajriba va bilimlar orttirdi. Davlat va uning tarixiy shakllari insoniyatning madaniy-ma’naviy taraqqiyoti, shaxs erkinligi darajasining ortib borish tendensiyasining qonuniy natijasi sifatida vujudga keldi. Jamiyatda siyosiy boshqarishning qanday shakli (monarxiya, aristokratiya, demokratiya)ning amal qilishi jamiyatdagi ilg‘or qatlamlarning madaniyatiga bevosita bog‘liqdir.

Jahondagi ko‘plab xalqlarning madaniy rivojlanish tarixi gomogen madaniyatning geterogen madaniyatga o‘tib borishidan dalolat beradi. o‘zbekiston xalqlarining keyingi ikki asr davomida Yevropa xalqlari, xususan, Rossiya madaniyatining ilg‘or yutuqlarini o‘zlashtirishi, shubhasiz, ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim ijobiy o‘zgarishlarni vujudga keltirdi. Ilg‘or o‘zbek ma’rifatparvarlari, ziyorilari, jadidlar rus madaniya-tining ilg‘or namunalarini har tomonlama chuqur o‘rganishga da’vat etish orqali o‘lkaning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o‘zgarishlar qilishga umid bog‘laganlar. Madaniyatning jamiyat hayotidagi ahamiyatini haddan tashqari bo‘rttirish ham, uning ahamiyatini kamsitish ham birday xatodir. XVIII asrdayoq mashhur fransuz mutafakkiri Jan Jak Russo madaniyatning ahamiyatmi haddan tashqari bo‘rttirishga qarshi tabiiy insonning axloqiy ustunligi g‘oyasi va tabiatga qaytish shiorini ilgari surgan edi.

XX asr boshlarida taniqli nemis faylasufi Fridrix Nitsshe madaniyat strukturasida fan va texnika yetakchi mavqeni egallab, hayotning rivojiga imkon bermayotganhangini keskin tanqid qilgan edi. Zigmund Freydning fikricha, madaniyat o‘zining axloqiy Me’yorlari, talab va qadriyatlari bilan dastavval kishilik jamiyatining paydo bo‘lishida muayyan ijobiy rol o‘ynagan bo‘lsa, keyinchalik o‘zining taqiqlovchi talablari, qafiy Me’yorlari bilan kishilik jamiyati rivojiga xalaqit bera boshlagan.

O‘tgan asrning 60—70 yillarida qator g‘arb mamlakatlarida madaniyatga qarshi kurash harakati keng quloch yozdi. Bu harakat o‘z atrofiga Russo, Nitsshe, Freyd g‘oyalarining tarafдорларини, talaba-yoshlarni

birlashtirdi. Ular «ommaviy madaniyat» qadriyatlarining keng yoyilishiqa, fan va texnika fetishizmiga qarshi kurash boshladilar. Madaniyatni tanqid qilish uning jamiyat hayotidagi ahamiyatini butunlay inkor etish emas, balki uning ahamiyatini yana ham chuqurroq idrok etish, uning inson yaratuvchanlik funksiyasini kuchaytirish demakdir. Madaniyat uchun ayni bir vaqtida ham statika (barqarorlik), ham dinamika (rivojlanish, o'sish) jarayonlari xosdir.

Muayyan Me'yorlar, andozalar, bilim va qadriyatlar majmuasi sifatida madaniyat ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashga yaqindan yordam beradi. Madaniyatning barqarorlikni saqlash funksiyasi konservativizm xavfming kuchayishiga olib kelishi mumkin. Madaniyat jarayon sifatida bir joyda uzoq vaqt to'xtab turolmaydi: jamiyatning ilg'or ziyolilari, ijodkor qatlami uning yuksakroq namunalarini yaratadilar; natijada, madaniyatga xos an'anaviylik novatorlik bilan uyg'unlashadi. Yangilikdan eskilik, progressivlik va konservat borlik, milliylik va umuminsoniylik o'rtasidagi tafovut va ziddiyat jarayonida madaniyat faol rivojlanadi va ta'sirchan kuch sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyat taraqqiyoti yo'lida paydo bo'lgan muammolarning tez va oqilona hal etilishi keng xalq ommasi madaniy darajasining yuksalishiga, ilg'or shaxslar tomonidan yaratilgan madaniyat namunalarining qanchalar tez o'zlashtirilishiga bog'liqdir. Keng xalq ommasining ma'naviyatini yuksaltirish milliy madaniyatning rivojlanishida, ijtimoiy muammolarni oqilona hal etishda muhim ahamiyatga egadir.

Demokratik jamiyat turli millat va xalqlar, ijtimoiy guruhlar va sinflar o'rtasidagi hamkorlik, o'zaro ta'sir munosabatlari asosida rivojlanadi. Har bir xalq, millat va ijtimoiy guruhning turmushi, hayot sharoitlari, fikrlash tarziga mos ravishda o'ziga xos madaniyat vujudga keladi. Turli xalqlar o'rtasida turlicha madaniyatning vujudga kelishida tabiiy-geografik sharoit, iqlim, mehnatni tashkil etish usullari muhim rol ynaydi. Milliy madaniyatdagi individuallik, o'ziga xoslikka haddan shqari ko'p urg'u berish oxir-oqibatda milliy mahdudlikka, jahon sivilizatsiyasidan uzilib qolishga, va nihoyat, turli milliy madaniyatlar o'rtasida ixtiloflar kelib chiqishiga olib kelishi mumkin. Mulkchilikka bo'lgan munosabatlarning xilma-xilligi turli ijtimoiy guruhlar, sinflar

madaniyatida o‘ziga xos tafovutlarni keltirib chiqaradi. Shahar va qishloq madaniyati, ziyolilar va omma madaniyatining bir-biridan farqlanishi aslo bejiz emasdir. Bunday tafovutlar mehnatni tashkil etish usullari, mulkchilikka turli munosabatning mavjudligi bilan bog liq bo‘lib, bu tafovutlarni sun’iy ravishda kuchaytirish ham, ularni zudlik bilan yo‘qotish ham jamiyat uchun noxush oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy mobillik (ijtimoiy sinf va guruhlarning harakatchanligi yoki moslashuvchan) bozor munosabatlari sharoitida obektiv ravishda amal qiladigan muhim qonuniyat bo‘lib, Boshqacha qilib aytganda, kasb etikasi ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirishda qanchalar muhim ahamiyatga ega bo‘lgani singari turli sinflar, ijtimoiy guruhlar madaniyatining o‘ziga xosligini bilish, idrok etish ham jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarning integrallashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Emil Dyurkgeym ta’kidlaganidek, mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi jamiyat a’zolari o‘rtasidagi ijtimoiy birdamlikning yanada mustahkamlanishi uchun puxta zamin yaratadi, yangidan-yangi kasb va mutaxassislarning paydo bo‘lishi ijtimoiy guruh va qatlamlar o‘rtasidagi aloqadorlikni yanada kuchaytiradi.

Sobiq sovet jamiyatida milliy madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutlarni zudlik bilan yo‘qotishga urinish noxush oqibatlarni keltirib chiqargani singari turli ijtimoiy guruhlar va sinilar madaniyati o‘rtasidagi o‘ziga xoslikni nazar-pisand qilmaslik ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda istiqomat qilayotgan oz sonli xalq va millatlarning milliy madaniyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, milliy markazlar tashkil etishga alohida e’tibor berila boshlandi.

Har bir milliy madaniyat insoniyat madaniyatidan ajralgan holda rivojiana olmaydi. Milliy madaniyatlar bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi, bir-birini boyitadi va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarini yanada takomillash-tirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Har bir xalq o‘zining noyob, betakror va o‘ziga xos milliy madaniyati bilan insoniyat madaniyati tarkibida munosib o‘rin tutadi. Mamlakatimizda demokratik o‘zgarish-larning yanada chuqurlashishi va fliqarolik jamiyati asoslaring

yaratilishi, o‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo‘silib borishi jamiyatimizning madaniy taraqqiyoti yo‘lida paydo bo‘lgan muammolarni oqilona hal etishni, Yer yuzidagi ilg‘or xalqlar madaniyati yutuqlarini chuqur o‘rganishni taqozo etadi. O‘zbekistonning qator Yevropa mamlakatlari bilan iqtisod, siyosat, madaniyat sohasidagi o‘zaro hamkorligi, iqtidorli yoshlarimizning xorijdagi oliy o‘quv yurtlarida tahsil ko‘rishi, ilg‘or xalqlar bilan madaniy muloqotda bo‘lishi, shubhasiz, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlamining muhim tayanchi bo‘lib xizmat qiladi.

Xullas, hozirgi zamon madaniyatshunosligida madaniyat va jamiyatning o‘zaro ta’siri va munosabatini ilmiy asosda tadqiq etish g‘oyatda dolzarb masaladir. Madaniyat tushunchasi taraqqiyot, yangilikka intilish, ma’naviy yangilanish, yaratish, yaxshilik va ezgulikni avaylab-asrash, qo’llab-quvvatlash bilan uzviy bog‘liq ekan, jamiyat hayotini madaniyatsiz, madaniyat rivojini esa sog‘lom ijtimoiy munosabatlar tizimisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Madaniyat o‘zining tub mohiyatiga ko‘ra milliylik va umuminsoniylikning uzviy birligi sifatida namoyon bo‘lar ekan, har bir yangi avlodga uzoq ajdodlarimizning bilimi, tajribasi, qadriyatları, ko‘nikma va malakalaridan bahramand bo‘lish imkonini berish, xalqlami bir-biri bilan yaqinlashtirish, ijtimoiy totuvlik va bar-qarorlikni ta’minalash buyuk gumanistik vazifadir. Jamiyat va insonga madaniy hodisa sifatida qarash madaniyatning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyatini teranroq anglashga yordam beradi. Zero G‘arbiy Yevropa olimlarining tadqiqotlarida madaniyat va jamiyat tushunchalarining bir xil ma’noda qo‘llanilishi ham bejiz emasdir.

Madaniyat va sivilizatsiyaning o‘zaro munosabatini tadqiq etish madaniyat va jamiyatning o‘zaro ta’sirini teranroq tushunishimizga yaqindan yordam beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Madaniyatning shaxs faolligi va uning yaratuvchanlik faoliyati bilan qanday aloqadorligi mavjud?
2. Shaxsning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni qanday?
3. Oilaning jamiyatdagi o‘rnini qanday baholaysiz, sharhlab bering.

4. Qaysi sharq mutafakkirlarining qarashlarida oila masalalari alohida o‘rin egallagan?
5. Madaniyat ravnaqi va ijtimoiy munosabatlarning takomillashib borishida qanday bog‘liqlik mavjud?

10-mavzu. MADANIYAT VA SIVILIZATSIYA

Reja:

1. Sivilizatsiya: mohiyat va talqinlar
2. Sivilizatsiya va madaniyat.
3. Respublikamiz madaniy taraqqiyotining istiqbollari.

Tayanch iboralar:

Madaniy taraqqiyotining istiqbollari, sivilizatsiya, madaniyat, “Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya” tushunchasi, Sharq sivilizatsiyasi, G‘arb sivilizatsiyasi.

1. *Sivilizatsiya: mohiyat va talqinlar*

Sivilizatsiya tushunchasi serqirra, sermazmun ilmiy bilishning ob’ekti sifatida namoyon bo‘ladi. Sivilizatsiya so‘zi lotincha sivilis — fuqarolikka, davlatga, shaharga taalluqli ma’nolarini anglatuvchi o‘zakdan kelib chiqqan. U “silvaticus”, ya’ni lotinchadan tarjima qilganda qo‘pol, yovvoyi so‘ziga qarshi ma’noda qo‘llanilgan. Ya’ni yovvoyilik va vahshiylikdan keying ijtimoiy taraqqiyot bosqichi tushunlgan. “Sivilizatsiya” so‘zining yuzdan ortiq ta’riflari mavjud bo‘lib, har bir o‘ziga xos ta’rifida ijtimoiy hayotning ma’lum tomonlari, jihatlariga alohida urg‘u beriladiki, bu umuman sivilizatsyaning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyatini to‘la tushunib yetishga xizmat qiladi.

Shveytsariyalik tarixchi J. Starobinskiyning fikricha, sivilizatsiya tushunchasini ilk bor fransuz iqtisodchisi Viktor Riketi Mirabo (1715-1789 yy) o‘zining “L’Ami des Hommes ou Traité de la population” (“Odamlarning do‘sti yoki aholi haqidagi risola”)sida qo‘llagan.

1767 yilda mazkur atama shotlandiyalik ma’rifatparvar Adam Fergyussonning (1723-1816) “An Essay on the History of Civil Society” (“Fuqarolik jamiyati tarixiga oid risola”) asarida paydo bo‘ldi. O’shanda ushbu atama madaniy taraqqiyotning umumiyligi darajasini anglatgan. Sivilizatsiya ma’rifatsiz xalqlarga, qorong‘u feodalizm davri va o‘rta asrlarga qarama-qarshi qo‘yilgan. A. Fergyusson ibtidoiy jamiyat tarixini davrlashtirish mezoni sifatida “madaniyatning o‘zlashtirish darajasini”

ilgari surdi, ular: yovvoyilik, varvarlik, sivilizatsiyalardir. Adam Fergyusson asaroda insoniyat tarixini “vahshiylik” va “varvarlik”ning dastlabki bosqichlaridan fuqarolik munosabatlari va davlat institutlarining o’rnatalishi orqali sivilizatsiya bosqichiga o’tish mumkinligini ta’kidlaydi. A.Fergyusson inson baxtini uning ijtimoiy tabiat bilan bog‘lagan va uni umumiy manfaat yo‘lidagi faoliyatda ko‘rgan.

1877 yilda amerikalik tarixchi va etnograf Lius Genri Morgan (1818-1881 yy) o‘zining “Qadimgi jamiyat” kitobida sivilizatsiya atamasini yagona madaniy-tarixiy jarayonning ma’lum darajasini belgilash uchun qo‘llashni taklif etdi. Morgan tizimsida ham ibridoijamiyat taraqqiyoti yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya bosqichlaridan iborat, ammo u yovvoyilik va varvarlik davrlarining har birini, xo‘jalik va moddiy madaniyat taraqqiyotining belgilariga ko‘ra quyi, o‘rta va yuqori bosqichlarga bo‘ladi. Ushbu davrlashtirishda ishlab chiqarish kuchlari rivojining darajasi mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Tarixni o‘rganishga sivilizatsion yondashuv asoschilaridan biri rus tabiatshunos olimi N.Ya.Danilyevskiy (1822-1885) bo‘lgan. U har biri alohida-alohida mavjud bo‘lgan, faoliyatning to‘rt muhim shakli yoki sivilizatsiyalar “asosi” — diniy, madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslar orqali namoyon bo‘luvchi madaniy-tarixiy tiplar (sivilizatsiyalar) haqidagi konsepsiyanı ilgari surgan. Madaniy-tarixiy tiplar, biologik organizmlar kabi, tashqi muhit va bir-biri bilan uzlucksiz kurash jarayonida bo‘ladi va vujudga kelish, voyaga etish, qarish va halok bo‘lish bosqichlaridan o‘tadi.

XX asr boshlariga kelib, nemis faylasufi O.Shpengler “Der Untergang des Abendlandes” (“Yevropa quyoshining so‘nishi”) asarida madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘ydi. Shpengler madaniyatni tirik organizmga qiyoslaydi. Madaniyat, xuddi tirik organizm kabi, bir qancha o‘ziga xos bosqichlardan o‘tadi: u tug‘iladi, gullab-yashnaydi, asta-sekin eskiradi va o‘ladi. Madaniyat o‘lsa, u boshqa shaklga – sivilizatsiya tushunchasida qayta tug‘iladi. Uning fikricha, sivilizatsiya madaniyatning eng yuqori bosqichi bo‘lib, undan keyin esa madaniyat asta-sekin inqirozga yuz tutadi. Olim

sivilizatsiya deganda texnika, mexanika, texnologiya, informatika jarayonlari majmuini nazarda tutgan.

Ingliz tarixchisi va sotsiologi Arnold Toynbi (1889-1975) sivilizatsiyani yaxlit ijtimoiy tizim sifatida ifodalagan. U o'zining o'n ikki tomlik "Tarixni anglash" asarida keltirgan o'zaro o'rinni almashuvchi lokal sivilizatsiyalar konsepsiyasida sivilizatsion taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida chaqiriq va javob nazariyasini ilgari surdi.

Toynbining fikricha din har qanday sivilizatsyaning o'zagi va tayanchidir. Sivilizatsiyalarni bir – biridan farqlash va tasnif qilishda u yoki bu jahon dinlarini asos qilib olinishi bejiz emasdir: musulmon sivilizatsiyasi, xristian sivilizatsiyasi va hokazo.

U dastlab 21, keyinchalik 37 ta sivilizatsini sanab o'tib, tarixiy jarayonning to'g'ri chiziq bo'ylab rivojlanishi haqidagi qarashlarga qarshi chiqdi va sivilizatsyaning bosqichli-tsiklik rivojlanishini ta'kidladi. Toynbi Arab, Xitoy, Shumer, Mayya, Hind, Ellin, G'arb, Xristian (Rossiya), Uzoq Sharq (Koreya va Yaponiya), Eron, Misr, Arab, Meksika, Vavilon va boshqa sivilizatsiyalarni tadqiq etish natijasida "...tabiiy muhitdagi va odamlar tegrasidagi yashash sharoitlarining og'irligi sivilizatsyaning vujudga kelishiga sabab bo'ladi", — degan xulosaga keladi. Toynbi sivilizatsiyalarga "evolyutsion tipdagi faol tuzilmalar" sifatida yondashib, har bir sivilizatsiyada tarixiy mavjudlikning asosiy bosqichlari: vujudga kelish, rivojlanish, tanazzulga uchrash va zavol topishni farqlagan. Bu asosiy bosqichlardan o'tgach, sivilizatsiya, odatda, halok bo'ladi va uning o'rnini boshqa sivilizatsiya egallaydi.

Nemis faylasufi K.Yaspers (1883-1969 yy.) o'zining "Tarix manbalari va uning maqsadi" asarida sivilizatsion taraqqiyotning bosqichma-bosqich rivojlanishi konsepsiyasini ilgari surdi: tarixgacha bo'lган davr, qadimgi davr madaniyati, vaqt o'qi (jahon tarixinining boshlanishi), texnik davr (yagona jahon tarixiga o'tish). Uning fikricha tarixning mazmuni va negizi butun insoniyat uchun umumiyligini bo'lган e'tiqod bilan belgilanadi. Mazkur e'tiqod insoniyat vakillarini bir-

biridan ajratmaydi, balki jipslashtiradi. Insoniyatga bunday e'tiqodni biron-bir jahon dini yoki milliy din taklif qilolmaydi

Sotsiolog P.Sorokin (1889-1968) insoniyat madaniyatining butunjahon-tarixiy taraqqiyoti nazariyasini yaratdi. U bu taraqqiyotni markaziy mazmunga yoki mentallikka ega ulkan madaniy supertizimlar doirasida ko'rib chiqdi. Bu madaniy supertizimlar yoki sivilizatsiyalar insonlarning hayoti va xulqini, ko'pgina tarixiy jarayonlar va an'analarni belgilaydi. Tarixning har qanday davrida, Sorokinning fikricha, beshta asosiy madaniy tizimlar mavjud: til, ahloq, din, fan, san'at. U sivilizatsiyalarni moddiy madaniyat hech bir tizimsiz ravishda namoyishga qo'yilgan ulkan muzeylar sifatida talqin qiladi. Sorokin sivilizatsiyalar tabiatining yaxlitligi g'oyasiga tanqidiy yondashib, uning tarkibiy qismlari o'zaro bog'lanmagan, deb hisoblagan.

"Iqtisodiy va ijtimoiy tarix annallari" (1929 g.) fransuz jurnali redaksiyasi atrofida vujudga kelgan tarixiy maktab asoschilari va vakillari bo'l mish fransuz tarixchilari Mark Blok (1886-1944) va Lyusyen Fevr (1878-1956) lar jahon taraqqiyoti muammosiga o'zgacha yondashgan. Ularning fikricha tarixiy taraqqiyotning asosini mentalitet tashkil qiladi. L.Fevr birinchilardan bo'lib o'zining "Sivilizatsiya: so'z evolyutsiyasi va g'oyalar guruhi" asarida "sivilizatsiya" atamasining kelib chiqish vaqtini aniqlashga ham harakat qilgan.

2. *Sivilizatsiya va madaniyat.*

Madaniyatning paydo bo'lishi insoniyatning yovvoyilikdan keyingi davri bilan bog'liq bo'lsa, sivilizatsiya — tarixiy jarayon, ijtimoiy hodisadir. Sivilizatsyaning rivojlanishi jamiyatni yuksaltirishga olib keladi, natijada bu jamiyat fuqarolar erkinligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Sivilizatsiyali hayot insonni madaniyatli qiladi va uning har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda sivilizatsiya atamasining ikkinchi ma'nosi ham yoritilyapti. U lotincha «grajdanlikka oid» tushunchasi bilan bog'liqdir. Lotin tilidan kirib kelgan grajdanlik, gorjanin so'zlarining o'zagi bir xildir. Sivilizatsiya shu ma'noda shahar madaniyati tushunchasini ham ifodalaydi. Shahar madaniyatini yaratgan va unda

yashagan kishilarni sivilizatsiyali inson hisoblash rasm bo‘lgan. Sivilizatsiyani bunday tushunish ayniqsa Yunoniston, Rim va boshqa joylarda keng tarqalagan.

XUSh asr fransuz faylasuflari sivilizatsiyaga erishgan jamiyat deganda aql va adolatga asoslanuvchi jamiyatni tushundilar.

Sivilizatsiya ob’ektiv ijtimoiy hodisa bo‘lib, odatda biron bir xalq, mintaqa, jamiyat, davlat va xatto butun jahonga nisbatan qo‘llaniladi:

- sivilizatsiyaga erishgan xalq,
- Sharq sivilizatsiyasi, g‘arb sivilizatsiyasi,
- sivilizatsiyali jamiyat, sivilizatsiyali davlat.

Sivilizatsiya butun bir xalq yoki millat, tarixiy davr va mamlakat tomonidan yaratiladi.

Madaniyat — sivilizatsiyaning muhim bir elementidir. Adabiyotlarda sivilizatsiyaga sof moddiy hodisa deb qarash hollari ham uchraydi. Moddiy taraqqiyot o‘sса borishi bilan kishilarning faoliyat sohalarida o‘ziga xos o‘xshashliklar va ma’lum qulayliklar paydo bo‘ladi va ular to‘planib «sivilizatsiya»ni tashkil etadi.

Sivilizatsiya tushunchasiga inson tomonidan yaratilgan predmetlar, hodisalar kiritilmoqda:

- moddiy boyliklar, transport vositalari,
- kasb-kor, ilmiy-tadqiqot o‘tkazish usullari,
- ichki tartib, qoida, nizomlarni himoyalash usullari,
- insonlarning turmush tarzi,
- oziq-ovqatlarni is’temol qilish sifati, darajalari, Me’yorlari
- ehtiyojlarni ta’minalash Me’yori va darajalari,
- sanoat, qishloq xo‘jaligi, taqsimot, rivojlanish darajalari,
- kiyim-kechak ishlab chiqarish, kiyinish, orastalik, estetik did va boshqalar.

Fan taraqqiyoti, uning amaliyotga tatbiq etilishi, ta’lim-tarbiya tizimi va uni amalga oshirish usullari sivilizatsiya yutuqlari hisoblanadi.

Xalqlar, davlatlar, mintaqalar rivojlanishidagi o‘ziga xos farqlar sivilizatsiyalararo tafovutlarni tashkil etadi. Demak, sivilizatsiya

ko‘proq moddiy taraqqiyotdagi farqlarga tegishlidir. Madaniyat esa ma’naviy taraqqiyot sohasidagi tafovutlardan kelib chiqadi.

Sivilizatsiya va madaniyat o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik, shuningdek, ular o‘rtasida tafovut va ziddiyatlar bo‘lishi ham mumkin. Sivilizatsiya va madaiyat ayni bir vaqtida vujudga kelishi mumkin. Biroq ular bir tekis rivojlanmaydi.

Sivilizatsiya rivojalangan bo‘lishi, lekin madaniyat qoloq ahvolda qolishi mumkin va aksincha. Ko‘pgina davlatlar taraqqiyoti shundan guvohlik beradi. Masalan: Qadimgi Rim o‘zining gullab — yashnagan davrida o‘ta rivojlangan sivilizatsiyaga ega edi, ammo unda madaniyat kam taraqqiy etgan edi. Chunki uning san’ati va falsafasi ma’lum bir hayotiy dunyoqarashdan ildiz otib chiqmagan edi, mavjudlari esa biron bir dunyoqarashning ta’sirida rivojlangan edi.

Xristian dini vujudga kelishi bilan dastlabki davrlarda u sivilizatsiyaga biror narsa bera olmadi, ammo u dunyoga yuqori darajali madaniyat berdi. Bu madaniyat xristianlik dunyoqarashidan kelib chiqqan edi.

Rimlik aql-idrok egalarining faoliyat tarzi moddiylik talablariga bo‘ysungan edi. Demak, Qadimgi Rim taraqqiy etgan sivilizatsiyaga misol bo‘la oladi. Keyinchalik Rimda sivilizatsiya va madaniyat uyg‘unlashdi, ya’ni xristianlik tufayli Rim ham sivilizatsiyaga, ham madaniyatga erishdi. Biroq sivilizatsiya madaniyatga bo‘ysundirilgan, madaniyatga bo‘lgan e’tibor kuchaygan edi.

Jahon taraqqiyotning hozirgi bosqichida sivilizatsiya va madaniyatning o‘zaro munosabatiga bo‘lgan turlicha qarash va konsepsiylar mavjddir. Yevropa mamlakatlarida asosan jamiyatning moddiy tomoniga e’tibor kuchaytirilib, madaniyatni sivilizatsiyaga bo‘ysundirishga harakat qilinyapti.

Insoniyatning tafakkur tarixidan yaxshi ma’lumki, taraqqiyotning ayrim davrlarida falsafa, madaniyat, ma’naviyat birlamchi, ustivor o‘rinni egallagan. Materialistik dunyoqarashning chinakam sivilizatsiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan davrlari ham bo‘lgan. Lekin shuni alohida ta’kidlash joizki, madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarining o‘zagi bir xil

emas: din ruhiyat, ma’naviy kamolot, ilohiyot bilan bog‘langan, sivilizatsiya esa insoniyatning mehnati, yaratuvchan faoliyati asosida vujudga kelgan ijtimoiy jarayondir.

Demak, sivilizatsiya va madaniyat turlicha tushunchalar va kategoriyalarga asoslanadi. Insoniyat tafakkurining turli bosqichlarida madaniyat va sivilizatsiyani birlashtirish yo‘lida ko‘p harakatlar bo‘lgan.

Yahudiylarning muqaddas diniy kitobi bo‘lgan Tavrotda ijtimoiy g‘oyalar va moddiylik birlashtirilib, yaxlit holda berilgan. Yahudiylar o‘z ta’limotlarida sivilizatsiya va madaniyatni bir-biri bilan bog‘lashga, qo‘shishga uringanlar.

Sivilizatsiya va madaniyatni bir-biri bilan bog‘lash, qo‘shishga bo‘lgan urinish hinduizm va zardushtiylik dinlariga ham bo‘lgan.

Lekin bu ikki sohani ayniylashtirish va bir xil hodisa deb qarash yaramaydi. Chunki sivilizatsiya va madaniyat bir-biridan o‘z mohiyati va tuzilishi jihatidan keskin farq qiladi.

Sivilizatsiya tabiiy va ijtimoiy-madaniy uyushmalarning yaxlitligi, xalq bunyodkorlik faoliyatining mahsuli hisoblanadi.

Bunda shu xalqning madaniyati, an’analari, udumlarining o‘ziga xos xususiyatlari, yashash joylarining geografik va iqlim sharoitlari o‘z ifodasini topadi.

Sivilizatsiya — millatlararo totuvlik, iqtisodiy aloqalar birligi (xo‘jalik munosabatlari), tabiiy-geografik sharoitlar, madaniy va antropologik tomonlarni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, bunda milliy til va madaniyat benihoya ahamiyatlidir. Chunki har qanday sivilizatsyaning mohiyati va mazmuni ana shu tushuncha va belgilarga bog‘liqsir. Lekin har qanday sivilizatsiya o‘zaro aloqadorlik, o‘zaro ta’sir asosida shakllanadi. Har qanday sivilizatsiya o‘zining shakllanishida boshqa sivilizatsiyalarning yutuqlari va imkoniyatlaridan iloji boricha keng foydalanadi, ularni o‘ziga singdirishga harakat qiladi.

Toynbi, Karl Yaspers va boshqalarning fikricha, Rossiya sivilizatsiyasi G‘arbiy Yevropa sivilizatsiyasi qatorida turadi.

Lekin Rossiya sivilizatsiyasi yunon-rim divilizatsiyasining bir tarmog‘i hisoblanadi. Shuningdek, Rossiya sivilizatsiyasi uchun vizantiyaliklarning roli salmoqlidir.

Odatda yirik sivilizatsiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi tizimli ravishda o‘rganiladi. Ya’ni sivilizatsiyani o‘rganishga kompleks yondashish, inson va uning madaniyatini atroflicha o‘rganish, shu xalqning madaniyati, faoliyat tarzi, xulq-atvori va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Sivilizatsiyaga xos xususiyatlar badiiy, madaniy, ma’naviy yodgorliklarda o‘z ifodasini topadi.

O‘zbekiston sivilizatsiyasi va madaniyati ancha boy va uzoq rivojlanish tarixiga egadir. U islom dini, madaniyati orqali Sharq mamlakatlari uchun xos bo‘lgan umumiy madaniyat manbaalari bilan uyg‘unlashadi. Bu esa o‘zbek sivilizatsiyasining sharqona asosini belgiladi. Ammo o‘zbek sivilizatsiyasi o‘ziga xos xususiyatlarining betakrorligi, noyobligi va milliyligini saqlab qoldi. O‘zbek sivilizatsiyasi qator xususiyatlari bilan Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlari bilan yaqindan hamkorlik qilish, yaxlit sivilizatsiyani yaratish imkoniyatini kuchaytirmoqda.

Hozirgi davrda O‘zbekiston sivilizatsiyasining yo‘nalishi hamkorlik va birlikni mustahkamlashga, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlarida madaniyat, din va urf-odatlarni hisobga olib integratsiyalashuv jarayonini amalga oshirish, mintaqada sivilizatsiyalararo ziddiyatlar keskinla-shuvining oldini olishga, madaniyat va qadriyatlarni o‘rganish, avaylab-asrash, davrga moslashtirishga, mavjud sivilizatsiyalar o‘rtasidagi umumiy tomonlarni topish, sivilizatsiyalarni sintezlashtirishga qaratilgandir.

3. Respublikamiz madaniy taraqqiyotining istiqbollari.

Falsafa tarixida jamiyat rivojiga turlicha yondashishlar vujudga keldi. Bular: formatsiyali yondashuv, sivilizatsiyali yondashuv va h.o.

Ijtimoiy amaliyot, tarix tajribasi insoniyat jamiyat tarraqqiyotiga formatsiyali yondashishning bir yoqlama, sun’iy ekanligini ko‘rsatdi. Hozirgi zamon G‘arb falsafasida U. Rostouning iqtisodiy rivojlanishi nazariyasini keng yoyildi. O. Toffler nazariyasiga ko‘ra, butun insoniyat tarixi uch katta davrga: agrar jamiyat, industrial jamiyat, posindustrial jamiyat (informasion jamiyat) ga bo‘linadi.

Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizatsiyali yondashish har bir xalq, mamlakat, mintaqqa taraqqiyotiga noyob va takrorlanmas jarayon sifatida qarashga asoslanadi. Bunday yondashish mohiyatan formatsiyali yondashishga ziddir.

Sivilizatsiyali yondashish har bir milliy madaniyatning o‘ziga xosligini, noyob va betakrorligini saqlagan holda ijtimoiy rivojlanishning tadrijiy yo‘ldan borishini e’tirof etadi va jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga tayanadi.

Milliy mustaqillik yillarida madaniyatimizning bundan keyingi rivojlanish istiqbollari uchun puxta zamin yaratildi. Bu, avvalo, boy madaniy merosimizni har tomonlama chuqur o‘rganish imkoniyatlarining yaratilganligida, kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilganligi va sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotganida, milliy madaniyatlarning ravnaq topishi va bir-birini boyitishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishidir.

Jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘sghan ulug‘ ajdodlarimiz merosini keng targ‘ib etishda mamlakatimiz ilm-fan va texnika salohiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor berilayotganligida, yurtimiz obodonchiligi yo‘lida katta tadbirlarning amalga oshirilayotganligida namoyon bo‘lyapti.

Madaniyat va sivilizatsiyaning asosiy tamoyillari, qonuniyat va xususiyatlarini bilish — ma’naviy kamolot manbaidir.

Madaniyat va sivilizatsiyaning o‘zaro bog‘liqligi va o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur idrok etish barkamol inson shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Yosh avlodni yuksak madaniyatli va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash milliy taraqqiyotning muhim talabi, ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh vazifasidir.

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida yuksak madaniyatli insonni tarbiyalash, qonunchilikka amal qiladigan, fuqarolik burchini ado etadigan, fuqarolik jamiyati talablariga rioya qiladigan, har qanday kelishmovchilik va ixtiloflarni oqilona hal qila oladigan, jahon standartlari talablariga javob beradigan sivilizatsiyali barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi turibdi.

Shunday qilib, madaniyat va sivilizatsiya bir-birini taqozo etadigan hodisalardir. Milliy mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohada erishilgan yutuqlar mamlakatimizning sivilizatsiyali taraqqiyoti uchun puxta zamin yaratadi.

Nazorat uchun savollar.

1. Sivilizatsiya tushunchasiga izoh bering?
2. Sivilizatsiya atamasini asarlarida qo‘llagan faylasuflar kimlar va ularni tushunchaga bergen tariflarini keltirib o‘ting?
3. Sivilizatsiya va madaniyat so‘zining farqlarini sanab bering?
4. Sivilizatsiya tushunchasiga qanday predmet yoki hodisalar kiradi?
5. Mamlakatimizda madaniy taraqqiyotini qanday sohalarda ko‘rasiz?

7-mavzu. “QADRIYAT” KATEGORIYASINING MOHIYATI VA NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI. QADRIYATLARNING TASNIFI

Reja:

5. Qadriyat kategoriyasining mazmuni.
6. Qadriyatning namoyon bo‘lish shakllari
7. Qadriyatlar va baholar.
8. Qadriyatlarning komil inson tarbiyasidagi o‘rni

Tayanch iboralar:

Aksiologya, qadr, qadriyat, qadriyat va baho, komil inson, individual qadriyat, haqiqat va baholashni, baholash predmeti, baholash sub’ekti, baholash asosi.

5. *Qadriyat kategoriyasining mazmuni.*

Kundalik muloqotlarda, ommaviy axborot vositalarining xabarlarida qadriyat, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar kabi so‘zlar nihoyatda ko‘p ishlatilmoxda. Madaniy boyliklar, tarixiy yodgorliklar, ma’naviy meros, ko‘p yillik an’ana, urf-odatlarga nisbatan ham qadriyatlar iborasini, umumiylatama sifatida ishlatish hollari uchramoqda. Bu tushuncha kitob, risola, maqola va xabarlarning nomlarida ham uchrab turibdi. Uning mazmuni, mohiyati, namoyon bo‘lish shakllari bilan bog‘liq xilma-xil fikrlar bayon qilinmoqda. Bularning barchasi quyidagi savollarning tug‘ilishiga sabab bo‘lmoqda; Xo‘sh, qadriyat nima? Biz nimaga asoslanib biror narsa, voqeа, hodisa, munosabat, faoliyat va boshqalarni qadrlaymiz? Bu savollarning birinchisi qadriyat tushunchasini ta’riflash, ikkinchisi esa uning mazmunini tahlil o‘ilish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Qadriyat tushunchasi nihoyatda xilma-xil ma’noda, turli sohalarda qo‘llaniladi.

Qadriyat-voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan ijtimoiy-falsafiy va aksiologik tushuncha²⁷. Qadriyat tushunchasining

²⁷ Falsafa qomusiy lug‘at. T.: “Sharq” NMAK-2004.

asosi qadr so‘zi bo‘lib, u bir inson yoki jamoa tomonidan e’tirof etilgan, tan olingan va asrab avaylanadigan ma’naviy va moddiy boyliklar majmuasidir. Qadriyatlar aksiologiya fanining predmeti vazifasini bajaradi. Umuman qadriyat deganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushuniladi.

Qadriyatlar iborasining xilma-xil ma’noda ishlatilishi unga berilgan ta’riflarni turlicha bo‘lishiga olib kelgan bo‘lishi ham mumkin. Biz bu mavzuga bag‘ishlangan kitob, risola, maqolalarda uning o‘ttizdan ortiq ta’riflarini uchratdik, bu ta’riflarning yanada ko‘proq ekanligiga shubha yo‘q. Ijtimoiy fanlarning qanday sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo‘lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta’rif berishga intilish odat tusiga kirib qolgan. Holbuki, qadriyat kategoriyasi aksiologiya (qadriyatshunoslik)dan boshqa fanlarning birortasi uchun ham xususiy kategoriya emas. Qadriyat iborasining kundalik hayotdagi ma’nosи, kishilar o‘rtasida vujudga keladigan muloqtlarda, ommaviy axborot vositalari yangiliklarida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lmoqda. Kundalik hayotda, ko‘pchilik nazarida narsalar (masalan, qimmatbaho buyumlar, taqinchoqlar), tabiat hodisalari, ijtimoiy voqealar, jamiyatdagi talablar, orzu-umidlar, an’ana va marosimlar, madaniy boyliklar va boshqalar qadriyat sifatida tushuniladi. Kishilar hayot va faoliyat jarayonida muqarrar suratda o‘zlari uchun bunday qadriyat bo‘lgan narsalarga duch keladilar, ularning ahamiyati, foydasi va qadrini anglashga, baholashga intiladilar. Bundan tashqari odamlar o‘zlari ishonib, gohida intilib, qiziqib yoki orzu qilib yashaydigan maqsad, orzu yoki ideallarga ham qadriyat tushunchasini qo‘llaydilar. Xullas, kundalik hayotda ko‘pchilik tomonidan qo‘llaniladigan qadriyat iborasi, odamlar uchun biror zarur ahamiyat kasb etadigan ob’ekt, narsa, hodisa va boshqalarga nisbatan ham ishlatiladi. Qadriyatni aksiologiya nuqtai nazaridan talqin qilish uning kategoriya sifatidagi mohiyati, mazmuni, ob’ektiv asosi, sub’ektiv jihatlari, namoyon bo‘lish shakllari va xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradi. Qadriyat tushunchasini ba’zi faylasuflar talqin qilganlaridek, “tabiatning, moddiy va ma’naviy madaniyatning buyumlari inson ehtiyojlarini qondirish, uning maqsadlariga xizmat qilish qobiliyatiga

egadir. Ana shu ma'noda ularga qimmatdorlar, deb qarash mumkin va zarurdir”, degan ma'noda tushunish noto‘g‘ri. Bu ta’rifda avvalo tabiat va madaniyat buyumlari biror qobiliyatga egaligi ta’kidlanadi. Agar buyumlar biror qobiliyatga ega bo‘lganlarida va ana shu qibiliyatlar odamlar uchun qadriyatga aylanganida, tabiiy-tarixiy jarayon butunlay boshqacha kechgan bo‘lar edi... Afsuski, buyumlar biror qobiliyatga ega emaslar, qobiliyat ijtimoiy xususiyat bo‘lib, odamlar tabiat va madaniyat buyumlaridan o‘z qibiliyatlarini ishga solgan holda, nimanidir dunyoga keltiradilar. Tabiat va madaniyat buyumlarining inson ehtiyojini qondirishi va uning maqsadlariga xizmat qilishi ta’kidlaganida, asosan, ularning foydasi, qimmati nazarda tutiladi. haqiqatan ham, buyumlarning iqtisodiy qimmati kishilar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ammo buyumning qadri hisobga olinmasa, masalaning aksilogik jihatni ochilmaydi. Qadriyat kategoriyasi biror buyum yoki narsalarning iqtisodiy qimmatini ifodalaydigan tushunchadan farq qiladi. Shu ma'noda qadriyat narsa va buyumlarning qimmatiga nisbatan qo‘llanilmasdan, balki inson uchun biror ahamiyatga ega bo‘lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblar va boshqalarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan aksilogik kategoriyadir. Bu kategoriya vzida qadriyat ob'ektivning nafaqat qimmatini, balki ijtimoiy ahamiyati, falsafiy-aksilogik mazmuni, jamiyat va inson uchun qadrini ham ifodalaydi. Qadriyat kategoriyasidan aksiloglar har qanday narsa shu jumladan insonning ham biror tarzdagi ijtimoiy qadrini, ahamiyatini ifodalaydigan umumiyligi va universal kategoriya sifatida foydalanadilar. Qadr va baho. Qadriyatlar muammosiga bag‘ishlangan (asosan rus tilidagi) ilmiy-falsafiy manbalarning ko‘pchiligida qadriyat (sennost) tushunchasini baho (otsenka) tushunchasi bilan qiyoslash, ularga bir xil daraja va ko‘lamdagagi tushunchalar sifatida qarash hollari uchraydi. Bu ikki tushuncha qiyoslanayotganda qadr tushunchasi e’tiborga olinmaydi. Balki, bunday holga rus tilidagi «otsenka» va «sena» so‘zlarining o‘xhash ma’noli (ko‘proq iqtisodiy) tushunchalar ekanligi sabab bo‘lishi ham mumkin. Rus tilida qadr iborasi ishlatilmaydi. Qadr tushunchasi o‘zbek tilida serqirra ma’no va mazmunga ega, u tilimizdagi ba’zi ibora va so‘zlarda

o‘ziga xos sharqona falsafiy mazmun borligidan dalolat beradi. Ana shu sababdan ham o‘zbek tilida qadriyatning mazmunini bilib olish va uning ahamiyatini anglash, avvalo, qadr, so‘ngra baho tushunchalarining ma’nosini bilish orqali boradi. Bunda qadr tushunchasi qadriyat sifatida qaralayotgan ob’ekt, narsa, voqeа, hodisa yoki biror idealning sub’ekt uchun ijtimoiy ahamiyatini anglatadi. Qadriyat ob’ektining sub’ekt bilan munosabatida uning qobiliyati emas, balki ta’siri namoyon bo‘ladi, bu ta’sirni qadriyatning o‘zi baholay olmaydi, balki sub’ekt baholaydi. Demak, qadriyat ob’ektining sub’ektga ta’sirida uning qadri, ahamiyati namoyon bo‘ladi, sub’ekt esa ana shu bevosita ta’sir natijasida uning ahamiyatini baholaydi, qadriga baho beradi. Bahoda teskari munosabat – sub’ektning qadriyat sifatida qaralayotgan ob’ekt, narsa, hodisa, ideal va boshqalarga nisbatan munosabati, uni anglashning biror-bir darajasi o‘z ifodasini topadi. Bu jarayonda sub’ekt qadriyatga munosabatini baho bu tarzida ifodalaydi. Qadriyatning mazmuni va ahamiyati bahoda to‘la-to‘kis aks etmasligi, turlichayda ifodalanishi ham mumkin. Qadriyatning haqiqiy qadrini, mazmuni va ahamiyatini bahosiga qarab aniqlash qiyin bo‘ladigan hollar ham uchraydi. Aslida qadriyatning qadrini bilish, uning ahamiyatini anglab olish va baholash bir-biri bilan uzviy bog‘liq jihatlarni tashkil qiladi. Qadriyatning ahamiyati anglab olinmasa, qadri to‘g‘ri tushunilmasa, unga to‘g‘ri baho berib bo‘lmaydi. Aynan shu ma’noda qadriyatni baholash unga bo‘lgan sub’ektiv munosabatni ham ifodalaydi, bu esa o‘z navbatida kishilarning talablari, ehtiyojlari va maqsadlari bilan bog‘liqdir. Inson nimanidir baholayotganida va qadrini anglayotganida o‘z ehtiyojlari, talablari va maqsadlaridan kelib chiqadi, o‘zining foydasini ham unutmaydi. Bu ehtiyoj, talab, maqsadlar va biror foyda olishni ko‘zlash ham sub’ektiv xususiyatga ega bo‘lganligidan, muayyan kishilarning u yoki bu qadriyat, uning qadri va ahamiyati haqidagi fikri (bahosi) ham sub’ektiv va nisbiydir. Qadriyatni baholash qancha xilmoxil maqsad va ehtiyojga ega bo‘lgan sub’ektlar ishtirok etsa, uning haqiqiy bahosini aniqlash ham shuncha qiyinlashib boraveradi. Qadriyatning ob’ektiv va sub’ekti. Qadriyatshunoslikda qadriyat tushunchasi bilan, bu tushuncha bog‘langan ob’ekt o‘rtasida farq bor, deb qaraladi. Qadriyat kategoriyasini uning aniq shakllari bog‘liq bo‘lgan ob’ektlarni (narsalar,

boyliklar, kashfiyotlar va boshq.) sanash orqali ta’riflash hollari ham uchramoqda. Qadriyatni muayyan sub’ekt uchun biror boshqa ob’ektning yoki ma’naviy hodisaning qadrini ifodalaydigan falsafiy-aksiologik tushuncha sifatida qaralmasa, bunday ta’riflarning son-sanoqsiz bo‘lishi aniq. Negaki, dunyoda qadrlanadigan narsalar, hodisalar, voqealar, jarayonlar, joylar va sifatlar, ideal va maqsadlar nihoyatda ko‘p. Qadriyat tushunchasi esa ularning birortasi uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri ism, atama yoki bevosita nom bo‘la olmaydi, balki ularning qadrini anglatadigan kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Qadriyatni falsafiy-aksiologik tushunish, uning kundalik hayotdagi ishlatalish ma’nosidan farq qiladi. Bu esa qadriyat tushunchasini uning o‘zi bog‘liq bo‘lgan ob’ektdan farqlash (aslo ajratish Emas) bilan birga, uni ob’ektlarning turli jihatlari (foydalilik, keraklik) bilan ayniylashtirmaslik imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, qadriyat biror bir tarzda va shaklda zohir bo‘ladigan, sub’ekt uchun muayyan ta’sirini namoyon qiladigan voqelikning turlituman shakllari, ko‘rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma’naviylik mezonlari hamda boshqalarning sub’ekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir. Odamlar garchand bitta jamiyatda, bir davrda va o‘xhash sharoitlarda yashayotganliklariga qaramasdan, u yoki bu narsaning qadri turlicha anglab olinadi, tushuniladi va talqin qilinadi. Ijtimoiy jarayonlar ta’sirida kishilarning qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvuri, qarashlari o‘zgaradi, bu esa taraqqiyot jarayonida odamlarning turmush sharoitlari, hayoti va ma’naviy qiyofasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Turli xil jihatlar har qanday qadriyatning qarama-qarshi tomonlarini tashkil qildai. Ijobiyligi va salbiyligi, baholanishi va ahamiyatiga ko‘ra bir- biriga mutlaqo ziddek bo‘lib ko‘rinadigan yaxshilik va yomonlik, haqiqat va haqsizlik, baxt-saodat va ham-kulfat, evolyusiya va revolyusiya taraqqiyot va tanazzul, borliq va Yo‘qli kabi tushunchalar hayotning bir-biriga zid va chambarchas bog‘langan tomonlarini ifodalaydi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, qadriyatlar va jamiyatning rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, tarixiy zaruriyatga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog‘onasiga chiqib oladi,

boshqalarini xiralatirganday bo‘lib tuyuladi. Natijada ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlariga mos ravishda, oldinga chiqib olgan qadriyatni barqaror qilishga nisbatan intilish kuchayadi. Masalan, yurtni yov bosganida – ozodlik, ipmeriya hukmronligi nihoyasida – istiqlol, urush davrida – tinchlik, tutqunlikda – erkinlik, kasal va bemorlik onlarida – sihat-salomatlikning qadri oshib ketadi, ularga intilish kuchayadi.

11-mavzu. MADANIYAT RIVOJLANISHINI BOSHQARISH VA UNING XUSUSIYATLARI. MADANIY QADRIYATLARNI TARQATISH TIZIMI

Reja:

1. Madaniyat rivojlanishini boshqarishning ijtimoiy-tarixiy tabiatি
2. Madaniyat rivojlanishini boshqarishning strukturasi
3. Mustaqillik sharoitida madaniyat rivojlanishini boshqarish
4. Madaniy qadriyatlarni tarqatish tizimi

Tayanch iboralar:

Madaniyat, madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida, madaniyatni boshqarish, ma’naviyat, moddiy va ma’naviy madaniyat, ommaviy madaniyat.

1. Madaniyat rivojlanishini boshqarishning ijtimoiy-tarixiy tabiatи

Boshqaruv har qanday biologik va ijtimoiy tizim mavjudligi, barqarorligi va rivojlanishini ta’minlashning muhim mexanizmi hisoblanadi. Uning ishdan chiqishi oxir-oqibatda tizimning halok bo‘lishiga olib keladi.

Har qanday tizimda o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan boshqaruv ijtimoiy hayotda nisbatan murakkab xarakter kasb etadi. Bunday murakkablik jamiyat hayotining xilma-xil sohalardan iboratligidan, ular o‘rtasidagi aloqalar hamda o‘zaro ta’sirning turfa xilligidan kelib chiqadi.

Kishilar o‘rtasidagi aloqalar, jamiyat turli qatlamlarining munosabati, ijtimoiy hayot sohalarining o‘zaro ta’siri muayyan tashkillashuvvsiz, boshqaruvsiz sodir bo‘lishi mumkin emas. Azaldan shunday bo‘lgan, bundan buyon ham shunday bo‘ladi. Masalan, ibtidoiy davrda kishilar

o‘rtasidagi aloqalar asosan avloddan-avlodga o‘tib borgan an’analar, urfatlar yordamida amalga oshirilgan, urug‘ va qabila boshliqlarining boshqaruv funksiyasi kurtak holida bo‘lgan. Jamiyat rivojlanishining keyingi bosqichlarida boshqarish funksiyasini o‘z qo‘liga olgan ijtimoiy institutlar – boshqarish subektlari shakllandi. Tarixiy taraqqiyot davomida ularning yangidan-yangi shakllari paydo bo‘lib, bajaradigan funksiyalari doirasi kengayib bordi. Ilmiy bilimlar rivoji esa boshqaruv jarayonlarini fan-texnika yutuqlariga asoslangan holda tashkil etishni keltirib chiqardi. Vaqt bunday tendensiyaning asrlar davomida chuqurlashib borganini, zamonaviy voqelik esa uning tobora keng qamrovlilik kasb etib borayotganini ko‘rsatmoqda.

Ijtimoiy boshqaruv hamisha aniq tarixiy mazmun-mohuiyatga ega bo‘ladi. Bu uning chegarasi, mazmuni, maqsadlari va tamoyillari har bir davrda konkretlilik, o‘ziga xoslik kasb etishida va mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-mafkuraviy munosabatlarning xarakteri bilan belgilanishida, ularning rivojlanishi bilan o‘zgarib, takomillashib, taraqqiy qilib borishida ko‘rinadi. Masalan, o‘rta asrlarda dunyoning ko‘pgina davlatlarida dinning hukmronligi ijtimoiy hayotning barcha sohalarini to‘la-to‘kis nazorat qilishni, diniy aqidalarga bo‘ysunishni keltirib chiqardi. Ijtimoiy boshqaruv diniy qonun-qoidalar, aqidalarga qat’iy va so‘zsiz rioya qilish asosida tashkil etildi. Yaqin o‘tmishda ijtimoiy boshqaruv ko‘pgina mamlakatlarda ijtimoiy mafkura va ateizm ta’siri ostida ana shunday nazoratga asoslangan holda amalga oshirib kelindi.

Hozirgi davrda dunyoda demokratik mazmunga ega bo‘lgan ijtimoiy boshqaruv hukmron bo‘lib bormoqda. Bu ijtimoiy hayotda demokratiyaning ustuvorligida, boshqaruv institutlarining demokratik tamoyillarga asoslanib faoliyat ko‘rsatishida hamda shaxs qadr-qimmati, huquqlarini himoya qilishning kuchliligida ko‘rinadi. Mazkur xususiyatlar jamiyatning madaniy hayotidek murakkab va serqirra sohasiga ham tegishlidir.

Madaniy qadriyatlarni ishlab chiqish, tarqatish va iste’mol qilishni boshqarish madaniyat rivojlanishini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Madaniyatni boshqarish vazifalari qanchalik xilma-xil bo‘lmisin bosh maqsad insonning kamoloti, iqtidori va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Shu nuqtai nazardan qaraganda, madaniyatni boshqarish jamiyat a’zolarining madaniy ehtiyojlarini qondirish va ularni doimiy rivojlantirib borishdek ikki o‘zaro bog‘liq va o‘zaro belgilangan vazifalarni hal qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Ayni paytda, bu sohadagi boshqaruv madaniy qadriyatlarni yaratish va tarqatishga yo‘naltirilgan turli ijodiy jarayonlarni tashkil etish va samaradorligini ta’minalashga xizmat qiladi. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi fuqarolarning jamiyat madaniy hayotidagi faol ishtirokini ta’minalashga zamin yaratadi.

Madaniyat rivojlanishni muvaffaqiyatli boshqarishda davlat hokimiyyati organlarining madaniyat masalalariga doimiy diqqat-e’tibori alohida ahamiyatga ega. Zero, bunday e’tiborning doimiyligi va tadrijiyligi boshqarishdagi boshboshoqlikning oldini olish bilan bir qatorda ko‘zlangan maqsadga erishishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Tarixiy tajriba davlat organlarining madaniyatga “o‘gay” ko‘z bilan qarashi jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatadi. Yaqin o‘tmishda – sobiq ittifoq davrida madaniyat rivojiga nisbatan “qoldiq siyosati” amalga oshirilgani va mavjud muammolarga nisbatan bepisandlik bilan qaralgani natijasida madaniy hayotda turg‘unlik yuzaga kelgani ham fikrimizning isboti bo‘la oladi.

Davlat hokimiyyati va boshqarish organlarining madaniyat masalalariga e’tibori madaniy qadriyatlarni yaratish va tarqatish jarayonini rejalahtirish, prognoz va nazorat qilishni tashkil etish hamda zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan – axborotlarni yig‘ish, to‘plash, saqlash, qayta ishlash va tarqatish vositalaridan samarali foydalanish bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu jarayonlarning to‘g‘ri tashkil etilishi madaniy hayotda bo‘layotgan o‘zgarishlarning xarakteri va yo‘nalishini to‘g‘ri anglash imkonini beradi. Ammo ular asosida qabul qilinadigan qarorlar hozirjavob bo‘lgan, mavjud muammolar kompleksini to‘laligicha qamrab olgan taqdirdagina ijobjiy holatlarning o‘sishi, salbiy tendensiyalarning oldini olish uchun sharoit yaratiladi.

Yuqorida qayd etilgan holatlarning o‘zi madaniy jarayonlarni muvaffaqiyatli boshqarish uchun yetarli emas. Zero, bu sohadagi muvaffaqiyatni ta’minlash madaniy faoliyatda foydalanilayotgan ish shakllari va metodlarining samaradorligini oshirish, madaniy qurilish amaliyotiga sotsiologik, ijtimoiy psixologik metodlar va ijtimoiy eksperimentlarni joriy qilish, kadrlar malakasiga talabni oshirish, ularning qobiliyatini rivojlantirish, xodimlarning umumiy va kasbiy darajasining o‘sishi uchun qulay sharoit yaratishdek vazifalarni ham to‘g‘ri va o‘z vaqtida hal etishni taqozo etadi.

Mazkur jarayonda boshqaruv apparati strukturasini doimiy takomillashtirib borish, xodimlarning huquq va vazifalarini, mas’uliyat doirasini aniq belgilab qo‘yish, ularning ishlarini muvofiqlashtirishni optimallashtirishning o‘rni va ahamiyati ham katta.

Madaniyat taraqqiyotini boshqarishning sifati va samaradorligi ko‘p darajada boshqarishning o‘zi qanday tashkil etilganiga ham bog‘liq. Bunda boshqarish jarayoni asosini qanday prinsiplar tashkil etishi, ularga qanchalik rioya qilinayotgani hamda madaniyat rivojiga turli ijtimoiy omillarning ta’siri nechog‘liq inobatga olinayotgani nihoyatda muhimdir.

Madaniy jarayonlarni boshqarishga ilmiy yondashuv boshqaruv ob’ektining o‘ziga xosligini inobatga olishni ham taqozo etadi. Ayniqsa, madaniy faoliyatning mazmuni alohida diqqat-e’tiborni talab qiladi.

Madaniy faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra madaniy qadriyatlarni ishlab chiqish, saqlash, tarqatish va iste’mol qilishga qaratilgan insonning ma’naviy-amaliy faoliyatidir. Unda individning mohiyatli sifatlari, qobiliyati, ehtiyojlari, ijodiy imkoniyatlari o‘zligini namoyon qiladi, ro‘yobga chiqadi. Bunday yondashuv madaniy faoliyatning shaxsning muayyan tipini shakllantirishdek asosiy funksiyasini ajratish imkonini beradi.

Madaniyat, eng avvalo ma’naviy madaniyat, shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlarni belgilab beradi, kishilar o‘rtasidagi aloqalarni va madaniy faoliyat natijalari bilan almashuvni ta’minlaydi.

Madaniyatning asosiy vazifasi shaxsni kamol toptirish, insonning o‘zligini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilish ekan, bu madaniyat va uning sohalari rivojlanishini boshqarishning o‘ziga xosligini belgilaydi. Shu

nuqtai nazaridan qaraganda, madaniyatni boshqarish mohiyat e'tibori bilan shaxsning muayyan tipini shakllantirish va kamol toptirish jarayonini boshqarish demakdir.

Madaniyatni boshqarishga xos xususiyatlar haqida gap ketar ekan, u nafaqat professional doiradagi faoliyatga, balki bo'sh vaqtda kishilarning madaniy qadriyatlarini yaratish va iste'mol qilishdek madaniy faoliyatini tashkil etishga ham yo'naltirilgan bo'lishini alohida qayd etish lozim.

Madaniyat sohasidagi boshqaruvning yana bir o'ziga xos xususiyati uning natijalarining ehtimollik xarakteriga egaligidadir. Bu, birinchidan, madaniy faoliyatning nisbatan erkinligi, ikkinchidan, uning insonga ta'sirining xilma-xilligi bilan izohlanadi.

2. Madaniyat rivojlanishini boshqarishning strukturasi

Ilmiy adabiyotlarda madaniyatni boshqarishning boshqarish sub'ekti va ob'ekti, sub'ekt va ob'ekt aloqalari tizimi, aks aloqalar tizimi, boshqarish metodlari, tamoyillari hamda boshqarish jarayonining o'zi kabi strukturaviy elementlarini ajratish keng tarqalgan.

Madaniyatni boshqarishning sub'ekti va ob'ektini, ular o'rtasidagi aloqalarni aniqlash hamisha masalaga qanday yondashishga bog'liq bo'ladi. Masalan, umumiy tarzda olganda, madaniyatni boshqarishga daxldor bo'lgan mutasaddi idoralar, jamoat tashkilotlari boshqaruv sub'ekti, umumiy madaniy jarayon yoki uning konkret sohalari boshqaruv ob'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Boshqaruv sub'ekti va ob'ekti masalasi konkret mutasaddi idoralar faoliyatidan kelib chiqib qaralganda esa, ushbu idoraning o'zi sub'ekt, ularning joylardagi bo'linmalari ob'ekt bo'lib chiqadi. Demak, boshqaruvga vertikal aloqalar nuqtai nazaridan yondashilganda bir holatda boshqaruv ob'ekti hisoblangan tashkilot, muassasa boshqa bir darajada uning sub'ekti sifatida chiqadi.

Konkret madaniy muassasa, tashkilotda esa boshqaruv sub'ekti va ob'ekti boshqacha ko'rinish oladi. Shuning uchun ham, madaniy hayotning aynan mana shu darajasida boshqaruv sub'ekti va ob'ektining xususiyatlari, ular o'rtasidagi aloqalar mohiyatini tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning madaniyat sohasidagi faolligi o‘ziga xos boshqaruv munosabatlarining shakllanishiga olib keladi. Bu o‘ziga xoslik shundaki, u jamoaviy faoliyatning ichida yuzaga keladi va, ayniqsa, madaniy faoliyatning teatr, ashula va raqs ansamblari, turli badiiy guruhlar kabi shakllarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunda boshqaruv sub’ektining strukturasi, uning ob’ekti kabi murakkablashadi va boshqaruv sub’ekti sifatida rahbariyat, faollar (norasmiy liderlar), alohida guruh, muayyan sharoitlarda esa butun jamoa ham chiqishi mumkin. Tabiiyki, bunday sharoitda ob’ektning roli ham o‘zgaradi.

Aksariyat hollarda boshqaruv ob’ekti sifatida madaniyat tashkilotlari va muassasalari, yana ham aniqrog‘i ularning jamoalari qaraladi. Amaliyot madaniyat xodimlari uchun ularning rahbarlari ijodiy faoliyatdagi ehtiyojlarini qondirishning o‘ziga xos ob’ekti sifatida chiqishini ko‘rsatadi.

Boshqaruv jarayonida aks aloqa, ya’ni ob’ekt-sub’ekt aloqalari ham muhim ahamiyatga ega. Bunday aloqalar jamoa fikrini bilish, zarur bo‘lgan hollarda ijodiy faoliyat jarayoniga tegishli o‘zgartish, qo‘sishchalar kiritish va ko‘zlangan maqsadga to‘laqonli erishishga imkoniyat yaratadi.

Aks aloqa ob’ekt, ya’ni kollektiv (tashkilot, muassasa, guruh) va sub’ekt, ya’ni rahbariyat (masalan, rejissyor, badiiy rahbar, xoreograf, bosh arxitektor) tizimida jamoa tashabbus bilan chiqqan, bu haqda rahbariyatga ma'lum qilgan va shu yo‘l bilan bo‘lajak boshqaruv munosabatlariga o‘zgartishlar kiritgan paytda u tavsiyaviy xarakterga ega bo‘ladi. Ammo kollektiv va rahbariyat o‘zaro konfliktda bo‘lgan paytda aks aloqa talab, buyruq xarakteriga ega bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda konflikt radikal, ya’ni rahbariyatning almashtirilishi yoki kollektivning tarqatib yuborilishi yoki o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal etilishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda sub’ekt va ob’ekt aloqalarining xarakteridan kelib chiqib, boshqarishning bevosita va bilvosita metodlarini ajratish keng tarqalgan. Xususan, bevosita boshqarish metodi sub’ektning ob’ektga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirini nazarda tutsa, bilvosita boshqarish metodi boshqarish sub’ekti (rahbariyat)ning ob’ektning muayyan

elementiga, aytaylik, tashabbuskor guruh (norasmiy liderlar)ga ta'sirini ifodalaydi.

Ob'ekt elementlarining o'zaro ta'sirini boshqarishga yo'naltirilgan bilvosita boshqarish ijodiy yondashuvni va tanlab olingan yo'lida faol harakat qilishni rag'batlantiradi, boshqarish sub'ektini kengaytirish, o'zo'zini boshqarish mexanizmlarini yuzaga keltiradi. Gap shundaki, boshqarish sub'ektining ob'ekt faoliyati qonuniyatlariga funksional mos kelishi ko'p jihatdan uning informasion mutanosibligi bilan belgilanadi. Boshqarish sub'ektining barcha birliklari tomonidan qabul qilinadigan informatsiya boshqarish ob'ektining sifatiy xilma-xilligini mumkin qadar keng xarakterlashi kerak. Bunda boshqarishning oraliq bo'g'inlarining o'rni va ahamiyati oshadi.

Umuman olganda, boshqaruv bevosita va bilvosita rahbarlik metodlarining dialektik birligi sifatida chiqqandagina samara beradi.

Madaniyat rivojlanishini boshqarishda yuqori samaradorlikka erishishda boshqaruv prinsiplarining o'rni nihoyatda katta. Bunda tizimlilik, ob'ektivlik, konkretlilik, ilmiylik kabi umumboshqaruv va spesifik, ya'ni madaniy hayotnigina boshqarishga daxldor bo'lgan prinsiplarni uyg'un qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi.

Tizimlilik madaniy taraqqiyot muammolarini jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalari rivojlanishi bilan dialektik birlikda olib qarash imkonini beradi. Aynan tizimli yondashuv madaniyat rivojlanishining optimal yo'llarini belgilash uchun zamin yaratadi. Masalan, iqtisodiy salohiyatni to'g'ri baholashgina madaniyat muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va mo'ljallangan loyihalarning moliyaviy ta'minlanishini to'g'ri tashkil etish imkonini beradi.

Ayni paytda, bunday yondashuv jamiyat ijtimoiy strukturasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ijtimoiy qatlamlar va guruhlarning madaniy ehtiyojlarini aniqlash, qondirish, rivojlantirish va demakki, madaniyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini oqilona belgilab olishga xizmat qiladi.

Tizimlilik mamlakat siyosiy hayoti tizimining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, milliy-madaniy taraqqiyot manfaatlari

yo‘lida davlat hokimiyati, siyosiy partiyalar, harakatlar va jamoat tashkilotlarining moliyaviy, tashkiliy-texnik salohiyatidan ham unumli foydalanish imkonini yaratadi.

Boshqarish jarayonida madaniyat o‘z ichki rivojlanish mantig‘iga, hech kimning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘limgan ob’ektiv qonuniyatlarga egaligini inobatga olish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, ob’ektivlik prinsipidan chekinish ayrim kishilar xohish irodasini inobatga olgan holda madaniy hayotga oid istalgan qarorlarni qabul qilish, madaniyat hodisalarini sub’ektiv qarashlarga asoslanib ijobjiy yoki salbiy deb baholashga yo‘l ochadigan volyuntaristik yondashuvlarni keltirib chiqaradi. Tarixiy tajriba bunday yondashuv madaniy hayotda o‘ta og‘ir oqibatlarga olib kelishidan guvohlik beradi.

Har qanday ob’etiv qonuniyatlar muayyan makon va zamonda, konkret ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-mafkuraviy vaziyatda namoyon bo‘ladi va o‘ziga xoslik kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ob’ektivlik konkretlilik prinsipi bilan birga olib qaralgandagina madaniy hayotda kechayotgan jarayonlarni to‘g‘ri baholash va adekvat qarorlar qabul qilishga zamin yaratadi. Konkretlilik prinsipini mensimaslik real madaniy hayotdan uzoqlashishni, formalizmni keltirib chiqaradi, mavhum, ro‘yobga chiqishi qiyin bo‘lgan, amaliyotda faqat zarar keltiradigan qarorlarning qabul qilinishiga olib keladi.

Madaniy hayot rivojlanishini boshqarishda ilmiylik prinsipi nihoyatda katta ahamiyatga ega. U madaniyatga yoki uning ayrim sohalariga madaniyat rivojlanishining ob’ektiv qonuniyatları va tendensiyalarini anglagan holda maqsadga muvofiq, ongli yondashish asosida taraqqiyotga zamin yaratadigan tegishli faoliyat dasturini ishlab chiqish imkonini beradi. Madaniyat taraqqiyotida stixiyalilikning kamayishiga, boshqarish jarayonida fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishga yo‘l ochadi.

Madaniyatni boshqarish strukturasida bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liq va biri ikkinchisidan bevosita kelib chiqadigan boshqarish ob’ekti haqida axborotlar yig‘ish va tahlil qilish asosida aniq maqsadni belgilab olish, uni ro‘yobga chiqarish yo‘lida muayyan qarorlar ishlab chiqish va, nihoyat, ularning bajarilishini nazorat qilishni tashkil etishdek uch

bosqichdan iborat bo‘lgan boshqarish jarayonining ham o‘ziga xos o‘rni bor. Bunda boshqarish ob’ekti haqidagi axborotlarni yig‘ish, to‘plash, qayta ishslash, tizimlashtirish boshqaruv jarayoni keyingi bosqichlarining xarakterini to‘laligicha belgilab beradi. Mazkur jarayonda boshqarish ob’ektining barcha bo‘g‘inlaridan kelayotgan axborotlarning to‘g‘ri va ob’ektiv bo‘lishi hayotiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, joylardagi rahbarlarning o‘z manfaatlari yo‘lida haqiqiy holatni yashirishi, noto‘g‘ri axborotlar berishi hamda u yoki bu sabablarga ko‘ra tahliliy ma’lumotlarda sub’ektivizmga yo‘l qo‘yilishiga sharoit yaratmaslik lozim. Axborotlar va ularning tahlili asosida boshqaruv ob’ekt(lar)ining haqiqiy holati aniqlanib, maqsadlar belgilanib olinishini inobatga olsak, bunday holatning yuzaga kelishi butun boshqaruv jarayoniga jiddiy zarar yetkazadi.

Aniq maqsadning shakllanishi esa o‘z navbatida boshqaruv ob’ekt(lar)ining rivojlanishini, unda nimalar, qanday yo‘nalishda va qay yo‘sinda o‘zgartirilishi yoki saqlab qolinib, takomillashtirilishi lozimligini belgilab beruvchi qarorlar qabul qilinishiga olib keladi. Ulardagi ko‘rsatmalar konkret programma va loyihibar shaklini olganda muayyan samara beradi. Chunki ushbu dasturlar va loyihibarda amalga oshiriladigan ishlar, ularning ko‘lami, bajarilish muddati, joyi va javobgar shaxslar aniq ko‘rsatib beriladi.

Tajriba shundan dalolat beradiki, belgilangan tadbirlarning o‘z vaqtida va aniq bajarilishini qat’iy nazorat qilishgina boshqarishning samaradorligini ta’minlaydi. Bu bosqich zaruriy tarzda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish kabi elementlarni ham qamrab oladi. Aynan shu bosqichda amalga oshirilgan ishlar natijalari to‘g‘risida to‘liq va har tomonlama axborot yig‘ish ham tashkil etiladiki, bu boshqarish jarayonining yangi sikli uchun zamin yaratadi.

3. Mustaqillik sharoitida madaniyat rivojlanishini boshqarish

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san’at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo‘llab-

quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Shu bilan birga, madaniyat va san'at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mavjud muammolarni hal etish bo'yicha kompleks yondashuvning yetishmasligi, madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etish, aholiga madaniy xizmat ko'rsatishda oqsoqlikka yo'l qo'yilayotgani, aksariyat joylarda madaniyat va san'at maskanlarining moddiy-texnik bazasi bugungi kun talablariga javob bermasligini qayd etish zarur. Ayniqsa, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mavjud talab va ehtiyojlarni hisobga olmaslik, ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish, bu yo'nalishdagi ustuvor vazifalarni to'liq bajarish imkonini bermayapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-novabr kuni "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son²⁸ qarorni imzoladi. Mazkur qaror mustaqillik yillarda mamlakatimizda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qarordir.

Madaniyat va san'at sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hajmi 2017-yilga nisbatan 5 karra oshib, 2023-yilga kelib, bu maqsadlar uchun 712 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgani, mamlakatimizda madaniyat sohasiga katta e'tibor berilayotganidan dalolat beradi.

Respublikamizda madaniy hayotni boshqarishning o'rni va ahamiyati oshib borayotgani oldimizda turgan bir qator vazifalarni hal etish bilan bog'liq. Madaniy merosimizni eski andozalaru yondashuvlardan xoli holda chuqur va har tomonlama tadqiq etish, noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash, xalqimiz yaratgan, ammo turli sabablarga ko'ra chet ellarga chiqib ketgan madaniyat boyliklarini izlab topish va o'rganish bo'yicha ishlarni tizimli va tadrijiy davom ettirish bilan bog'liq vazifalar shular jumlasidandir.

²⁸ <https://lex.uz/docs/-4084926>

Ayni paytda, fan, adabiyot, san’at, umuman milliy madaniyatimizning barcha sohalarini jahon madaniyati yutuqlari asosida boyitish va rivojlanishning yangi bosqichiga ko’tarishning o’rni va ahamiyati beqiyosdir.

Bularning barchasi o‘z navbatida mustaqillik ruhiyatiga singgan, yurt manfaati va millat istiqboli yo‘lida qayg‘uradigan yangi insonni tarbiyalashdek bosh vazifani hal etishga xizmat qilishini ham alohida ta’kidlash zarur.

Qayd etilgan vazifalarni madaniyatimiz, ma’naviyatimiz, ma’rifatimiz taraqqiyotiga daxldor bo‘lgan davlat va jamoat tashkilotlari ishini, ijodkor ziylolarimiz va xalqimizning yaratuvchanlik faoliyatini muayyan yo‘nalishda muvofiqlashtirmay, tashkil etmay, bir so‘z bilan aytganda, boshqarmay turib muvaffaqiyatli hal qilish mumkin emas.

Ma’lumki, yaqin-yaqingacha necha o‘n yillar davomida miqdoriy yondashuv ustuvor bo‘lib keldi va asosiy diqqat madaniyat muassasalari soniga, kitoblar fondi, teatrlearning tomoshabinlarni qabul qila olishining miqdoriy xarakteristikalariga alohida e’tibor berildi. Vaholanki, miqdoriy ko‘rsatkichlar qanchalik muhim bo‘lmasin madaniyat muassasalari faoliyatining samaradorligi va sifati asosiy va muhim omil hisoblanadi. Bugun mamlakatimizda masalaning ana shu jihatiga alohida e’tibor berilayotganini mamlakatimiz madaniy hayoti, uni boshqarish bilan bog‘liq xususiyatlarning o‘zagini, tashkil etayotganini e’tirof etish joiz.

Shunday bo‘lsa-da, bir holatni alohida qayd etish lozim. Gap shundaki, bugungi kunda ham madaniyatni boshqarish sohasida iqtisodiy metodlarning to‘la ustuvorligini ta’minlash zarurligini ilgari suruvchi qarashlarni uchratish mumkin. Aslida, bozor iqtisodiyoti metodlarini madaniyatning barcha sohalariga ko‘r-ko‘rona ko‘chirish amaliy jihatdan zararli, metodologik jihatdan esa noto‘g‘ridir. Chunki madaniyatning barcha tarmoqlarini ham bozor iqtisodiyoti relslariga o‘tkazish mumkin emas. Aytaylik, xalq amaliy san’atining yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik yoki kino, estrada kabi san’at sohalarida bunday yondashuv to‘g‘ri va o‘rinli. Ammo, muzeylar, bibliotekalar, arxivlar kabi madaniyat muassasalari davlat va jamiyatning doimiy yordamini talab etadi.

Madaniyat rivojlanishini boshqarishni takomillashtirish ma'muriy va o'z-o'zini boshqarish usullarini qo'shib olib borish hamda madaniy faoliyatning mazmuni, shakli va metodlarini boyitishdek maqsadlarni o'z ichiga oladi. Madaniyat muassasalarining moddiy bazasini mustahkamlash esa, o'sib borayotgan madaniy ehtiyojlarni qondirishning hajmi va sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur jarayon madaniyat xodimlari malakasini muntazam oshirib borish hamda boshqarishning samaradorligi va sifatini yuqori ko'tarishdek maqsadlar kompleksini ham qamrab oladi.

Madaniyatning boshqaruvi tizimi madaniy siyosatni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish bilan shug'ullanadigan muassasalar va organlar demakdir. U yoki bu organ, tashkilot, muassasaning ushbu jarayondagi ishtiroki esa uning darajasi (markaziy, mintaqaviy, mahalliy), xarakteri (davlat, jamoatchilik, aralash, xalqaro) hamda faoliyat sohasi (masalan, ta'lim, fan, san'at) bilan belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mustaqillik sharoitida mamlakatimizda madaniy taraqqiyotni boshqarishning o'ziga xos tizimi tizimi yaratilganini ta'kidlash zarur. Buni ayrim tashkilotlar faoliyati misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, madaniyat va san'at sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, unda ishtirok etuvchi davlat organlarining ushbu yo'nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda mazkur sohalarda qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish kabi vazifalarni amalga oshirish maqsadida alohda vazirlik O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyat yuritmoqda. Mana shu vazirlik tizmining o'zida madaniyat rivoji va uni tizimli boshqarish maqsadida quyidagi tashkilotlar samarali faloyatlarini davom ettirmoqdalar:

- ✓ "O'zbekkonsert" davlat muassasasi
- ✓ "O'zbek davlat sirki"
- ✓ Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiytadqiqot instituti
- ✓ O'zbekiston davlat filarmoniysi
- ✓ Xalqaro festivallar direksiyasi
- ✓ Respublika baxshichilik san'ati markazi

- ✓ Binolardan foydalanish va ularni ekspluatatsiya qilish direksiyasi davlat unitar korxonasi
 - ✓ “Xalqlar do’stligi” saroyi
 - ✓ Respublika Markaziy ko‘zi ojizlar kutubxonasi
 - ✓ O‘zbek milliy maqom san’ati markazi
 - ✓ “Guliston”, “Teatr” jurnallari tahririyati
 - ✓ O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
 - ✓ O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
 - ✓ Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
 - ✓ R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi
 - ✓ V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi
 - ✓ K.Zaripov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan estrada sirk kolleji
 - ✓ O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Musiqa sohasi pedagoglarini qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish markazi
 - ✓ Respublika musiqa va san’at kolleji
 - ✓ Respublika ixtisoslashtirilgan xoreografiya maktab-internati
 - ✓ O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti.

Milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan, badiiy jihatdan yuksak, milliy-madaniy merosga hurmat-ehtirom va kelajakka ishonch tuyg‘usini tarbiyalashga xizmat qiladigan kinovideomahsulot ishlab chiqarish va iste’molchilarga yetkazish;

o‘zbek milliy kino san’atining eng yaxshi yutuqlarini saqlab qolish va ko‘paytirish, xalqning ma’naviy-axloqiy va madaniy mulkining bir qismi sifatida milliy kino va videofond barpo etish, saqlash, bu boradagi faoliyatni muvofiqlashtirish;

jahon kino san’atining eng yaxshi yutuqlarini targ‘ib etish, chetdan xarid qilinadigan kino va video mahsulotlarga ekspert bahosi berilishini amalga oshirish, kino san’ati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

kino tarmog‘ini shakllantirish, boshqarish, kinematografiya sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilib kelayotgan O‘zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbek xalqi boy badiiy meros, jahon san’ati rivoji tarixida o‘ziga xos o‘ringa, tasviriy va amaliy san’atning zamonaviy yo‘nalishlari, xalq hunarmandchiligi bo‘yicha shakllangan an’analar va matablarga ega. Ushbu meros va tajribani chuqur va ilmiy asosda o‘rganish, rivojlanish istiqbollarini belgilash, mazkur yo‘nalishlardagi faoliyatni tizimli tashkil etish hayotiy-amaliy ahamiyatga egaligi shubhasiz.

Badiiy barkamol san’at asarlari yaratish, bu yo‘ldagi harakatlarni rag‘batlantirish, zarur moddiy-texnik bazani shakllantirish hamda tasviriy va amaliy san’at, dizayn, xalq hunarmandchiligi sohalari bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ushbu maqsadga erishishning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur jarayonda soha bo‘yicha xalqaro ijodiy, ilmiy aloqalarni mustahkamlash, o‘zbek milliy san’ati yutuqlarini dunyo jamoatchiligiga tanitishning ham o‘rni beqiyosdir²⁹. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tashkil etilgan O‘zbekiston Badiiy akademiyasi ana shu vazifalarni hal etish borasidagi ishlarni samarali tashkil etib, muvofiqlashtirib, boshqarib kelayotganini alohida qayd etish lozim.

Umuman olganda, o‘z ichiga markaziy, mintaqaviy, mahalliy davlat organlarini hamda jamoatchilik tashkilotlari va muassasalarini qamrab olgan mazkur tizim doimiy takomillashib, boyib borayotganini va samarali ishlayotganini e’tirof etish lozim. Xususan, bu tizimda markaziy davlat tashkilotlari va muassasalari ichida umuman madaniyat va uning ayrim (ta’lim, fan, badiiy madaniyat va sh.k.) sohalari rivojlanishining muhim, fundamental yo‘nalishlarini belgilab beradigan, boshqaruv jarayonlarini olib boradigan tashkilotlar, ularning joylardagi bo‘limlarining o‘ziga xos o‘rni borligini qayd etish lozim.

Ayni paytda, turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan jamoat tashkilotlari, markazlar, uyushmalar, jamg‘armalar ham mazkur tizim-

²⁹ Қаранг: Ўзбекистон Бадиий академиясини ташкил этиш хақида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. // Халқ сўзи. 1997, 24 январь.

ning zaruriy va eng muhim elementi hisoblanadi. Ular bugungi kunda madaniy merosimizni o‘rganish, milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urfatlarimizni tiklash, saqlash va rivojlantirish bo‘yicha faoliyat olib borish, folklor ekspedisiyalari tashkil etish, doimiy ravishda turli festival, ko‘rik, tanlov, ijodiy kechalar o‘tkazish, iqtidorli yoshlar ijodini rag‘batlantirish borasida samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Madaniyat jabhasida faoliyat ko‘rsatayotgan turli ijodiy tashkilotlar va birlashmalar esa aholining madaniy ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish, milliy madaniyat, adabiyot, san’at, musiqa, teatr, kino yutuqlarini, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni keng targ‘ib etish borasida sermahsul natijalarga erishayotganlarini alohida qayd etish lozim.

4. Madaniy qadriyatlarni tarqatish tizimi

Madaniy qadriyatlarning tarqalishi, keng jamoatchilikka ma’lum bo‘lishi ular mavjud bo‘lishining zaruriy shartidir. Qadriyatlarning tarqalish doirasi, auditoriyasi qanchalik keng bo‘lsa, ularning hayot, davr sinovidan o‘tishi, demakki, yashovchanligi shunchalik uzoq bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, rejissyorlar va madaniyatning professional ijodkorlarining boshqa qatlamlari o‘z ijodlari namunalarini mumkin qadar turli yo‘llar, usullar yordamida keng tarqalishidan manfaatdordirlar.

Tadqiqotchilar fikricha, madaniy qadriyatlarni yaratish va tarqatish alohida ijodkor yoki ijodiy guruh tomonidan madaniy qadriyatlari (g‘oyalar, asarlar va sh.k)ning ishlab chiqilishi, ularning ijodkor ziyyolilarning muayyan doirasida taqdim etilishi yo‘li bilan ilk sinovdan o‘tkazilishi, so‘ngra esa butun jamiyat miqyosida tarqatilishi va uning natijalariga tayangan holda ushbu qadriyatlarning tanqidiy baholanishi va qayta ishlanishi kabi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bosqichlarni qamrab oladi³⁰.

Bugungi kunda madaniy qadriyatlarni tarqatishda ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining o‘rni va roli beqiyos darajada kengayib ketdi. Zero, matbuot, radio, televidenie, internet, hatto, bugungi kungacha

³⁰ См.: Моль А. Социодинамика культуры. – М.: Прогресс, 1985. – 125 с.

oddiy aloqa vositasi bo‘lib kelgan uyali telefonlar ham madaniyat yangiliklari, qadariylatlarni keng jamoatchilikka yetkazib beruvchi hodisalar sifatida jamiyat hayotiga ulkan ta’sir o‘tkazish quvvatiga ega. Ularning ta’sir kuchi beriladigan materiallarning, birinchidan, tezkorligi, ko‘tarilayotgan masalalarning dolzarbligiga, ikkinchidan, muayyan auditoriyaga mo‘ljallangani bilan ham belgilanadi.

Ommaviy axborot vositalari madaniy hayotdagi muayyan madaniy voqeа, hodisa yoki muammo yuzasidan axborotni yetkazib berish orqali, uning jamiyat uchun ahamiyati, keng aholi qatlamlari uchun dolzarbligini ta’kidlaydi, kishilar ongida barqaror tasavvurlar, obrazlar, qadriyatlarning shakllanishiga ko‘maklashadi. Bu esa, o‘z navbatida, u yoki bu masalaga diqqatni qaratish orqali fuqarolarni uning atrofida birlashishlariga xizmat qiladi, turli ijtimoiy guruh vakillariga yagona maqsad yo‘lida yakdillik bilan harakat qilishga zamin yaratadi.

Ayni paytda, bugungi kunda, aynan ommaviy axborot vositalari orqali “ommaviy madaniyat” niqobi ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm va egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, milliy an’ana va qadriyatlar, turmush va tafakkur tarzining ma’naviy negizlarini qo‘porishga qaratilgan harakatlar tobora avj olib borayotganini ham alohida qayd etish lozim. Shunday vaziyatda har xil shaklu shamoyilda chiqayotgan bunday urinishlarga qarshi madaniy hayotimizdagи ijobiy o‘zgarishlar, asrlar davomida kamol topib kelgan milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni xalqimizning turli qatlamlariga mos va tushunarli tilda yetkazib berish hayotiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, “avvalambor, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta’lim-tarbiyasiga har birimiz mas’ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak”³¹, deb ta’kidladi. Buning uchun yana mamlakatimiz rahbarining quyidagi chaqiriqlari e’trofga loyiq: ...Hayot va tarix sinovlaridan o‘tgan teran ma’noli bu so‘zlar bugun ham o‘z

³¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021, — 277 bet.

ahamiyati va qimmatini yo‘qotgan emas. Darhaqiqat, adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi.”³²

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida zamonaviy texnik uskunalarga, keng va chuqur fikrlovchi kadrlarga ega bo‘lgan, yangicha mazmun-mohiyat kasb etadigan ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratildi. Bugungi kunda mamlakatimizda 2000 dan ortiq ommaviy axborot vositalari faoliyat ko‘rsatayotgani, ularning 800 dan ortig‘i internetda o‘z veb-saytiga egaligi, so‘nggi o‘n yil ichida bosma ommaviy axborot vositalari soni ikki baravar ko‘paygani, to‘rtta axborot agentligi, o‘nlab teleradiokanallar, shuningdek, Internet-agentliklari va axborot xizmatlari ishlab turgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Madaniy qadriyatlarni tarqatishda, kishilar tafakkuri va dunyo-qarashini o‘zgartirishda, har tomonlama rivojlangan insonni tarbiyalashda madaniyat muassasalari o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Madaniyat muassasalari deganda badiiy tomosha (teatr, konsert-gastrol tashkilotlari, sirk) va madaniy-oqartuv tashkilotlari (muzeylar, kutubxonalar, klublar, parklar) tushuniladi.

Insoniyat madaniyati taraqqiyotida, uning o‘ziga xosligini belgilab berishda teatrlarning o‘rni nihoyatda katta. Kino va televideniening paydo bo‘lishi teatrning halokatini ta’minlaydi, degan qarashlarning shakllanishiga olib kelgan, teatrning istiqboliga bunday pessimistik yondashuvlar hozirda ham mavjud bo‘lsa-da, vaqt bunday “bashoratlarning” o‘rinsizligini ko‘rsatib berdi. Aytish mumkinki, bugungi kunda ham insoniyat madaniyatining mavjudligi va istiqbolini teatrlarsiz tasavvur qilish nihoyatda qiyin.

Bir paytning o‘zida madaniy qadriyatlarning ham yaratuvchisi, ham tarqatuvchisi sifatida chiqishi teatrlarning o‘ziga xos va eng muhim xususiyati hisoblanadi. Teatr faqat madaniy qadriyatlarni tarqatish tizimining elementi sifatida olib qaralganda ham u bir qator o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Jumladan, teatrda ijodkor bilan tomoshabinning bevosita muloqoti sodir bo‘ladi. Tomoshabin bilan aks aloqa, sahna va zal o‘rtasidagi uyg‘unlik badiiy asarda ilgari surilayotgan g‘oyalari, targ‘ib etilayotgan qadriyatlarning to‘g‘ri tushunilishi, qabul

³² <http://m.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>.

qilinishida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, bunday xususiyat sahnada qo‘yilayotgan spektaklning takomillashtirilushi, yangi qirralarining ochilishiga xizmat qiladi. Ushbu xususiyat teatrning kinodan tubdan farq qilishini ham ko‘rsatadi.

Zamonaviy teatr sodir bo‘layotgan voqeа, hodisa, jarayonlarni tushunish uchun tomoshabindan muayyan bilimlarni taqozo qiladigan intellektual teatr hisblanadi. Agar ommaviy namoyishlar xoh u xalq teatri, xoh estrada, xoh sirk namoyishi bo‘lsin birinchi navbatda hissiyotlarga murojaat qilsa, teatr tafakkur qudratini, aqliy bilimni mobilizatsiya qilishga undaydi, matn ostidagi ma’noni tushunishga, anglashga chaqiradi.

Teatr madaniy qadriyatlarni yaratish va tarqatishning o‘ziga xos shakli sifatida juda qadimdan shakllangan. Mutaxassislar uning manbai sifatida marosim qo‘shiqlari, raqslarini, komik sahnalarning qo‘yilishini, xalq o‘yinlarini qayd qilishadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, eramizdan avvalgi III asrdayoq Markaziy Osiyoda teatr san’ati shakllana boshlagan. Bu davrga oid kumush idishlarda turli teatr sahnalari ifodalangani shunday xulosa chiqarish imkonini beradi. O‘zbek teatrining ildizlari, ana shunday uzoq moziyga borib taqaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, 27 mart — Xalqaro teatr kuni munosabati bilan madaniyat vakillari bo‘lgan teatr xodimlarini tabriklab, sohani rivojlanayothanini alohida ta’kidladi: “...asrdan ziyod shonli tarixga, ijodiy maktablarga ega bo‘lgan o‘zbek teatr san’ati o‘zining boy an’ana va qadriyatlarini saqlab, zamon bilan hamnafas bo‘lib, izchil rivojlanib kelayotganini alohida ta’kidlash o‘rinlidir”³³.

Bugungi kunda poytaxtimiz va viloyat teatrlarida namoyish etilgan dunyo sahma san’atining mumtoz namunalari o‘z vaqtida nafaqat yurtimiz, balki chet el tomoshabinlarini ham hayratda qoldirmoqda, shuningdek, teatr ijodkorlarimiz tomonidan yaratilgan ko‘plab milliy ruhdagi sahma asarlari xorijiy mamlakatlarda ham muvaffaqiyat bilan ijro etib kelinmoqda.

³³ <https://president.uz/oz/lists/view/4258>

Bugungi kunda respublikamizda drama, musiqali drama va komediya, satira, opera va balet hamda qo‘g‘irchoq va yosh tomoshabinlar teatri kabi yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘ttizdan ortiq teatrda turli mavzu va janrlarda spektakllar yaratilib, samarali ijodiy izlanishlar olib borilmoqda.

Ayni paytda, o‘zbek teatri sahnasida davr ruhi va qahramonlari qiyofasini aks ettiradigan, kishilarimizning tarixiy, badiiy, ma’naviy-ma’rifiy qarashlari, bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiladigan, haqqoniylig va ezgulik g‘oyalari bilan yug‘rilgan badiiy barkamol san’at asarlarini yaratish, iste’dodli dramaturg va rejissyorlar, teatr aktyorlarining yangi avlodini tarbiyalash masalasi o‘z dolzarbligini saqlab qolayotganini ham qayd etish lozim.

Professional teatr bilan bir qatorda madaniy qadriyatlarni tarqatish tizimida havaskorlik ham muhim rol o‘ynaydi. Havaskorlik sahnasi xalq san’atining eng ommaviy turlaridan biri hisoblanadi, deb bemalol aytish mumkin. U qanday ko‘rinishda chiqmasin, xalq talantlarini kashf etish, aholining umumiy madaniyat darajasining o‘sishiga ko‘maklashish, professional san’at namoyandalari safini to‘ldirishga xizmat qilishning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi.

Respublikamizning turli burchaklarida havaskorlikning ashula va raqs, ayniqsa, folklor-etnografik ansamblar, oilaviy san’at dastalari kabi shakllari keng tarqalganini va asrlar davomida shakllangan san’at durdonalarini saqlab qolish, xalqimizga qaytarish borasida samarali faoliyat olib borayotganini ta’kidlash zarur.

Dorbozlik o‘zining betakror, asrlar davomida shakllangan, sayqal topgan milliy ildizlariga ega. U o‘zida dorda yurish, akrobatika, qiziqchilik, raqs, hayvonlar bilan tomosha ko‘rsatish kabi elementlarni birlashtirgan va zamonaviy sirkka nihoyatda yaqin bo‘lgan eng dastlabki, eng qadimiy milliy-professional san’at turi deyish mumkin. Birinchi milliy sirkimiz jamoasi o‘zagini ham dorbozlarimiz tashkil etgani shunday deyishga asos bo‘ladi. Shu bilan birga, bu san’atni egallash muntazam va mashaqqatli mehnat, tayyorgarlikni talab qilishini ham ta’kidlash zarur. Ayni paytda, dorbozlik, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘ziga xos turmush tarzi hamdir. Shunday bo‘lgandagina bu sohada muayyan

muvafaqqiyatga, original repertuarga ega bo‘lish va xalq olqishiga sazovor bo‘lish mumkin. Aksariyat hollarda dorbozlik guruhlarining asosi, o‘zagini muayyan oila tashkil qilishi va sulolaviy san’at turiga aylangani ham shundan.

Madaniy qadriyatlarni tarqatish tizimida madaniy oqartuv tashkilotlarining o‘rni ham katta. Masalan, bu jarayonda muzeylarning o‘ziga xos o‘rni bor. Ma’rifiy-madaniy, ilmiy va dam olish maskani bo‘lgan muzeylar o‘tmish va bugungi kun o‘rtasida bog‘lovchi halqa hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda turli yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatuvchi 100 dan ortiq davlat muzeylari ana shunday vazifani bajarmoqda. Muzeylar zamonaviy insonga bugungi kun va uzoq o‘tgan sivilizatsiyalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni ko‘rishga yordam beradi. Ko‘plab tarixiy asarlar va muzey kolleksiyalari tufayli bugungi kunda deyarli har bir kishi o‘tmishga sho‘ng‘ish va ota-bobolarining hayoti va hayoti haqida ko ‘p narsalarni o‘rganish imkoniyatiga ega. Zamonaviy muzeylar butun bir xalq madaniyatining ajralmas qismidir. Xalqimizning boy tarixi, ajoyib an’analari va qadriyatlari, ulkan ma’naviy salohiyatini namoyon etuvchi ushbu muassassalar tizimida mustaqillik sharofati tufayli bunyod etilgan Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qatag‘on Qurbanlari xotirasi muzeyi, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Termiz Arxeologiya muzeyi alohida va o‘ziga xos o‘ringa egalgini ta’kidlash zarur. 1977 yildan buyon, 18-may – Xalqaro muzeylar kuni bo‘lib, keng nishonlab kelinadi. Shu munosabat bilan, yurtimizda 18-may kuni barcha muzeylarda “Ochiq eshiklar kuni” o‘tkazilib, u kunda barcha muzeylar tashrif buyuruvchilar uchun bepul xizmat ko‘rsatadilar. Bu omil ham madaniyatning rivojlanishiga katta turtki bo‘ladi.

San’at turi sifatida o‘zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadigan kino ham madaniy qadriyatlarni tarqatish tizimining muhim elementi hisoblanadi.

Kino, masalan, ko‘p asrlik tarixga ega teatrda va ildizlari qoyalarga o‘yib ishlangan rasmlarga borib taqaladigan rassomchilikdan farqli ravishda bir asrdan sal ortiqroq tarixga ega xolos. U uzoq davom etgan texnika va texnologiya rivojlanishining tabiiy mahsulidir. Zero, ularning rivojlanishidan tashqarida kinoni tasavvur qilish mumkin emas. Bu

hozirgi davr kinosida ham yaqqol ko‘rinadi. Kino o‘z mohiyatiga ko‘ra, paydo bo‘lishining ilk davrlaridanoq keng xalq ommasiga mo‘ljallanganini, hamma uchun tushunarli san’at turi sifatida yuzaga kelganini ta’kidlash zarur. Boshqacha bo‘lishi ham mumkin emas. Chunki kino o‘z tomoshabiniga ega bo‘lgan paytdagina san’atligini namoyish qila oladi. Masalan, kartina galereyaning bo‘sh zalida ham madaniy qadriyat bo‘lib qolaveradi. Kinofilmning tomoshabinsiz namoyish qilinishi bema’nilikdir. Aynan ko‘pchilik uchun tushunarli bo‘lganlik tomoshabinlar kelishini va moliyaviy xarajatlarni qoplash imkonini beradi. Kinoning teatr, raqs, qo‘sish, musiqa va yana bir qator san’at turlariga xos xususiyatlarni o‘zida mujasamlashtirgani uning madaniy qadriyatlarni tarqatish tizimidagi betakror o‘rnini belgilab beradi.

Aholining kino san’ati bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarining hozirgi ahvoli va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish asosida ikki qiziqarli jihatni qayd qilish mumkin. Birinchidan, tomoshabinlarning yoshi, jinsi, ma’lumoti, umumiyligi madaniy darajasi bilan bog‘liq ravishda ijtimoiy-madaniy talablar xilma-xilligining chuqurlashuvi kuzatilmogda. Shu ma’noda kinoga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Zero, oldin u yoki bu sabablarga iloji bo‘lmagan narsalarni ham ko‘rish imkoniyati topilayapti. Ikkinchidan, “sof” kinoga bo‘lgan talab xilma-xil ehtiyojlarni o‘zida sintez qilgan kinoasarlarga o‘rin bo‘shatib bermoqda. Boshqacha aytganda, kino bilish, dam olish, estetik kommunikatsiya vazifalarini ham bajarmoqda.

Kinofilm larning ko‘payishi, televidenie, kabel televideniesi, videomagnitafonlar, lazer disklar sonining ortishi kino tarmog‘ining strukturaviy-funksional tuzilishiga bo‘lgan talabni butunlay qayta ko‘rib chiqishni, ijtimoiy o‘zgarishlarga mos ravishda uni takomillashtirishni talab qilmoqda. Kino tashkilotlari, muassasalarining ijtimoiy-madaniy funksiyalarini kengaytirishga bo‘lgan zaruriyat ortib borayotgani esa, ularni aholiga ijtimoiy va madaniy xizmat ko‘rsatish kompleksining uzviy qismiga aylantirishni, yanada yaqinroq qilishni taqozo etayotganini ham qayd etish lozim. Bunda kino tashkilotlari faoliyatida iqtisodiy maqsadga muvofiqlik bilan ijtimoiy-madaniy samaradorlik prinsipini birgalikda

qo'shib olib borish o'rinnlidir. Zero, so'nggi yillarda ijtimoiy hayot va ongda bo'layotgan o'zgarishlarni inobatga olmay kino madaniy qadriyatlarni tarqatish vositasi sifatida o'z o'rni va ahamiyatini yo'qotib qo'yishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, teletarmoqlar yuksak darajada rivojlangan, videomagnitafonlar, lazer disklar bilan ta'minlanganlik nihoyatda yuqori bo'lishiga qaramay G'arbda "katta kino" mashhur ekanini va muhabbat qozonganini o'rganish, tajribasini tahlil qilish foydalidir. Bu bir qator sharoitlar, xususan, mualliflik huquqining amaliyoti bilan belgilanadi: hech bir film kinozallarda namoyish etilmay turib teleekranlarga va videotarmoqqa tushishi mumkin emas.

Kino rivojlanishida tijorat va madaniy jihatlarning uyg'un mutanosibligini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega. Zero, kinoning butun bir industriyaga aylangani san'atning bu turi mohiyatini yo'qqa chiqarmasligi, to'sib qo'ymasligi kerak.

Kino sohasidagi siyosatning asosiy tamoyili kino qadriyatlarni saqlash, ko'paytirish va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda keng foydalanishdan iboratdir. Kinofilmlar avvalo madaniy-ma'rifiy, so'ngra tijorat qimmati nuqtai nazaridan qaralmog'i lozim.

Kino o'zaro uzviy bog'liq — kino ishlab chiqarish va kino mahsulotlarini iste'mol qilishdek qismlardan iborat ekan, barqaror kino ishlab chiqarishni tashkil etish, mablag' bilan ta'minlash kinorepertuarni planlashtirish va boyitishning asosidir. Kino o'zining ijtimoiy-madaniy (madaniy-ma'rifiy, kommunikativ, estetik va sh.k.) funksiyalarini boy, xilma-xil, plyuralistik kinorepertuar bo'lgan paytdagina bajara oladi.

Insonning hayotda kim bo'lib yetishishi jamiyat, unda ustuvor bo'lgan qarashlar va qadriyatlар, ularni singdirish, mustahkamlashga xizmat qiladigan tarbiya tizimiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, madaniy qadriyatlarni tarqatishda ta'lim tizimi muhim va asosiy o'rinni egallaydi. Zero, inson farzandi aynan ta'lim muassasalarida to'plangan ijtimoiy tajriba va madaniy qadriyatlarni ilmiy asosda va tizimli tarzda o'zlashtirib boradi. Ta'lim tizimi bosqichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tufayli bu jarayondagi tadrijiylik ta'minlanadi. Natijada insonning bilim doirasi ham miqdoriy, ham sifatiy jihatdan boyib boradi. Madaniyat,

uning rivojlanish qonuniyatlari, inson va jamiyat hayotidagi o‘rni bilan bog‘liq bilimlar ta’lim jarayonining o‘zida bevosita va to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirilishini ham alohida qayd etish joiz. Talim tizimida madaniy qadriyatlarni tarqatish bo‘yicha olib boriladigan harakatlarning natijalarini bevosita tekshirib ko‘rish va uni doimiy takomillashtirib borish imkoniyati ham mavjud.

Nazorat uchun savollar.

1. Madaniyat rivojlanishini boshqarish deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy boshqaruv qanday boshqaruv, fikringizni sharhlab bering?
3. Madaniyat rivojlanishini boshqarishni qanday tashkilotlar amlaga oshirishi mumkin?
4. Mustaqillik yillarida madaniyat rivojlanishi qay ahvolda edi?
5. Madaniy qadriyatlarning tarqalishida qaysi tashkilotlar va qaysi yo‘nalshlar xizmat qiladi?

12-mavzu. SHARQ VA G‘ARB MADANIYATINING O‘ZARO MULOQOTI HAMDA INSONIYAT MADANIYATINING KELAJAGI

Reja:

1. Markaziy Osiyoda uyg‘onish davri madaniyatini rivojlanish bosqichlarining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Temur va temuriylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy taraqqiyoti.
3. IX-XII asrlar va Temuriylar davrida Markaziy Osiyo me’morchiligi.
4. G‘arb renessansi davrida madaniyat: a) fan, b) san’at, v) me’morchilik taraqqiyoti.

Tayanch iboralar:

Markaziy Osiyo, qadimiy sivilizatsiya, madaniy meros, Nur Sharqdan, “Islom madaniyatining oltin asri”, Turon tarixining “oltin davri”, milliy tarix, milliy an’ana, Uyg‘onish davri, Renessans, Musulmon madaniyati, miniatyura, musavvirlilik, xattotlik, qo‘lyozma. Amir Temur, masjid, maqbara, ravoq, Movarounnahr, tuzuklar.

1. Markaziy Osiyoda uyg‘onish davri madaniyatini rivojlanish bosqichlarining o‘ziga xos xususiyatlari.

Vatanimiz hududida ilm-fan, san’at va madaniyat qadim-qadimdan shakllangan. Ajdodlarimiz bundan uch ming yillar ilgari, hozirgi zamonaviy ilm-fanning ilk poydevorini quygan va rivojlantirgan. Shuning uchun ham o‘rta asrlarda, G‘arbda “Nur Sharqdan taraladi” degan ibora paydo bo‘lgan.

O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasi ilm-fan taraqqiy etgan o‘lkalardan biriga aylanib, ularning boshqa o‘lkalar bilan savdo sotiq munosabatlari, ilmiy-madaniy aloqalar keng miqyosida rivojlangan. Bu davrda dehqonchilik, hunarmandchilik o‘sadi, turli xil irrigatsiya va madaniy qurilishlar kuchayadi. Natijada, astronomiya, matematika, geometriya, kimyo, geografiya, minerologiya, geodeziya, tabobat ilmi sohalariga oid ilmiy bilimlarning tez taraqqiy etishiga olib keladi. X asrda

Sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlarida Al-Kindiy, Ar-Roziy, Ibn Rushd, Muhammad Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Ibn Sino, Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy kabi olim mutafakkirlar matematika, falakiyat, meditsina, psixologiya, sotsiologiya, mexanika, geologiya, geodeziya, mineralogiya, kimyo kabi fanlarning rivojiga o‘z hissalarini qo‘shdilar³⁴.

IX-XI asrlar musulmon fani va madaniyati tarixida katta yutuqlar va muhim ilmiy kashfiyotlar davri bo‘lganligidan, bu davrni tadqiqotchilar tarafidan Sharq fani va madaniyatining “oltin davri” deb e’tirof etiladi. O‘sha davrda arab xalifaligi tarkibiga kirgan Movarounnahr va Xuroson mintaqasi yuz bergen madaniy-ma’rifiy yuksalishni ta’minlovchi va harakatlantiruvchi asosiy kuchlardan biri edi. Bu xulosa, birinchi navbatda, bu ilmiy yuksalishda ishtirok etgan mutafakkirlarning asosiy qismi ushbu zamin farzandlari bo‘lgani bilan izohlanadi³⁵.

Ilmiy tadqiqotlarda Markaziy Osiyoda islom kirib kelgandan so‘ng madaniyat rivojlangani ko‘p bora ta’kidlanadi. Shuni aytish lozimki, bu o‘lka islomgacha ham ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan yuksak taraqqiy topgan mintaqa bo‘lgan. Bu yerda tarqalgan o‘rxun, sug‘d, xorazm yozuvlari, san’at va musiqa asboblari bundan dalolat beradi. Arab xalifaligi tarkibiga kirgan Markaziy Osiyo xalifalikning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida faol rol o‘ynadi. Islom g‘oyalarining singishida islomgacha bo‘lgan ijobiy muhit sabab bo‘ldi. Bu mintaqada yakkaxudolik g‘oyasi (Tangri) shakllanishida ifodasini topdi.

Ilm-fanni yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan va madaniyati yuqori bo‘lgan insonlar yaratadi. Ularning shakllanishi va rivojlanishi mamlakat va millat taraqqiyotining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shu ma’noda IX-XII asrlarda tashkil topgan Xorazm Ma’mun akademiyasi bu zaminning o‘z davriga xos taraqqiy qilganligini, u erdan etishib chiqqan mutafakkirlar esa xalq tafakkuri, dunyoqarashi, intilishi, ma’naviyati va madaniyatining hosilasi edi.

³⁴ Abduxalimov B. Bayt al-hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati –T.: O‘zbekiston, NMIU, 2010. -20 bet

³⁵ Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2010.

“Islom madaniyatining oltin asri” — ikki qomusiy olimlar davri deb e’tirof etiladigan o’rta asrlarda ona zaminimizdan jahonga tanilgan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi buyuk ensiklopedik olimlar, faylasuf va shoirlar; Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu’in Nasafiy kabi ulug‘ ulamolar yetishib chiqdi. Ularning boy merosi islom dini va falsafasining, diniy va dunyoviy ilmlarning o‘zaro uyg‘un holda rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunga kelib, nafaqat Sharqda, balki G‘arb mamlakatlarida ham Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma’naviy merosini o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Negaki tabiat va jamiyatning o‘zaro uyg‘unligi, ma’naviy qadriyatlarning ustuvorligi, shaxs kamolotiga oid masalalar aynan ularning asarlarida o‘zining mufassal bayonini topgan.

Buyuk ajdodlarimiz qomusiy olimlar sifatida olamning “yaxlit, bir butunligi”, inson va jamiyatning uyg‘unligi haqidagi g‘oyalarni ilgari surganlar. Yalpi o‘zaro uyg‘unlik ularning fikricha, faqat donishmandlik, narsalar mohiyatiga chuqur kirib borishlik, inson tomonidan o‘z hayoti ma’nosini tushunish bilangina emas, balki uning ezgu amallari va xatti-harakatlari bilan belgilanadi: “ruh baxt-saodati uning substansiyasi (ya’ni inson ma’naviyati – P.D.) mukammalligiga bog‘liq, bunga esa ilm va yaxshi xulq bilan erishish mumkin”³⁶.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari: madaniyat, dunyoviy fanlar va islom aqidashunosligining taraqqiyoti, yunon, rum, fors, hind va boshqa madaniyatlar yutuqlariga suyanish, astronomiya, matematika, mineralogiya, jug‘rofiya, kimyo va boshqa tabiiy fanlar rivoji, uslubda (metodologiya)- rasionalizm, mantiqning ustunligi, insoniy do’stlik, yuksak axloqiylikning targ‘ib etilishi, falsafaning keng darajada rivoj topishi, adabiyot, she’riyat, ritorikaning (notiqlik) keng rivoji, bilimdonlikning qomusiy xarakterda ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Bu davrdagi ilm-u fan va madaniyatning yirik

³⁶ D.Po‘latova. Markaziy Osiyolik mutafakkirlar ma’naviy merosida diniy va dunyoviy axloqiy qadriyatlar uyg‘unligi. Sharq allomalari yozma merosining ilmiy, falsafiy, ma’naviy tafakkurdagi o‘rni. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent – 2020. 30-b.

o‘choqlari: O‘rta Osiyo (Xorazm, Buxoro, Xirot), Eron, Iroq va Suriya bo‘lgan.

Olimlarning dunyoqarashilari shakllanishida o‘z davrining siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy hayoti katta rol o‘ynagan. Markaziy Osiyoda ilmfanga taraqqiy etishi saroy amaldorlari tomonidan saroylarga ilmli kishilarni taklif qilganliklari, ular faoliyatlarini uchun shart-sharoitlar yaratganliklari davlat siyosatida darajasida ko‘tarilgani bilan ham bog‘liqidir. Shu ma’noda ilm-fanning rifojlanish bosqichida hukmron vakillarning ilm-fan sohasi vakillari va ziyolilarga ko‘rsatgan e’tiborliklari, g‘amxo‘rliklari va homiyliklari alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mustaqillikni qo‘lga kiritgan Somoniylar shajarasining birinchi hukmdorlari milliy madaniy qadriyatlarni barqaror etmasdan turib to‘la davlat mustaqilligiga erishish mumkin emasligini angladilar. Jumladan, ona yurt madhi bu davrda shu darajaga ko‘tariladiki, zardushtiylik eslanmay qoldi. Arab yozuvida badiiy ijodni ta’qiqlamagan holda, somoniylar oddiy xalq anglaydigan tilda yozgan mualliflarni to‘la qo‘llab-quvvatladilar. Somoniylar nafaqat adabiyot ahliga, barcha olimlarga homiylik ko‘rsatib, Sheroz kutubxonasi bilan raqobat darajasida bo‘lgan ulkan kutubxonani asosladir. Ulug‘ alloma ibn Sinoning xotirlashicha, kutubxona ko‘p xonali bo‘lib, xonalarning birida arab kitoblari, she’rlari boshqasiga fiqhga oid kitoblar taxlangan. Shu tartibda har bir xonada fanning ma’lum sohasiga doir kitoblar jamlangan.

Kitob yozishning kuchayishi, hattotlik san’atining, uni bezash, naqshlar bilan ko‘rkam qilish musavvirlik san’atining rivoj topishiga olib kelgan.

Umuman bu davrda qo‘lyozmalarni ko‘chirish, tayyorlash, to‘plash madaniy hayotning muhim sohasiga aylangan. Ma’lumki, asar faqat qo‘lda bir nusxadangina yozilar edi. Bosmaxona esa bir necha asrdan so‘ngina paydo bo‘lgan. Yozilgan asarni nusxasini ko‘paytirish, boshqalarga yetkazish, undan nusxa olish zarur edi. Shuning uchun nusxa ko‘chirish, asarni ko‘paytirishga katta e’tibor berildi. Asta-sekin maxsus nusxa ko‘chirish san’ati va hunari shakllandidi, shu tufayli bir joyda

yozilgan asarlarni boshqa shahar, o‘lkalarida tarqatish imkoni vujudga keldi.

Maxsus nusxa ko‘chirish bilan shug‘ullanuvchilar, husnixat sohiblari paydo bo‘lib, ular buyurtma yoki sotish uchun asarlardan nusxa ko‘chirish bilan shug‘ullanganlar. Kitobdan nusxa ko‘chirish, kitob savdosining keng yo‘lga qo‘yilishi hamda ma’rifat ahlini tinimsiz faoliyati tufayli Buxoro, Samarcand, Marv, Nishopur, Bag‘dod, Damashq singari shaharlarda katta kutubxonalar vujudga keldi. Bozorlarda kitob rastalari ko‘paydi, kitob savdosi, uni tarqatish bilan shug‘ullanuvchilar faoliyati kengaydi. Markaziy Osiyoga Bag‘dod, Misr, Eron va Ispaniyaning turli shaharlaridan qo‘lyozmalar keltirilib, yurtdoshlarimizning qo‘lyozma asarlari boshqa o‘lkalarga olib ketiladigan bo‘ldi³⁷.

Xorazmda hukmronlik qilgan Saljuqiy Malikshohning dono vaziri, fan homiysi Nizomulmulk Abu Homid G‘azzoliy va Maximud az-Zamaxshariy kabi olimlarni qo‘llab-quvvatlagan. U Bag‘dodda rasadxona ishini rivojlanтирib, mashhur falakshunos olimlarni tuplaydi. Nizomulmulk tashabbusi bilan Buxoro, Xiro, Nishopur, Samarcand, Bag‘dod kabi shaharlarda “Nizomiya” nomidagi madrasalar ochilgan. Ushbu davr ilm-fan taraqqiyotining e’tiborli tomoni shundaki, ko‘pgina olimlar o‘z sohalarida yangiliklarga asos soladilar. Masalan, birinchi bo‘lib, Umar Xayyom taqvimiga tuzatish kiritadi. Ayniqsa, bu davr arab va fors adabiyotining taraqqiyot davri bo‘lgan. Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jabhalarda ko‘plab o‘zgarishlar falsafa, tabiiy-ilmiy bilimlar rivojida muhim ob’ektiv va sub’ektiv shart-sharoitlarni vujudga keltirgan. O‘z navbatida Markaziy Osiyo diyorida ham ilm-fan ravnaqi uchun qulay imkoniyatlar yaratilgan.

Bu davrdan so‘ng X asrning oxiri XI asrning boshlarida Xorazmda ilm-fan, madaniyat va san’at kuchli rivojlanadi. Bunda Xorazmshohlarning avlodlaridan bo‘lgan shoh Ma’mun boshchiligidida Markaziy Osiyoda birinchi akademiya Ma’mun akademiyasi tashkil topib unga Abu Rayhon Beruniy boshchilik qiladi. Bu akademiyaga shu davrning buyuk olimlari, xususan, Abu Ali Ibn Sino ham jalg qilinadi, natijada mintaqada ilm-fan taraqqiyoti jadal suratlarda rivojlanadi.

³⁷Hayrullayev M., O’rta Osiyoda ilk Uyg‘onish davri madaniyati, T., 1994., 33-b.

Misol tariqasida Markaziy Osiyo madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan zamin Xorazm zamini haqida mashhur olimlarning so'zлари mavjud.

Mashhur kotib, shoir va adib Rashididdin al-Vatvot Xorazm o'lkasi tinch va osoyishta o'lkaligini, shuning uchun ham o'zga yurtlardan Xorazm o'lkasiga ko'chib keluvchilar ko'p bo'lganligini, ko'chib kelganlar orasida mashhur adib va shoirlar, olimlar borligini o'z maktublarida ta'kidlab o'tadi. Kotibning maktublari orqali o'sha davrda Xorazmda yashagan turli olimlar orasida ilmiy bahslar va ilmiy uchrashuvlar ko'p o'tganligini bilishimiz mumkin.

Rashididdin al-Vatvotning "Ar-Raso'il" kitobida shunday jumlalar mavjud: "Xorazm har doim olim va donishmandlarning sayohat qiladigan joyi bo'lgan"³⁸.

Ko'plab allomalar o'zlarining boy ilmiy merosi hisoblangan turli sohalarga bag'ishlangan yuzlab asarlari bilan Xorazmning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida o'chmas iz qoldirib, ilm-fan taraqqiyotiga katta ulush qo'shganliklarini e'tirof etish o'rnlidir.

Markaziy Osiyoda Uyg'onish davri madaniyatining belgilari quyidagicha:

- dunyoviy ilmlarga intilish, din va diniy bilimlarni jamiyat, insonlar manfaati nuqtai nazaridan talqin etish;
- turli xalqlarning ma'naviy-madaniy merosi o'tmish madaniy qadriyatlaridan (arab, eron, yunon madaniyati boyliklari) foydalanish;
- tabiatni, mavjud hayotni, mavjudotni o'rghanishga qiziqishning kuchayishi, uning sirlarini ochishga va undan foydalanishga intilishning ortib borishi, shu munosabat bilan tabiatshunoslik ilmlarining rivojlanishi;
- bilishda aqlni mezon deb bilish, aqliy bilish, ratsionalistik usul, ilmiylik rolining oshib borishi;
- insonga muhabbat, uning ahloqiy, aqliy xislatlarini, qobiliyatlarini o'rghanish va fazilatlarini ochib berishga intilish, mantiq ilmiga katta

³⁸ To'rayev L.A. "Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosida "Rabi' al-abror" asari muhim manba sifatida". PhD dissertatsiyasi. T.: 2022. 20 bet.

e'tibor berish, komil insonni tarbiyalash, yetuk fozil jamoa haqidagi fikrlarni asoslab berish;

• diniy tasavvur, diniy ta'limotlar rivojida diniy-ahloqiy mavzuning ustunligi, inson xulqi, manfaatlarining diniy g'oyalarda yetakchi mavzuga aylanishi, ichki ma'naviy kamolot, Allohga sub'ektiv ichki mukammallahuv, ma'naviy-ruhiy ko'tarilish, yuksalish yordamida erishuv va uning sifatlariga tuyassar bo'lishga qaratilgan faoliyat;

• og'zaki va yozma so'zga katta e'tibor, uning ijtimoiy-axloqiy qudratini kuylash, ta'riflash, she'riyat, filologiya, badiiy madaniyatning yuksak rivoji, so'z san'ati, ritorika bilan shug'ullanish madaniylikning muhim belgisiga aylanib qolishi.

2. Temur va temuriylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy taraqqiyoti.

Birinchi Renessans — Sharq Uyg'onish davri — IX-XII asrlarda O'rta Osiyo mintaqasida yuz bergen "Musulmon Renessansi" hisoblanadi. Bu haqida o'tgan mavzuda batafsil tuxtagan edi.

Ikkinci Renessans — Sharq Uyg'onish davri — XIV-XVI asrlardagi "Temuriylar Renessansi"dir. Bunda Sohibqiron Amir Temur bunyod etgan ulug' va buyuk sultanatning o'rni va ahamiyati yuqori o'rinni egallaydi.

Hozirgi davrda jahonga "hali-hanuz o'z ta'sirini o'tkazayotgan O'rta Osiyo sivilizatsiyasi asoschisi", qolaversa, tarixda ham o'chmas iz qoldirgan buyuk davlat arbobi, muzaffar sarkarda, mohir diplomat, jonkuyar ilm-fan homiysi, buyuk bobokalonimiz Amir Temur asos solgan sultanat o'ziga xos salmoqli o'ringa egadir. "XV asr taqdirini belgilab bergen buyuk siymo" — Sohibqiron va uning vorislari Turkiston, Xuroson, Fors, Ozarbayjon va Arab dunyosida bir yarim asrga yaqin hukm surib, markazlashgan salohiyatli turkiy davlat tashkil etgandi.

Amir Temur asos solgan tamaddun XIV–XVI asrlar Turon tarixining "oltin davri" – Uyg'onish davrining alohida bosqichi "Musulmon – Renessansi" (A.Mets), "Sharq Uyg'onishi" (N.I.Konrad), hozirda "Temuriylar Renessansi" nomlari bilan jahonda e'tirof etildi va tarixga abadiy muhrlandi. Mashhur fransuz olimi Lyusen Keren ta'kidlaganidek,

“Yevropalik ijodkorlar Amir Temurni Sharq Renessansining bunyodkori sifatida qadrlaydilar”³⁹.

XV asrda bugun Sohibqiron Amir Temur bobokalonimiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham sultanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab bergen. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlarning shuhrati dunyoga yoyilgan.

Amir Temurning ilm-fan, ijodlar ahli uchun yaratib bergen shart-sharoiti tufayli, Samarqand dunyoning ma’rifat markazlaridan biriga aylangani natijasida Turkiyaning Bursa shahridan olim Qozizoda Rumiy o‘z ixtiyori bilan Samarqandga keladi. Shu bilan birga Amir Temur Samarqandga olib kelgan olimlar ham bo‘lib, ular orasida tabib Hisomiddin Ibrohimshoh Kermoniy, falakiyotshunos mavlono Ahmad kabilar bo‘lgan.

Yuqorida ta’kidlaganidek, Amir Temurning ilm-fan, ma’rifatga e’tibori, g‘amxo‘rligi tufayli o‘sha davrdagi Temur davlatining poytaxti Samarqand ziyorilarini o‘ziga xos ohangrabodek tortib, yirik madaniy markazga aylangan.

Amir Temur ilm-fan va madaniyat ravnaqiga keng imkoniyatlar yaratgan, din peshvolari, olimlar, san’atshunoslari, yozuvchilar, shoirlarga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan. Bu oliymaqom siyosat natijasida Sharq Uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichiga asos solingan.

XIV asrdagi ulkan va yorqin siymo — Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etib, O‘rta asr dunyosining asl madaniy va ma’naviy markazlaridan biriga aylangan, inson aqli va iste’dodining noyob ijodi bo‘lib, bugungi kunda ham saqlanib qolgan mislsiz me’moriy obidalari bilan yer yuzining sayqali sifatida e’tirof

³⁹ Lyusen Keren. Amir Temur sultanati. – Toshkent, 2018. – B. 86.

etiladigan Samarqand shahrini o‘z sultanatining poytaxtiga aylantirgan atoqli sarkarda va davlat arbobidir.

Amir Temur davrida ilm-fan, madaniyat g‘oyat darajada rivojlandi. O‘rta Osiyoda madrasa ta’limi X asrlarda paydo bo‘lgan, ammo uning haqiqiy mukammal rivoji Amir Temur davriga to‘g‘ri keladi. Ba’zi manbalarda sharqdagi oliy ta’limning asoschisi sifatida ham Amir Temurni ko‘rsatganlar.

Amir Temur davrida ilm-fan, adabiyotning, madaniyatning barq urib rivojlanish sabablari quyidagicha:

Amir Temurning o‘zi o‘qimishli, savodhon va ma’rifatparvar inson bo‘lgan. Shu sababli u ilmli, ziyoli kishilar mehnatini qadrlay bilgan. Amir Temur o‘z ona tilidan tashqari fors va mo‘g‘ul tillarini ham yaxshi bilgan. Amir Temur mamlakati taraqqiyotida, xalqning madaniyat va ma’naviy kamolotida ilm-fan va ma’rifatning ahamiyatini qadrlaydi. Shu bois ulug‘ amir o‘z yurtida bo‘lsin, harbiy yurishlar qilib borgan mamlakatlarida bo‘lmisin, ularning millati, irqidan qat’iy nazar, kasbhunar egalari, ustalar, me’morlar, olimu-fuzalolar, adabiyot va san’at arboblarini juda-juda qadrlar, ular bilan doimo maslahatlashar, ularning fikr va xulosalariga doimo quloq solar edi. Ma’naviy madaniy xodimlarining ishslash, yashash va ijod qilishlari uchun barcha shart sharoitlarni yaratib beradi. Shu o‘rinda “Temur tuzuklar”dan quyidagi iqtboslarni misol sifatida ko‘rsatish mumkin: Yettinchi tuzuk - sayyidlar, ulamo, mashoyix, oqilu donolar, muhaddislar, tarixchilarni sara, e’tiborli odamlar hisoblab, izzatu hurmatlarini joyiga qo‘ydim⁴⁰. Amir Temur tuzuklarida sakkizinchи toifa-hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarni, ular sultanat korxonasiga rivoj beruvchilar, ekanligini, shu maqsadda, ularni o‘z atrofimiga to‘plaganligi ta’kidlagan.

Ko‘plab tarixchi olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XVI asrlarda bamisol po‘rtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Sharq Uyg‘onish davri — Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

⁴⁰ Temur tuzuklari. T. – O‘zbekiston 2013. 76 bet.

Mashhur fransuz temurshunosi L.Keren ta'kidlaganidek: "Amir Temur insoniyat rivojiga ajoyib miniyaturlar, tengi yo'q sirlangan sopol idishlar, she'riyat va ilhomga to'la falsafiy asarlar yaratilishiga imkon yaratgan o'zining ulug'vor davri bilan ulkan hissa qo'shgan. Sohibqiron bobomiz "Temuriylar Uyg'onish davri" deb atalmish sermahsul madaniy merosga asos solgan"⁴¹.

Sharofuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida Amir Temurning mamlakatdaadolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqarolarning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishlarni kuchaytirish, davlatimizni rivojida ilm fan, din peshvolarining maslahatini inobatga olganini ta'kidlab o'tilgan.

Turg'un Fayziyev "Temuriylar shajarası" nomli asarida Amir Temurning ixlos, e'tiqodi haqida jumladan quydagilarni keltirib o'tgan: "Amir Muhammad Tarag'ay avvalo komil musulmon va bahodir jangchi bo'lган. Shuningdek, ulamo fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi edi".

Yuqordan sanab o'tilgan omillar, o'ziga xosliklar o'sha davrda temuriylar davlatining katta madaniy markazga aylanishida hamda u madaniyat jahon madaniyati rivojiga ham katta hissa qo'shganligiga sabab boladi.

3. IX-XII asrlar va Temuriylar davrida Markaziy Osiyo me'morchligi.

IX-XII asrlarga kelib, Markaziy Osiyo me'morlik san'ati yangi bosqichga ko'tarildi. Markaziy Osiyoning ko'pgina me'morlik yodgorliklari islom dini xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qurila boshlangan bo'lsa-da, o'zida islom dinigacha bo'lган xususiyatlarni ham saqlab qolgan. Qurilish (me'morlik) san'ati ancha takomillashgan. Ayniqsa, pishiq g'ishtdan keng ko'lamda foydalanish, murakkab kompozitsiyalami yaratish, binoning tashqi va ichki ulug'vorligini ta'minlash imkoniyatini bergen. Ravoqli va gumbazli binolami ko'plab qurish yo'lga qo'yilgan.

⁴¹ Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. – Toshkent, 2018. – B. 103.

Pishiq g‘ishtlarni turlichay terish orqali bino devorlarida o‘ziga xos turli bezaklar yaratilgan. Darvozalar, eshiklar, darchalar va taxmonlar ravoqli qilib qurila boshlangan. Masalan, Ismoil Somoni maqbarasi shaklida ustki qismi gumbaz qilib qurilgan.

Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O‘zgan, Marv kabi shaharlarda saroylar, masjidlar, xonaqohlar, madrasalar va minoralar, tim va sardobalar qurilgan. Ayniqsa, naqshinkor mehmonxonalar, ko‘rkam va so‘lim istirohat bog‘lari qurish avj olgan. Bu davrning eng nodir yorgorligi va Markaziy Osiyo me’morligining barcha xususiyatlarini o‘zida saqlab qolgan Ismoil Somoni maqbarasi o‘zining tarovatini hozirgi kunga qadar saqlab qolgan.

IX-X asrlar me’morchiligining yana bir xususiyati shahar markazi shahristonlarning vujudga kelishidir. Ya’ni shahar markazida turli saroylar, maqbaralar, madrasa va masjidlar, yirik bozorlar, karvonsaroylar va savdo rastalarining qurilganligidir.

IX-X asrlarga kelib Samarqand Movarounnahrning eng go‘zal shahriga aylandi. XI-XII asriarda hokimiyat tepasiga Qoraxoniylar va Saljuqiylar keldi Iqtisodiy-madaniy taraqqiyot natijasida shaharlar o‘z qiyofasini o‘zgartirdi. Yirik-yirik inshootlar qurila boshlandi. Ayniqsa, pishiq g‘ishtdan ravoqlar va gumbazlar qurilishi an’anaga aylandi. Buxorodagi Raboti Malik o‘sha davr me’morligi san’atining noyob yodgorligi hisoblandi.

Mazkur davr me’morligining yana bir xususiyati binolarda sirli va rangi koshinlardan foydalanilganligidir. Natijada, maxsus hunarmandchilik korxonalari ochilgan. Qurilishda foydalaniladigan turli maxsus kasblar paydo bo‘lgan. Bu davr me’morligi tarixga “Binokor shoh” nomi bilan kirgan bo‘lib, taraqqiy etishida Muhammad Sulaymon Tegin o‘g‘li Arslonxon katta hissa qo‘shgan.

Muhammad Arslonxon taxt tepasiga kelgach, ko‘plab me’moriy yodgorliklar qurdiradi. Ayniqsa, Buxoro uning davrida me’morchilikning gullab-yashnagan markaziga aylanadi. U Buxoroda ko‘plab madrasalar, maqbaralar, karvonsaroylar qurdiradi. Birgina uning davrida Minorai Kalon, Karmanadagi Mirsaid Bahrom maqbarasi, Buxoro atrofidagi Raboti Malik, Masjidi Magoki, Vobkent minoralari, Surxondaryodagi

Jarqo'rg'on minoralari quriladi. Jarqo'rg'on minorasi 8 qirrali poydevor ustiga yarim aylana shaklida 16 qirrali qilib qurilgan. Uning balandligi 21 metrdan baland.

IX asrdan boshlab arxitekturada g'isht qalab naqsh solish yuksak darajaga ko'tariladi. Masalan, Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasining ham ichki qismi, ham tashqi qismida pishiq g'ishtdan qalama usulida nihoyatda go'zal naqshlar yaratilgan.

Har bir chizilgan naqshda ramziy ma'nolar aks etgan. Masalan, gulsafsar naqshi osoyishtalik va uzoq umr timsoli hisoblangan bo'lsa, pechak islimiyl naqshi-boylik va farovonlik, novda-to'kin-sochinlik, yaproq shaklidagi naqshlar-bahoriy uyg'onish ma'nolarini anglatgan.

Temuriylar davrida me'morchilik.

Amir Temuming go'zallik va ulug'verlikka bo'lган ishtiyogi nihoyatda kuchli bo'lgan. U o'zining bu ishtiyogini hayotida ro'y bergan quvonchli voqealarga atab qurdirgan me'moriy yodgorliklariga singdirtiradi.

Amir Temur tomonidan qurdirilgan me'moriy yodgorliklaming bir qismi jamiyat ma'naviy hayotida muhim o'rinn tutgan diniy e'tiqod maskanlari va u bilan bog'liq bo'lgan binolar: diniy maktablar, madrasalar, maqbaralar hamda masjidlardan iborat bo'lgan. Ikkinchchi bir qismi o'z avlodlari va ma'naviy rahnamolarining nomini abadiylashtirishga mo'ljallangan, uchinchi bir qismi esa yurt obodonchiligi, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beruvchi bog'-rog'lar va inshootlar edi.

Samarqandda dovrug'i olamga yoyilgan bir qator me'moriy yodgorllklar: Ko'ksaroy, Bibixonim masjidi, Shohizinda maqbarasi, Samarqand atrofidagi Bog'i chinor, Bog'i Sahmol, Bog'i Dilkusho, Bog'i Behisht, Bog'i Nav, Bog'i Naqshi Jahonnamo va Davlat Obod saroy bog'larini qurdirdi. Shuningdek, Amir Temur ko'plab yangi yo'llar, Zarafshon (Ko'hak), Amu va Sirdaryolarga ko'priklar qurdiradi. Boshqa shaharlarda ham turli- tuman binolar barpo ettiradi. Masalan, Tabriz shahrida masjid, Sherozda ulkan saroy, Bag'dodda madrasa. Turkiston shahrida hazrati Ahmad Yassaviy maqbaralarini qurdirdi.

Shahrisabz shahri, ayniqsa, Amir Temur davrida gullab-yashnaydi. U o‘zining vatani hisoblangan shaharga e’tibor berdi. 1380-yili Oqsaroyni mashhur xorazmlik ustalarga quzdirdi.

Oqsaroy devorlaridagi turli-tuman ranglarning jilosи, koshinkoriy sujetlar, tarixiy, falsafiy va diniy mavzudagi kufiy-sulsiy yozuvlar, islimiy, geometrik va o‘simliksimon naqshlaming o‘zaro uyg‘unligi binoga ajoyib va sehrli mazmun bag‘ishlagan. Ranglarning oy yorug‘ida jilolanib-oqarib ko‘rinishidan bino “Oqsaroy” nomini olgan.

Shuningdek, Amir Temur Shahrisabzda o‘g‘li Jahongir Mirzoga atab maqbara quzdirdi. Bundan tashqari, Shahrisabzda “Dor us-Siyodat”, “Dor ul-tilovat”, “Gumbazi Sayidon” kabi mashhur me’moriy yodgorliklar, masjid, madrasa, hammom, karvonsaroy, besh gumbazli chorusu binolarini barpo ettirdi.

Amir Temur me’morchilik obidalarini bunyod etishda, eng avvalo, binolarining mahobati va go‘zalligiga alohida e’tibor berdi. O‘zining qudratini o‘zi qudirlagan binolarga singdirishga harakat qildi. Shu boisdan ham u o‘zining ota yurti Shahrisabz (Kesh)da qudirlagan “Oqsaroy” peshtoqiga “Kimki bizning kuch-qudratimizga shubha qilsa, qurgan binolarimizga boqsin”, deb yozdirtirib qo‘ygani ham bejizga emas.

Bu davrda shaharsozlik, me’morlik, tasviriy va amaliy san’at, naqqoshlik, zardo‘zlik, metallga badiiy ishlov berish, xattotlik, ilm-fan va ta’lim-tarbiya, badiiy ijodiyot, kitobat san’ati va kutubxonachilik, musiqashunoslik kabi sohalar nihoyatda rivojlangan. Turonzamin Renessansi ta’siri Xuroson va Hindiston, hattoki Yevropa mamlakatlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Yevropa xalqlari Temuriylar Renessansini teran tahlil qilganliklarini ham e’tirof etish o‘rnlidir.

4. G‘arb renessansi davrida madaniyat: a) fan, b) san’at, v) me’morchilik taraqqiyoti.

G‘arbiy Yevropada madaniyat XII-XIII asrlarga kelib rivojiana boshlagan. Bu davrga kelib, shaharsozlik, hunarmadchilik, me’morchilik, savdo-sotiq va ilm-fanning rivojlanishi, shuningdek, Vizantiya va Arab xalifaligining o‘zaro madaniyatları to‘g‘risidagi yangi bilimlarning paydo bo‘lishi, yevropaliklar madaniyatining rivojlanishiga o‘z ta’sirini

o‘tkazgan. XII asrga kelib Yevropaning markaziy shaharlarida dastlabki oliv maktablar ochila boshlandi. O‘sha davrdagi oliv maktablar, bugungi universitetlar maqomida bo‘lgan. Bunday maktablarning birinchilari sifatida Italiyaning Bolonya shahrida va Fransiyaning Parij shahrinda vujudga kelgan universitetlarni keltirib o‘tish lozim. Shuningdek, Italiyada Neapol, Ispaniyada Sevilya, Valensiya, Fransiyada Tuluza, Angliyada Oksford, Kembridj universitetlari ham dastlabki universitetlardan hisoblanadi. Mazkur universitetlarni paydo bo‘lishi G‘arbiy Yevropada fan taraqqiyotining jadal rivojlanishida katta ta’sir ko‘rsatgan. Mana shunday universitetlardan biri, Angliyadagi Oksford universiteti bir necha yillardan buyon dunyoning top OTMlari reytingida birinchi o‘rinni egallab, o‘z talabalariga xalqaro ta’lim andozalariga mos ravishda bilim berib kelmoqda.

Ilm-fanning turli sohalari uchun mutaxassislar aynan universitetlarda tayyorlangan. Universitetlarni o‘sha paytda magistr-o‘qituvchilar boshqargan. Universitetda o‘qiydigan omadli talabalar bugungi kundagi talabalar yotoqxonalariga o‘xshaydigan kollegiyalarga joylashtirilgan. Bunday kollegiyalardan dastlabkilari Parijdagi Sorbon bo‘lgan. Angliya va Fransiya davlatlaridagi kollegiyalar yangi ta’lim muassasalari-kollejlarni tashkil topishiga asos bo‘lgan.

G‘arb renessansi davrida fan rivojida muhim o‘rin tutgan universitetlarda o‘qish faoliyati dekanlar tomonidan, universitet umumiy faoliyati esa, saylangan rektor yoki hukumat tarafidan tayinlangan kansler tomonidan boshqarilgan.

Maktab va universitetlarning ravoji davomida kitobga bo‘lgan qiziqish va unga bo‘lgan talab osha boshlaydi. Aynan kitoblarning XII asrlarga keilb arzonlashuvi shaharlarda alohida ochilgan ustaxonalarda hunarmandalar tomonidan tayyorlanishi jarayoni bilan bog‘liq. XIV asrdan boshlab kitob ishlab chiqarish ancha oson va qulay bo‘ladi, binga sabab, ushbu davrda qog‘oz mahsulotidan keng foydalanish udumga kirgan.

1445-yilda nemis ixtirochisi, Yevropada kitob bosish asoschisi hisoblangan Logann Gutenberg kitob bosish dastgohini ixtiro qiladi, shundan so‘ng kitob keng ravishda ommalasha boshlaydi.

Oksford universiteti professori Rojer Bekon (1214-1298) har qanday fan yutuqlariga ilmiy kuzatishlar, tajribalar, ilmiy izlanishlar orqali erishish mumkin deb ta'kidlaydi. Rojer Bekon optika, fizikia, kimyo fanlari bilan bog'liq tajribalarni o'tkazgan olim sifatida e'tirof etiladi. Rojer Bekon insoniyat uchun suv ustida va ostida yuradigan kema hamda havoda uchadigan apparatlarni qurish imkonini borligi ta'kidlagan. Bu bilan olim insonning aqli ko'p narsalarga qodir ekanligiga e'tibor qaratadi.

Yevropada madaniyatning rivojlanishi u yerdagi me'morchilik, san'at, adabiyot kabi yo'naliislarning rivojlanishi va taraqqiy etishi bilan bog'liq. Yevropada dastlabki binolar, imoratlar, saroylar va qasrlar ham yog'ochdan qurilgan. Uylar ancha zinch holda qurilgan bo'lib, ko'pincha bir-biriga tutashib ketgan. Ko'chalar tor, ayrimlari eniga ikki metr dan ham oshmagan. Qurilish ishlarida toshlardan foydalanish odatga aylangan. Aynan toshlardan dastlabki ibodatxonalar, cherkovlar qurilgan.

Angliya, Polsha mamlakatlarida qulish toshlari bo'limganligi sababli, pishiq g'ishtlar orqali saroylar, qasrlar va ibodatxonalar qurilgan. Me'morchilikda roman uslubi bo'lib, u X asr oxiridan XII asrgacha mavjud bo'lgan feodal davrning birinchi muhim madaniy hodisasi edi. San'atning deyarli barcha turlari, ba'zilari ko'proq, boshqalari kamroq darajada Romanesk uslubi ta'sirida bo'lib, o'rta asrlar Yevropa madaniyati evolyutsiyasining tabiiy bosqichiga aylandi. Bu uslubda qurilgan dastlabki imoratlar Germaniya, Frasiya va Italiya kabi mamlakatlarida bo'lgan.

Roman uslubida qurilgan ibodatxonalarini tashqi tarafdan qal'ani eslatadi. Ularning o'ziga xos tomonlari shundan iboratki, deraza tepasi, ibodatxonaga kiraverish ichki gumbazlar yarim doira shaklidagi ravoq(arka)lar bilan bezatilgan. Bunday uslubda bunyod etilgan Germaniyadagi Laax monastiridagi cherkovini (XI asr) namuna sifatida ko'rsatish mumkin.

O'sha davrning an'analariga ko'ra, ko'rkar va ulug'vor bosh cherkov binosi shahar markazida qurilgan. Bu maydon atrofidagi binolar yengil karkas konstruksiyalariga asoslangan gotika uslubida bunyod etilgan bo'lib, u me'morchilikdagi roman uslubini surib chiqaradi. Bu uslubda qurilgan imoratlar o'zining balandligi bilan farqlanadi.

Salobatli, og‘ir gumbazlar o‘rnini uchli va baland gumbazlar egallaydi. Gotika uslubida qurilgan eng mashhur inshootlar sifatida Parijdagi Bibi Maryam ibodatxonasi, Fransiyadagi Ruan, Reyms va Shartr, Italiyadagi Milan ibodatxonalarini sanab o‘tish mumkin.

Vizantiya va Arab me’morchiligi ham o‘rta asrlar uchun o‘zining ajoyib binolari bilan o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Xususan, vizantiya uslubida qurilgan Avliyo Mark ibodatxonasi (Venetsiya) va Dojlar saroyi o‘z davrida mashhur bo‘lgan. Seviliyadagi masjid, Al-Qasar qasri, Granadadagi Al-Hamro saroylari arab me’morchiligidagi qurilgan binolar sifatida e’tirof etish mumkin.

Yevropadagi haykaltaroshlikning rivojlanishi aynan me’morchilik bilan bog‘liq bo‘lgan. Cherkov va monastir binolari xudo, avliyolar va qirollar haykallari bilan bezatilgan. Bunday haykallarda diniy cherkovlar uchun yasalgan. Bibi Maryam haykallari (Yevropada “Madonna”) eng ko‘p uchraydigan haykallardandir. Unda onaning farzandiga bo‘lgan mehr-muhabbati ifodalangan.

Yevropada tasviriy san’at roman, gotika uslublarida qurilgan ibodatxonalardagi, cherkovlardagi chizilgan rasmlar, bezaklar va derazalar o‘rniga qo‘yiladigan vitrajlar orqali rivojlangan. Roman uslubida bino qilingan ibodatxonalarning devorlari va shiplari diniy mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan suratlar bilan bezatilgan. Gotika uslubida qurilgan cherkovlarning derazalari o‘rniga atay rasmlar chizish uchun joylar ham ajratilgan. Shuning uchun ham derazalarga odiy oynalarning o‘rniga vitrajlar, ya’ni tiniq, ravshan rangdagi shishalardan yasalgan surat yoki alohida bezaklar solingan.

Yevropa tasviriy san’atida miniatyura (miniatyura fransuzcha-miniature, lotincha minimum-qizil bo‘yoq – kichik hajmdagi tasviriy san’at asari) yo‘nalishiga asos solingan bo‘lib, miniatyuralarda o‘rta asr kishilari turmush-tarzi manzaralari ifodalangan. O‘scha davrdagi hunarmandlar, dehqonlar, jangchilar va boshqalarning mehnat jarayonlari, jang tasvirlari va boshqa mehnat faoliyatları aynan miniatyuralar va vitrallarda o‘z aksini topgan.

Nazorat uchun savollar.

1. G‘arbda “Nur Sharqdan taraladi” degan iborani sharhlab bering!
2. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining qanday o‘ziga xos xususiyatlarini bilasiz?
3. Nima uchun XIV–XVI asrlar Turon tarixining “oltin davri” deb hisoblangan?
4. Markaziy Osiyo mintaqasida me’morchilik san’ati qanday xususiyatlar va belgilar bilan farqlanadi?
5. Yevropadagi roman va gotika uslublari haqida nimalarni bilasiz, ularning farqli jihatlari nimada?
6. XV asrda g‘arbda tasviriy san’at va me’morchilik sohalarida qanday o‘zgarishlar amalga oshirildi?

MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI

1. Moddiy va ma’naviy madaniyat, ularning o‘zaro aloqadorligi.
2. Sharq va G‘arb madaniyati, ularning o‘ziga xosligi va aloqadorligi.
3. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida ma’naviyatga berilgan ta’riflar va ularning metodologik mohiyati.
4. Ma’naviy ehtiyojlar, ma’naviy ishlab chiqarish, ma’naviy munosabatlar, ularning aloqadorligi.
5. Ma’naviy o‘zlikni anglash milliy o‘zlikni anglashning asosi.
6. Axloqiy madaniyat ma’naviy madaniyatning o‘zagi sifatida.
7. Axloqiy madaniyatning xususiyatlari, tamoyillari va funksiyalari.
8. Zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotiga tahdidlarning etikaviy xarakteri.
9. Sharqda “komil inson” tushunchasining shakllanishi va uning talqini.
10. Din bashariyat ma’naviy madaniyatning muhim elementi.
11. Madaniyat rivojlanishining qonunlari.
12. Madaniy taraqqiyot va vorislik dialektikasi.
13. Ekologik madaniyatning mohiyati va jamiyat rivojidagi ahamiyati.
14. Ma’rifat ma’naviy madaniyatning elementi sifatida.
15. Shaxs, oila, jamiyat madaniyati va ularning o‘zaro aloqadorligi.
16. Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarining falsafiy tahlili.

17. Jahon xalqlari madaniyatidagi o‘ziga xoslik va umumiylilik. Sharq va G‘arb madaniyatlari muloqoti.
18. Madaniyat rivojlanishini boshqarish va uning xususiyatlari.
19. XXI asr madaniyati — xususiyatlari, muammolari va istiqbollari.
20. Globallashuv sharoitida ma’naviyatga tahdid va u=ni →bar→taraf etish yo’llari.
21. Ma’naviy madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo’llari.
22. Teleko‘rsatuvlarning spesifikasi, ularning ma’naviy qadriyatlarni tar=qa-tishdagi o‘rni.
23. Zamonaviy axborot tizimidan foydalanish madaniyati.
24. Shaxsning ma’naviy madaniyatini shakllantirishda oila-mahalla-jamiyat tizimining o‘zaro aloqadorligi.
25. Tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiya shaxs axloqiy madaniyatini shakllantirishning muhim omili sifatida.
26. Yoshlarda “ommaviy madaniyat” va turli ichki, tashqi tahidlarga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirishda Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan olim va mutafakkirlarning ma’naviy merosini o‘rganishning o‘rni va ahamiyati.

Mustaqil ta’lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish va ulardan konspekt olish;
- mavzular bo‘yicha referat va esse tayyorlash;
- seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish;
- ilmiy maqola va tezislarni tayyorlash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;
- o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar.

Madaniyat falsafasi va aksiologya fanidan test savollari

№1

“Madaniyat” atamasini lug‘aviy ma’nosi nima?

Tarixiy voqealar

Qayta ishlov berish, o‘zgartirish

Inson yaratgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar

Shaharlik, shaharlikka xos

№2

Madaniyatning ikki yirik sohasi bu...

Progressiv va reaksiyon

Diniy va dunyoviylik

Moddiy va ma’naviy

Milliy va ma’naviy

№3

Madaniy qadryatlarning asosini nima tashkil etadi?

Madaniy meros

Tarixiy tajriba

Ilmiy bilimlar

Ma’naviy meros

№4

Milliy madaniy taraqqiyot bu ...

Pastdan yuqoriga tomon ko‘tariladigan hodisa

Murakkabdan oddiy tomon yo’nalish jarayoni

Evolutsion xarakterdagi uzluksiz jarayon

Oddiydan murakkab tomon yuksalish jarayoni

№5

Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning: “Inson uchun ... dan judo bo‘lishi hayotdan judo bo‘lishi demakdir” fikrning to‘g‘ri variantini toping!

Ma’naviyatdan

Tarixdan

Merosdan

Madaniyatdan

№6

Madaniyatshunoslik fanining predmetini aniqlang:

Jamiyat madaniy taraqqiyot darajasini o‘rganadi.

Insonning madaniy va ma’naviy hayotini o‘rganadi.

Madaniyat rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi.

Insonning madaniy hayotini o‘rganadi.

№7

Madaniyatshunoslikning tadqiqot ob'ektiga nimalar kiradi?

Til, tarix, urf – odatlar, an'analar

Qadriyatlar

Inson yaratgan san'at. Demografik va etnik jarayonlar

Bilim, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoy tashkilotlar

№8

Mintaqaviy madaniy qadriyatlarning mohiyati nimada ?

Ma'lum bir hududga tegishliligida

Umuminsoniy qadriyatlarga zamin bo'lishida

Millatlar aro munosabatlarni mustahkamlashida

Qadimiy qadriyatlarni mustahkamlashda

№9

Sof madaniy qadriyatlар bu ...

Fan – texnika yutuqlari, mehnat qurollari

Tarixiy obidalar, yodgorliklar, san'at asarlari

Qo'lyozmalar, texnologiyalar, an'analar

Bilimlar, g'oyalar, din, urf — odatlar

№10

«Madaniyat» ning asosiy turlarini belgilang?

ijtimoiy va iqtisodiy

moddiy va ma'naviy

tarixiy va nazariy

siyosiy va huquqiy

№11

Moddiy madaniyat nima?

bilimlar majmuasi

ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va moddiy xayot uchun xizmat qiladigan boyliklar

ilmiy va mafkuraviy bilish

g'oyalar

№12

Ma'naviy madaniyat nima?

moddiy boyliklar

ma'naviy boyliklar yaratish jarayonidagi kishilarning ongli faoliyati arxitektura yodgorliklari

bayramlar

№13

Madaniyatshunoslik fanining predmeti nima?
iqtisodiyot qonuniylatlari xaqidagi fan
tafakkur shakllari xaqidagi ta’limot
madaniyatning kelib chiqishi, umumiy rivojlanish tarixi va
qonuniylatlari xaqidagi fan
tarixiy rivojlanish qonuniylatlari xaqidagi ta’limot

№14

Madaniyatshunoslik fanining vazifalarini aniqlab bering?
falsafaning asosiy masalasini o‘rgatish
xozirgi davr mafkurasini shakllantirish
madaniyat tarixi va nazariyasini o‘rgatish, madaniyatli insonni
yetishtirish
tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini yoritib beradi

№15

«Madaniyatshunoslik» fani ko ‘proq qaysi fanlar bilan bog‘liq?
pedagogika, iqtisodiy nazariya
lotin tili, psixologiya, ingliz tili
falsafa, etika, estetika, arxeologiya, tarix
dinshunoslik, siyosatshunoslik, rus tili

№16

«Antik davr» madaniyati qanday xususiyatga ega?
davlat boshqaruv jarayoniga bog‘liq bo‘lgan
amaliy bilimlar natijasidir
diniy dunyoqarash bilan bog‘liq bo‘lgan
antik davrda madaniyat rivojlanmagan

№17

Antik davrda insonlarning amaliy bilimlari nimalarda aks etgan?
shiorlarda
madxiyalarda
xalq og‘zaki ijodi va urf-odatlarda
asar va romanlarda

№18

Antiq davr san’atining vujudga kelishidagi asosiy omil nima?
yozuv
Tafakkur
g‘oya
insonning mehnat faoliyati

№19

Antik davr yozuvini belgilang?

forsiy yozuv

lotin alifbosi

piktografiya

kirill alifbosi

№20

"Prometey", "Gerakl", "Argonavtlar" kabi afsonalar qaysi xalqqa tegili?

Qadimgi Shumerliklarga

Qadimgi Mirsliklarga

Qadimgi Yunonlarga

Qadimgi Rimliklarga

№21

Uyg'onish davri madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?

o'rta asrlar davri madaniyatini davom ettirdi

antiq davr madaniyatini davom ettirdi

tabiatni, insonni o'rganish kuchaydi

dinni o'rganish kuchaydi

№22

G'arb mamlakatlarining uyg'onish davri madaniyati qaysi yo'nalishda shakllangan?

gumanitar fanlar shakllangan gumanitar fanlar shakllangan

risarlar madaniyati rivojlangan

tabiiy-ilmiy va gumanistik yo'l shakllangan

gumanitar fanlar shakllangan

№23

Notiqlik san'ati qadimda qaysi mamlakatda rivojlangan?

Yunoniston

Hindiston

Rim

Misr

№24

Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati to'g'risidagi yozma manba qaysi?

Qadimgi Misr manbalari

Qadimgi Yunon, Eron va Xitoy manbalari

Qadimgi Xindiston manbalari

Qadimgi Rus manbalari

№25

Qadimgi So‘g‘d va Baqtriya madaniyati to‘g‘risidagi dastlabki ma‘lumotlar kimlarning asarlarida o‘z ifodasini topgan?

Arastu, Aflatun, Suqrot

Umar Xayyom, Ulug‘bek

Gerodot, Strobon, Fukidid

Forobiy, Ibn Sino, Beruniy

№26

Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari dinining muqaddas kitobi qaysi?

Qur’on

Tavrot

Avesto

Injil

№27

Jamiyatning mahsuli, ijtimoiy hayotning eng muhim jahbalaridan biri bu...

Ma’rifat

Madaniyat

Ilm

Ma’naviyat

№28

Axloqiy, milliy, mintiqaviy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro aloqasini kuchaytiruvchi funksiya

Gumanistik funksiyasi

Kommunikativ funksiyasi

Integratsiya funksiyasi

Evristik funksiyasi

№29

Ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, umumiylar qadriyatlari asosida dunyo xalqlarini birlashtirishga, o‘zaro yaqinlashishga xizmat qiluvchi funksiya

Kommunikativ funksiyasi

Integratsiv funksiyasi

Gumanistik funksiyasi

Evristik funksiyasi

№30

“Baxt saodatga erishuv haqida” risola muallifi kim?

Imom al-Buxoriy

Taftazoniy

Abu Nasr Farobi
Mahmud az-Zamaxshariy

№31

Jamiyatning ma'naviy qiyofasi ijtimoiy taraqqiyotga qanday ta'sir ko'rsatadi?

ilmiy-texnik, texnologik jarayonlarning yangilanishiga olib keladi
inqilobiy tarzda tub o'zgarishlarga olib keladi
iqtisodiy isloxitlarni tez rivojlantiradi
jamiyat hayoti taraqqiyotini tezlashtiradi

№32

Huquqiy madaniyat deganda nimani tushunasiz?

Huquq soxasida chiqarilgan adabiyotlarni muntazam o'rganish
natijasida xosil bo'lgan bilimlarni

Muayyan jamiyatda mavjud huquq normalariga qonun-qoidalariga,
tartibga bo'lgan munosabat va unga amal qilinishi

Umumjaxon huquq normalarini mufassal o'rganish va unga o'z hayot
tajribasida amal qilishni

Jamiyat a'zolarining huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat
qiladigan barcha qonun qoidalar va unga tegishli bo'lgan adabiyotlarni
o'zlashtirilishini

№33

O'zbekiston madaniyatining dolzarb muammolari qaysi?

sof o'zbekona madaniyatni yaratish

Chet el madaniyatidan ijobiy o'zlashtirish asosida milliy istiqlol
madaniyatini shakllantirish

O'tmish madaniy merosimizga suyangan holda mustaqillikka xizmat
qiluvchi milliy madaniyatni vujudga keltirish

yangi bozor iqtisodiyoti madaniyati elementlarini shakllantirish

№34

Ma'rifat nima?

madaniyat

ma'naviyat elementi

mavxum tushuncha

ezgulik

№35

Ma'naviyatni qanday elementlari mavjud?

estetik, axloqiy, falsafiy

falsafiy, diniy, estetik.

siyosiy, huquqiy, axloqiy, falsafiy, diniy, estetik

siyosiy, huquqiy, axloqiy.

№36

Ma ’naviy muloqot nima?

siyosiy, madaniy, axloqiy, ilmiy, badiiy, huquqiy bilimlar tizimi kishilarni musiqaga oid bilimlarini bir-biriga yetkazishi kishilarning badiiy ijodga oid bilimlarini bir-biriga yetkazishi g‘oyalar kurashi

№37

Ma ’naviy ishlab chiqarish nima?

ijtimoiy ongda ijtimoiy borliq va jamiyatni aks etishi kishilarning tabiat va jamiyatning bilishidagi faoliyati, olam xaqidagi bilimlar, g‘oyalar va nazariyalar tizimi

moddiy nematlar ishlab chiqarishning asosi

kishilarning individual ongida tabiat va ijtimoiy borliqni aks etishi

№38

Jamiyatni ma ’naviy hayotini nima tashkil qiladi?

ijtimoiy ong shakllari

ijtimoiy munosabatlar

ijtimoiy ong, ma’naviy ishlab chiqarish, ma’naviy munosabatlar milliy madaniy meros

№39

Islom dini Markaziy Osiyoga qaysi mamlakatdan kirib kelgan?

Eron

Arabiston

Rum

Misr

№40

Axloqiy madaniyatning uzviy qismi, unsuri

talabchanlik

yaxshilik

muomala odobi

rostgo‘ylik

№41

Shaxs axloqiy madaniyat tarkibi

xulq madaniyati

Axloqiy tafakkur madaniyati

Shaxs madaniyati

Tuyg‘ular madaniyati

№42

Axloqiy madaniyatning asosiy tamoyillari

Ziyolilik, insoniylik

Namunaviylik, ziyolilik

Ziyolilik, insoniylik

Namunaviylik, ziyolilik, insoniylik, tarbiyaviylik

№43

Madaniyatning sub'eklarini ko'rsating!

Inson va jamiyat

Shaxs va davlat

Inson va tabiat

Shaxs va tabiat

№44

Alohida olingan bir shaxs madaniyati bu...

mintaqaviy madaniyat

individual madaniyat

umuminsoniy madaniyat

ma'lum ijtimoiy tabaqa madaniyati

№45

Madaniyat qanday hodisa?

tabiiy

ijtimoiy

an'anaviy

iqtisodiy

№46

*Ma'lum bir hudud va zamon bilan chegaralanmagan muayyan
jamiyat madaniyati bu?*

ma'lum ijtimoiy tabaqa madaniyati

mintaqaviy madaniyat

umuminsoniy madaniyat

individual madaniyat

№47

Madaniyatshunoslik qanday fanlar jumlasiga kiradi?

gumanitar fanlar

ijtimoiy-gumanitar

ijtimoiy fanlar

tabiiy fanlar

№48

*Shaxsni madaniylashuv jarayoni, shaxs tarafidan, milliy va
umuminsoniy meros, qadriyatlarni o'zlashtirilishi bu...*

Individualizatsiya

Inkulturatsiya

Qadriyat

Sivilizatsiya

№49

Ma'lum shaxs qobiliyatini, iqtidorini, xususiyatini jiddiy takomillashtirish bo'yicha olib boriladigan faoliyati bu...

Inkulturatsiya

Individualizatsiya

Sivilizatsiya

Qadriyat

№50

Avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlar, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda ma'naviy boyliklar majmui bu...

Milliy meros

Ma'rifiy meros

Ma'naviy meros

Madaniy meros

№51

Madaniyat tushunchasi

Gumanitar bilimlar

Jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyat

Insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar

Inson yaratgan san'at sohasi

№52

Qadriyatshunoslik; qadriyatlar haqidagi fan...

Agnostisizm

Abstrakt

Akmeologiya

Aksiologiya

№53

Insonning iztirobli his-tuyg'ulariga urg'u beruvchi ta'limot

Ontogenetika

Sentimentalizm

Materializm

Sinergetika

№54

O‘zgalarning dunyoqarashi, e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, urf-odatlari, an’ana marosimlarini hurmat qilish; ularni kamsitish, tahqirlashga yo‘l qo‘ymaslik

Fatalizm

Tolerantlik

Materializm

Totalitarizm

№55

Baxt-saodatga intilishni inson axloqining mezoni va hayotiy faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida deb talqin etuvchi ta’limot

Evristik

Totalitarizm

Evdemonizm

Fatalizm

№56

Axloqiy muhit nima deb ataladi?

Esxatologiya

Etika

Etosfera

Etatizm

№57

Aksiologiya termini ilmiy muomalaga kim tomonidan kiritilgan?

A.Toynbi va P. Lapi

I.Kant va Gegel

P. Lapi va E. Gartman

L.Feyerbax va E. Gartman

№58

Antpopogen sivilizatsiya asosan nimaga qaratilgan?

Jamiyatning rivojiga

Jamoaviylik va individuallikni uyg‘unlashtirish

Industrial jamiyatga

Taraqqiyotga

№ 59

Kishilik jamiyati uchun ahamiyatga ega bo‘lgan, insoniyatning mavjudligi, o‘tmishi, buguni va kelajagi bilan bog‘liq holda shakllanadigan orzu-umidlar va ideallarni o‘zida aks ettiradigan tushunchani qanday ifodalashimiz mumkin?

tajavuzkorlik me’zoni

umuminsoniy qadriyatlar
ma'naviy qadriyatlar
siyosiy qadriyatlar

№60

Kishilarning ma'naviy olamini boyitadigan, yashashning haqiqiy mezonlarini belgilaydigan tushuncha nima?

axloqiy qadriyatlar
moddiy qadriyatlar
siyosiy qadriyatlar
ma'naviy qadriyatlar

№61

Voqeа-hodisalarga aksilogik yondashuv asosida nima yotadi?

ularning qadri va ijtimoiy ahamiyatini baholash
ularning ahamiyati va foydaliliginibaholash
ularning qadri, foydaliligi va qimmatini baholash
ularning zarurligi va foydaliliginibaholash

№ 62

Qadriyat ob'ektining sub'ektiga ta'sirida nima namoyon bo'ladi?

bahosi va qimmati
foydaliligi va zarurligi
kerakli yoki keraksiz ekani
uning qadri, ahamiyati

№ 63

Qadriyat sifatida qaralayotgan ob'ekt sub'ekt uchun qanday ahamiyatga ega?

siyosiy
ijtimoiy
diniy
madaniy

№64

Qadriyatsifatida qaralayotgan ob'ektga nisbatan sub'ektning bahosi nimani ifodalaydi?

uni anglash darajasini, zarurligini
munosabatini, uni anglash darajasini
munosabatini, uni baholash darajasini
munosabatini, zarurligini

№65

Qadriyat tushunchasining ta'rifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

sub'ekt uchun muayyan ahamiyatga ega bo'lмаган воqelikni ifodalaydigan kategoriya

sub'ekt uchun muayyan tasiri, ijtimoiy ahamiyati va qadrini namoyon qiladigan voqelikni ifodalaydigan kategoriya

mohiyat uchun muayyan ta'sirga ega bo'lган воqelikni ifodalaydigan kategoriya

biror bir tarzda va shaklda zohir bo'ladigan voqelikni ifodalaydigan kategoriya

№66

Sub'ektiga ko'ra ajratilgan qadriyatlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

moddiy va ma'naviy

etik, estetik, axloqiy, siyosiy, huquqiy

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy

umuminsoniy, milliy, guruh, shaxs

№67

Ijtimoiy ong shakllariga mansubligiga ko'ra ajratilgan qadriyatlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

axloqiy, diniy, estetik, siyosiy, huquqiy,

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy

umuminsoniy, milliy, guruh, shaxs,

moddiy va ma'naviy,

№68

Ijtimoiy hayot sohalariga mansubligiga ko'ra ajratilgan qadriyatlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

moddiy va ma'naviy

etik, estetik, axloqiy, siyosiy, huquqiy

umuminsoniy, milliy, guruh, shaxs

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy

№69

Ishlab chiqarish sohalariga mansubligiga ko'ra ajratilgan qadriyatlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy

umuminsoniy, milliy, guruh, shaxs

etik, estetik, axloqiy, siyosiy, huquqiy

moddiy va ma'naviy

№70

Kishilarning ma'naviy olamini boyitadigan, yashashning haqiqiy mezonlarini belgilaydigan tushuncha nima?

siyosiy qadriyatlar
moddiy qadriyatlar
ma’naviy qadriyatlar
axloqiy qadriyatlar

№71

Ishlab chiqarish madaniyati, taqsimot madaniyati, ayirboshlash madaniyati, iste’mol madaniyati va boshqaruv madaniyati qaysi madaniyatga kiradi?

Pedagogok mahorat madaniyati
Iqtisodiy madaniyat
Siyosiy madaniyat
Ekologik madaniyat

№72

Ideal qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllarining ayrimlari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan:

orzu, ideallar, maqsadlar, intilishlar
iqtisodiy farovonlik, demokratiya, ziddiyatlarni bartaraf etish
haqiqat, erkinlik va tenglik, do‘stlik, baxt-saodat
odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy munosabatlar

№73

Inson umriga mazmun baxsh etadigan, yashashga undaydigan, qiyinchiliklarni yengishga chorlaydigan mohiyatni qanday ifodalashimiz mumkin?

ideal qadriyatning mohiyati sifatida
insoniy bag‘rikenglikni unutishga
ozodlik, erkinlik, tinchlik, baxt-saodat bilan bog‘liq o‘zgaruvchan intilishlarni aks ettirishiga nisbatan
odamzotning tabiat ustidan hukmronligini ta’minlashga nisbatan

№ 74

Milliy qadriyatlar qanday omillar ta’sirida shakllanadi?

iqtisodiy shart-sharoitlar
ijtimoiy shart-sharoitlar
tarixiy voqealar
tabiiy shart-sharoitlar, tarixiy voqealar, ijtimoiy shart-sharoitlar

№75

Ideal qadriyatlarning mohiyati nimada? U

kishilarni birlashtirish, yagona maqsad sari yetaklashning birdan-bir omili hisoblanadi

odamzotning tabiat ustidan hukmronligini ta'minlashga ko'maklashadi
odamzotning tabiat ustidan hukmronligini ta'minlashga ko'maklashmaydi
inson umriga mazmun baxsh etadi, yashashga undaydi,
qiyinchiliklarni yengishga chorlaydi

№ 76

Insonning qadri masalasi qaysi jihatlardan o'rganilishi mumkin?

Xitoyda ilk atom sinovi o'tkazildi
boshqalar uchun ahamiyatini inobatga olgan holda
boshqalar uchun ahamiyatini inobatga olmagan holda
jamiyatdagi mavqeい nuqtai nazaridan

№77

Inson qadri nimalarda ko'rinishi?

O'z qadrini anglashida
Boshqalar uchun ahamiyatini inobatga olgan holatda

Ijtimoiy faoliyati, boshqalarga va atrof-muhitga munosabati, xattiharakatlarining mazmunida, ijtimoiy xususiyatlarni o'zlashtiriganligi va ularni ma'naviy qiyofasida namoyon qila olishida

Odamlar o'rtasidagi ijobiy ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar

№78

Aksiologya nuqtai nazaridan inson umri bu

jismoniy barkamollikka intilish davridir

qadriyatlarning uzluksiz o'zgarish jarayonidir

oila, jamoa va jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq qadriyatlarning kamol topish jarayondir

o'zgalar, jamiyat va unda sodir bo'layotgan o'zgarishlar qadrini anglash, o'z qadrini kamolga yetkazish, shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirishga intilish jarayonidir

№79

O'zgalar, jamiyat va unda sodir bo'layotgan o'zgarishlar qadrini anglash, o'z qadrini kamolga yetkazish, shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirishga intilish jarayonini qanday nuqtai nazar deb olishimiz mumkin?

ontologik
gnoseologik
aksiologik
faziologik

№80

Shaxsiy qadriyatlar tizimida qanday qadriyatlarni ajratish mumkin?
mehnat va moddiy hayot bilan bog‘liq bo‘lмаган qadriyatlar
qadriyatlarning uzlusiz o‘zgarish jarayoni
tabiiy-tarixiy, ma’naviy-axloqiy va estetik, “gedonistik”
shaxsning individual kamoloti, qobiliyati, iste’dodi va ijtimoiy
mavqeい bilan bog‘liq bo‘lмаган

№81

Qadrsizlanish quyidagi ma’nolardan qay biriga to‘g‘ri keladi?
muayyan qadriyatlarga ehtiyoj mavjudligi
yangi qadriyatlarning paydo bo‘lмаганлиги
muayyan qadriyatlarning o‘z umrini yashab bo‘лганлиги
xushomadgo‘ylik, ezmalik, manqurtlik

№82

*Qadrsizlanishi hamma vaqt ham qadriyatning o‘z ahamiyatini
butunlay yo‘qotganini anglatmaydi. Bu nimada ko‘rinadi?*
qadriyatning qadri mutlaqlashtiriladi
qadriyatning mazmuni o‘zgaradi
yangi qadriyat paydo bo‘ladi
qadrsizlanish ochiq namoyon bo‘lmaydi

№83

*Qadrsizlanish jarayonining ilk bosqichi qaysi qatorda to‘g‘ri
ko‘rsatilgan?*
milliy qadriyatlarning ortib borishi
yangi qadriyatning paydo bo‘lishi
qadriyat mo‘ljallarining buzilishi
qadriyatlarning o‘z umrini yashab bo‘lishi

№84

Qadrlash me‘yorining buzilishi nimalarda namoyon bo‘ladi?
qadriyat qadrining mutlaqlashtirmaslikda
qadriyat qadrining mutlaqo e’tiborga olishda
qadriyat qadrini yaxshi anglamaslik, bilmaslik, tushunmaslikda
qadriyat qadrini yaxshi anglashlik,

№ 85

*Qadriyatlar tabiatini naturalistik talqin qilish an’anasini kim
boshlab bergen?*

S.Huntington

R.Kaplan

Demokrit

Arastu

№86

Kim qadriyatlarning mohiyatini g‘oyalar olamida deb biladi?

Arastu

R.Kaplan

Aflotun

S.Huntington

№87

Aflotun g‘oyalar piramidasi cho ‘qqisida nima turadi?

ishonch

mehnat

baxt-saodat

ezgulik

№88

Qadriyatlarning relyavistik konsepsiyasiga kim asos solgan

R.Kaplan

S.Huntington

Protagor

Arastu

№89

Relyavistik konsepsiyaga muvofiq qadriyatlar bahosi nimaga bog‘liq?

millatga

insonga

davrga

tarixga

№ 90

Qachon borliq va qadriyat tushunchalari ajratidi?

XX asrda

XIX asr boshlarida

XIX asr o‘rtalarida

XIX asr oxirlarida

№91

“Qadriyat subyekt va obyektdan tashqarida joylashgan butunlay mustaqil sultanatni tashkil etadi” — deb kim fikr bildirgan?

A.Toynbi

I.Kant

L.Feyerbax

G.Rikkert

№92

Qadriyatlar umumiylig darajasiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi
guruhiy, individual
obyektiv, individual
umuminsoniy, ijtimoiy
individual, guruhiy, umuminsoniy

№93

“O‘zingga ravo ko‘rmaganni o‘zgalarga ravo ko‘rma” qaysi ta’limot tamoyili hisoblanadi?

buddaviylik
daosizm
konfutsiychilik
braxmanlik

№94

Qadimgi Yunonistonda qadriyatlar muammosini kim birinchi bo‘lib ko‘targan?

Arastu
Suqrot
Aflatun
Demokrit

№95

XX asrning boshida kim qadriyatlar nazariyasini ifodalash uchun aksiologiya atamasini muomalaga kiritgan?

Germen Kogen
Geynrix Rikkert
P.Lapi
Rudolf Lotsiy

№96

Qadriyat tushunchasiga kim ilk bor falsafiy ta’rif bergan ?

Rudolf Lotsiy va Vilgelm Vendelband

Vilgelm Vendelband

Rudolf Lotsiy va German Kogen

Genrix Rikkert

№97

Aksiologiya qanday fan?

an’analarni o‘rganuvchi fan

urf — odatlarni o‘rganuvchi fan

falsafaning qadriyatlarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi alohida sohasi

marosimlarni o‘rganuvchi fan

№98

Qadriyat -?

ijtimoiy in’ikosning oily shaklidir
borliqning rang — barang elementlarining ob’ektiv ahamiyati bo‘lib,
ularning mazmuni jamiyat sube’ktlarining ehtiyojlari va manfaatlari bilan
belgilanadi.

inson uchun urfga aylangan tushunchalalr yig‘indisi

kishilar uchun o‘tmishdan uchun bosib o‘tilgan davrning eng muhim
xususiyatlari

№99

Baholash nima?

ob’ektni o‘z hayoti va faoliyati uchun xodisalarni va ahamiyatini
aniqlash

biror bir hodisani tushuntirish

sub’ektnig o‘z faoliyati va hayoti uchun hodisalarni ijtimoiy
ahamayatini aniqlash

ma’lum bir xodisani tushunish

№100

*Qadriyat ahamiyatiga molik bo‘lgan tabiiy ob’ektlar va predmetlar
ya’ni mehnat vositalari va bevosita iste’mol buyumlari bu-...*

ijtimoiy — siyosiy qadriyatlarga ta’lluqli

diniy qadriyatlarga tegishli

moddiy qadriyatlarga kiradi

ma’naviy qadriyatlarga tegishli

GLOSSARIY

Tushunchaning mazmuni (o'zbek tilida)	Tushuncha rus tilida	Tushuncha ingliz tilida
<p>Abstrakt (lot. abstraction – mavhumlashgan) – voqelikning alohida tomonini yaxlit umumiylidkan ajratib olingan holda yoki umumiyni alohidalikdan ajratilgan holda biryoqlama namoyon bo‘lishi; biryoqlama bilim.</p>	Абстракция	Abstract
<p>An’ana – o‘tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan avlodga o‘tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan moddiy va ma’naviy qadriyat.</p>	Традиция	Tradition
<p>Avesto – zardushtiylik dinining asosiy kitobi; «nasihat-noma», «qonunlar to‘plami», «bilimlar majmuasi» sifatida talqin qilinadigan tarixiy manba. Avesto – Turon, Xuroson, Ozarbayjon, Iroq, Eron, Kichik Osiyo xalqlarining mil.av.gi qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam va odam to‘g‘risidagi tasavvur, urf-odat va ma’naviy qadriyatlari haqida ma’lumot beruvchi asosiy manba. U miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Markaziy Osiyoda yaratilgan qomusiy asar. Unga ko‘ra, hayotning kechishi tabiatda (nur va zulmat), borliqda (hayot va o‘lim), ijtimoiy hayotda (yaxshilik va yomonlik), nafosat olamida (go‘zallik va xunuklik), dinda</p>	Авеста	Avesto

(Ahura Mazda bilan Ahrimanning azaliy va abadiy kelishmasligi) turli kuchlar o‘rtasidagi kurash shakllari sifatida namoyon bo‘ladi.		
Agnostisizm (yunon. agnostos – bilib bo‘lmaydigan) – ob’ektiv borliqni, dunyoni to‘liq bilishi mumkin emas, deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot; unga ko‘ra inson narsalarning mohiyatini bilishga, ular xaqida aniq bilimga ega bo‘lishga qodir emasdir.	Агностицизм	Agnosticism
Adam Metz - 1869 yil 8 aprel, Frayburg, Baden Buyuk Gertsogligi (hozirgi Germaniya) vafoti 1917 yil dekabr, Frayburg, Baden Buyuk Gertsogligi (hozirgi Germaniya) Adam Metz — mashhur shveytsariyalik, sharqshunos, arabshunos, Bazel universitetining Sharq tillari kafedrasi professori. Uning dastlabki qiziqish sohasi huquqshunoslik, keyin esa ilohiyot edi. Atoqli nemis sharqshunosi Teodor Nyoldeke bilan tanishib, sharq mamlakatalari bo‘ylab sayohat qilganidan so‘ng u sharq mamlakatlari madaniyati bilan shug‘ullanishga kirishdi.		
Ayniyat qonuni (lot. lex indentitatis) – formal mantiqning asosiy qonunlaridan bo‘lib, bu qonunga ko‘ra muhokama jarayonida ma’lum predmet to‘g‘risidagi fikr hajm jihatidan barqaror muayyanlikni saqlashi kerak. Bu qonun fikrni aniq ifodalashni talab qiladi.	Закон тождества	Law of identity

Muhokamada har bir tushuncha aynan bir ma'noda ishlatilmog'i lozim. Uning formulasi A=A dir.		
Akmeologiya – (yunon. akme yetuklik, cho'qqi, kamolot, yuksalish, yetuklik, logos – ta'limot, fan) – insonning kasb–hunar (mutaxassislik) jarayonida eng yuksak bosqichlarga yetish muammolarini o'rganuvchi fan. Insonning yetuklik, ijod cho'qqisi, kamolot va mukammallik darajasiga yetgan davri va rivojlanish jarayonini o'rganadi.	Акмеология	Akmeology
Aksioma (yunon. axioma – qabul qilingan holda) – ma'lum nazariyani isbotlash uchun isbotsiz qabul qilingan tushuncha. Mantiq fanida aksioma isbotsiz qabul qilingan haqiqat ma'nosida ishlataladi. U ilmiy nazariyalarning deduktiv xulosalar chiqarish yordamida tashkil topish usullaridan biri. Shuning uchun «deduktiv metod» va aksiomatik metod ko'pincha aynan tushunchalar sifatida ishlataladi.	Аксиома	Axiom
Aksiologiya (yun. «axio» — qadriyat va «logos» — fan, ta'limot) — qadriyatshunoslik; qadriyatlar haqidagi fan. 19-a.ning ikkinchi yarmida, nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan. A. aksiologik ong, qadrlash tuyg'usi, aksiologik bilish, qadriyatli yondashuv va boshqalar asosida to'plangan qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar	Аксиология	Axiologies

tizimsidir. Uni qadriyatlar haqidagi fan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri «Qadriyatshunoslik», deb atash mumkin.		
Aksiologik yondashuv – bu ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar tizimiga yo‘naltirilgan nazariy g‘oyalalar majmui bo‘lib, ularning o‘zagi inson hayoti, erkin ijodiy faoliyat va insoniy muloqotning qadriyatini tushunish va tasdiqlashdan iborat.	Аксиологический подход	Axiological approach
Aksidensiya (lot. accidentia – tasodif) – substansiyaning muhim bo‘lмаган, tasodifiy xususiyatlari; ashyolarning mohiyatli, substansial xususiyatlarini aks ettiruvchi – atributning muqobili.	Аксиденция	accidents
Alisher Navoiy (1441-1501) – Nizomiddin Mir Alisher Navoiy o‘zbek adabiyotining asoschisi, mashhur shoir, olim, yirik mutafakkir, davlat arbobi, ma’naviyatimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shtigan siymo. A.Navoiy tasavvufning naqshbandiylik sulukiga e’tiqod qilib, undagi mehnatsevarlik, poklanish, halollik, imon-e’tiqodli bo‘lish kabi g‘oyalarni yanada rivojlantirdi. Navoiyning fikricha, inson uchun toj-davlat va h.k. emas, balki eng yaxshi fazilatlar ziynatdir. Eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir.	Алишер Навай	Alisher Navoi
Antagonizm (yunon. antagonisma – bahs, kurash) – kelishtirib bo‘lmaydigan ziddiyatlar.	Анtagонизм	Antagonism
Antinomiya (yunon. antinomia) – qonunlar o‘rtasidagi	Антиномия	Antinomy

ziddiyat; har biri qonuniy kuchga ega bo‘lgan ikki tomon o‘rtasidagi ziddiyat.		
Aporiya (yunon. aporia, aynan. – imkoniyatning yo‘qligi) – hal etib bo‘lmaydigan ziddiyatlar.	Апория	aporia
Aprior (lot. apriori – dastlabki) – tajribagacha, tajribadan tashqarida paydo bo‘lgan bilim, tushuncha.	Априор	A priori
Argument (lot. argumentum – isbot asosi) tezisni isbotlash uchun keltiriladigan fikr. Bunday fikrning to‘g‘riligi amaliyotda isbotlangan bo‘lishi kerak.	Аргумент	Argument
Aristotel (Arastu) (mil.av.384-322) – qadimgi Yunonistonda o‘ziga xos falsafiy ta’limot yaratgan buyuk mutafakkir. U fan taraqqiyotining o‘zigacha bo‘lgan barcha yutuqlarini umumlashtirib, fanlarning tasnifini yaratgan. «Nikomax etikasi», «Axloqi kabir» va «Siyosat» asarlarida axloq haqidagi fikrlarni tizimlashtirib unga <i>etika</i> deb nom bergan. Arastu etikasining asosida baxtga intilish g‘oyasi yotadi.	Аристотель	Aristotle
Artefakt (lot. arte – san’at va factus – qilingan) – inson tomonidan sun’iy qilingan, «sivilizatsiya – madaniyat» tizimidagi element.	Артефакт	Artifact
Arxetiplar (yunon. arche – boshlang‘ich va typos – obraz) – formal xarakterga ega bo‘lgan, muayyan madaniy mazmun bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladigan	Архетипи	Archetypes

inson ruhiyatining universal strukturalari.		
Atomizm – olamning asosini eng mayda bo‘linmas zarrachalar, «g‘ishtchalar» tashkil etishi haqidagi Demokrit asos solgan ta’limot.	АТОМИЗМ	Atomism
Atribut (lot. attribuo – beraman) – substansiyaning ajralmas xossasi.	Атрибут	Attribute
Autentik (yunon. authentikos) – haqiqiy, asliga mos keladigan.	Аутентик	Authentic
Axloq – (arabcha, xulq so‘zining ko‘pligi; lot. <i>moralis</i> – qoidaga, xulq–atvorga, urf–odatga taalluqli; axloqli) kishilar orasidagi munosabatlarni muayyan tizimga solishning o‘ziga xos tartib, qoidalari yig‘indisi. Axloq – kishilar orasidagi munosabatlarning barcha tur va ko‘rinishlariga taalluqli bo‘lib, u yoki bu xatti–harakatlar, aloqa va munosabatlar haqida fikr yuritish (ularni ma’qullash yoki qoralash)dir. Axloqiy baholash jamoatchilik fikriga tayanadi. Axloq qotib qolgan qoidalari yig‘indisi emas, u inson va jamiyat hayoti davomida shakllanib, sayqallanib, takomillashib boradigan ijtimoiy jarayondir.	Етика	Ethics
Axloqiy rasionalizm – aql,bilim inson axloqiy faoliyatini yaxshilikka yo‘naltiruvchi asos sifatida e’tirof etiladi.	Етический рационализм	ethical rationalism

<p>Baxt – axloqiy tushuncha bo‘lib, insonning o‘z faoliyati nati-jalaridan, hayotda erishgan yutuqlaridan to‘la qoniqishi, orzu-umidlarining ushalishi, bearmonlik holati sifatida namoyon bo‘ladi. Falsafa tarixida inson hayotining ma’nosini baxtga erishish, deb bilgan ta’limot <i>evdemonizm</i> deb atalgan.</p>		
<p>Baxtga erishish uchun har bir shaxs jamiyatda, oilada o‘z o‘rnini topgan, burch va mas’uliyatini anglagan bo‘lishi; o‘z tafakkuri, faol yaratuvchilik mehnati, ezgu amallarini shaxsiy orzu-umidlarining ushalishigagina yo‘naltirib qolmasdan, balki o‘z taqdirini xalqi, Vatani taqdiri, uning ravnaqi bilan ham uyg‘unlashtirgan bo‘lishi kerak.</p>	<p>Счастье</p>	<p>Happiness</p>
<p>Bag‘rikenglik – o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g‘amxo‘r, saxiy kengfe’lli bo‘lishlikni ifodalovchi axloqiy fazilat.</p>	<p>Толерантность</p>	<p>Tolerance</p>
<p>Belgi – boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlatiladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.</p>	<p>Знак</p>	<p>Sign</p>
<p>Bioetika – hozirgi zamon etikasining muhim yo‘nalishlaridan biri. B. inson hayotini eng oliy etikaviy qadriyat sifatida qaraydi. Shu bilan birga, inson hayotini saqlash muammosini – yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezoni, deb</p>	<p>Биоэтика</p>	<p>Bioethics</p>

<p>hisoblaydi. Hozirgi zamon fanida B. tirik mavjudotlar, shu bilan birga insonga ham bo‘lgan munosabatlarning etika regulativi, deb qaraladi. Insonning tabiat bilan uzlusiz aloqasini ma’naviy tahlil etish asosida tabiatni muhofaza etishda axloqiy javobgarlik B.ning madaniy negizini tashkil etadi. B. ijtimoiy masalalalar bilan birgalikda qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi.</p>		
<p>Biogeotsenoz (yunon. bio – hayot, ge – Yer, koinos – umumiyl) – tarkibini modda va energiya almashinuvni asosida o‘zaro bog‘langan organizm va noorganik omillar tashkil etuvchi murakkab tabiiy tizim.</p>	<p>Биогеоценоз</p>	<p>Biogeocoenosis</p>
<p>Biosfera (yunon. bios – hayot va sphaira – shar) – tirik tabiat; biosferaning tuzilishi va mazmuni barcha tirik organizmlar, shu jumladan insonning o‘tmishdagi va hozirgi davrdagi faoliyati bilan belgilanadi.</p>	<p>Биосфера</p>	<p>Biosphere</p>
<p>Borliq – mavjud barcha narsalarni qamrab oluvchi eng keng falsafiy kategoriya.</p>	<p>Бытие</p>	<p>Being</p>
<p>Butun va bo‘lak – ob’ektiv olamdagi narsa va hodisalarning o‘zaro aloqasi, predmet va ularning elementlari o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatuvchi falsafiy kategoriya.</p>	<p>Селостность и часть</p>	<p>Integrity and part</p>
<p>Deduksiya (lot. deductio – xulosa chiqarish) – keng ma’noda</p>	<p>Дедукция</p>	<p>Deduction</p>

xulosa chiqarishning asosiy usul va tadqiqot metodlaridan biri.		
Deduktiv xulosa chiqarish – umumiy chin asoslardan shu umumiyligka kiruvchi xususiylik va yakkalik haqida yangi bilim hosil qilishga asoslangan xulosa shakli.	Дедуктивное умозаключение	Deductive reasoning
Deizm (lot. deus – xudo) – Xudoning olamni yaratgan birinchi sabab ekanligi, lekin dunyoning keyingi ishlariga aralashmasligini, olam o‘z tabiiy qonuniyatlari asosida rivojlanishini e’tirof etuvchi falsafiy tamoyil.	Деизм	Deism
Demografiya (yunon. demos – xalq va grapho – yozaman) – aholishunoslik yoki aholi, uning strukturasi (yoshi, kasbi; mintaqaviy, etnik xususiyatlari) hamda dinamikasi (tug‘ilish, o‘lish, migratsiya va h.k) haqidagi fan.	Демография	Demography
Demokratiya (yunon. demos – xalq) – xalq irodasini ifoda etish tamoyilini, inson huquqlari va erkinliklarini ijtimoiy hayotning oliy qadriyati sifatida tan oluvchi xalq hokimiyatiga asoslangan siyosiy tuzum.	Демократия	Democracy
Demokrit (taxm. 460-370) – atomistik ta’limotning asosichilaridan; axloqiy g‘oyalalarining asosida inson ruhining osoyishtalikda bo‘lishi, tabiat hodisalarini o‘rganish asosida hayotdan lazzatlanish, tinch va osoyishta umr kechirish, o‘z burchiga sodiq, jasur, shijoatli, aqlii bo‘lishlik,	Демокрит	Democritus

do'stlik, o'rtoqlikni qadrlash kabi fikrlar yotadi.		
Determinizm (lot. determino – aniqlayman) – olamdagibarcha narsa va hodisalarning o'zaro umumiy sababiy aloqadorlikka ega ekanligini e'tirof etuvchi ontologik tamoyil.	Детерминизм	Determinism
Dialektika (yunon. dialektike (techne) suhbat, bahs yuritish san'ati) – tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojining eng umumiy qonunlari haqidagi fan; voqelikni rivojlanishda, qarama-qarshi tomonlarining birligida, yaxlit holda bilish metodi; biror narsa yoki hodisaning xilma-xil shakllari va ziddiyatlarining namoyon bo'lishi orqali rivojlanish jarayoni.	Диалектика	Dialectics
Diskurs (lot. discursus – muhokama) – mantiqan teran asoslangan mulohaza; poststrukturalizm va kommunikativ falsafaning markaziy tushunchalaridan biri.	Дискурс	Discourse
Dixotomiya (yunon. dichotomia, dicha – ikki qismga + tome – bo'lish) – butunni ikki qismga bo'lish.	Дихотомия	Dichotomy
Differensiatsiya – butunning qismlarga ajralishi.	Дифференсияция	Differentiation
Dogma yoki aqida (yunon. dogma – nuqtai nazar, ta'limot, qaror) – hech qanday muhokamalarsiz, isbotlarsiz va muayyan sharoitlarni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qabul qilinuvchi o'zgarmas qoida, aqida.	Догма	Dogma

Dogmatizm yoki aqidaparastlik (yunon. dogma – nuqtai nazar, ta’limot, qaror) – dogma (aqida)larga tayanib tafakkur qilish usuli bo‘lib, bunda nazariy va amaliy muammolar va holatlarni tahlil qilish va baholashda real sharoit, makon va vaqtning xususiyatlari hisobga olinmaydi.	Догматизм	Dogmatism
Donishmandlik – voqelikni nonazariy, dunyoqarash shaklida mushohada etish va boy hayotiy tajriba hamda tafakkurga asoslangan holda muhim amaliy muammolarni hal etish.	Мудрость	Мудрость
Donolik – yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi amal birligi.	Мудрость	Wisdom
Dualizm (lot. dualis – ikkiyoqlama) – olamning asosini ikki: moddiy va ruhiy substansiya tashkil etishini e’tirof etuvchi falsafiy tamoyil.	Дуализм	Dualism
Dunyoqarash – insonning mohiyati, tarixiy kelib chiqishi, dunyodagi o‘rni, o‘zligini anglashga xizmat qiladigan, olam va odam haqidagi bir butun qarashlar, g‘oyalar, baholar, tamoyillar tizimi.	Мировоззрен ия	world view
Evolusiya (lot. evolutio – avj oldirish, rivojlantirish) – rivojlanish jarayonida sekin-asta yuz beradigan miqdoriy o‘zgarishlarning sifatiy o‘zgarishlarga nisbatan ustuvorlik qilishi; inqilobiy o‘zgarishlarga muqobil bo‘lgan tadrijiy rivojlanish usuli	Эволюция	Evolution

Evristikä (yunon. heuricko — topish) – yangilikni izlash qonuniyati bilan shug‘ullanadigan fan sohasi bo‘lib, u yoki bu muhim muammoni hal qilishning qulay tomonlarini izlash bilan shug‘ullanadi	Эвристика	Heuristic
Evdemonizm (yunon.eudaimonia—rohat-farog‘ot, baxt-saodat) – baxt-saodatga intilishni inson axloqining mezoni va hayotiy faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida deb talqin etuvchi ta’limot	Эвдемонизм	eudemonism
Ekzistensializm (lot. exsistentia— mavjud bo‘lmoq) – XX asr boshlarida falsafada shakllangan irrasionalistik yo‘nalishlardan biri; tadqiqot markaziga insonning mavjudligi, erkinlik va o‘limga nisbatan anglanmagan, emotsional-hissiy va rasional munosabatini o‘rganish masalalarini qo‘ygan	Экзистенциализм	Existentialism
Eklektika (yunon. eklektikos—tanlovchi) – bir ta’limot doirasida turli, ba’zan muqobil ta’limotlardan olingan bir-birini istisno etuvchi elementlarni mexanik tarzda birlashtirish	Эклектика	Eclecticism
Element (lot.elementum—boshlang‘ich, ibrido, ashyo) – o‘zaro aloqadorlikda mavjud bo‘lgan butunning bo‘laklarini aks ettiruvchi falsafiy kategoriya	Элемент	Element
Emotsiya (lot. emoveo – hayajonlantiraman) – shaxsning muayyan voqelikka nisbatan o‘z	Эмоция	Emotion

munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoji va qiziqishlari bilan bog‘liq holda qoniqish yoki qoniqmaslik, xursandchilik, qo‘rquv va h.k. shakllarda namoyon bo‘ladigan sub’ektiv reaksiyasi		
Empirizm (yunon. empeiria – tajriba) – barcha bilimlarning manbai va chinligini belgilovchi mezon tajriba deb hisoblovchi gnoseologik yondoshuv	Эмпиризм	Empiricism
Energetizm – idealistik falsafiy konsepsiya, asoschisi nemis faylasufi, fizik va ximik V.F.Ostvald bo‘lgan. Bu ta’limotga ko‘ra, tabiatdagi barcha hodisalar «moddiy asosdan mahrum bo‘lib», energiya ko‘rinishlarining o‘zgarishi bilangina bog‘liq	Энергетизм	energetism
Epistemologiya (yunon. episteme – bilim va logos – so‘z, ta’limot) – bilish nazariyasining tarkibiy qismi bo‘lib, unda ilmiy bilish muammolari o‘rganiladi	Эпистемология	Epistemology
Estetika (yunon. eisthetikos – hissiy idrok, sezgi) – voqelikni hissiy, emotsional o‘zlashtirish; estetik faoliyat qonuniyatlari haqidagi falsafiy fan, nafosatshunoslik	Эстетика	Aesthetics
Etatizm (frans. etat– davlat) – davlatni ijtimoiy rivojlanishning oliy maqsadi va natijasi sifatida e’tirof etuvchi ijtimoiy fikr yo‘nalishi	Этика	Etatism
Etika (yunon.ethos – xulqodat, xarakter) – axloq va uning shaxs hamda jamiyat hayotidagi		Ethics

o‘rnini o‘rganuvchi falsafiy fan; axloq nazariyasi		
Etarli asos qonuni (lot. lex rationis determinantis siue sufficientis) — formal mantiq qonunlaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra har qanday chin fikr isbotlangan bo‘lishi , to‘g‘riliqi isbotlangan boshqa bir fikrga asoslanishi kerak.	Закон достаточного основания	law of sufficient reason
Fakt (lot. factum – bajarilgan, amalga oshirilgan) – ob‘ektiv borliqda mavjud va tadqiqot ob‘ekti bo‘lgan muayyan hodisa, jarayon	Факт	Fact
Falsifikatsiya (lot. falsificatio – qalbakilashtiraman) – empirik inkor etish; ilmiy fikrlarni tajriba orqali inkor etish protsedurasi. Atama K.Popper tomonidan taklif etilgan	Фальсификация	adulteration
Falsafa (yunon. phileo – sevaman va sophia — donolik) — dunyonи tafakkurning borliqqa bo‘lgan munosabati asosida o‘rganuvchi ta’limot bo‘lib, u insonning jamiyatdagi roli, uning dunyoqarashi to‘g‘risida bahs yuritadi. Falsafaning predmetini «inson – olam» tizimidagi o‘zaro aloqadorliklar tashkil etadi	Философия	Philosophy
Fan (arab.ilm, bilim, mahorat) – jamiyat ma’naviy madaniyati ning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, dunyo haqidagi ob‘ektiv bilimlar tizimini, ilm va iqtidor sohibi bo‘lgan olimlarni, ilmiy muassasalarini tashkil etadi. Fan ijtimoiy ehtiyoj natijasida vujudga	Наука	The science

keladi va rivojlanadi; uning bosh maqsadi jamiyat hayoti uchun dolzarb hisoblangan tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivoji qonunlarini ochish va kelajagini bashorat qilishga yo‘naltirilgan		
Faoliyat – insonning o‘zini o‘rab turgan olamga faol munosabati shakli bo‘lib, uning mazmunini maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgartirish va qayta qurish bilan bog‘liq xattiharakatlar tashkil etadi	Деятельность	activity
Fatalizm (lot. fatalis–taqdirga oid) – hamma voqealarning azaldan belgilab qo‘yilganligi to‘g‘risidagi ta’limot	Фатализм	Fatalism
Formallashtirish – ma’lum ob’ektning mazmunini uning shakli orqali ifodalovchi ilmiy bilish metodi	Формализация	formalization
Forobiy Abu Nasr (870-950) – falsafani ikkiga: amaliy va nazariy falsafaga ajratgan; axloqshunoslikni amaliy falsafa doirasiga kiritgan. Forobiy inson baxt-saodatini eng oliy maqsad, ta’lim va tarbiya, axloqiy fazilatlarni esa, unga yetishishga yordam beruvchi vosita sifatida ta’riflagan. Forobiyning axloqshunoslikka oid qarashlari uning “Baxtga erishuv yo‘lini ko‘rsatuvchi kitob”, “Baxtga erishuv haqida”, “Davlat arbobining hikmatlari”, “Fozil odamlar shahri” asarlarida ilgari surilgan	Фараби	Forobi

Garmoniya (yunon.harmonia – hamohanglik, kelishuv, xaosning muqobili) – bir butunlikni tashkil etuvchi narsa va hodisalarning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlik, to‘la uyg‘unlik.	Гармония	Harmony
Gartman – Eduard fon Gartman nemis faylasufi. 1904-yilda tomonidan bиринчи мarta falsafanинг bir sohasini-tarmog‘ini belgilash uchun Aksiologiya atamasini ishlataliganchi.	Гартман — Эдуард фон Гартман	Gartman — Eduard fon Gartman
Gegel Georg Vilgelm Fridrix (1770-1831) – axloqni umumiylig tushunchasi Ruh falsafasidan keltirib chiqarishga urinadi. «Huquq falsafasi» asarida umumiyl ruh kishilar o‘rtasidagi munosabatlarda namoyon bo‘lishini tahlil etadi. Uning eng quyi pog‘onasi mavhum huquq bo‘lsa, eng yuqori pog‘onasi axloqdir. Axloqni shaxsnинг xususiy ishi emas, balki hamma uchun umumiyl qonun bo‘lmog‘ kerak deb hisoblaydi.	Гегель	Hegel
Gedonizm (yunon. hedone – huzur–halovat, rohatlanish) –inson xatti-harakatlarining asosiy motivi va maqsadini, shuningdek hayotining ma’nosini huzurlanish, lazzatlanish tashkil etishi haqidagi axloqiy tamoyil. Unga ko‘ra huzur–halovat keltiruvchi va azob uqubatdan qutqazuvchi kuch yaxshilik sifatida, azob–uqubat keltiruvchi kuchni esa yomonlik sifatida ta’riflanadi.	Гедонизм	Hedonism

Genezis (yunon. genesis – kelib chiqish, paydo bo‘lish) – muayyan narsa yoki hodisaning kelib chiqishi va rivojlanishi.	Генезис	Genesis
Germenevtika (yunon. hermeneutikos – tushuntirish, talqin etish) – ilgari matnlarni tushuntirish metodi, keyinchalik →tushunish» kategoriyasini ta’limotining markaziga qo‘ygan zamonaviy falsafiy yo‘nalish, shuningdek ijtimoiy fanlarda bilish metodlaridan biri.	Герменевтика	Hermeneutics
Gipoteza (yunon. hypothesis – asos, taxmin) – hali isbotlanmagan nazariy fikr, faraz; bilish faoliyatining usuli, tadqiqot jarayonida vujudga kelgan savolga haqiqatligi ehtimol qilingan javob; shakllangan muammoli bilim.	Гипотеза	Hypothesis
Globallashuv (lot.globus – shar, Yer, sayyora) – XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asrning boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv. atrof–muhitga texnogen ta’sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, axborot–mafkuraviy va diniy–ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushuncha.	Глобализация	Globalization

Globalistika – jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonларини о‘рганувчи фан.	Глобалистика	Globalistics
Gnoseologiya (yunon. gnosis – bilish va logos – so‘z, ta’limot) – bilish nazariyasi.	Гносеология	Gnoseology
Gnostisizm (yunon. gnostikos – biluvchi) – Yunon falsafasi, xristianlik, zardo‘shtiylik, iudaizm, Bobil va Misr diniy e’tiqodlarida mavjud g‘oyalar sintezi asosida milodiy I asrda Aleksandriyada shakllangan va III asrga qadar xristianlikka qarshi hukmronlik uchun kurashib kelgan so‘nggi Antik davr va O‘rta asrlar diniy-falsafiy ta’limoti.	Гностицизм	Gnosticism
Gumanizm – (lot.humanitas – insoniylik, insonparvarlik, inson haqida g‘amxo‘rlik) – insonni himoya qilishga, uning huquqlariga kafillik berishni maqsad qilib olgan ta’limot.	Гуманизм	Humanism
G‘oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, jamiyat va olamlarni maqsad sari yetaklayligan fikr.	Идея	Idea
Harakat – materiyaning mavjudlik shakli, uning umumiyl atributi. Harakat – tabiat va jamiyatdagi har qanday o‘zgarish. Harakatsiz materiya, materiyasiz harakatning bo‘lishi mumkin emas	Движение	Motion
Ibn Sino (980-1037) – sharq axloqshunosligining buyuk namoyandası. Mutafakkir axloqni amaliy falsafa doirasiga kiruvchi nazariya sifatida tushungan. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari uning «Axloq ilmiga doir risola», «Burch	Ибн Сино	Ibn Sina

<p>to‘g‘risida risola», «Nafsni pokiza tutish to‘g‘risida risola», «Adolat haqidagi kitob» asarlarida bayon etilgan. Ibn Sino asarlarida adolat, shijoat, iffat, himmat, saxiylik, qanoat, sadoqat, hayo, kamtarlik kabi axloqiy fazilatlarga; shuningdek ularning muqobili bo‘lgan: o‘g‘rilik, aldamchilik, fisqu fasod, nafrat, rashk, adovat, bo‘hton, irodasizlik, takabburlik, nodonlik kabi axloqiy illatlarga ham ta’rif bergen. Mutafakkir inson taqdirini, baxtini uning qilmishlari belgilashini ta’kidlagan.</p>		
<p>Ideal – (fran. ideal, lot. idealus qiyofa, mezon, mukammallik) – orzu-intilishning oliv maqsadi; u yoki bu narsa, hodisaning eng yaxshi, eng qadrli, eng mukammal holati. Xususan, komil inson qobiliyatlarini ifodalovchi, namuna.</p>	Идеал	Ideal
<p>Ideologiya (yunon. idia — tarz, obraz, tushuncha va ta’limot) – ijtimoiy qarashlar va g‘oyalalar tizimi. Unga siyosiy, huquqiy, axloqiy, falsafiy, estetik, diniy qarashlar kiradi. U ijtimoiy ongning bir qismi bo‘lib, ijtimoiy borliq asosida vujudga keladi va rivojlanadi.</p>	Идеология	Ideology
<p>Idrok – ayrim buyum va hodisalarni yaxlit holda aks ettiruvchi ruhiy jarayon.</p>	Восприятие	Perception
<p>Ijod – insonning yaratuvchilik faoliyati bo‘lib, uning natijasida ilgari bo‘lmagan sifat jihatdan yangi moddiy yoki ma’naviy qadriyat namunalari hosil qilinadi.</p>	Творчество	Creation

Ijtimoiy muhit – insonni o‘rab turgan va uning shakllanishi, yashashi va faoliyati yuz beradigan moddiy, ma’naviy va ijtimoiy shart–sharoit. Bu sharoit insonning shakllanishiga hal qiluvchi ta’sir o‘tkazadi.	Социальная среда	The social environment
Ijtimoiy faollik – sub’ektning jamiyat hayotida ongli holda mustaqil ishtirok etishi, uning ma’lum ijtimoiy–ma’naviy sohada vujudga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan harakati.	Социальная активность	Social Activity
Ijtimoiy fikr – yuz berayotgan vaziyatlar, voqealar va xatti–harakatlarning jamiyat a’zolari tomonidan ma’qullanishi yoki ma’qullanmasligi: baholashdir.	Социальная мысль	The social idea
Ijtimoiylashuv (lot. socialis – ijtimoiy) – individning jamiyatning muvofaqqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, ijtimoiy norma va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta’siri ostida shakllanish jarayoni, bir–birlari bilan muloqotda bo‘lishlarini ifodalaydi.	Социализация	Socialization
Izchilllik – mantiqiy tafakkurning asosiy shartlaridan biri bo‘lib, fikrlash jarayonida tartibni, ya’ni fikr oddiydan murakkabga qarab, yoki aksincha yuritilishini talab qiladi.	Последовательность	Sequence
Ilmiy inqilob – ilmiy-tadqiqot dasturlari yoki ilmiy tafakkur	Научная революция	The scientific revolution

paradigmalarining jarayoni	almashish		
Imkoniyat – voqelikning kurtak holdagi ko‘rinishi, yuzaga chiqmagan voqelikdir. Imkoniyat voqelikni keltirib chiqaruvchi, rivojlanishning ob’ektiv shart-sharoitlari va sub’ektiv omillari ham bo‘lishi mumkin. Voqelik hozir real mavjud bo‘lgan narsa va hodisadir, lekin ular dastlab imkoniyat shaklida mavjud bo‘ladilar.	Возможность	Opportunity	
Individ (lot.individium — bo‘linmas) – ayrim bo‘linmaydigan yakka, mustaqil mavjudot.	Индивид	Individual	
Individualizm (lot.individium — bo‘linmas) - inson individual hayotining alohidalilagini ta’kidlovchi falsafiy-axloqiy tamoyil. Individualizm tarixda bo‘lgani kabi hozir ham volyuntarizm, anarxizm, egoizm, avtoritarizm kabi keskin ko‘rinishlarda ham namoyon bo‘lmoqda. Umuman olganda, shaxs xulqi, faoliyati, erkinligi, haq-huquqlari ustuvorligi va avtonomiyasi muayyan me’yor doirasidagina ijobiy xarakterga ega bo‘ladi. Undan tashqarida esa individning shaxs sifatida barbod bo‘lishiga zamin yaratadi, g‘ayriinsoniy mohiyat kasb etadi.	Индивидуализм	Individualism	
Induksiya (lot. inductio – juz’iydan umumiylikka) – xulosa chiqarishning asosiy usul va tadqiqot metodlaridan biri. Induktiv xulosa chiqarish	Индукция	Induction	

bilimning juz'iy muhokamalardan (hukmlardan) umumiy mulohazalar, qoidalarga qarab harakat qilishidir. Uning to'liq va to'liqsiz induksiya turlari mavjuddir.		
Inson – har qanday falsafiy ta'limotning asosini tashkil etuvchi fundamental falsafiy kategoriya. Inson xotirasi, tafakkuri, tili va ongi bilan ajralib turuvchi mavjudotdir.	Человек	Human
Introvertiv – o'ziga xos ichki dunyosiga qarab mo'ljal oluvchi.	Интро-вертный	introvertive ness
Ijtimoiy kelishuv – jamiyatni shartnomaga asosida paydo bo'lganligi haqidagi ta'limot.	Социальное соглашение	Social agreement
Ijtimoiy ideologiya – ijtimoiy borliqni ijtimoiy guruh, sinf, millat, butun jamiyat manfaatlari nuqtai naziridan turib aks etuvchi qarashlar, g'oyalar, nazariyalar, tamoyillar tizimi.	Социальная идеология	Social ideology
Ijtimoiy psixologiya – ijtimoiy guruh, sinf, xalq, millatning bevosita hayot sharoitlari ta'siri ostida shakllanadigan qarashlar, maqsadlar, hissiyotlar, odatlar, xulq-odob qoidalari majmui.	Социальная психология	Social Psychology
Ijtimoiy ong – jamiyatning ma'naviy hayotini aks ettiruvchi, ijtimoiy guruh, sinf, xalq, millatning kundalik turmushi ta'sirida shakllanadigan g'oyalar, nazariyalar, qarashlar, histuyg'ular tizimini aks ettiruvchi falsafiy kategoriya.	Социальное сознание	Social consciousness

Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar – bu ijtimoiy va siyosiy hodisalar, voqealar, siyosiy aktlar va harakatlarning qadriyat sifatidagi ahamiyatidir.	Социально-политические ценности	Socio-political values
Iroda erkinligi – shaxsning, umuman, o‘z xatti-harakatlari, faoliyati, xulqini tanlashda ob’ektiv mavjud bo‘lgan axloqiy talablarni bilishi va ulardan oqilona foydalanishidir, bu shaxsning o‘z fikrlari, xislari, mayllari ustida nazorat qilish qobiliyatidir. Iroda erkinligi hamisha birinchi tomondan tanlash uchun real imkoniyatlar borligini tushunish, ya’ni tanlash erkinligini, ikkinchi tomondan qabul qilingan qarorga erishishga qaratilgan muayyan intilishni, irodani o‘z ichiga oladi.	Свобода воли	free will
Jamiyat – tabiatning bir qismi, borliqning alohida shaklini ifodalaydigan falsafiy tushuncha, odamlar uyushmasinig maxsus shakli, kishilar o‘rtasida amal qiladigan ko‘plab munosabatlar majmuasidir.	Общество	Society
Kant Immanuil (1724-1804) – nemis mumtoz falsafasining asoschisi. Kant «Amaliy aql tanqidi» asarida o‘zining axloqiy ta’limotini bayon etgan. Uning markaziga burch tushunchasi qo‘ylgan. U burchni ikkiga bo‘ladi: huquqiy burch va axloqiy burch. Huquqiy burchni bajarish uchun tashqaridan majbur etilsa, axloqiy burch, fazilatga, ya’ni ichki ixtiyor erkinligiga bog‘liq.	Иммануил Кант	Immanuel Kant

Axloqiylik faqat burchni anglash emas, balki burchni amaliy jihatdan bajarishni ham talab etadi. Shu bois, insonning axloqiy burchga muvofiq xattiharakatlarini Kant fazilat deb ataydi. Kant etikasining asosini «o‘zingga va boshqa insonlarga vosita sifatida emas, maqsad sifatida qaragin, chunki inson hayoti o‘zida oliy maqsadni mujassamlashtirgan», degan g‘oya tashkil etadi.		
Kategoriya (yunon. kategoria – ta’rif, belgi) – predmet va hodisalarning umumiy hamda muhim tomonlari xususiyatlari yoki munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiy tushunchalar. Falsafiy kategoriyalar boshqa fan kategoriyalaridan o‘zining nihoyatda umumiyligi bilan farqlanadi.	Категория	Category
Koevolyusiya – olamdagi barcha narsa va hodisalarning, tabiat va jamiyatning birgalikda tadrijiy rivojlanishi.	Коэволюция	Co-evolution
Konservativm – ijtimoiy va madaniy hayotda an’ana va vorislik g‘oyasiga tayanuvchi xilma-xil g‘oyaviy siyosiy va madaniy oqimlar majmui.	Консерватизм	Conservatism
Kreasionizm – butun borliqni Xudo yaratganligini e’tirof etuvchi diniy ta’limot.	Креационизм	Creationism
Kuzatish – bevosita idrok qilish orqali narsa va hodisalarni qanday bo’lsa, shundayligicha tabiiy asosda o‘rganish metodi.	Наблюдение	watching

Kuzatish o‘zining aktivligi, maqsadga qaratilganligi bilan oddiy idrokdan farq qiladi.		
Lapi Pol – fransuz sotsiologiya maktabining vakili. P.Lapi 1902 yilda “Iroda mantig‘i” asarida qadriyatlar nazariyasini bildirish uchun aksiologya (yunoncha axios — qimmatli) atamasini kiritgan.	Поль Лапи	Pol Lapi
Logos (yunon. logos – so‘z, ta’limot) – dastlab: so‘z, nutq, til; keyinchalik: fikr, aql, qonun.	Логос	Logos
Madaniyat (arab. shaharga oid, farovon maskan, taraqqiyot o‘chog‘i)–insonning tabiatga bo‘lgan o‘ziga xos faol munosabat bo‘lib, uning davomida inson o‘zini o‘rab turgan tabiiy muhitni muayyan maqsadlari asosida qayta ishlaydi, o‘zgartiradi, o‘z ehtiyojlariga moslashtiradi, moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratadi. Madaniyat nisbiy ravishda ma’naviy va moddiy madaniyatga bo‘linadi. Moddiy madaniyat tushunchasi sivilizatsiya tushunchasi bilan uzviy bog‘liq.	Культура	culture
Mazmun – narsa yoki hodisani aynan shu narsa yoki hodisa sifatida ifodalovchi xususiyatlar, muhim elementlar, jarayonlar va o‘zgarishlarning majmui. Shakl – mazmunning mavjudlik usuli, ya’ni tuzilishini ifodalovchi, narsa va hodisalarning ichki va tashqi tomonlarining birligidan iborat. Mazmun va shakl uzviy aloqador	Смысл	Meaning

bo‘lib, olamda muayyan mazmun va shaklga ega bo‘lgan narsa va hodisalar mavjud.		
Manfaat – individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatining asosiy sababi. Manfaat faoliyatni keltirib chiqarib-gina qolmay, uning yo‘nalishi, vosita va shakllari, maqsadini ham belgilab beradi. Manfaat turlari bir necha belgilar asosida tasnif qilinadi. Manfaat sub’ektiga ko‘ra, shaxs, guruh va jamiyat manfaatlariiga bo‘linadi. Manfaat qaysi ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liqligini hisobga olib moddiy va ma’naviy manfaatlarga bo‘linadi. Ma’naviy m.lar esa, o‘z navbatida, siyosiy, ruhiy, axloqiy va boshqa turlarga bo‘linadi.	Интерес	Interest
Makon – narsalar joylashadigan joy. Makon narsalarning ko‘lamini, o‘zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalaydi.	Космос	Space
Materializm (lot. materialis – ashyoviy) – olamning asosiga materiya, tabiatni qo‘yuvchi ta’limotlarni umumlashtiruvchi falsafiy yo‘nalish; dunyoning ongdan qat’i nazar mavjudligini, moddiyligini e’tirof etuvchi falsafiy nuqtai nazar.	Материализм	Materialism
Materiya (lot. materia) – inson sezgi a’zolariga ta’sir etuvchi va unda aks etuvchi, sezgi a’zolariga bog‘liq bo‘lmagan xolda mavjud ob’ektiv reallikni ifoda etuvchi falsafiy kategoriya.	Материя	Matter

Mafkura (arab.»mafcura» – nuqtai nazarlar va e’tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g‘oyalar majmu.	Идеология	Ideology
Ma’naviyat (arab.»ma’naviyat»—ma’nolar majmu) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmu. M. mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir – birlarini taqozo etadi.	Духовность	Spirituality
Ma’naviy qadriyatlar – baxtsaodat, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik,adolat va adolatsizlik, huquqiylik va nohuquqiylik, ijtimoiy ideallar, mo‘ljallar va baholar, me’yorlar va taqiqlar, harakat prinsiplari	Духовные ценности	Spiritual values
Ma’rifat – kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’limtarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmuasini ham bildiradi.	Просветление	Enlightenment
Meros – tushunchasi ajdodlardan avlodlarga qolib kelayotgan o‘tmish qoldig‘i, ilmiy, adabiy, madaniy boylikni ham bildiradi	Наследство	Heritage
Me’yor – predmet sifat va miqdoriy jihatlarining dialektik o‘zaro bog‘liqligini anglatuvchi falsafiy kategoriya; predmetning mavjudligini belgilovchi miqdoriy chegara bo‘lib, uning oralig‘ida	Норма	Norm

predmet o‘z sifatini barqaror saqlab turadi.		
Millat – yagona xudud, doimiy iqtisodiy aloqalar, til, madaniyat, xarakter (mentalitet) umumiyatigi ega bo‘lgan kishilar birligining tarixiy shakli.	Нация	Nation
Milliy qadriyat – millatning asrlar mobaynida yaratgan ma’naviy boyliklari, noyob tarixiy obidalarini avaylab-asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish, rivojlantirish, hurmat bilan munosabatda bo‘lish, hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish, ma’naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish	Национальная ценность	National value
Moddiy ishlab chiqarish – insonning o‘z hayoti uchun zarur sharoitlarni yaratish maqsadida tabiatga faol ta’sir ko‘rasatish va uni o‘zgartirish jarayoni.	Материальное производство	production of materials
Moddiy qadriyatlar – inson mehnati natijasida yaratilgan moddiy dunyo predmetlari, Shuningdek o‘tmish madaniy merosi predmetlari kiradi.	Материальные ценности	Material values
Moddiylik – g‘oyaviylik (ideallik)ning muqobili bo‘lib, borliqning ongdan tashqarida, undan mustaqil, ya’ni ob’ektiv real mavjudligini ko‘rsatuvchi xususiyat.	Материальность	Materiality
Modernizm (italyancha modernismo – “zamonaviy oqim” lotinchadan kelib chiqqan modernus – “zamonaviy, yangi”)	Модернизм	Modernizm

XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrning 50—60-yillarida Yevropa, AQSH adabiyoti va san’atida rivoj topgan oqim va yo‘nalishlarning umumiy nomi.		
Mohiyat – narsa, buyum, jarayonlarning ichki, muhim, asosiy, zaruriy, barqaror aloqalari, tomonlari munosabatlarining yig‘indisini anhlatuvchi tushuncha.	Суть	Essence
Mo‘tadillik (arab.qaddiqomati kelishganlik, rasolik; mutanosiblik; o‘rtamiyonalik) – o‘rtacha, hammaga ma’qul holatni anglatadi. Mo‘‘tadillik insonga xos bo‘lgan insof, diyonat kabi fazilat. Mo‘‘tadillik vijdonli odamning, jamoaning jamiyatga yoki boshqa kishilarga nisbatan o‘z xulq-atvori uchun ma’naviy javobgarlik hissi hamdir.	Умеренность	Moderation
Ob’ekt (lot. objectum — predmet) – ayni paytda ongimizdan tashqarida, unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud; inson (sub’ekt)ning bilish va o‘zgartiruvchilik faoliyati yo‘naltirilgan narsa va hodisalar.	Объект	An object
Oila – qon-qarindoshlik, qarindosh-chilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog‘langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir.	Семья	Family
Ontogenez (yunon. ontos – asos va genesis – kelib chiqish, paydo bo‘lish) – individning rivojlanish jarayoni.	Онтогенез	Ontogenesis

Ob'ektiv haqiqat – bilimlarimizning ongimizdan tashqarida mavjud bo'lgan mazmuni uning voqealikka mos, adekvat kelishidir. Haqiqatning mazmuni esa ongimizga bog'liq bo'limgan holda mavjuddir.	Объективная истина	Objective truth
Ommaviy madaniyat – jamiyatda muayyan davrda ustuvor bo'lgan madaniyat. Ommaviy madaniyat, madaniyat mavjudligining murakkab, hamma vaqt bir xil talqin qilinmaydigan o'ziga xos shakli.	Популярная культура	Popular culture
Ongsizlik – ongdan tashqarida mavjud ruhiy faollik sohasi. Jamoaviy va shaxsiy ongsizlik shakllari farqlanadi.	Несознательность	irresponsibility
Permanent – doimiy, uzluksizlik.	Перманент	perm
Platon (Aflatun) (mil.av.427-347) – o'zining etika tizimsini ustozi Suqrotga ergashib yaratdi. Aflatun etikasining asosiy tayanch nuqtasi – inson ongidan tashqarida, xudoning doimiy nazorati ostida bo'ladigan yagona o'zgarmas «yaxshilik» g'oyasidir.	Платон	Plato
Qadriyat – insonlar qadrlaydigan narsalar, buyumlar va jarayonlardir. Qadriyat, fikr va voqyelik o'rtasidagi munosabatdir. Qadriyatlar xulq-atvorimiz va qarorlar qabul qilishimizni shakllantiradigan yetakchi tamoyildir.	Ценность	Value
Realizm (lot.realis – ashyoviy, mavjud) – umumiylikni nafaqat inson tafakkurida, balki idel yoki real	Реализм	Realism

«ashyo» sifatida mavjudligini tan oluvchi falsafiy nuqtai nazar.		
Regress (lot. regressus — orqaga yo‘naltirilgan harakat) — ob’ektning tashkillik darajasining pasayib borishi bilan bog‘liq orqaga qaytmaydigan sifatiy o‘zgarish.	Регресс	Regression
Renessans — insoniyat ma’naviy taraqqiyotidagi uyg‘onish davri. Renessans — fransuzcha “Renaissance”, italyancha — “Rinascimento” — qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug‘ilmoq, qayta tirlish, uyg‘onish — degan ma’nolarni anglatadi.	Ренессанс	Renaissance
Relyativizm (lot. relativus — nisbiy) — bilimning nisbiyligi, shartliligi, subyektivligini e’tirof etuvchi, mutlaq axloq me’yorlari va qoidalarini inkor etuvchi falsafiy qarash	Релятивизм	Relativism
Rivojlanish – harakatning oliy shakli; moddiy va ideal ob’ektlarning bir sifatdan boshqasiga, eskisidan yangisiga qarab orqaga qaytarilmay-digan, yo‘naltirilgan, qonuniy o‘zgarishidir.	Развитие	Development
Sakrash – predmetning yangi sifatga o‘tish daqiqasi, uzlusizlikning uzilishi, tarkibi yoki strukturasininining yoki har ikkisining birgalikda o‘zgarishi.	Скачок	leap
Sabab va oqibat (lot.causa — sabab) — boshqa bir hodisani zaruran vujudga keltiruvchi sabab natijasida yuzaga kelgan boshqa hodisa oqibat deb ataladi.	Причина и следствие	Cause and investigation

San'at – insonning moddiy va ma’naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qibiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir.	Искусство	Art
Sentimentalizm – insonning iztirobli his-tuyg‘ulariga urg‘u beruvchi ta’limot.	Сентиментализм	Sentimentalism
Sinergetika (yunon. synergeticos – umumiyligi, kelishgan holda harakat qiluvchi) – dialektikaga muqobil bo‘lgan rivojlanish to‘g‘risidagi ta’limotlardan biri; teng bo‘limgan sharoitda atrof muhit bilan intensiv modda va energiya almashinuviga natijasida yuzaga keladigan ochiq tizimlar strukturasi elementlari orasidagi aloqalarni o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalish.	Синергетика	Synergetics
Sinkretizm (yunon. synkretismos –birikish, umumlashish) – 1) qismlarga ajralmaganlik, biron-bir hodisaning noraso holati bilan belgilanadigan har xil jinsli elementlarning aralashuviga; 2) turli elementlarning noorganik qo‘silib ketishi, masalan falsafada turli madaniy va diniy tizimlarning qo‘silib ketishi. Falsafada eklektikaning ko‘rinishlaridan biri	Синcretism	Syncretism
Sivilizatsiya (lot. civilis – fuqarolarga, davlatga xos) – din, madaniyat, iqtisod, siyosat va bioijtimoiy tuzilma kabi o‘zaro aloqador bo‘lgan ko‘plab elementlarni o‘z ichga olgan murakkab, yaxlit ijtimoiy tizim	Цивилизация	Civilization

Skeptisizm (yunon.skeptikos – ko‘rib chiquvchi, tadqiq etuvchi) – inson bilimining chinligiga shubha bildiruvchi va barcha haqiqatlarni nisbiy deb e’lon qiluvchi falsafiy yo‘nalish	Скептицизм	Skepticism
Struktura (lot.structure-tuzilishi, joylashish, tartib) – tizimni tashkil etgan narsa va hodisalar, jarayonlarning tartibi, tuzilishi, tarkibi, joylashishi va ifodalanishidir. Struktura elementlardan tashkil topadi	Структура	Structure
Sub’ekt (lot. subjectum) – falsafada dunyoni biluvchi shaxs ma’nosida ishlatalidi	Субъект	Subject
Submadaniyat – jamiyatshunoslik, antropolo-giya va madaniyatshunoslik atamasi bo‘lib, jamiyat madaniyatining keskin farqlanuvchi bir qismini anglatadi. Submadaniyat ichida o‘ziga xos kiyinish, jargon, hattiharakat va boshqa madaniy normalar bo‘lishi mumkin.	Субкультура	Subculture
Suqrot (Suqrot) (mil.av.470/469-399) – birinchi bo‘lib bilim bilan axloqning uzviy aloqadorligi haqida fikr yuritadi: o‘z-o‘zini bilish chin ezgulikka erishish yo‘li, ezgulik bilim yoki donolikdir, deb hisoblaydi	Сократ	Socrates
Shakl – mazmunning mavjudlik usulini, ichki tuzilishini ifodalovchi tushuncha. Shakl mazmunga mos kelishi kerak.	Форма	Form
Shaxs – insonning ruhiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi yaxlit bir butun	Личность	Personality

xarakteristikasi. Shaxs o‘z dunyoqarashi va o‘zligiga ega bo‘lib, faoliyat hamda iroda sub’ekti sifatida o‘z ijtimoiy vazifalarini anglaydi		
Shaxsiy qadriyatlar – bu shaxsnинг xatti-harakati va qaror qabul qilishiga rahbarlik qiladigan e’tiqod va tamoyillarni anglatadi. Shaxsga doir qadriyat – bu narsa, hodisa, g‘oyaning muayyan inson uchun qadriyat sifatidagi ahamiyati.	Личные ценности	Personal values
Ta’lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir	Воспитание	training
Tanlash erkinligi –o‘z nuqtai nazarini boshqalarning qarashi bilan qiyoslash, fikr yuritish, munozara qilish, o‘z qarashlarini himoya qilish. Imkoniyatlar kengligi – erkinlik darajasidir. Agar kishida tanlash imkoniyati bo‘lmasa axloqiy faoliyat ham bo‘lmaydi	Свобода выбора	freedom of choice
Tabiiy iroda –inson erkinligi taraqqiyotidagi boshlang‘ich bosqich	Естественная воля	Natural will
Tasavvuf (arab.suvf — sufiylik)–insonning ruhiy dunyosi to‘g‘risidagi, uni ruhiy-axloqiy jihatdan komillik sari yetaklovchi diniy-falsafiy ta’limot, e’tiqod, so‘fiylik oqimi	Суфизм	Sufism
Tafakkur – voqelikni abstraktlashtirishi va umumlashtirib bilishdan iborat	Мышление	Thinking

bo‘lgan insonning aqliy, nazariy faoliyati		
Tafakkur shakllari – ob’ektiv olamdagи eng umumiy jarayonlarning aks etishi asosida paydo bo‘lgan amaliy fikrlashning tuzilishi. U tushuncha, hukm, xulosa chiqarishdan iborat bo‘ladi	Формы мышления	forms of thinking
Tafakkur qonunlari – qarang: mantiq qonunlari	Законы мышления	The laws of thought
Tamaddun – jamiyatning rivojlanganlik darajasini ko‘rsatuvchi tushuncha, madaniyat, fan, texnika, din va shu kabilarni o‘z ichiga oladi.	Цивилизация	Civilization
Tezis (yunon. thesis – holat, tasdiq) – chinligi isbotlanishi lozim bo‘lgan fikr	Тезис	Thesis
Teologiya (yunon. theos – Xudo va logos –so‘z, ta’limot) – Xudo haqidagi ta’limot	Теология	Theology
Texnologiya (yunon. techne-san’at, maxorat va logos – fan) – mahsulot yaratishda qo‘llaniladigan metodlar yig‘indisi	Технология	Technology
Til – insonlar o‘rtasidagi muloqot, tafakkur va fikr bayon qilish uchun xizmat qiluvchi belgilar tizimi. Til vositasida olamni bilish amalga oshadi, shaxsning o‘zligi ob’ektivlashadi	Язык	Language
Tizim (yunon. sistema-butun, bo‘laklardan tashkil topgan, birlashish) – elementlarning bir butun yaxlit holda o‘zaro uzviy aloqadorligini ifoda etuvchi falsafiy kategoriya	Система	System

Totalitarizm (lot. totalis – yaxlit, butun, to‘liq) – jamiyat hayotining barcha sohalarini, xususan, fuqarolarning shaxsiy hayotlarini ham to‘la nazorat ostiga olgan siyosiy rejim	Тоталитаризм	Totalitarianism
Tolerantlik – o‘zgalarning dunyo-qarashi, e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, urf-odatlari, an’ana-marosimlarini hurmat qilish; ularni kamsitish, tahqirlashga yo‘l qo‘ymaslik	Толерантность	Tolerance
Tushuncha – predmetlarning umumiy va muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli	Понятие	notion
Umuminsoniy qadriyat – jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi maqsad va intilishlarini o‘zida ifoda etadi.	Универсальная ценность	Universal value
Universaliylar (lot. universalis – umumiy) – umumiy tushunchalar	Универсалии	universals
Vaqt – materiya mavjudligining asosiy ob’ektiv shakllaridan biri bo‘lib, birini o‘rnini boshqasi egallovchi holatlarni va ularning davomiyligini aks ettiruvchi munosabatlar majmuidir. Vaqt tushunchasida ob’ektlarga xos bir o‘lchamlik, bir jinslilik, orqaga qaytarilmaslik kabi xususiyatlar aks etadi. Vaqtning orqaga qaytarilmaslik xususiyati deganda, uning o‘tmishdan hozirgi zamon orqali	Время	Time

kelajakka o‘tib borishi va betakrorligi tushuniladi.		
Verifikatsiya (lot. verus – haqiqiy va facio – qilaman) – empirik yo‘l bilan tasdiqlash; ilmiy fikrlarni tajribada tasdiqlash orqali chinligini tekshirish protsedurasi. Atama neopozitivistlar tomonidan tavsiya etilgan.	Верификация	Verification
Volyuntarizm (lot. voluntas – iroda) – iroda borliqning eng oliv ko‘rinishi deb qarovchi falsafiy oqim. Iroda volyuntarizmda tarixiy jarayon-larning ob’ektiv qonuniyatlariga rioya qilmasdan, jamoatchilik bilan hisoblashmasdan o‘zboshimchalik bilan o‘z hohish–irodasini hamma narsadan ustun qo‘yadi.	Волюнтаризм	Voluntarism
Vorislik – tabiat, jamiyat va bilish taraqqiyoti jarayonida hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlik. Jamiyatda ijtimoiy va madaniy qadriyatlarning avloddan avlodga o‘tishi hamda o‘zlashishi	Преемственность	Succession
Voqelik – aktual, borliqning namoyon bo‘lishi.	Реальность	Reality
Xalq – avvalo kelib chiqishi, tili, madaniyati va yashash xududi umumiyatiga ega bo‘lgan kishilar birligining tarixiy shakli	Народ	People
Xudbinlik – o‘z manfaatini boshqa kishilar manfaatlaridan yuqori qo‘yish	Эгоизм	selfishness
Xulq, xulq-atvor- axloqshunoslik kategoriyalari-dan bo‘lib, odamlarning xatti-harakatlarida aniq-lik kasb etadi; ijobjiy xatti-harakatlarda namoyon	Манеры	Manners

bo‘lishi – xushxulqlik, salbiy xatti-harakatlarda namoyon bo‘lishi – badxulqlik deb ataladi		
Xulq – kishining ongi va irodasi bilan belgilanadigan axloqiy xatti-harakatlarning majmui, tizimsi	Поведение	Behavior
Zaruriyat – narsa va hodisalarning mohiyatini belgilovchi ichki, muhim, turg‘un bog‘lanishlarni; muayyan sharoitda ularning muqarrar ravishda kelib chiqishini aks ettiruvchi falsafiy kategoriya. Tabiat va jamiyatda ob’ektiv qonunlar shaklida namoyon bo‘ladi. Zaruriyat tasodif kategoriysi bilan uzviy bog‘liq. Narsa yoki hodisalarning mohiyatidan kelib chiqmaydigan, tashqi ta’sir va ikkinchi darajali omillar bilan bog‘liq bo‘lgan, ayni sharoitda yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin bo‘lgan hodisa tasodif deyiladi.	Необходимость	Necessity

ASOSIY VA QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar

1. Abdullaev M., Umarov E., Ochildev A. Madaniyatshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Turon-iqbol, 2006.
2. Abduraxmonov M., Raxmonov N. Madaniyatshunoslik. O'quv qo'llanma. –T.: Universitet, 2011.
3. Nazarov Q.N. Aksiologiya (Qadriyatlar falsafasi). O'quv qo'llanma. – T.:Akademiya. 2011.
4. Теория культуры. Учебное пособие. Под ред.:Иконниковой С.Н., Большакова В.П. –М./С.-Петербург:Питер. 2010.

Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar

5. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. — Toshkent: O'zbekiston, 2024.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. — Toshkent: O'zbekiston, 2023
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.
8. Mirziyoyev Sh.M Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. —Toshkent: O'zbekiston, 2022.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. — Toshkent: O'zbekiston, 2022.
10. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T: O 'zbekiston, 2017. – 592 b.
11. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida// www.press-service.uz/uz/lists/view/688/

13. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berildi (Besh tashabbus)//<http://www.uza.uz/oz/politics/prezident-yeshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-b-sh-va-19-03-2019>
14. Karimov I.A. To‘la asarlar to‘plami. 1-24 jildlar. – T.: O‘zbekiston, 1996-2016.
15. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
16. Karimov I.A. O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati. – T.: O‘zbekiston, 2014.
17. Imomnazarov M., Saidov U. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy asoslari. – T.: Akademiya, 2005.
18. Ochildev A. Madaniyat falsafasi. – T.: Muharrir nashriyoti, 2010.
19. Ma’naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010.
20. G‘oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. –T.: O‘zbekiston, 2012.
21. Farmonova M. Qadriyatlar – na’naviy kamolot asosi. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. T.: “TASVIR NASHRIYOT UYI”. 2019.
22. Hayrullayev M. O‘rta Osiyoda ilk Uyg‘onish davri madaniyati., 1994., 14-bet.

Axborot manbaalari

23. <http://mt.tsuos.uz/course/view.php?id=2488>
24. <http://mt.tsuos.uz/course/view.php?id=4539>
25. [www.library.ziyonet uz.](http://www.library.ziyonet.uz)
26. www.gov.uz
27. [www.lex.uz.](http://www.lex.uz)
28. www.nutq.intal.Uz
29. [http://znamium.com/bookread2.php?book=309109.](http://znamium.com/bookread2.php?book=309109)

Философия/ Под ред В.П. Кохановского. М., 2013.

MUNDARIJA

KIRISH	3
“MADANIYAT FALSAFASI VA AKSIOLOGIYA”	
FANINING PREDMETI, MAZMUNI, MAQSADI VA	6
VAZIFALARI	
MADANIYATNING IJTIMOIY HODISA SIFATIDA	20
MOHIYATI	
MADANIYATNING IJTIMOIY FUNKSIYALARI	35
MA’NAVIY MADANIYATNING STRUKTURAVIY	
ELEMENTLARI	51
MADANIYAT, MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT	66
VORISLIK VA DOIMIY YANGILANISH –	
MADANIYAT RIVOJLANISHINING MUHIM	
QONUNIYATLARI	81
“QADRIYAT” KATEGORIYASINING MOHIYATI VA	
NAMOYON BO’LISH SHAKLLARI.	94
QADRIYATLARNING TASNIFI	
AXLOQIY MADANIYAT QADRIYAT SIFATIDA	117
SHAXS, OILA, JAMIYAT MADANIYATI VA	
ULARNING O’ZARO ALOQADORLIGI	128
MADANIYAT VA SIVILIZATSIYA	145
MADANIYAT RIVOJLANISHINI BOSHQARISH VA	
UNING XUSUSIYATLARI. MADANIY	155
QADRIYATLARNI TARQATISH TIZIMI	
SHARQ VA G‘ARB MADANIYATINING O’ZARO	
MULOQOTI HAMDA INSONIYAT	179
MADANIYATINING KELAJAGI	
MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI	197
MADANIYAT FALSAFASI VA AKSIOLOGIYA	
FANIDAN TEST SAVOLLARI	199
GLOSSARIY	218
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	255

QAYDLAR UCHUN

TO'RAYEV LAZIZ

MADANIYAT FALSAFASI VA AKSIOLOGIYA

*60220500 - Sharq falsafasi va madaniyati bakalavriat ta'limga
yo 'nalishida
ta'limga olayotgan 2-bosqich talabalari uchun o'quv qo'llanma*

Madaniyat falsafasi va aksilogiya: O‘quv qo‘llanma. TDSHU,
2024. – 255 b.

Taqrizchilar:

falsafa fanlari nomzodi, professor. D. Po‘latova
falsafa fanlari nomzodi, professor. M. Qodirov

O‘quv qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘quv-uslubiy Kengashining 2024-yil 7-dekabrdagi 4-son majlisida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Bosishga ruxsat etildi: 12.12.2024
Bichimi 60x84 1/16 Shartli 16,25 b.t.
50 nusxada bosildi. Buyurtma №
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20.

ISBN 978-9910-8970-5-4

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024